

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

7.2022

**научно-теоретический методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2022

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, professor (Xorazm Ma'mun akademiyasi),
ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ALEUOV Userbay, pedagogika fanlari doktori, professor (Nukus davlat Pedagogika instituti),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori (UrDU),
DO'SCHONOV Tangribegan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IBRAGIMOV Zair, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, AQSH),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OLLAMOV Yarash, yuridik fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorazm viloyatidagi Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat, pedagogika fanlari doktori (UrDU),
SATIPOV G'oiptnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, (UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2022 7(181)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – UMUMXALQ MUHOKAMASIDA

**Яраш Олламов (Хоразм вилояти Минтақавий тадқиқотлар маркази директори,
юридик фанлари номзоди, доцент)**

“ЯНГИ ЎЗБЕКISTON – ИЖТИМОЙ ДАВЛАТ” ТАМОЙИЛИНИ ҲАЁТГА ТАТБИҚ ЭТИШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ЭНГ МУҲИМ ВА ЗАРУРИЙ ШАРТИ

Маълумки, кейинги беш йил давомида мамлакатимизда кенг миқёсдаги демократик ўзгаришлар амалга оширилмоқда. “Янги Ўзбекистон” деган тушунча реал воқеликка айланмоқда.

“...Янги Ўзбекистонни барпо этиш – бу шунчаки хоҳиш-истак, субъектив ҳодиса эмас, балки туб тарихий асосларга эга бўлган, мамлакатимиздаги мавжуд сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий вазиятнинг ўзи тақозо этаётган, халқимизнинг асрий интилишларига мос, унинг миллий манфаатларига тўла жавоб берадиган объектив заруратдир.

Янги Ўзбекистон – демократия, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари борасида умумэтироф этилган норма ва принципларга қатъий амал қилган ҳолда, жаҳон ҳамжамияти билан дўстона ҳамкорлик тамойиллари асосида ривожланадиган, пировард мақсади халқимиз учун эркин, обод ва фаровон ҳаёт яратиб беришдан иборат бўлган давлатдир”¹.

“Бугун халқимиз, халқаро ҳамжамият “Янги Ўзбекистонга – янгиланган Конституция” лозимлигини эътироф этмоқда. Зеро, ҳар қандай ислоҳот кучли конституциявий-ҳуқуқий асосга таянсагина, кўзланган эзгу мақсадга ва улуғвор вазифаларга, самарали натижаларга эришади. Ҳуқуқий соҳа ривожини ислоҳотлар шиддатидан ортда қолса – бу жамият ва давлат инқирозига олиб келиши мумкинлигини жаҳон давлатлари тарихидан ҳам кўришимиз мумкин. Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда инсон қадрини улуғланадиган Янги Ўзбекистон ғояси – бугун халқимизнинг қалбидан чуқур жой олиб, уни ҳаётга татбиқ этиш умуммиллий ҳаракатга айланиб улгурди. Энг муҳими, халқимизнинг дунёқараши, эртанги кунга, ислоҳотлар натижасига бўлган ишончи кучайди. Фуқароларимиз юртимиз ва атрофимиздаги воқеа-ҳодисаларнинг фаол иштирокчисига айланмоқдалар, уларнинг юртимиздаги шиддатли демократик ўзгаришларга дахлдорлик ҳисси ортиб, юксалиб бормоқда”².

Ўзбекистоннинг ижтимоий давлат йўналишидаги ҳозирги ривожланиш босқичида конституциявий ислоҳотларнинг устувор йўналишларидан бири, биринчидан, “аввал амал қилган “давлат-жамият-инсон” парадигмасини янги “инсон-жамият-давлат” парадигмасига ўзгартириб, конституциявий қонунчилик ва конституциявий амалиётда мустаҳкамлаш”, иккинчидан, “...Ўзбекистон ижтимоий давлат ва одил фуқаролик жамиятини қуриш сари илдам бораётганини ҳисобга олган ҳолда, “Янги Ўзбекистон – ижтимоий давлат тамойилини конституциявий норма сифатида таъминлаш”дан³ иборатдир.

“Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотлар натижаси ўлароқ, кейинги йилларнинг сиёсий ва ижтимоий амалиёти шуни кўрсатмоқдаки, назаримизда илгариги демократия тўғрисидаги синалган эски тасаввурларнинг номукамаллигини ва бугунги кунда уни янгидан шакллантириш зарурлигини тақозо қилмоқда. Ўзбекистон тажрибасидан кўринадики, “демократик” сиёсий институтларни барпо этиш, иқтисодий тизим параметрларини ўзгартириш жамиятнинг демократик ривожланиши учун ҳали етарли эмас. Бугунги кунда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг муваффақияти фақат иқтисодий ислоҳотлардан кам бўлмаган, ижтимоий ўзгартиришларнинг ижтимоий-маданий таркибий элементи билан боғлиқ”⁴.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 16 августда “Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда” мавзусида “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблари. “Янги Ўзбекистон”, 2021 йил 17 август.

² Саидов А.Х. “Инсон-жамият-давлат” конституциявий тамойилини амалга ошириш: миллий ва хорижий тажриба”. “Хоразм ҳақиқати”, 2022, 18 июнь, 25-сон.

³ Саидов А.Х. Конституциявий ислоҳотлар – сайловчилар хоҳиш-иродаси, замон талаби. Т., Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази. 2022, 10 – 11-бетлар.

⁴ Олламов Я. Давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари: ўзаро муносабатларда мурожаатларнинг ўрни, жамоатчилик назоратининг роли ва мурожаатлар билан ишлашни такомиллаштириш муаммолари. Т., “IJOD-PRESS”, 2021, 3 – 4-бетлар.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, ижтимоий давлат деганда, кўз олдимизга, энг аввало, жамият ҳаётининг ижтимоий, иқтисодий ва бошқа соҳаларини тартибга солиш, унда ижтимоий адолат ва ҳамжиҳатлик тамойилларини ўрнатиш, ижтимоий йўналтирилган иқтисодиётни тараққий эттиришга қаратилган фаол сиёсат юритиш орқали инсон қадрлари ва унинг ривожланиш имкониятларини кенгайтирувчи, барча фуқаролар учун юқори ҳаёт ва турмуш даражаси, ижтимоий ҳимояни таъминлайдиган давлат келади.

Шундай қилиб, ижтимоий давлат деганда, ижтимоий соҳага устуворлик қаратиладиган, фуқароларнинг тенглиги, уларнинг турли табақаларга ажралишига йўл қўймайдиган, умумфаровонлик таъминланган жамият тушунилади. Шунингдек, Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси давлатимиз тарихида сифат ва мазмун жиҳатдан янги юксалиш даврини бошлаб беради. Бу янги даврнинг энг муҳим ва устувор хусусиятлари, аввало, мамлакатимизда “Инсон қадрлари учун” деган эзгу тамойил амал қилиши, адолатли жамият ва ижтимоий давлат қуриш, ҳозирги ва келгуси авлодларнинг фаровон турмушини таъминлашга қаратилганида ўз аксини топади. Зеро, “инсон қадрлари” ва “ижтимоий давлат” тушунчалари бир-бирини тақозо этади ва ўзаро чамбарчас боғлиқдир.

Инсон қадрлари – инсоннинг энг юксак ахлоқий қадрияти. Инсон қадрларини ҳурмат қилиш – бу қонун ва ахлоқ меъёрларига, давлат, жамият ва шахс ўртасида, турли шахслар ва ижтимоий гуруҳлар ўртасида эркинлик ва ўзаро масъулият тамойилларига асосланган муносабатдир.

Инсон қадрлари ва шаънини улуғлаш доимо муаммо бўлиб келган. Шу сабабли ҳам инсон қадрлари ва шаънини улуғлаш ҳамда ҳурмат қилиш учун 1948 йил 10 декабрь куни БМТнинг Бош Ассамблеяси томонидан Инсон ҳуқуқлари Умумжаҳон Декларацияси қабул қилинган. Мазкур Декларация инсон қадрлари ва эркинликларини кафолати сифатида шахснинг фуқаролик, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқ ва эркинликлари қўламини ўзида илк бор мужассам этган халқаро-ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланади. Унинг 1-моддасида “Ҳамма одамлар ўз қадр-қиммати ҳамда ҳуқуқларида эркин ва тенг бўлиб туғиладилар. Уларга ақл ва виждон ато қилинган, бинобарин, бир-бирларига нисбатан биродарлик руҳида муносабатда бўлишлари керак”, деб белгилаб қўйилган.¹

Одатда, ижтимоий давлат аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларини қўллаб-қувватлаш, камбағаллик ва ишсизликни бартараф этиш, фуқароларнинг бандлиги ва даромадини доимий ўсиб боришини таъминлаш, ёш тадбиркорлар ва аёллар тадбиркорлигига қўмаклашиш, таълим, соғлиқни сақлаш ва маънавий-маданий соҳаларнинг барқарор ривожланишига эришиш, ижтимоий суғурта таъминоти тизимини такомиллаштириш, жамиятда кескин ижтимоий фарқланишга йўл қўймаслик ва ижтимоий тенгсизликни юмшатиш, имтиёزلарни қайта кўриб чиқиш орқали барчага муносиб турмуш шароитларини яратиш каби вазифаларни бажаради. Шу маънода ижтимоий давлат фуқаролик жамияти институтлари ва давлат ташкилотлари мақсадларининг яқинлашиши ва уйғунлашишини назарда тутди.

Айрим ривожланган мамлакатларда давлатнинг ижтимоий мақоми Конституция даражасида мустақамланган. Масалан, Германия Федератив Республикаси Конституциясида (23¹-моддасида) унинг ижтимоий давлат эканлиги белгиланган.² Шунингдек, Россия, Япония, Испания, Италия, Бельгия, Дания, Швеция, Швейцария, Франция, Португалия, Хитой, Ҳиндистон, Руминия, Грузия ва бошқа давлатларнинг Асосий қонунларида ижтимоий давлат тушунчасига оид қатор конституциявий принциплар ва нормалар белгиланган. Хусусан, ушбу давлатлар Конституциялари юқоридаги йўналишлардан ташқари, шунингдек, ижтимоий адолат принципини ҳаётга татбиқ этиш, жамоатчилик назорати ва ижтимоий шериклик институтини ўрнатиш ва ривожлантириш, “қашшоқлик чегараси” ва ҳар қандай шахсга (айниқса, ногиронлиги бор инсонлар, пенсионерлар, болалар ва бошқа ижтимоий ҳимояга муҳтожлар) давлат томонидан тақдим этилиши мажбурий бўлган ҳамда инсон ҳаёти учун зарур минимал товарлар ва хизматлар тўпламини назарда тутувчи “истеъмом савати”ни ўрнатиш, хусусий мулкнинг “ижтимоий жавобгарлиги”ни белгилаш каби масалаларнинг ҳам қонуний асосларини ривожлантиришни назарда тутди.

Масалан, Бразилия Конституциясининг 196-, 200-моддаларида инсон ҳаёти ва соғлиги муҳофазаси соҳасида “...иттифоқ, штатлар, федерал округлар ва муниципал ҳокимиятларнинг ижтимоий таъминот бюджетларидан, шунингдек, ягона тизим назорати остида фаолият кўрсатаётган бош-

¹ Инсон ҳуқуқлари Умумжаҳон Декларацияси. Инсон ҳуқуқлари. Т., “Ўзбекистон”, 1997, 184-бет.

² Жаҳон Конституциялари. I жилд, Т., “Адолат”, 2001, 385-бет.

қа жамғармалар ва хусусий муассасалардан молиялаштирувчи ягона соғлиқни сақлаш тизимининг уйғунлашуви кўзда тутилади”¹.

Руминия Конституциясининг 33-моддаси 2-қисмига мувофиқ, “давлат орасталик (гигиена) ва оммавий соғлиқни таъминлаш учун чора-тадбирларни амалга ошириши лозим (шарт)”, 3-қисмига кўра эса “қасалликка чалинганда, ногирон бўлиб қолганда, оналик ва соғлиқни тиклаш ҳолатларида тиббий ёрдам ва ижтимоий таъминот тизимини ташкил этиш, тиббий касби ва парамедицина (тиббиётга яқин турувчи) фаолиятларнинг амалга оширилиши устидан назорат, шунингдек, шахсларнинг жисмоний ва маънавий соғлиқларини ҳимоя қилиш бўйича чоралар қонунга мувофиқ белгиланади”².

Бу борада Хитой Халқ Республикаси Конституциясининг 21-моддасида “Давлат соғлиқни сақлаш, замонавий ва ва Хитой анъанавий (халқ) тиббиёти ва фармакологияси (доришунослиги)ни ривожлантиради, қишлоқ жамоа хўжаликлари, дала қорхоналари, муассасалари ва ташкилотлари томонидан турли хил соғлиқни сақлаш ташкилотларининг барпо қилишини рағбатлантиради ва қўллаб-қуватлайди, оммавий санитария (соғломлаштириш) тадбирлари ўтказилади ва халқ соғлиғи муҳофаза қилинади.

Давлат жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиради, оммавий спорт тадбирлари ўтказилади, халқ соғлиғини мустаҳкамлаб боради”³, деган конституциявий-ҳуқуқий норма диққатга сазовор. Ушбу конституциявий норма ижтимоий ҳаётни давлатлаштирилишининг яққол мисолидир.

1946 йилда қабул қилинган Франция Конституциясининг ҳозирги амалда бўлган сўз бошисида белгиланишича, миллат “барча учун, жумладан, болалар, оналар ва кекса меҳнаткашлар учун соғлиқни сақлаши, моддий таъминот, дам олиш ва бўш вақтни кафолатлайди. Ҳар қандай инсон мавжудоти, яъни ёши, жисмоний ёки ақлий ҳолати бўлмаса, иқтисодий аҳволига кўра, меҳнат қилиш қобилиятидан маҳрум бўлган ҳар бир инсон кун кечириш учун зарур бўлган маблағни жамоадан олиш ҳақига эгадир”⁴, дея давлат зиммасига ижтимоий жиҳатдан заиф гуруҳларни ҳимоя қилиш каби вазифаларни юклайди.

1990 йилда қабул қилинган Хорватия Конституциясининг 56-моддасида “ишчи ходимлар ва уларнинг оила аъзоларининг ижтимоий муҳофазада бўлиши ва ижтимоий суғурталаниши қонун ва жамоа шартномаси билан тартибга солинади, шунингдек, оналик ва болалик билан боғлиқ ҳуқуқлар ҳам қонун билан тартибга солинади. Конституциянинг 57-моддасига кўра эса “заиф, хаста ва бошқаларга ишсизлик ёки меҳнатга лаёқатсизлик оқибатида республикадаги таъминланмаган фуқароларга асосий ҳаёт эҳтиёжларини қондирилиши учун ёрдам олиш ҳуқуқи таъминланади”⁵. Бунинг билан Хорватия Конституцияси ўзида ҳам ижтимоий суғурта ҳам ижтимоий ёрдам масалаларини қамраб олади.

1992 йил 8 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг Асосий қонуни – Конституциянинг қатор моддаларида инсон қадр ва ижтимоий ҳуқуқларининг кенг рўйхати мустаҳкамланган.⁶ Конституциямизда ўз ифодасини топган ижтимоий тенглик ва ижтимоий адолат принципини амалда таъминлаш мақсадида республикада кўйидаги мисли кўрилмаган улкан ишлар олиб борилмоқда:

- ◆ биринчидан, “Обод қишлоқ” ва “Обод маҳалла” давлат дастурининг амалга оширилиши;
- ◆ иккинчидан, камбағалликни икки баробар қисқартириш мақсад қилиб олиниб, камбағалликни қисқартиришда ижтимоий ёрдамнинг янги ва самарали механизмлари жорий этилиши (“Темир дафтар”, “Аёллар дафтари” ва “Ёшлар дафтари”ни, уларга киритилган фуқаролар билан тизимли ишлаш йўлга қўйилганини алоҳида таъкидлаш лозим);

¹ Бу жойда хусусий муассасалар ягона тизим билан оммавий-ҳуқуқий шартнома ва битимлар тузган ҳолда уни тўлдириш мумкин, шартнома ва битимлар асосида ягона соғлиқни сақлаш тизими уларга мақсадли молиявий ёрдамлар кўрсата олади, Конституция соғлиқни сақлаш билан боғлиқ муайян ижтимоий муносабатларни тартибга солиш учун тамойилларни белгилайди.

² Хорижий мамлакатлар конституциявий (давлати) ҳуқуқи. Т., Тошкент Давлат юридик институти, 2006, 93–94-бетлар.

³ Ижтимоий таъминот, соғлиқни сақлаш ва экология соҳаларида давлат сиёсати. Хорижий мамлакатлар конституциявий (давлати) ҳуқуқи. Т., Тошкент Давлат юридик институти, 2006, 94-бет.

⁴ Хорижий мамлакатлар конституциявий (давлати) ҳуқуқи. Т., Тошкент Давлат юридик институти, 2006, 93–94-бетлар.

⁵ Хорижий мамлакатлар конституциявий (давлати) ҳуқуқи. Т., Тошкент Давлат юридик институти, 2006.

⁶ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т., “Адолат”, 2018, 80-бет.

◆учинчидан, ногиронлар ва аҳолининг ночор қисмига бошланғич бадаллари тўлаб берилган ҳолда уларни турар жой билан таъминланиши ва ишга жойлаштирилиши;

◆тўртинчидан, аҳолининг ночор ва камбағал қисмига турли моддий ёрдамлар кўрсатилиши ва бепул озиқ-овқат маҳсулотлари етказиб берилиши;

◆бешинчидан, ёшларга қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш учун ер ажратиб берилиши орқали уларнинг иш билан таъминланиши;

◆олтинчидан, ишсизликни бартараф этиш, аста-секин фуқаролар бандлигининг таъминланиши.

Бундай мисолларни кўплаб келтириш мумкин.

Шу маънода “Янги Ўзбекистон – ижтимоий давлат” қондасини Конституциямизда мустаҳкамлаш бўйича кўплаб таклифлар келиб тушмоқда. Масалан, Хоразм вилояти кенг жамоатчилиги томонидан Конституциямизга берилган таклифлар таҳлили бунинг яққол мисоли бўлади.

Уларда Конституциямизга, хусусан:

“Ижтимоий давлат” ғоя ва принципларини ҳаётга чуқурроқ татбиқ этиш мақсадида:

● “қашшоқлик чегараси” ва ҳар қандай шахсга (айниқса, ногиронлиги бор инсонлар, пенсионерлар, болалар ва бошқа ижтимоий ҳимояга муҳтожлар) давлат томонидан тақдим этилиши мажбурий бўлган ҳамда инсон ҳаёти учун зарур минимал товарлар ва хизматлар тўпламини назарда тутувчи “истеъмом савати”ни ўрнатиш;

● хусусий мулкнинг “ижтимоий жавобгарлиги”ни белгилаш;

● ҳар бир шахс ишсизликда, ногиронликда ижтимоий таъминот олиш ҳуқуқига эгаллигини белгилаш, “энг кам истеъмом харажатлари” тушунчасини киритиш;

● давлат ижтимоий хизматлар тизимини ривожлантириш учун зарур шароитлар яратиши, давлат пенсияларини, нафақаларини ва ижтимоий ёрдамнинг бошқа турларини белгилаш;

● давлат ва жамият етим ва ота-оналарининг васийлигидан маҳрум бўлган болаларни соғлом ва баркамол ривожланиши таъминлаши тўғрисидаги янги конституциявий қўшимчаларни киритиш каби таклифлар берилган.¹

Бизда мамлакатимизнинг ижтимоий давлат сифатидаги мақоми Асосий қонун – Конституцияда кўрсатилмаган. Аммо ижтимоий соҳада амалга оширилаётган ислохотлар, эҳтиёжманд аҳолининг ижтимоий муҳофазасига қаратилган сиёсат ижтимоий давлатнинг туб замини яратилганидан далолат беради. Масалан, давлат бюджети маблағларининг эллик фоиздан ортиғи ижтимоий соҳага йўналтирилаётганининг ўзи ҳам буни яққол исботлайди.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, Ўзбекистон Республикаси Конституциясига қуйидаги қўшимча ва ўзгартишлар киритиш мақсадга мувофиқ:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 1-моддаси қуйидаги таҳрирда 1-қисм билан тўлдирилсин: “Ўзбекистон республика бошқарув шаклидаги суверен ижтимоий-демократик ҳуқуқий давлат”.

2. 36-модда қуйидаги таҳрирда баён қилинсин: “Хусусий мулк дахлсиздир. Ҳар бир инсон яқка ҳолда, шунингдек, бошқалар билан биргаликда мулкдор бўлишга ҳақли.

Банкка қўйилган омонатлар сир тутилиши ва мерос ҳуқуқи қонун билан кафолатланади.

Ҳеч ким зўравонлик билан ўз мулкидан маҳрум этилиши мумкин эмас.

Мулкдорнинг ҳуқуқлари фақат ҳарбий ҳаракатлар даврида чекланиши мумкин”.

3. 38-модда қуйидаги таҳрирдаги 1-қисм билан тўлдирилсин: “Барча фуқаролар касб танлаш, иш жойини мустақил танлаш ҳуқуқига эгадирлар. Касб билан шуғулланиш қонун билан ёки қонун асосида тартибга солинади. Ҳеч ким одатдаги умумий ва барчага тенг бўлган оммавий мажбуриятдан ташқари бирон-бир муайян ишни бажаришга мажбур этилиши мумкин эмас. Фақат суднинг ҳукми бўйича озодликдан маҳрум этилган тақдирдагина, мажбурий меҳнатга йўл қўйилади”.

4. 39-модда қуйидаги таҳрирда баён қилинсин: “Ҳар ким қариганда, меҳнат лаёқатини йўқотганда, ишсизликда, ногиронликда, шунингдек, боқувчисидан маҳрум бўлганда ва қонунда назарда тутилган бошқа ҳолларда ижтимоий таъминот олиш ҳуқуқига эга.

Пенсиялар, нафақалар, ижтимоий ёрдам бошқа турларининг миқдори расман белгилаб қўйилган тирикчилик учун зарур энг кам миқдордан оз бўлиши мумкин эмас.

Ихтиёрий ижтимоий суғурта, ижтимоий таъминотнинг қўшимча шакллари ташкил қилиш ва хайр-саховат (эҳсон) фаолияти рағбатлантирилади”.

¹ Халқ депутатлари Хоразм вилояти Кенгаши котибияти архиви.

5. 41-модда қуйидаги тахрирдаги 4-қисм билан тўлдирилсин: Умумий ўрта таълим мажбурий. Ота-оналар ёки уларнинг ўрнини босувчилар фарзандларига умумий ўрта таълим олишни таъминлайдилар.

6. Қуйидаги тахрирда янги 43-модда киритилсин: “Қашшоқлик чегараси ва ҳар қандай шахсга (айниқса, ногиронлиги бор инсонлар, пенсионерлар, болалар ва бошқа ижтимоий ҳимояга муҳтожлар) давлат томонидан тақдим этилиши мажбурий бўлган ҳамда инсон ҳаёти учун зарур минимал товарлар ва хизматлар тўпламини назарда тутувчи “истеъмол савати” ўрнатилади. Қашшоқлик чегараси ва унинг минимал миқдори қонун билан белгилаб берилади”.

7. 45-модда қуйидаги тахрирда 1-қисм билан тўлдирилсин: “Давлат ва жамият етим ва ота-оналарининг васийлигидан маҳрум бўлган болаларни соғлом ва баркамол ривожланиши таъминлайди”.

8. Қуйидаги тахрирда янги 47-модда киритилсин: “Давлат ижтимоий хизматлар тизими-ни ривожлантириш учун зарур шароитлар яратади, давлат пенсияларини, нафақаларини ва ижтимоий ёрдамнинг бошқа турларини белгилайди”.

Ochilov Zarifjon Xusanovich (SamDU doktoranti)

**MAXSUS KO'RINISHDAGI VAZN FUNKSIYALI INTEGRAL GEOMETRIYA MASALASI
YECHIMINING YAGONALIGI**

***Annotatsiya.** Bu maqolada yo'lakda siniq chiziqlar oilasi bo'yicha maxsus ko'rinishdagi vazn funksiyali integral geometriya masalasi yechimning yagonaligi teoremasi isbotlangan va chekli silliq fazolarda turg'unlik bahosi olingan.*

***Аннотация.** В данной статье доказана теорема единственности решения задачи интегральной геометрии по семейству ломанным и получены оценки устойчивости в пространствах конечной гладкости.*

***Annotation.** In this paper, we prove a uniqueness theorem for the solution of an integral geometry problem with respect to a family of broken lines and obtain stability estimates in spaces of finite smoothness.*

***Kalit so'zlar:** integral geometriya masalasi, Furiye almashtirishi, Laplas almashtirishi, yagonalik teoremasi, vazn funksiya.*

***Ключевые слова:** задача интегральной геометрии, преобразование Фурье, преобразование Лапласа, теорема единственности, весовая функция.*

***Key words:** integral geometry problem, Fourier transform, Laplace transform, uniqueness theorem, weight function.*

Kirish. $U(x) - R^n$ da yetarlicha silliq funksiya va $\{S(y)\} - y = (y_1, y_2, \dots, y_n)$ parametrga bog'liq bo'lgan shu fazoda silliq ko'pxilliklar oilasi bo'lsin. Faraz qilaylik,

$$\int_{S(y)} g(x, y)u(x)ds = f(y) \quad (1)$$

integral ma'lum bo'lsin, bu yerda: $g(x, y)$ berilgan vazn funksiyalar, $ds - S(y)$ o'lchov elementini aniqlaydi.

Integral geometriya masalasi deb $u(x)$ funksiyani ma'lum bir integral bo'yicha, ya'ni $f(y)$ funksiya bo'yicha tiklash masalasiga aytiladi.

M.M.Lavrentyev [1] ta'rifiga ko'ra, agar masalani Volter tipidagi operator tenglamalarni o'rganishga keltirish mumkin bo'lgan integral geometriya masalasi Volter tipidagi integral geometriya masalasi deyiladi. Xuddi shuningdek, kuchli va kuchsiz nokorrekt integral geometriya masalalarining ta'rifini keltiramiz.

Agar (1)ning berilishlari va yechimi uchun shunday funksiyonal fazolar juftligi topilib, bu fazolar juftligi uchun teskarilanish operatori uzluksiz bo'lib, norma aniqlashda chekli sondagi hosila qatnashsa, u holda (1) tenglamaning yechish masalasi kuchsiz nokorrekt masala deyiladi, agar shunday fazolar juftligi mavjud bo'lmasa, kuchli nokorrekt masala deyiladi.

M.M.Lavrentyevning [1] bunday sinflashlari nafaqat integral geometriya masalasi uchun, balki, nokorrekt masalalarning umumiy nazariyasi uchun ham o'rinli.

Integral geometriya masalalarining tekislikdagi va fazodagi ba'zi bir yangi qo'yilishlarida yechimning yagonaligi va mavjudligi teoremlari isbotlanib, chekli silliq fazolarda turg'unlik baholari [3-8] ishlarda olingan.

Masalaning qo'yilishi va yechish metodikasi. $G - R$ da aniqlangan bo'lib, chegaralangan $g(\cdot)$ funksiyalar to'plami bo'lsin va quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

I. $I(\cdot, \cdot)$ funksiya $R \times C$ da quyidagi formula orqali aniqlangan

$$I(\lambda, p) = \int_0^{\infty} [e^{i\lambda h} g(h) - e^{-i\lambda h} g(-h)] e^{-ph} dh, \quad (2)$$

va uzluksiz, shunday $\exists \rho \in \mathbf{R}$ bo'lganda, $I(\lambda, p)$ barcha $\lambda \in \mathbf{R}$ lar uchun $\operatorname{Re} p > \rho$ da noldan farqli bo'lsin;

II. Shunday $n, m \in \{0, 1, 2, \dots\}$ sonlar mavjudki, barcha $\lambda \in \mathbf{R}$ lar uchun va $\operatorname{Re} p > \rho$ da

$$\left| \frac{1}{I(\lambda, p)} \right| \leq C(|p|^n + |\lambda|^m) \quad (3)$$

o'rinli bo'ladi.

Eslatma. Faraq qilaylik, \mathbf{G} bo'sh to'plam bo'lmasin. Masalan, agar $g(\cdot)$ funksiya quyidagi ko'rinishga ega bo'lsa,

$$g(h) = \begin{cases} a_1 e^{-kh}, & \text{agar } h \geq 0, \\ -a_1 e^{kh}, & \text{agar } h < 0, \end{cases}$$

u holda

$$I(\lambda, p) = 2a_1 \int_0^{\infty} e^{-(p+k)h} \cos(\lambda h) dh = 2 \frac{a_1(k+p)}{(k+p)^2 + \lambda^2} \neq 0 \quad (4)$$

Barcha $\lambda \in \mathbf{R}$ lar uchun va $\operatorname{Re} p \geq 0$.

Quyidagi belgilashlaeni kiritamiz:

$$\Omega = \{(x, y) : x \in \mathbf{R}^1, y \in (0, l), l < \infty\},$$

$$\bar{\Omega} = \{(x, y) : x \in \mathbf{R}^1, y \in [0, l]\}.$$

$\bar{\Omega}$ yo'lakda uchining koordinatalari $(x, y) \in \bar{\Omega}$ o'zaro bir qiymatli parametrlanuvchi $P(x, y)$ siniq chiziqlar oilasini qaraymiz. $P(x, y)$ siniq chiziqlar oilasi quyidagi munosabat bilan aniqlansin:

$$P(x, y) = \{(\xi, \eta) : (x - y) + (\eta - \xi) = 0, 0 \leq \eta \leq y, x - y \leq \xi \leq x\} \cup \\ \cup \{(\xi, \eta) : (x + y) - (\eta + \xi) = 0, 0 \leq \eta \leq y, x \leq \xi \leq x + y\}.$$

A masala. Agar barcha $(x, y) \in \bar{\Omega}$ lar uchun $u(x, y)$ funksiyaning $P(x, y)$ siniq chiziqlar bo'yicha

$$\int_{x-y}^x g(x-\xi)u(\xi, \xi+y-x)d\xi + \int_x^{x+y} g(x-\xi)u(\xi, x+y-\xi)d\xi = f(x, y), \quad (5)$$

integrallari ma'lim bo'lsa, ikki o'zgaruvchili $u(x, y)$ funksiyaning toping, bu yerda $g(x-\xi)$ -

\mathbf{G} to'plamdan olingan vazn funksiya.

U orqali ikkinchi tartibgacha barcha uzluksiz hususiy hosilalarga ega va R_+^2 da

$$\operatorname{supp} u \subset D = \{(x, y) : -a < x < a, 0 < y < l\}$$

Tashuvchisi bilan finit bo'lgan $u(\cdot)$ funksiyalar sinfini belgilaymiz, bu yerda $0 < a < \infty, l < \infty$.

Quyidagi funksiyalarni kiritamiz

$$I_1(\lambda, y - \eta) = \frac{1}{2\pi i} \int_{a-i\infty}^{a+i\infty} e^{p(y-\eta)} \frac{dp}{p^2 I(\lambda, p)}, \quad (6)$$

$$I_2(x - \xi, y - \eta) = \int_{-\infty}^{+\infty} e^{-i\lambda(x-\xi)} \frac{I_1(\lambda, h)}{1 + \lambda^2} d\lambda. \quad (7)$$

1-teorema. $f(x, y)$ funksiya barcha $(x, y) \in \bar{\Omega}$ lar uchun aniqlangan bo'lsin. U holda A masalaning yechimi U sinfdagi yagona va quyidagi ko'rinishga ega:

$$u(x, y) = \int_0^{\infty} \int_{-\infty}^{+\infty} I_2(x - \xi, y - \eta) \left\{ \frac{\partial^2}{\partial \eta^2} - \frac{\partial^4}{\partial \eta^2 \partial \xi^2} \right\} f(\xi, \eta) d\xi d\eta, \quad (8)$$

bundan tashqari quyidagi tengsizlik o'rinli

$$\| u(x, y) \|_{L_2(\Omega)} \leq C_0 \| f(x, y) \|_{W_2^{2,2}(\Omega)},$$

bu yerda C_0 – qandaydir o'zgarmas.

1-teoremaning isboti. (5) tenglamadagi birinchi integral uchun quyidagi almashtirishni olamiz:

$$\xi = x - y + \eta, \quad d\xi = d\eta,$$

(5) tenglamaning chap tomonidagi ikkinchi integral uchun quyidagi almashtirishni qo'llaymiz:

$$\xi = x + y - \eta, \quad d\xi = -d\eta.$$

Natijada (5) tenglamada $d\eta$ bo'yicha integrallashga o'tib, quyidagini olamiz:

$$\int_0^y g(h)u(x-h, y-h)dh - \int_0^y g(-h)u(x+h, y-h)dh = f(x, y) \quad (9)$$

bu yerda $h = y - \eta$.

(9) tenglamaning ikkala tomoniga ham x o'zgaruvchi bo'yicha Fur'ye almashtirishini qo'llab, quyidagini olamiz:

$$\hat{f}(\lambda, y) = \int_0^y [e^{i\lambda h} g(h) - e^{-i\lambda h} g(-h)] \hat{u}(\lambda, y-h) dh. \quad (10)$$

$\hat{f}(\lambda; y)$ funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

1^o. $\hat{f}(\lambda; y)$ funksiya butun R da Go'lder shartlarini qanoatlantiradi.

2^o. $\hat{f}(\lambda, y) = 0$ barcha $y \leq 0$ uchun va $\lambda \in R$.

3^o. $\hat{f}(\lambda; y)$ nolinch darajali o'sishga ega.

Shuningdek, $\hat{f}(\lambda, y)$ funksiyaning originali hisoblanadi. 1-teoremaga ko'ra, (q.[2], 494–504-betlar) (6) tenglamaning ikkala tomoniga ham, (10) tenglamaga ham, y o'zgaruvchi bo'yicha Laplas almash-tirishini qo'llash mumkin.

(10) tenglamaga y o'zgaruvchi bo'yicha Laplas almashtirishini qo'llaymiz. Fubini teoremasidan foydalanib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\tilde{\hat{f}}(\lambda, p) = \tilde{\hat{u}}(\lambda, p) \int_0^y [e^{i\lambda h} g(h) - e^{-i\lambda h} g(-h)] e^{-ph} dh$$

bu yerda $h = y - \eta$.

(3) ni hisobga olib, quyidagi tenglamani olamiz:

$$\tilde{\hat{u}}(\lambda, p) I(\lambda, p) = \tilde{\hat{f}}(\lambda, p).$$

$g \in G$ bo'lsa, u holda

$$I(\lambda, p) \neq 0, \lambda \in R, \operatorname{Re} p \geq \rho.$$

Shuning uchun yuqiridagi tenglamani ikkali tomonini $\frac{1}{I(\lambda, p)}$ ga ko'paytiramiz, ya'ni

$$\hat{u}(\lambda, p) = \frac{1}{I(\lambda, p)} \hat{f}(\lambda, p) \quad (11)$$

Quyidagi integralda

$$\int_0^{\infty} e^{-p\eta} f(\lambda, p) d\eta,$$

ikki marta bo'laklab integrallashni qo'llab hisoblaymiz, $f(\cdot)$ funksiyani $\bar{\Omega}$ da finit ekanligidan

$$\int_0^{\infty} e^{-p\eta} f(\lambda, p) d\eta = \int_0^{\infty} \frac{1}{p^2} e^{-p\eta} \frac{\partial^2 f(\xi, \eta)}{\partial \eta^2} d\eta.$$

(11) tenglama quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\hat{u}(\lambda, p) = \frac{1}{p^2 I(\lambda, p)} \iint_{-\infty}^{\infty} e^{-p\eta} \frac{\partial^2 f(\xi, \eta)}{\partial \eta^2} d\xi d\eta \quad (12)$$

(3) dan $\frac{1}{p^2 I(\lambda, p)}$ funksiyaning analitik ekanligi, $\operatorname{Re} p > 0$ yarim tekislikda $|p| \rightarrow \infty$ intilganda nolga intilishidan quyidagi integral

$$\int_{a-i\infty}^{a+i\infty} e^{py} \frac{dp}{p^2 I(\lambda, p)}$$

absolut yaqinlashadi. Natijada $(p^2 \cdot I(\lambda, p))^{-1}$ funksiya $I_1(\lambda, \cdot)$ funksiyaning Laplas almashtirishi bo'ladi

$$I_1(\lambda, y - \eta) = \frac{1}{2\pi i} \int_{a-i\infty}^{a+i\infty} e^{p(y-\eta)} \frac{dp}{p^2 I(\lambda, p)}.$$

(12) tenglamaning ikkala qismiga ham p o'zgaruvchi bo'yicha laplasning teskari almashtirishini qo'llab, quyidagiga ega bo'lamiz

$$\hat{u}(\lambda, y) = \int_0^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} I_1(\lambda, y - \eta) \frac{\partial^2 f(\xi, \eta)}{\partial \eta^2} e^{i\lambda\xi} d\xi d\eta. \quad (13)$$

(13) tenglamaning o'ng tomonini $(1 + \lambda^2)$ ga ko'paytirib va bo'lib,

$$\hat{u}(\lambda, y) = \int_0^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} (1 + \lambda^2) I_1(\lambda, y - \eta) \frac{\partial^2 f(\xi, \eta)}{(1 + \lambda^2) \partial \eta^2} e^{i\lambda\xi} d\xi d\eta. \quad (14)$$

Quyidagi integralda

$$\int_{-\infty}^{\infty} \frac{\partial^2 f(\xi, \eta)}{\partial \eta^2} e^{i\lambda\xi} d\xi,$$

Ikki marta bo‘laklab, integrallashni qo‘llab, quyidagini olamiz:

$$\int_{-\infty}^{\infty} \frac{\partial^2 f(\xi, \eta)}{\partial \eta^2} e^{i\lambda\xi} d\xi = \frac{1}{(i\lambda)^2} \int_{-\infty}^{\infty} \frac{\partial^4 f(\xi, \eta)}{\partial \eta^2 \partial \xi^2} e^{i\lambda\xi} d\xi. \quad (15)$$

(14) quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\begin{aligned} \hat{u}(\lambda, y) = & \int_0^{\infty} \frac{e^{-\lambda x} I_1(\lambda, y - \eta)}{(1 + \lambda^2)} \left\{ \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{\partial^2 f(\xi, \eta)}{\partial \eta^2} e^{i\lambda\xi} d\xi + \right. \\ & \left. + \frac{1}{i^2} \int_{-\infty}^{\infty} \frac{\partial^4 f(\xi, \eta)}{\partial \eta^2 \partial \xi^2} e^{i\lambda\xi} d\xi \right\} d\eta. \end{aligned} \quad (16)$$

(6) dan $I_1(\lambda, y - \eta)(1 + \lambda^2)^{-1}$ funksiya quyidagi funksiyaning birinchi o‘zgaruvchi bo‘yicha Fur‘ye almashtirishi ekanligi kelib chiqadi:

$$I_2(x - \xi, y - \eta) = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{e^{-i\lambda(x-\xi)} I_1(\lambda, y - \eta)}{(1 + \lambda^2)} d\lambda.$$

(16) tenglamaga λ o‘zgaruvchi bo‘yicha Furiyening teskari almashtirishi qo‘llab, Furiy almashtirishini differensiallash xossasidan foydalanib, quyidagini olamiz:

$$u(x, y) = \int_0^{+\infty} \int_{-\infty}^{+\infty} I_2(x - \xi, y - \eta) \left[\frac{\partial^2}{\partial \eta^2} - \frac{\partial^4}{\partial \eta^2 \partial \xi^2} \right] f(\xi, \eta) d\xi d\eta.$$

(8) formula \mathcal{Y} o‘zgaruvchi bo‘yich alokal xarakterga ega. $\text{supp } u \subset \Omega$ shartni hisobga olib, (5) tenglamaning yechimi uchun olingan (8) ifoda $l < \infty$ da o‘rinli bo‘ladi. U holda (3), (11) va (8) dan izlanayotgan A masalaning $C_0^4(\Omega)$ sinfdagi yechimi yagona ekanligi kelib chiqadi.

Laplas va Fur‘yening differensiallash xossasidan foydalanib, norma uchun uchburchak tengsizligi, shuningdek $u(x, y)$ funksiyaga qo‘yilgan shartlarni hisobga olib, quyidagi bahoni olamiz:

$$\|u(x, y)\|_{L_2(\Omega)} \leq C_0 \|f(x, y)\|_{W_2^{2,2}(\Omega)},$$

bu yerda C_0 – qandaydir o‘zgarmas.

1-teorema isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лаврентьев М.М., Савельев Л.Я. Теория операторов и некорректные задачи. Новосибирск, издательство Института математики. 1999, 702 с.
2. Лаврентьев А.М., Шабат Б.В. Методы теории функций комплексного переменного. М., “Наука”, 1986.
3. Бегматов А.Х., Очилов З.Х. Задачи интегральной геометрии с разрывной весовой функцией. Доклады РАН, Москва, 2009, 429, № 3, с. 295 – 297.
4. Очилов З.Х. Задачи интегральной геометрии на плоскости и отображения Даламбера для симметричных областей. Узб. мат. журн., Ташкент, 2011, №3, с. 136 – 142.

5. A.H.Begmatov, M.E.Muminov, Z.H.Ochilov. The Problem of Integral Geometry of Volterra Type with a Weight Function of a Special Type. Mathematics and Statistics, 2015, №3, c. 113 – 120.
6. Ochilov Z.X. The uniqueness of solution problems of integral geometry a family of parabolas with a weight function of a special type. Uzbek Mathematical Journal, 2020, №3, p. 107 – 116.
7. Ochilov Z.Kh. Existence of solutions to problems of integral geometry by a family of parabolas with a weight function of a special form. Bull. Inst. Math., 2021, Vol.4, №4, pp. 28 – 33.
8. Ochilov Z.X., Muminov M.E. On the problem of restoring a function in three dimensional space by the family of cones. Advances in Mathematics: Scientific Journal. 2021. 10, №11, p. 3505 – 3513.

**Nematov Baxron (t.f.n., dotsent), Bisenova Bakit Tobakabulovna (dotsent),
Kuralova Gulnaz Jaksilik qizi (o‘qituvchi, Navoiy davlat Pedagogika instituti)
BO‘LAK- BIR JINSLI SILINDRIK SISTEMALARNING ERKIN TEBRANISHLARI**

Annotatsiya. Maqolada tutash muhitlarda joylashgan jismlarning erkin tebranishlari o‘rganildi. Masalada elastiklik nazariyasining yarim teskari usullari qo‘llanilib, yechim tanlash yo‘li bilan chegaraviy shartlardan foydalangan holda tebranish chastotalari aniqlangan. Myuller usulida dispersiya tenglamasi kompleks yechimlari aniqlandi.

Аннотация. В статье исследуются свободные колебания цилиндрических тел, находящийся в плоских средах. В задаче применяется полуобратный метод теории упругости, выбираются решения удовлетворяющие дифференциальным уравнениям движения и граничные условия, составляются уравнения дисперсии. Из уравнения дисперсии определяются комплексные частоты колебании методом Мюллера.

Annotation. The article investigates the free vibrations of cylindrical bodies in flat media. In the problem, the semi-inverse method of the theory of elasticity is used, solutions are selected that satisfy the differential equations of motion and boundary conditions, dispersion equations are compiled. From the dispersion equation, the complex oscillation frequencies are determined by the Muller method.


Kalit so‘zlar: elastik muhit, bo‘lak bir jinsli silindrik sistema, dispersiya tenglamasi, kompleks chastota, Lyame koeffitsiyentlari, bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin tezliklari, Bessel funksiyalari, bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasi.

Ключевые слова: упругая среда, кусочно однородная цилиндрическая система, уравнения дисперсии, комплексная частота, коэффициенты Ляме, скорости продольных и поперечных волн, функции Весселя, однородная алгебраическая система уравнений.

Key words: Elastic medium, piecewise homogeneous cylindrical system, dispersion equations, complex frequency, Lamé coefficients, velocities of longitudinal and transverse waves, Wessel functions, homogeneous algebraic system of equations.

Maqolada cheksiz elastik muhitda joylasgan bir jinsli silindrik jismlardan iborat sistemalarning erkin tebranishlari o‘rganiladi. Maqsad bo‘lak–bir jinslilik xossasini erkin tebranishlarga va sistema tebranishlarining so‘nishiga ta‘sirini o‘rganishdan iborat. Fizik nuqtayi nazardan qaraganda ham erkin tebranishlarda elastik to‘lqinlar tarqalib tebranishlar so‘nadi.

Dastlab, silindrik g‘ovak cheksiz elastik muhit erkin (o‘z) tebranishlarini o‘rganamiz (1-chizma).



1-chizma. Hisoblash sxemasi.

Bir jinsli va izotrop muhit uchun elastiklik nazariyasinig harakat differensial tenglamalaridan foydalanamiz [1,3]:

$$(\lambda_j + 2\mu_j) \text{grad div } \vec{U}_j + \mu_j \text{rot rot } \vec{U}_j = \rho_j \frac{\partial^2 \vec{U}_j}{\partial t^2}; \quad (1)$$

$\vec{U}_j(r, \theta, z, t)$ – silindrik qatlamlar va tashqi muhitning ko‘chish vektori,

λ_j, μ_j – Lyame elastiklik koeffitsiyentlari,

ρ_j – elastik muhit zichligi,

j – silindrik qatlamlar soni.

λ_j, μ_j – Lyame elastiklik koeffitsiyentlari elastiklik moduli va Puasson koeffitsiyenti bilan quyidagicha munosabatda bo‘ladi.

$$\lambda_j = \frac{E\nu_j}{(1+\nu_j)(1-2\nu_j)}; \mu_j = \frac{E}{2(1+\nu_j)} \quad (2)$$

$\vec{U}_j(r, \theta, z, t)$ – ko‘chish vektorini Grin- Lyame bo‘yicha

φ_j, ψ_j – potensial lar orqali ifodalaymi z [2].

$$\vec{U}_j = \text{grad } \varphi_j + \text{rot } \vec{\psi}_j;$$

$$(1) \text{ga qo‘yib, } \nabla^2 \varphi_j - \frac{1}{C_{bj}^2} \frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial t^2} = 0; \quad (3)$$

$$\nabla^2 \vec{\psi}_j - \frac{1}{C_{kj}^2} \frac{\partial^2 \vec{\psi}_j}{\partial t^2} = 0;$$

Skalyar ko‘rinishda (3) quyidagicha yoziladi:

$$\nabla^2 \varphi_j - \frac{1}{C_{bj}^2} \frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial t^2} = 0;$$

$$\nabla^2 \psi_{rj} - \frac{1}{C_{kj}^2} \frac{\partial^2 \psi_{rj}}{\partial t^2} = 0;$$

$$\nabla^2 \psi_{\theta j} - \frac{1}{C_{kj}^2} \frac{\partial^2 \psi_{\theta j}}{\partial t^2} = 0; \quad (4)$$

$$\nabla^2 \psi_{zj} - \frac{1}{C_{kj}^2} \frac{\partial^2 \psi_{zj}}{\partial t^2} = 0;$$

$$C_{bj} = \sqrt{\frac{\lambda_j + 2\mu_j}{\rho_j}} - \text{bo‘ylama to‘lqin tezligi,}$$

$$C_{kj} = \sqrt{\frac{\mu_j}{\rho_j}} - \text{ko‘ndalang to‘lqin tezligi,}$$

∇ – Laplas operatori.

Tekis masalada ($z = 0$) (4) to‘lqin tenglamalari

$$\nabla^2 \varphi_j - \frac{1}{C_{bj}^2} \frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial t^2} = 0;$$

$$\nabla^2 \psi_{rj} - \frac{1}{C_{kj}^2} \frac{\partial^2 \psi_{rj}}{\partial t^2} = 0; \quad (4 \text{ a})$$

ko‘rinishda bo‘ladi.

Misol sifatida silindrik g‘ovak-teshik joylashgan cheksiz elastik muhit erkin tebranishlarini o‘rganamiz. (4 a) to‘lqin tenglamalarining yechimini quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$\begin{aligned} \varphi_1 &= \sum_{n=0}^{\infty} A_n H_n(\alpha_1 r) \cos n\theta \cdot \ell^{-i\omega t}; \\ \psi_1 &= \sum_{n=0}^{\infty} B_n H_n(\beta_1 r) \sin n\theta \cdot \ell^{-i\omega t}; \end{aligned} \quad (5)$$

A_n, B_n – o‘zgarmas sonlar, chegaraviy shartlardan aniqlanadi,

$$\alpha_1 = \omega / C_{b1}; \beta_1 = \omega / C_{k1};$$

$H_n(\alpha_1 r), \dots, H_n(\beta_1 r)$ – n - tartibli birinchi tur Xankel funksiyala ri.

Xankel, Bessel, Neyman funksiyalari o‘zaro rekkurent munosabatda bo‘ladi.

$$H_n^{(1)(2)}(z) = J_n(z) \pm Y_n(z);$$

$J_n(z)$ – Bessel funksiyasi , $Y_n(z)$ – Neyman funksiyasi .

$$J'_n(z) = \frac{n}{z} J_n(z) - J_{n+1}(z);$$

$$J'_n(z) = J_{n-1}(z) - \frac{n}{z} J_n(z);$$

$$J''_n(z) = \frac{1}{z^2} [(n^2 - n - z^2) J_n(z) + z J_{n+1}(z)]; \quad (6)$$

$$J''_n(z) = \frac{1}{z^2} [(n^2 + n - z^2) J_n(z) - z J_{n-1}(z)];$$

Radial va tangensial kuchlanishlarni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} \sigma_r &= \frac{2\mu_1}{r^2} \sum_{n=0}^{\infty} \{ [(a'_{n2} - \xi_1 \alpha_1^2 r^2) H_n(\alpha_1 r) + \alpha_1 r H_{n+1}(\alpha_1 r)] A_n + \\ &+ n[(n-1) H_n(\beta_1 r) - \beta_1 r H_{n+1}(\beta_1 r)] B_n \} \cos n\theta \cdot \ell^{-i\omega t}; \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} \sigma_{r\theta} &= \frac{2\mu_1}{r^2} \sum_{n=0}^{\infty} \{ n[(1-n) H_n(\alpha_1 r) + \alpha_1 r H_{n+1}(\alpha_1 r)] \cdot A_n - \\ &- n[(a'_{n2} - 0,5\beta_1^2 r^2) H_n(\beta_1 r) + \beta_1 r H_{n+1}(\beta_1 r)] B_n \} \cdot \sin n\theta \cdot \ell^{-i\omega t}; \end{aligned} \quad (7)$$

Silindrik g‘ovak-teshik ichki sirti $r=a$ da kuchlanishlar nolga teng bo‘ladi, chunki sirt erkin, ko‘cha oladi.

$$\sigma_{rr} = 0; \sigma_{r\theta} = 0; \quad (8)$$

(7) radial va tangensial kuchlanishlarni (8) chegaraviy shartlarga qo‘yib A_n, B_n larga nisbatan bir jinsli ikkinchi tartibli algebraik tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} &[(a'_{n2} - \xi_1 \alpha_1^2 a^2) H_n(\alpha_1 a) + \alpha_1 a H_{n+1}(\alpha_1 a)] A_n + \\ &+ n[(n-1) H_n(\beta_1 a) - \beta_1 a H_{n+1}(\beta_1 a)] B_n = 0; \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} &n[(1-n) H_n(\alpha_1 a) + \alpha_1 a H_{n+1}(\alpha_1 a)] A_n - \\ &- n[(a'_{n2} - 0,5\beta_1^2 a^2) H_n(\beta_1 a) + \beta_1 a H_{n+1}(\beta_1 a)] B_n = 0; \end{aligned} \quad (9)$$

(9) bir jinsli ikkinchi tartibli algebraik tenglamalar sistemasi noldan farqli yechimga ega bo‘lishi uchun A_n, B_n noma'lumlar oldidagi koeffitsiyentlardan tuzilgan determinant nolga teng bo‘lishi kerak. Ushbu shartdan chastota tenglamasini hosil qilamiz:

$$\begin{aligned}
& [G_{ij}] = 0; \quad i, j = 1, 2; \\
G_{11n} &= (a'_{n2} - \xi_1 \alpha_1^2 a^2) H_n(\alpha_1 a) + \alpha_1 a H_{n+1}(\alpha_1 a); \\
G_{12n} &= n[(n-1)H_n(\beta_1 a) - \beta_1 a H_{n+1}(\beta_1 a)]; \\
G_{21n} &= n[(1-n)H_n(\alpha_1 a) + \alpha_1 a H_{n+1}(\alpha_1 a)]; \\
G_{22n} &= -n[(a'_{n2} - 0,5\beta_1^2 a^2) H_n(\beta_1 a) + \beta_1 a H_{n+1}(\beta_1 a)]; \\
a'_{n2} &= n^2 - n; \quad \xi_1 = (1 - \nu_1) / (1 - 2\nu_1); \quad \Omega_1 = \omega \frac{a}{c_{b1}};
\end{aligned}
\tag{10}$$

$$l_1 = \frac{1 - 2\nu_1}{2(1 - \nu_1)}; \quad \Omega_0 = \Omega_1 l_1; \text{ belgilashl arni kiritib,}$$

(10) tenglamani quyidagicha yozamiz:


$$\begin{aligned}
& G_{11n} G_{22n} - G_{12n} G_{21n} = 0; \\
G_{11n} &= (a'_{n2} - \xi_1 \Omega_1^2) H_n(\Omega_1) + \Omega_1 H_{n+1}(\Omega_1); \\
G_{12n} &= n[(n-1)H_n(\Omega_0) - \Omega_0 H_{n+1}(\Omega_0)]; \\
G_{21n} &= n[(1-n)H_n(\Omega_1) + \Omega_1 H_{n+1}(\Omega_1)]; \\
G_{22n} &= -n[(a'_{n2} - 0,5\Omega_0^2) H_n(\Omega_0) + \Omega_0 H_{n+1}(\Omega_0)];
\end{aligned}
\tag{11}$$

(11) chastota tenglamasi n va ν_1 Puasson koeffitsiyentining turli qiymatlarida Myuller usulida yechildi, Ω_1 aniqlandi.

$n=0$ bo'lganda silindrik g'ovak-teshik simmetrik o'qli tebranishlarini olamiz. (11) chastota tenglamasi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$-\xi_1 \Omega_1 H_0(\Omega_1) + H_1(\Omega_1) = 0; \tag{12}$$

(12) chastota tenglamasining yechimi 2-chizmada grafik holda tasvirlangan:



2-chizma. Kompleks chastotaning Puasson koeffitsiyentiga bog'liq o'zgarishi.

$\nu_1 = 0,5$ da qaralayotgan muhit siqilmas bo'ladi: $\Omega_1 = 0$. $\omega = 0$

$n \geq 0$, $\nu_1 = 0,25$; yechimlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

$n = 0$	$n = 1$	$n = 2$	$n = 3$
0,4529D+00 -i0,47651D+00	0,10927D+01 -i0,76538D+00	0,10975D+01 -i0,89782D+00	0,27565D+01 -i0,99155D+00
		0,28621D+00 -i0,17852D+00	0,72325D+01 -i0,32283D+01
		0,404607D+00 -i0,178552D+00	0,12307D+00 -i0,22283D+00

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ю.А.Амензаде, Теория упругости. Москва, “Высшая школа”, 1976.
2. Б.Д.Купрадзе. Методы потенциалов в теории упругости. М., 1963.
3. Бреховских Л.И. Волны в слоистых средах. М., “Наука”, 1973.

Gulyamov Gafur (Namangan Muhandislik-qurilish instituti Fizika-matematika fanlari doktori, professor),
Majidova Gulnoza Nurmuxamedovna (Namangan Muhandislik-qurilish instituti;
m.gulnoza.1985@gmail.com), Muxitdinova Feruza Rustam qizi (Namangan muhandislik-qurilish instituti;
feruzafizik1991@gmail.com), Mamarizayeva Surayyo Odiljon qizi (Namangan davlat universiteti
magistranti; surayyomamarizayeva92@gmail.com)

P-N O‘TISHLI DIODNING VOLT-AMPER XARAKTERISTIKASIGA MAGNIT MAYDON VA YORUGLIKNING TA’SIRI

Аннотация. Bu ishda yorug‘lik va magnit maydon ta’sirida volt-ampere xarakteristikasidagi o‘zgarishlar, fotomagnitоEYuK hosil bo‘lishi, magnit maydoni ortishi bilan fototokning kamayishi o‘rganilgan. P-n o‘tishli diodning tok o‘tkazuvchi ko‘ndalang kesimini effektiv qiymatini magnit maydoni ortishi bilan kamayib borishi kuzatilgan.

Аннотация. В статье рассмотрены изменения вольт-амперных характеристик под действием света и магнитного поля, образование фотомгнитной ЭДС, уменьшение фототока при увеличении магнитного поля. Было установлено, что эффективное значение токопроводящего сечения диода с p-n переходом уменьшается с увеличением магнитного поля.


Annotation. The paper considers changes in current-voltage characteristics under the action of light and a magnetic field, the formation of a photomagnetic EMF and a decrease in photocurrent with increasing magnetic field. It was observed that the effective value of the current-carrying cross section of a diode with a p-n junction decreases with increasing magnetic field.

Kalit so‘zlar: VAX-volt-ampere xarakteristika, Xoll kuchlanishi, magnit maydoni, sirqish qarshilik, magnitоqarshilik, baza qarshilik, fotomagnitоEYuK.

Ключевые слова: VAX-вольт-амперная характеристика, напряжение Холла, магнитное поле, сопротивление скольжению, магнитосопротивление, базовое сопротивление, фотомгнитный ЭДС.

Key words: I-V characteristic, Hall voltage, magnetic field, slip resistance, magnetoresistance, base resistance, photomagnetic EMF.


1. Kirish. Agar biz p-n o‘tishga bir vaqtning o‘zida ham, magnit maydon ham yoruglik ta’sir qildirganimizda quyidagi formulaga ega bo‘lamiz:



$$j = j_s \left(e^{\frac{e\varphi_0 - U - U_1 + J((R_b - AU^n) + aR_x J\beta)}{kT_c}} - 1 \right) + \frac{U}{R_u} - J_f \quad (1)$$

Bu yerda: R_b baza qarshiligi, R -Xoll doimiysi, R_u -sirqish qarshiligi, J_f -fototok.

Ushbu ifodaga $k=1.38 \cdot 10^{-23}$, $q=1.62 \cdot 10^{-19}$, $U_1=0$, $J_s=10^{-9}$, $R_b=1000$, $R_u=50000$, $J_f=10^{-4}$, $T=300$, $T_e=300$, $R_x=1000$, $l=1$, $B=2$, $A_1=1$, $\varphi=0.6$ son qiymatlarini qo‘yib, VAXni grafigini olganimizda qo‘yidagi grafikga ega bo‘lamiz [1-3]:



1-rasm. Fototok va magnet maydoni ta'siridagi VAXni o'zgarishi tasvirlangan.


Bu grafikdan ko'rinadiki magnet va foto ta'sirida VAXda fotomagnitoyuk hosil bo'lib, magnet maydoni ortishi bilan fototokning kamayishi kuzatiladi. Magnet maydoni $0 < B < 5$ oraligida qisqa tutashuv fototoki 1 dan 0.3 gacha kamayishi kuzatiladi. Bu hodisani qo'yidagicha izohlaymiz.

P-n o'tishga va Lorens kuchiga fototok perpendikular yo'nalgan bo'lib, Lorens kuchi hisobiga fotoelektron va fotokovaklarning trayektoriyalari egiladi.


P-n tekisligi bo'ylab Xoll kuchlanishi p-n o'tish potensial to'siq balandligini o'zgartirib yuboradi. Buning natijasida p-n o'tish ko'ndalang kesimida potensial to'siq balandligi va hajmiy zaryad kengligi o'zgaruvchan bo'ladi. Dioddan o'tayotgan tok, asosan, potensial to'siqning eng kam bo'lgan sohasidan o'ta boshlaydi. Potensial to'siq katta bo'lgan sohalarda esa tok zichligining qiymati keskin kamaya boshlaydi. Buning natijasida natijaviy dioddan o'tayotgan to'la tok magnet maydonining ortishi bilan keskin kamaya boshlaydi.

Dastlab, magnet maydoni bo'lmaganda tok zichligi p-n o'tishning butun kesimi bo'ylab bir xil bo'lgan bo'lsa, magnet maydoni tok zichligining diod kesimi bo'ylab notekis taqsimlanishiga sabab bo'ladi. Dioddan oqayotgan tok p-n o'tishning chetiga qisilgandek bo'ladi.

Agarda Xoll kuchlanishi diod ko'ndalang kesimi bo'ylab potensial to'siq balandligining bir tarafdan ikkinchi tomonga oshirib borsa, potensial to'siqning ko'tarilgan sohalarda tok zichligi keskin kamayadi. Bu hodisani diodning tok o'tayotgan ko'ndalang kesimini magnet maydoni ta'sirida kamayib borayotganday tasavvur qilish mumkin. Boshqacha qilib aytgandigan bo'lsak, diodning tok o'tkazuvchi ko'ndalang kesimini effektiv qiymatini magnet maydoni ortishi bilan kamayib borayotganday tasavvur qilishimiz mumkin. Agar shu nuqta nazardan qaraydigan bo'lsak, magnet maydoni diodning tok o'tkazuvchi kesimini taxminan magnet maydoni 5Tl bo'lganda ko'ndalang kesimi taxminan 4 marta kamaygan deb qarash mumkin [4-8].




a)



b)

2-rasm.

2-rasmda: a) magnit maydondagi diodning VAXi bilan; b) dioddan o'tayotgan toklarning kuch chiziqlari orasidagi boglanishlar sxematik ravishda tasvirlangan.




3-rasm.

3-rasmda: a) magnit maydonidagi diodning yurug'lik ta'siridagi hosil bo'lgan fotoelementning VAXi; b) magnit maydonining ta'sirini sxematik ko'rinishi tasvirlangan.

1-rasmda M nuqtadan turli magnit maydondagi VAXlarni kesishishi kuzatiladi. Buning fizik sababini qo'yidagicha izohlash mumkin. Salt yurish kuchlanishida (U_{xx}) dioddan oqayotgan tok 0 ga teng bo'lganligi sababli, diod ko'ndalang kesimi bo'ylab Xoll kuchlanishi yuzaga kelmaydi. Buning natijasida potensial to'siqning balandligi turli magnit maydonlari uchun ham o'zgarmay qolaveradi. Bu esa turli magnit maydondagi VAXlarning bir nuqtada kesishishiga sabab bo'ladi. Dioddan oqa boshlaganda ko'ndalang kesim bo'ylab yuzaga keluvchi Xoll kuchlanishi magnit maydonining oshishi bilan ortib boradi. Buning natijasida dioddan o'tayotgan tok magnit maydonining qiymatiga proporsional ravishda kamayib boradi. Yuqoridagi aytilgan fikrlar rasmlarda ko'rsatilgan VAXlarning magnit maydonidagi siljishini tushuntirib beradi. Agar (1) ifodamizga turli burchak ostida ta'sir ettirib ko'radigan bo'lsak, (2) ifodaga ega bo'lamiz [9–12].

$$j = j_s \left(e^{\frac{e\varphi_0}{kT} - \frac{e(\varphi_0 - U - U_1 + J((R_b - AU^n) + aR_x J \beta \sin \alpha))}{kT_e}} - 1 \right) + \frac{U - J(R_b - AU^n)}{R_u} - J_f \quad (2)$$

tengliklarni hosil qilamiz. Demak, $\begin{pmatrix} A & B \\ 0 & C \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} A^{-1} & -A^{-1}BC^{-1} \\ 0 & C^{-1} \end{pmatrix}$. Ikkinchi qismi uchun ham shunga o'xshash yo'l tutsak bo'ladi;

b) yechilishi.

Faraz qilaylik, $\begin{pmatrix} I_n & X & Y \\ 0 & I_n & Z \\ 0 & 0 & I_n \end{pmatrix} = M$ matritsaning teskarisi $X = \begin{pmatrix} X_{11} & X_{12} & X_{13} \\ X_{21} & X_{22} & X_{23} \\ X_{31} & X_{32} & X_{33} \end{pmatrix}$ ko'rinishida bo'lsin. U holda tarifga ko'ra,

$$\begin{pmatrix} I_n & 0 & 0 \\ 0 & I_n & 0 \\ 0 & 0 & I_n \end{pmatrix} = I_{3n} = \begin{pmatrix} X_{11} & X_{12} & X_{13} \\ X_{21} & X_{22} & X_{23} \\ X_{31} & X_{32} & X_{33} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} I_n & X & Y \\ 0 & I_n & Z \\ 0 & 0 & I_n \end{pmatrix} =$$

$$= \begin{pmatrix} X_{11}I_n & X_{11}X + X_{12}I_n & X_{11}Y + X_{12}Z + X_{13}I_n \\ X_{21}I_n & X_{21}X + X_{22}I_n & X_{21}Y + X_{22}Z + X_{23}I_n \\ X_{31}I_n & X_{31}X + X_{32}I_n & X_{31}Y + X_{32}Z + X_{33}I_n \end{pmatrix}$$

$$\begin{cases} X_{11}I_n = I_n \\ X_{11}X + X_{12}I_n + X_{13}I_n = 0 \\ X_{21}I_n = 0 \\ X_{21}X + X_{22}I_n = I_n \\ X_{21}Y + X_{22}Z + X_{23}I_n = 0 \\ X_{31}I_n = 0 \\ X_{31}X + X_{32}I_n = 0 \\ X_{31}I_n + X_{32}I_n + X_{33}I_n = I_n \end{cases} \rightarrow \begin{cases} X_{11} = I_n \\ X_{12} = -X \\ X_{21} = 0 \\ Y + (-X)Z + X_{13} = 0 \\ X_{31} = 0 \\ X_{22} = I_n \\ X_{23} = -Z \\ X_{32} = 0 \\ X_{33} = I_n \end{cases}$$

$$X = \begin{pmatrix} I_n & -X & XZ - Y \\ 0 & I_n & -Z \\ 0 & 0 & I_n \end{pmatrix}; \quad MX = I_{3n}; \quad M^{-1}MX = M^{-1}$$

$$X = M^{-1} = \begin{pmatrix} I_n & X & Y \\ 0 & I_n & Z \\ 0 & 0 & I_n \end{pmatrix}$$

$$\begin{pmatrix} I_n & X & Y \\ 0 & I_n & Z \\ 0 & 0 & I_n \end{pmatrix}^{-1} = \begin{pmatrix} I_n & -X & XZ - Y \\ 0 & I_n & -Z \\ 0 & 0 & I_n \end{pmatrix}$$

7-masala.¹ (Putnam 1986). $A, B, C, D \in M_{n \times n}(C)$ bo'lsin. Agar AB^T, CD^T matritsalar simmetrik va $AD^T - BC^T = I_n$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda ushbu $A^TD - C^TB = I_n$ tenglikni ham o'rinli bo'lishini isbotlang.

Yechilishi. Masalani berilgan shartlaridan keltirib chiqarishimiz mumkin bo'lgan tengliklarni barchasini yozib olaylik.

1) AB^T va CD^T simmetrik matritsalar bo'lgani uchun $AB^T = (AB^T)^T$ va $CD^T = (CD^T)^T$ tengliklar o'rinli. Bulardan

$$AB^T = (AB^T)^T = (B^T)^T A^T = BA^T \rightarrow -AB^T + BA^T = 0$$

$$CD^T = (CD^T)^T = (D^T)^T C^T = DC^T \rightarrow CD^T - DC^T = 0$$

$$2) \quad AD^T - BC^T = I_n \rightarrow (AD^T - BC^T)^T = I_n^T = I_n$$

$$(AD^T)^T - (BC^T)^T = I_n \rightarrow DA^T - CB^T = I_n$$

3) masala shartidagi tenglik $AD^T - BC^T = I_n$.

Blok matritsalarini quyidagicha quraylik: $X, Y \in M_{2n \times 2n}$

$$X = \begin{pmatrix} X_{11} & X_{12} \\ X_{21} & X_{22} \end{pmatrix} \text{ va } Y = \begin{pmatrix} Y_{11} & Y_{12} \\ Y_{21} & Y_{22} \end{pmatrix}$$

1-lemmaga ko'ra,

¹ <https://www.maa.org/math-competitions/putnam-competition>

$$I_{2n} = \begin{pmatrix} I_n & 0 \\ 0 & I_n \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} AD^T - BC^T & BA^T - AB^T \\ CD^T - DC^T & DA^T - CB^T \end{pmatrix}$$

$$\begin{pmatrix} X_{11} & X_{12} \\ X_{21} & X_{22} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} Y_{11} & Y_{12} \\ Y_{21} & Y_{22} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} AD^T - BC^T & BA^T - AB^T \\ CD^T - DC^T & DA^T - CB^T \end{pmatrix}$$

bundan

$$\begin{cases} X_{11}Y_{11} + X_{12}Y_{21} = AD^T - BC^T \\ X_{11}Y_{12} + X_{12}Y_{22} = BA^T - AB^T \\ X_{21}Y_{11} + X_{22}Y_{21} = CD^T - DC^T \\ X_{21}Y_{12} + X_{22}Y_{22} = DA^T - CB^T \end{cases}$$

Bu tenglamalar sistemasini yechsak,

$$X = \begin{pmatrix} A & B \\ C & D \end{pmatrix} \text{ va } Y = \begin{pmatrix} D^T & -B^T \\ -C^T & A^T \end{pmatrix}$$

$$I_n = \begin{pmatrix} A & B \\ C & D \end{pmatrix} \begin{pmatrix} D^T & -B^T \\ -C^T & A^T \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} D^T & -B^T \\ -C^T & A^T \end{pmatrix} \begin{pmatrix} A & B \\ C & D \end{pmatrix} \rightarrow$$

$\rightarrow A^T D - C^T B = I_n$ ekani kelib chiqadi, isbot tugadi.

Mustaqil yechish uchub masalalar

1-masala. A va C matritsalar o'lchamlari mos ravishda $m \times m$ va $n \times n$ o'lchamli. Bularga mos ravishda B, D ning o'lchami $m \times m$, E ning o'lchami $n \times n$.

a) quyidagi tenglikni isbotlang.

$$\begin{vmatrix} A & B \\ 0 & C \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} A & 0 \\ D & C \end{vmatrix} = |A||C|$$

b) hisoblang.

$$\begin{vmatrix} I_m & 0 \\ 0 & I_n \end{vmatrix}, \begin{vmatrix} 0 & I_m \\ I_n & 0 \end{vmatrix}, \begin{vmatrix} I_m & B \\ 0 & I_n \end{vmatrix}$$

c) formula toping

$$\begin{vmatrix} 0 & A \\ C & E \end{vmatrix}$$

2-masala. A va B haqiqiy matritsalar o'lchami $n \times n$ bo'lsa,

$$\begin{vmatrix} A & B \\ -B & A \end{vmatrix} \geq 0$$

ekanligini ko'rsating.

3-masala. A, B, C, D $\in M_{n \times n}(C)$ bo'lsin. Agar AB va CD matritsalar Ermit matritsasi va $AD - B^*C^* = I_n$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda ushbu $DA - BC = I_n$ tenglikni ham o'rinli bo'lishini isbotlang.

Izoh. Agar $X \in M_{n \times n}(C)$ Ermit matritsasi bo'lsa, u holda $X^* = (\bar{X})^T = X$ tenglik o'rinli bo'ladi.

1-ko'rsatma. Yuqoridagi 7-masala yechilishi kabi hosil qilishimiz mumkin bo'lgan barcha tengliklarni yozib chiqing.

2-ko'rsatma. $X = \begin{pmatrix} A & B^* \\ C & D^* \end{pmatrix}$ va $Y = \begin{pmatrix} D & -B \\ -C^* & A^* \end{pmatrix}$ desak $XY = I_{2n}$ bo'ladi, endi Lemma 1 ni qo'llang.

4-masala. $A \in M_{n \times p}(C)$, $B \in M_{m \times q}(C)$, $p + q = m$, matritsalar uchun ushbu $A^*B = 0$ tenglik o'rinli bo'lsin. Agar $M = (A|B)$ matritsa teskarilanuvchi bo'lsa, quyidagi

$$M^{-1} = \begin{pmatrix} (A^*A)^{-1} & A^* \\ (B^*B)^{-1} & B^* \end{pmatrix}$$

tenglikni isbotlang.

Ko'rsatma. Blok matritsalarini ko'paytirish va teskari matritsa ta'rifidan foydalaning.

5-masala (IMC 1997).¹ $X \in M_{2n \times 2n}(C)$ teskarilanuvchi (blok) matritsa va uning teskarisi mos ravishda $X = \begin{pmatrix} A & B \\ C & D \end{pmatrix}$ va $X^{-1} = \begin{pmatrix} E & F \\ G & H \end{pmatrix}$ kabi ko'rinishda bo'lsin. Isbotlang $\det(X) \cdot \det(H) = \det(A)$

¹ <https://www.imc-math.org.uk/>

Kulmurotov Nurullo Raximovich (Mashinasozlik texnologiyalari kafedrası dotsenti, nurillo.kulmurotov.64@mail.ru), Ishmamatov Matlab Raxmatovich (Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrası mudiri, t.f.n., dotsent; matlab_62@mail.ru), Ishmamatov Matlab Raxmatovich (Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrası assistenti; nasriddinaxmedov@gmail.com)
CHUQUR KO'MILMAGAN TUNNELGA SEYSMIK TO'LQIN TA'SIRI

Annotatsiya. Chuqur ko'milmagan tunnelga seysmik to'lqin ta'sirini o'rganish uchun yangi yondashuv taklif etiladi. Yer osti inshootlarining kuchlanganlik holatini baholash uchun seysmik ta'sirni hosil qiluvchi kuchlanishlar cheksizlikda yuklangan kvazistatik masala yechimiga olib kelinadi.

Аннотация. Предлагается новый подход к изучению воздействия сейсмических волн на глубоко залегающий тоннель. Для оценки напряженного состояния подземных сооружений от воздействующих сейсмических волн, доводятся до решения нагруженной на бесконечности квазистатической задачи.

Annotation. A new approach is proposed to study the effects of seismic waves on a deep buried tunnel. To assess the stress state of underground structures, the stresses generating the seismic effect are brought to the solution of the quasistatic problem loaded at infinity.

Kalit so'zlar: kuchlanish, deformatsiya, seysmik to'lqin, tunnel, grunt, kvazistatika.

Ключевые слова: напряжение, деформация, сейсмическая волна, тоннель, грунт, квазистатика.

Key words: tension, deformation, seismic wave, tunnel, ground, quasistatics.

Kirish. Zilzila paytida yer osti inshootlari tuzilmalarida hosil bo'ladigan buzilishlar yoki yoriqlarga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yupqa qoplamali tunnellar seysmik ta'sirlarga eng xavfli bo'lgani yer osti inshootlari hisoblanadi.¹ Yer osti inshootlarini seysmik hisoblash ishlari ishga keltirilgan. Elastik nazariyasining tekis kvazistatik masalalarining analitik yechimlari olingan. Seysmik ta'sirlarini hosil qiluvchi kuchlanish halqa uchun siqilish yoki sof siljish uchun olindi. Siquvchi (P , ζP) va tangensial (S) kuchlanishlar qiymatlari birinchi marta qo'yida tavsia etilgan formulalar bo'yicha aniqlanadi.²

$$P = \frac{1}{2\pi} k_c \gamma c_1 T_0; \quad S = \frac{1}{2\pi} k_c \gamma c_2 T_0; \quad \zeta = \frac{\nu}{1-\nu}, \quad (1)$$

bu yerda: k_c – zilzila balliga mos keladigan empirik koeffitsiyent; γ – jismning solishtirma og'irligi; c_1 , c_2 – bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlarning tarqalish tezligi; T_0 – jism zarrasining tebranish davridagi qiymati; ν – Puasson koeffitsiyenti. Zilzila energiyasining katta qismi seysmik to'lqinlar tomonidan hosil bo'lishi sababli, ularning uzunligi yer osti inshootlarining ko'ndalang o'lchamlaridan sezilarli darajada katta bo'ladi. Dinamik va kvazistatik yondashuvlar yordamida olingan natijalar o'rtasidagi farq bir necha foizdan oshmaydi.³ Yer osti inshootlarini seysmik hisoblash uchun elastiklik nazariyasining kvazistatik masalalariga yechimlarni aniqlashda foydalanish mumkin. Ishda taklif etilgan usul zilzilalarning seysmik ta'siri kvazistatik yondashuv asosida bajarishga to'g'ri keladi. Keyinchalik, sayoz ko'milgan yer osti inshootlari uchun olingan natijalar ishda umumlashtirildi.⁴ Hisoblashlar formulalar (1) bilan aniqlandi. Yer osti inshootining seysmik kuchlanganlik holatini zilziladan oldin oldindan bilib bo'lmaydi chunki u seysmik to'lqinlarning tarqalish yo'nalishiga bog'liq bo'ladi, zilzila paytida tunnel qoplamasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan siquvchi va cho'zuvchi kuchlanishlarining maksimal qiymatlarining epyurasi analitik ravishda qurilgan.⁵ Ishda tunnel qoplamalarini hisoblash usulari shuni ko'rsatadiki, tunnel qoplamalarining kuchlanganlik holati ko'milish chuqurligiga juda oz bog'liq ekanligi ko'rsatilgan. Lekin bu tajriba natijalariga unchalik mos kelmaydi. Yuqoridagi ishda foydalanilgan hisob sxemasining aniqligini ta'min-

¹Чичелов В.А. Расчеты напряженно-деформируемого состояния трубопроводов, эксплуатируемых в сложных условиях, в нелинейной постановке. М., ИПС Газпром, 2006, с. 80.

² Алмуратов С.Н. Радиальные колебания вязкоупругой сферической оболочки. Универсум: технические науки. Электрон. научн. журнал, 2022, 3(96), УРЛ: <http://univerzum.com/ru/tech/arhive/item/13224> (дата обращения: 15.04.2022).


³Яваров А.В., Лалин В.В. К вопросу построения конечно-элементной оболочечной модели подземной прокладки магистрального трубопровода. Тез. докл. международной конференции «Проблемы прочности материалов и сооружений на транспорте». СПб., изд-во ПГУПС, 2011, с. 106.

⁴Сафаров И.И., Алмуратов Ш.Н., Тешаев М.Х., Хомидов Ф.Ф., Райимов Д.Г. О динамическом напряженно-деформированном состоянии изотропных прямоугольных пластин на упругом основании при вибрационных нагрузках. Индийский инженерный журнал. 17(47), 2020, pp. 127 – 133.

⁵ Shu manba.

lash uchun yarim tekislik chegarasini kuchlanishlar bilan sun'iy ravishda yuklaydi, bu esa olingan natijalarning sezilarli darajada xato ko'rsatishga olib kelishi mumkin. Bu mualliflar yupqa qatlamli seysmik ta'sirni (1)ga o'xshash formulalar yordamida analitik hisoblash, katta kamchiliklarga olib kelar ekan.

Masalaning qo'yilishi va yechish usullari. Ushbu tadqiqot ishida zilzilalarning seysmik ta'siri uchun yupqa qoplamali tunnellarni hisoblashda biroz boshqacha yondashuv taklif etiladi. Ko'p qatlamli halqa bilan mustahkamlangan bo'shliq bilan yumshatilgan yarim tekislikka qo'yiladigan kuchlanishlar yarim tekislik chegarasida tekis garmonik to'lqinning dinamik masalasini ma'lum yechimini aniqlab bergan.



1-rasm. To'lqinlarning yarim tekislik chegarasida tarqalishi.

Cho'zuvchi-siquvchi to'lqin (R -to'lqin) yoki siljuvchi to'lqin (SV -to'lqin), elastik yarim tekislik chegarasidan tarqalishi, odatda, ikki turdagi to'lqinlarning hosil bo'lishiga olib keladi. Masalani yechish uchun kompleksli murakkab to'lqin funksiyalari kiritiladi.¹

$$\begin{aligned} \varphi_1 &= A_1 \exp \left[i \frac{\omega}{c_1} (x \sin \alpha - y \cos \alpha - c_2 t) \right]; \quad \psi_1 = A_2 \exp \left[i \frac{\omega}{c_2} (x \sin \beta - y \cos \beta - c_2 t) \right]; \\ \varphi_2 &= A_3 \exp \left[i \frac{\omega}{c_1} (x \sin \alpha + y \cos \alpha + c_2 t) \right]; \quad \psi_2 = A_4 \exp \left[i \frac{\omega}{c_2} (x \sin \beta + y \cos \beta + c_2 t) \right]; \end{aligned}$$

Yuqorida berilgan potentsialar ifodasidan normal va tangensial kuchlanishlarni topish uchun foydalaniladi. Bunda yuqorida keltirilgan yechimlardan foydalanish mumkin.

$$\left\{ \begin{aligned} \sigma_x &= \frac{\lambda}{c_1^2} \varphi + 2\mu \left(\frac{\partial^2 \varphi}{\partial x^2} - \frac{\partial^2 \psi}{\partial x \partial y} \right), \\ \sigma_y &= \frac{\lambda}{c_1^2} \varphi + 2\mu \left(\frac{\partial^2 \varphi}{\partial x^2} - \frac{\partial^2 \psi}{\partial x \partial y} \right), \\ \tau_{xy} &= \mu \left[\frac{\partial \psi}{\partial x} + \left(\frac{\partial^2 \varphi}{\partial x \partial y} - \frac{\partial^2 \psi}{\partial y^2} \right) \right] \end{aligned} \right. \quad (2)$$

Izlanayotgan munosabatlar qo'yidagi ko'rinishlar ega:

–bo'ylama to'lqin tushganda,

$$\frac{A_2}{A_1} = \frac{\sin 2\alpha \sin 2\beta - k^2 \cos^2 2\beta}{\sin 2\alpha \sin 2\beta + k^2 \cos^2 2\beta}; \quad \frac{A_4}{A_1} = \frac{2 \sin 2\alpha \cos 2\beta}{\sin 2\alpha \sin 2\beta + k^2 \cos^2 2\beta}$$

–ko'ndalang to'lqin tushganda,

$$\frac{A_2}{A_3} = \frac{k^2 \sin 4\beta}{\sin 2\alpha \sin 2\beta + k^2 \cos^2 2\beta}; \quad \frac{A_4}{A_3} = \frac{\sin 2\alpha \sin 2\beta - k^2 \cos^2 2\beta}{\sin 2\alpha \sin 2\beta + k^2 \cos^2 2\beta}$$


bu yerda $k = c_1/c_2$.

Ko'ndalang to'lqinning tushish burchaklari ma'lum kritik qiymatdan oshganda, to'lqin tarqalishi natijasida ko'ndalang va sirt to'lqinlar hosil bo'ladi. U holda (3) formulalar bilan aniqlangan qaytayotgan to'lqinlarning amplitudalari murakkab miqdorlar bo'lib, muhitning ma'lum vaqtdagi nuqtalaridagi kuchlanishlar (2) ifodalarining haqiqiy qismlari sifatida aniqlanadi. Yarim tekislik chegarasidan qaytayotgan to'lqinlar masalalarini aniqlashda olingan maksimal kuchlanish qiymatlari seysmik ta'sirlar uchun kichik qatlamli yotqizilgan yer osti inshootlarini hisoblashda dastlabki ma'lumotlar sifatida qabul qilinishi mumkin. Tarqalayotgan va qaytayotgan to'lqinlar yarim tekislik chegarasi yaqinida hosil bo'ladigan normal va tangensial kuchlanishlar qiymatlari nolga yaqin bo'lishi aniqlangan. Shu munosabat bilan, omillarni aniqlash amaliy qiziqish uyg'otadi, bo'shliq chegarasi yaqinida gorizontall kuchlanishlarni oshishiga olib kela-

¹ Jaky J. The coefficient of earth pressure at rest. Journal of the Society of Hungarian Architects and engineers. 1944, Vol. 1, pp. 355 – 358.

di. 2-rasmda yarim tekislik chegarasidagi gorizontalkuchlanishlar amplitudalarining bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlar tushish burchagiga bog'liqligi ko'rsatilgan. Raqamlar bilan Puasson koeffitsiyenti nisbatining quyidagi qiymatlariga mos keluvchi egri chiziqlar ko'rsatilgan: 1- $\nu=0.2$; 2- $\nu=0.3$; 3- $\nu=0.4$. Punktir chiziq bilan tushayotgan to'lqining gorizontalkuchlanishlarga mos chiziqlar berilgan. 2b-rasmdan ko'rib turibdiki, ko'rsatilgan bog'lanishlardan gorizontalkuchlanishlarning maksimal amplitudasi $bcr=arcsin(1/k)$ sifatida belgilangan. Bu esa ko'ndalang to'lqinning kritik tushish burchagiga mos keladi.

Ko'ndalang to'lqin kritik burchak ostida tushganda yassi tekislik chegarasi yaqinida paydo bo'ladigan kuchlanishlar bo'ylama to'lqin tushganda paydo bo'ladigan kuchlanishlardan sezilarli darajada oshadi.



2-rasm. Kuchlanishlar amplitudasini tushish burchagiga bog'liqligi: bo'ylama (a) va ko'ndalang (b) to'lqin.

Shuning uchun yupqa tunnel uchun ko'ndalang to'lqinning kritik tushish burchagiga mos keladigan yo'nalishda bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlarning bir vaqtning o'zida kelishi eng noqulay vaziyatlarni keltirib chiqaradi. To'lqinlarning yassi tekislik chegarasidan qaytishidan kelib chiqadigan kuchlanishlarning amplitudalari unga masofa ortib borishi bilan o'zgaradi, gorizontalkuchlanishlarning maksimal qiymati esa nolga teng vertikal va urinma kuchlanishiga to'g'ri keladi. Amalga oshirilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, haqiqiy seysmik to'lqin uzunliklarida chuqurlik bilan kuchlanish amplitudalarining o'zgarishi ancha sekin sodir bo'ladi va eng noqulay holatda, yupqa qatlamli tunnelga seysmik ta'sir massivdagi siquvchi gorizontalkuchlanishlarning paydo bo'lishiga qadar kamayadi.

Xulosa. Ko'ndalang to'lqinlar kritik burchak ostida tushganda yassi tekislik chegarasida paydo bo'ladigan kuchlanishlar halqa uchun siqilish yoki sof siljishda bo'ladi. Cho'zuvchi-siquvchi to'lqin (R-to'lqin) yoki siljuvchi to'lqin (SV-to'lqin), elastik yarim tekislik chegarasidan tarqalishi, odatda, ikki turdagi to'lqinlarning hosil bo'lishiga olib kelganligi sababli, masalani yechish uchun kompleksli murakkab to'lqin funksiyalari kiritilgan. Shuning uchun yupqa tunnel qoplamasining kuchlanish holatini baholash uchun elastiklik nazariyasining tekis kvazstatik masalasining yechimini olish kerak bo'ladi.

Rasulov To'liqin Husenovich (Buxoro davlat universiteti Matematik analiz kafedrası professori,
f.-m.f.d., DSc; rth@mail.ru),

Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich (Buxoro davlat universiteti Matematik analiz kafedrası mudiri,
f.-m.f.d., PhD; elyor.dilmurodov@mail.ru)

PANJARADAGI KO'PI BILAN UCHTA FOTONLI SPIN-BOZON MODELINING SPEKTRI HAQIDA

Annotatsiya. Maqolada kvant mexanikasida muhim hisoblangan ko'pi bilan uchta fotonli spin-bozon modelining panjaradagi analogi o'rganilgan. Uning spektri, muhim, nuqtali va diskret spektrlari uchun munosabatlar keltirilgan. Tadqiq qilinayotgan modelga mos keluvchi va bozonli Fok fazoning qir-qilgan to'rt zarrachali qism fazosida ta'sir qiluvchi 4-tartibli umumiy operatorli matritsa qurilgan.

Аннотация. В статье изучен решетчатый аналог модели спин-бозон с не более чем тремя фотонами, являющиеся важным в квантовой механике. Приведены соотношения для его спектра, существенного, точечного и дискретного спектра. Построена соответствующая общая операторная матрица порядка 4 действующий в четырехчастичным обрезанным подпространстве бозонного фоковского пространства, который связан с исследуемой моделью.

Annotation. In this paper, a lattice spin-boson model with at most three photons, which is an important in quantum mechanics, is studied. The relations for its spectrum, essential, point and discrete spectra are given. The corresponding general operator matrix of order 4 acting in the four particle subspace of a bosonic Fock space, related with the investigated model, is constructed.

Kalit so'zlar: spin-bozon modeli, foton, blok operatorli matritsa, bozonli Fok fazo, yo'qotish va paydo qilish operatorlari, muhim, diskret va nuqtali spektrlar.

Ключевые слова: модель спин-бозон, блочно-операторная матрица, бозонное пространство фока, операторы уничтожения и рождения, существенный, дискретный и точечный спектры.

Key words: spin-boson model, block operator matrix, bosonic Fock space, creation and annihilation operators, essential, discrete and point spectra.

1. Standart spin-bozon modeli. Operatorli matritsa – bu elementlari Gilbert yoki Banax fazolarida ta'sir qiluvchi chiziqli operatorlardan iborat bo'lgan matritsa.¹ Ma'lumki, ikki va undan ortiq Gilbert fazoning to'g'ri yig'indisida ta'sir qiluvchi har qanday chiziqli chegaralangan operator hamisha blok operatorli matritsa ko'rinishida tasvirlanadi. Blok operatorli matritsalarining muhim sinflaridan biri – bu soni saqlanmaydigan zarrachalar sistemasiga mos Gamiltonianlar. Zarrachalar soni “spin-bozon” modeli (cheksiz o'lchamli blok operatorli matritsa)dagi kabi cheksiz yoki qir-qilgan “spin-bozon” modeli (chekli o'lchamli blok operatorli matritsa)dagi kabi chekli bo'lishi mumkin. Odatda, yuqorida qayd etib o'tilgan sistemalar qattiq jismlar fizikasi,² kvant maydonlar nazariyasi,³ statistik fizikaning ko'plab masalalarida uchraydi.⁴

Spin-bozon modeli (shartli ravishda) quyidagi ko'rinishda beriladi:

$$A := \varepsilon \sigma_z + \int_{R^d} w(k) a^*(k) a(k) dk + \alpha \sigma_x \int_{R^d} v(k) (a^*(k) + a(k)) dk \quad (1)$$

hamda

$$L := C^2 \otimes F_b(L_2(R^d)), \quad (2)$$

Gilbert fazosida ta'sir qiladi. L Gilbert fazosi

$$F = \{f_0^{(s)}, f_1^{(s)}(k_1), f_2^{(s)}(k_1, k_2), \dots, f_n^{(s)}(k_1, \dots, k_n), \dots; s = \pm\}$$

ko'rinishidagi elementlardan tashkil topgan bo'lib, uning komponentalari $(k_1, \dots, k_n) \in R^d$ o'zgaruvchilari soni o'sib boruvchi va $s = \pm$ diskret o'zgaruvchilardan bog'liq hamda k_i o'zgaruvchilarga nis-

¹ C.Tretter. Spectral Theory of Block Operator Matrices and Applications (Imperial College Press, 2008).

² A.I.Mogilner. Hamiltonians in solid state physics as multiparticle discrete Schroedinger operators: Problems and results. in Advances in Soviet Mathematics (Amer. Math. Soc., Providence, RI, 1991), Vol. 5, pp. 139 – 194.

³ K.O.Friedrichs. Perturbation of spectra in Hilbert space. American Mathematical Society, Providence, R.I., 1965.

⁴ V.A.Malishev, R.A.Minlos. Linear infinite-particle operators. Translations of Mathematical Monographs. AMS, Providence, RI, 1995, Vol. 143; R.A.Minlos, H.Spohn. The three-body problem in radioactive decay: The case of one atom and at most two photons. American Mathematical Society Translations-Series 2, Amer. Math. Soc., Providence, RI, 1996, pp. 159 – 193.

batan simmetrik funksiyalardan iborat. Bu yerda $L_2(R^d)$ orqali R^d da aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (umuman olganda, kompleks qiymatli) funksiyalarning Gilbert fazosi, $F_b(L_2(R^d))$ orqali $L_2(R^d)$ fazo ustiga qurilgan standart bozonli Fok fazosi, ya'ni

$$F_b(L_2(R^d)) := C \oplus L_2(R^d) \oplus L_2^{\text{sym}}((R^d)^2) \oplus \dots,$$

$L_2^{\text{sym}}((R^d)^n)$ sifatida $(R^d)^n$, $n \geq 2$ da aniqlangan n o'zgaruvchili kvadrati bilan integrallanuvchi sim-metrik funksiyalarning Gilbert fazosi belgilangan.

(1) formulada $a^*(k)$ va $a(k)$ operatorlar paydo qilish va yo'qotish operatorlari, $\varepsilon > 0$, va

$$\sigma_z := \begin{pmatrix} 1 & 0 \\ 0 & -1 \end{pmatrix}, \quad \sigma_x := \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix} -$$

Pauli matritsalarini, $w(k)$ (k momentli foton energiyasi) hamda $v(\cdot) - R^d$ da aniqlangan haqiqiy qiymatli funksiyalar va $\alpha > 0$ – "ta'sirlashish parametri".

Odatdagi spin-bozon modelining spektral xossalarini o'rganish masalasi yetarlicha qiyin hisoblanadi. Shu sababli tabiiy ravishda uning qirqilgan spin-bozon modellari o'rganiladi. Qirqilgan spin-bozon model odatdagi spin-bozon modelidan fotonlar soni chegaralangan va biror m natural sonidan oshmasligi bilan farqlanadi. Shunday qilib, ko'pi bilan m ta fotonli spin-bozon modeli $L_m := C^2 \otimes F_b^{(m)}(L_2(R^d))$ fazoda $A_m := P_{L_m} A P_{L_m}$ kabi aniqlanadi, bu yerda:

$$F_b^{(1)}(L_2(R^d)) := C \oplus L_2(R^d);$$

$$F_b^{(m)}(L_2(R^d)) := C \oplus L_2(R^d) \oplus L_2^{\text{sym}}((R^d)^2) \oplus \dots \oplus L_2^{\text{sym}}((R^d)^m), \quad m \geq 2;$$

P_{L_m} orqali L ni L_m ga ortogonal proyeksiyalovchi operator belgilanadi.

Maqolada uzluksiz holda ko'pi bilan uchta fotonli hol ($m = 3$) sochilishlar nazariyasidan foydalalanib o'rganilgan. Xususan, to'liq operatorlarning mavjudligi va ularning asimptotik to'raligi haqidagi natija matematik nuqtayi nazardan qat'iy isbotlangan. Bunda rezolventa operatorini batafsil tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, maqolalarda α ta'sirlashish parametriga qo'yilgan yetarlicha kichiklik sharti muhimdir.¹

3. Panjaradagi spin-bozon modeli va qirqilgan modellar. Panjaradagi spin-bozon modeli ham standart spin-bozon modeli kabi (1) ko'rinishida bo'lib, u R^d da emas, balki d – o'lchamli T^d torda aniqlangan bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, algebraik nuqtayi nazardan panjaradagi spin-bozon modelini kiritish uchun (1) va (2) ifodalarda R^d ni T^d ga almashtirish yetarli.

Ushbu maqolada, asosan, $m = 3$ bo'lgan hol tahlil qilinsa-da, $m = 1, 2$ holda olingan natijalar haqida ham ma'lumot keltirilgan.

$m = 1, 2, 3$ uchun L_m Gilbert fazosida ta'sir qiluvchi $A_m = P_{L_m} A P_{L_m}$ operator quyidagi $(m+1) \times (m+1)$ – uch diagonal operatorli matritsa ko'rinishida tasvirlanadi:

$$A_1 := \begin{pmatrix} A_{00} & A_{01} \\ A_{01}^* & A_{11} \end{pmatrix}, \quad A_2 := \begin{pmatrix} A_{00} & A_{01} & 0 \\ A_{01}^* & A_{11} & A_{12} \\ 0 & A_{12}^* & A_{22} \end{pmatrix}, \quad A_3 := \begin{pmatrix} A_{00} & A_{01} & 0 & 0 \\ A_{01}^* & A_{11} & A_{12} & 0 \\ 0 & A_{12}^* & A_{22} & A_{23} \\ 0 & 0 & A_{23}^* & A_{33} \end{pmatrix},$$

matritsaviy elementlar quyidagi tengliklar bilan aniqlangan:

$$A_{00} f_0^{(s)} = s \varepsilon f_0^{(s)}, \quad A_{01} f_1^{(s)} = \alpha \int_{T^d} v(t) f_1^{(-s)}(t) dt,$$

¹ R.A.Minlos, H.Spohn. The three-body problem in radioactive decay. The case of one atom and at most two photons. American Mathematical Society Translations-Series 2, Amer. Math. Soc., Providence, RI, 1996, pp. 159–193; H.Spohn. Ground states of the spin-boson Hamiltonian. Comm. Math. Phys., 123 (1989), pp. 277–304; Y.Zhukov, R.Minlos. Spectrum and scattering in a spin-boson model with not more than three photons. Theor. Math. Phys. 103, (1995), pp. 398 – 411.

$$\begin{aligned}
(A_{11}f_1^{(s)})(k_1) &= (s\varepsilon + w(k_1))f_1^{(s)}(k_1), & (A_{12}f_2^{(s)})(k_1) &= \alpha \int_{T^d} v(t) f_2^{(-s)}(k_1, t) dt, \\
(A_{22}f_2^{(s)})(k_1, k_2) &= (s\varepsilon + w(k_1) + w(k_2))f_2^{(s)}(k_1, k_2), \\
(A_{23}f_3^{(s)})(k_1, k_2) &= \alpha \int_{T^d} v(t) f_3^{(-s)}(k_1, k_2, t) dt, \\
(A_{33}f_3^{(s)})(k_1, k_2, k_3) &= (s\varepsilon + w(k_1) + w(k_2) + w(k_3))f_3^{(s)}(k_1, k_2, k_3).
\end{aligned}$$

Bu yerda $\{f_0^{(s)}, f_1^{(s)}, s = \pm\} \in L_1$, $\{f_0^{(s)}, f_1^{(s)}, f_2^{(s)}, s = \pm\} \in L_2$, $\{f_0^{(s)}, f_1^{(s)}, f_2^{(s)}, f_3^{(s)}, s = \pm\} \in L_3$; A_{ij}^* , $i < j$ operator A_{ij} operatorga qo'shma operator. Parametrlarga qo'yilgan shartlar: $\varepsilon > 0$; $v(\cdot)$ va $w(\cdot)$ lar T^d da aniqlangan haqiqiy qiymatli uzluksiz funksiyalar, $\alpha > 0$ esa ta'sirlashish parametri deb ataluvchi haqiqiy musbat son.

A_3 panjaraviy model chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma operator bo'lsa-da, uning xususiyatlari uzluksiz (standart) holdan tubdan farq qiladi. Ta'kidlash joizki, uzluksiz va $m=2$ holda muhim spektrning ikki zarrachali va uch zarrachali tarmoqlari $[\kappa, \infty)$, $\kappa < 0$ yarim intervaldan iborat bo'ladi hamda ular o'zaro kesishadi. Natijada ([5]ga qarang), bu modelning muhim spektrini tahlil qilish uchun $m=1$ bo'lgan holda, uning xos qiymatlarini aniqlash yetarli. Panjaraviy holda esa muhim spektrning ikki zarrachali va uch zarrachali tarmoqlari chegaralangan kesmalar yoki bunday kesmalar birlashmasidan iborat bo'ladi hamda ular o'zaro kesishmasligi ham mumkin. Bunday holda muhim spektrda bo'shliq (lakuna) hosil bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, A_2 operatorning qator spektral xossalari ishlarda o'rganilgan.¹ Xususan, ishda A_2 operator muhim spektrining joylashuv o'rni (isbotsiz) o'rganilgan va $d=1$ bo'lganda, muhim spektrning quyi chegarasi uchun baholashlar olingan. Ishda esa tor o'lchami $d \in \mathbb{N}$ va ta'sirlashish parametri $\alpha > 0$ ning barcha qiymatlarida A_2 operator muhim spektrining tuzilishi (muhim spektrni tashkil qiluvchi kesmalarning o'zaro joylashuvi) to'liq o'rganilgan.² Shu bilan bir qatorda, A_1 operator $\alpha > 0$ parametrning barcha qiymatlarida muhim spektrdan chapda yotuvchi kamida bitta xos qiymatga ega ekanligi isbotlangan. A_1 operator muhim spektri ichida yotuvchi xos qiymatga ega bo'lish shartlari topilgan.

Faraz qilaylik, $m=1, 2, 3$ bo'lsin. A_m operatorning spektral xossalari o'rganish uchun $F_b^{(m)}(L_2(T^d))$ fazoda aniqlangan quyidagi $(m+1)$ -tartibli diskret parametrli blok operatorli matritsalarini qaraymiz:

$$A_1^{(s)} := \begin{pmatrix} \hat{A}_{00}^{(s)} & \hat{A}_{01} \\ \hat{A}_{01}^* & \hat{A}_{11}^{(s)} \end{pmatrix}, \quad A_2^{(s)} := \begin{pmatrix} \hat{A}_{00}^{(s)} & \hat{A}_{01} & 0 \\ \hat{A}_{01}^* & \hat{A}_{11}^{(s)} & \hat{A}_{12} \\ 0 & \hat{A}_{12}^* & \hat{A}_{22}^{(s)} \end{pmatrix}, \quad A_3^{(s)} := \begin{pmatrix} \hat{A}_{00}^{(s)} & \hat{A}_{01} & 0 & 0 \\ \hat{A}_{01}^* & \hat{A}_{11}^{(s)} & \hat{A}_{12} & 0 \\ 0 & \hat{A}_{12}^* & \hat{A}_{22}^{(s)} & \hat{A}_{23} \\ 0 & 0 & \hat{A}_{23}^* & \hat{A}_{33}^{(s)} \end{pmatrix}.$$

Uning matritsaviy elementlari quyidagi qoidalar yordamida berilgan:

$$\begin{aligned}
\hat{A}_{00}^{(s)} f_0 &= s\varepsilon f_0, & \hat{A}_{01} f_1 &= \alpha \int_{T^d} v(t) f_1(t) dt, \\
(\hat{A}_{11}^{(s)} f_1)(k_1) &= (-s\varepsilon + w(k_1))f_1(k_1), & (\hat{A}_{12} f_2)(k_1) &= \alpha \int_{T^d} v(t) f_2(k_1, t) dt, \\
(\hat{A}_{22}^{(s)} f_2)(k_1, k_2) &= (s\varepsilon + w(k_1) + w(k_2))f_2(k_1, k_2), & (\hat{A}_{23} f_3)(k_1, k_2) &= \alpha \int_{T^d} v(t) f_3(k_1, k_2, t) dt, \\
(\hat{A}_{33}^{(s)} f_3)(k_1, k_2, k_3) &= (-s\varepsilon + w(k_1) + w(k_2) + w(k_3))f_3(k_1, k_2, k_3),
\end{aligned}$$

¹ S.Albeverio, S.N.Lakaev, T.H.Rasulov. On the Spectrum of an Hamiltonian in Fock Space. Discrete Spectrum Asymptotics. J. Stat. Phys. 127, (2007), № 2, pp. 191 – 220; T.Kh.Rasulov. On the Structure of the Essential Spectrum of a Model Many-Body Hamiltonian. Math. Notes. 83 (2008), № 1, pp. 80 – 87.

²T.Kh.Rasulov. On the Structure of the Essential Spectrum of a Model Many-Body Hamiltonian. Math. Notes. 83 (2008), №. 1, pp. 80 – 87.

$$(f_0, f_1) \in F_b^{(1)}(L_2(T^d)), \quad (f_0, f_1, f_2) \in F_b^{(2)}(L_2(T^d)), \quad (f_0, f_1, f_2, f_3) \in F_b^{(3)}(L_2(T^d)).$$

Tegishli fazolardagi skalar ko'paytmalar va qo'shma operator ta'rifidan foydalanib,

$$(\hat{A}_{01}^* f_0)(k_1) = \alpha v(k_1) f_0, \quad (\hat{A}_{12}^* f_1)(k_1, k_2) = \alpha(v(k_1) f_1(k_2) + v(k_2) f_1(k_1)),$$

$$(\hat{A}_{23}^* f_2)(k_1, k_2, k_3) = \alpha(v(k_1) f_2(k_2, k_3) + v(k_2) f_2(k_1, k_3) + v(k_3) f_2(k_1, k_2))$$

tengliklarni hosil qilamiz.

Zamonaviy matematik fizikada \hat{A}_{01} , \hat{A}_{12} va \hat{A}_{23} operatorlar yo'qotish operatorlari, \hat{A}_{01}^* , \hat{A}_{12}^* va \hat{A}_{23}^* operatorlar esa paydo qilish operatorlari deb ataladi.

$A_m^{(s)}$, $m=1,2$ model operatorning analogi ko'plab ishlarda o'rganilgan (masalan, [17,18,19]) bo'lsa-da, bu operatorlarning aynan yuqoridagi kabi aniqlanishi A_2 operatorning muhim spektri haqida yanada aniqroq tasdiqlarni olish imkonini beradi.

4. A_3 operatorning spektri. Quyida biz o'rinlashtirish operatorini qo'llagan holda, A_3 operatorning spektrini o'rganish masalasini birmuncha soddaroq ko'rinishga ega bo'lgan $A_3^{(s)}$, $s = \pm$ operatorlarning spektrini o'rganish masalasiga olib kelamiz.

A_3 va $A_3^{(s)}$, $s = \pm$ operatorlarning spektrlari orasidagi bog'lanishni keltiramiz.

1-tasdiq. A_3 va $A_3^{(s)}$, $s = \pm$ operatorlarning spektri uchun

$$\sigma(A_3) = \sigma(A_3^{(+)}) \cup \sigma(A_3^{(-)})$$

tenglik o'rinli bo'ladi. Bundan tashqari, ularning muhim va nuqtali spektrlari o'zaro

$$\sigma_{\text{ess}}(A_3) = \sigma_{\text{ess}}(A_3^{(+)}) \cup \sigma_{\text{ess}}(A_3^{(-)}),$$

$$\sigma_p(A_3) = \sigma_p(A_3^{(+)}) \cup \sigma_p(A_3^{(-)})$$

tengliklar yordamida bog'langan bo'ladi.

Isbot. Quyidagi o'rinlashtirish operatorini kiritamiz:

$$\Phi_3 : L_3 \rightarrow F_b^{(3)}(L_2(T^d)) \oplus F_b^{(3)}(L_2(T^d)),$$

$$\Phi_3 : (f_0^{(+)}, f_0^{(-)}, f_1^{(+)}, f_1^{(-)}, f_2^{(+)}, f_2^{(-)}, f_3^{(+)}, f_3^{(-)}) \rightarrow (f_0^{(+)}, f_1^{(-)}, f_2^{(+)}, f_3^{(-)}, f_0^{(-)}, f_1^{(+)}, f_2^{(-)}, f_3^{(+)}).$$

Aniqlanishiga ko'ra, Φ_3 – unitar operator bo'lib,

$$\Phi_3^{-1} : F_b^{(3)}(L_2(T^d)) \oplus F_b^{(3)}(L_2(T^d)) \rightarrow L_3,$$

$$\Phi_3^{-1} : (\varphi, \varphi') \rightarrow (\varphi_0, \varphi_0', \varphi_1, \varphi_1', \varphi_2, \varphi_2', \varphi_3, \varphi_3'),$$

$$\varphi = (\varphi_0, \varphi_1, \varphi_2, \varphi_3), \varphi' = (\varphi_0', \varphi_1', \varphi_2', \varphi_3') \in F_b^{(3)}(L_2(T^d))$$

munosabatlar o'rinli bo'ladi. U holda A_3 , $A_3^{(s)}$ va Φ_3 operatorlarning aniqlanishiga ko'ra, $\Phi_3 A_3 \Phi_3^{-1} = \text{diag}\{A_3^{(+)}, A_3^{(-)}\}$ tenglik o'rinli bo'ladi. A_3 va $\text{diag}\{A_3^{(+)}, A_3^{(-)}\}$ operatorlarning unitar ekvivalentligidan tasdiqda keltirilgan A_3 va $A_3^{(s)}$ operatorlarning spektrlari, muhim spektrlari va nuqtali spektrlari orasidagi bog'lanishlarni hosil qilamiz. Tasdiq to'liq isbotlandi.

$\sigma_{\text{disc}}(A_3^{(s)})$ to'plamning bir qismi $\sigma_{\text{disc}}(A_3^{(s)})$ to'plamda yotishi mumkinligini inobatga olib, A_3 operatorning diskret spektri uchun

$$\sigma_{\text{disc}}(A_3) \subseteq \sigma_{\text{disc}}(A_3^{(+)}) \cup \sigma_{\text{disc}}(A_3^{(-)}), \quad (3)$$

$$\sigma_{\text{disc}}(A_3) = \{\sigma_{\text{disc}}(A_3^{(+)}) \cup \sigma_{\text{disc}}(A_3^{(-)})\} \setminus \sigma_{\text{ess}}(A_3). \quad (4)$$

munosabatlarga ega bo'lamiz.

Yana ham aniqroq aytganda,

$$\sigma_{\text{disc}}(A_3) = \bigcup_{s=\pm} \{\sigma_{\text{disc}}(A_3^{(s)}) \setminus \sigma_{\text{ess}}(A_3^{(-s)})\}$$

tenglik o'rinlidir.

Ko'rish mumkinki, $s = \pm$ uchun $A_3^{(s)}$ operator A_3 operatorga nisbatan soddaroq ko'rinishga ega bo'lganligi sababli, 1-tasdiq va (3), (4) munosabatlar A_m operator spektrini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Endi A_3 operatorning spektral xossalarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan $F_b^{(3)}(L_2(T^d))$ Gilbert fazosida ta'sir qiluvchi 4×4 – blok operatorli matritsani qaraymiz:

$$H_3 := \begin{pmatrix} H_{00} & H_{01} & 0 & 0 \\ H_{01}^* & H_{11} & H_{12} & 0 \\ 0 & H_{12}^* & H_{22} & H_{23} \\ 0 & 0 & H_{23}^* & H_{33} \end{pmatrix}. \quad (3)$$

Uning matritsaviy elementlari

$$H_{00}f_0 = w_0f_0, \quad H_{01}f_1 = \int_{T^d} v_0(t)f_1(t)dt,$$

$$(H_{11}f_1)(k_1) = w_1(k_1)f_1(k_1), \quad (H_{12}f_2)(k_1) = \int_{T^d} v_1(t)f_2(k_1, t)dt,$$

$$(H_{22}f_2)(k_1, k_2) = w_2(k_1, k_2)f_2(k_1, k_2), \quad (H_{23}f_3)(k_1, k_2) = \int_{T^d} v_2(t)f_3(k_1, k_2, t)dt,$$

$$(H_{33}f_3)(k_1, k_2, k_3) = w_3(k_1, k_2, k_3)f_3(k_1, k_2, k_3), \quad (f_0, f_1, f_2, f_3) \in F_b^{(3)}(L_2(T^d))$$

tengliklar bilan berilgan. Bu yerda w_0 – fiksirlangan haqiqiy son, $v_0(\cdot)$, $v_1(\cdot)$, $v_2(\cdot)$ va $w_1(\cdot)$ funksiyalar T^d da aniqlangan haqiqiy qiymatli uzluksiz funksiyalar, $w_2(\cdot, \cdot) - (T^d)^3$ da aniqlangan haqiqiy qiymatli simmetrik uzluksiz funksiya, $w_3(\cdot, \cdot, \cdot)$ esa $(T^d)^3$ da aniqlangan haqiqiy qiymatli, uzluksiz, simmetrik funksiya. Bunda simmetriklilik deganda har qanday ikkita k_α va k_β ($\alpha, \beta \in \{1, 2, 3\}$, $\alpha \neq \beta$) o'zgaruvchilariga nisbatan simmetrik bo'lgan funksiya tushuniladi:

$$w(k_1, k_2, k_3) = w(k_2, k_1, k_3) = w(k_1, k_3, k_2) = w(k_3, k_2, k_1).$$

H_3 operator $F_b^{(3)}(L_2(T^d))$ Gilbert fazosida chiziqli, chegaralanagan va o'z-o'ziga qo'shma operator.

Agar H_3 model operatorning w_0 , $v_0(\cdot)$, $v_1(\cdot)$, $v_2(\cdot)$, $w_1(\cdot)$, $w_2(\cdot, \cdot)$ va $w_3(\cdot, \cdot, \cdot)$ paramertlari $w_0 = s\varepsilon$, $v_0(k_1) = v_1(k_1) = \alpha v(k_1)$, $w_1(k_1) = -s\varepsilon + w(p)$, $w_2(k_1, k_2) = s\varepsilon + w(k_1) + w(k_2)$,

$$w_3(k_1, k_2, k_3) = -s\varepsilon + w(k_1) + w(k_2) + w(k_3)$$

kabi aniqlangan bo'lsa, u holda $A_3^{(s)}$ operatorli matritsani hosil qilamiz. Shunday qilib, 1-tasdiqqa ko'ra, panjaradagi ko'pi bilan uchta fotonli spin-bozon modelining muhim spektri, nuqtali spektri va diskret spektri (3) ko'rinishdagi H_3 operator uchun spektral ma'lumotlardan foydalangan holda aniqlanar ekan. Chunki A_3 operator 8×8 blok operatorli matritsa bo'lsa-da, uni diagonal elementlari H_3 ning yuqorida qayd qilingan ikki turdagi xususiy hollari bo'lgan 2×2 diagonal operatorli matritsa ko'rinishida tasvirlash mumkin.

Матякубов Зокир Кадамович, Курязов Достонбек Баходирович (Хорезмская академия Маъмуна, Ургенчский государственный университет; zokirbekmatyakubov@gmail.com)

ГРАНИЧНАЯ ТЕОРЕМА МОРЕРА ДЛЯ МАТРИЧНОЙ ПОЛУПЛОСКОСТИ ЗИГЕЛЯ

Аннотация. Ко'p o'lchovli kompleks analizning dolzarb masalalaridan biri bu funksiyani soha chegarasidan ichkariga golomorf davom ettirish masalasi hisoblanadi. Shuning uchun ko'plab mutaxassislarning qiziqishi Morera teoremasining ko'p o'lchovli analoglarini isbotlashga qaratilgan. Ushbu maqolada kososimmetrik matritsalar uchun birinchi tip Zigel sohasida chegaraviy Morera teoremasi isbotlangan.

Аннотация. Одним из наиболее актуальных вопросов многомерного комплексного анализа является вопрос о голоморфном продолжении этой функции с границы областей. Поэтому интерес многих специалистов состоит в доказательстве многомерных аналогов теоремы Мореры. В данной работе доказывается граничная теорема Мореры в области Зигеля первого типа для кососимметричных матриц.

Annotation. One of the most urgent questions of multidimensional complex analysis is the question of the holomorphic continuation of this function from the boundary of the domains. Therefore, the interest of many specialists lies in proving multidimensional analogs of Morera's theorem. In this paper, we prove Morera's boundary theorem in the Siegel domain of the first type for skew-symmetric matrices.

Kalıt so'zlar: kososimmetrik matritsa, uchinchi tip klassik soha, birinchi tip Zigel sohasi, Shilov chegarasi, Morera teoremasi.

Ключевые слова: кососимметричная матрица, классическая область третьего типа, область Зигеля первого типа, граница Шилова, теорема Морера.

Key words: skew-symmetric matrix, classical domain of the third type, Siegel domain of the first type, Shilov's boundary, Morera theorem.

Одними из актуальных вопросов многомерного комплексного анализа являются задачи голоморфного продолжения с границы. В этом плане интерес специалистов привлекают многомерные граничные аналоги теоремы Морера. Большинство из них, так или иначе, имели дело с полной границей области и состоят в возможности голоморфного продолжения функции f с границы ∂D области D в \square^n в эту область при условии равенства нулю интегралов от f по границам аналитических дисков, лежащих на ∂D . Так в работе Б.Гринберга¹ рассмотрен случай шара $B_n \subset \square^n$, а в качестве дисков взяты пересечения шара с комплексными прямыми.

Следующий результат Нагеля и Рудина² является одним из первых многомерных аналогов теоремы Морера.

Теорема (Нагель, Рудин). Если функция f – непрерывна на границе шара B_n ($n \geq 1$) в C^n и интеграл

$$\int_0^{2\pi} f(\psi(e^{i\varphi}, 0, \dots, 0)) e^{i\varphi} d\varphi = 0$$

для всех (голоморфных) автоморфизмов ψ шара, то функция f голоморфно продолжается в шар.

В работах С.Косбергенова³ результат Нагеля и Рудина обобщены на случай различных круговых областей, заменяя границу области ее границей Шилова (остовом). Все эти результаты являются существенно многомерными, так как на комплексной плоскости они не верны.

В данной статье мы доказываем граничную теорему Морера для одной области Зигеля первого рода, определенную в пространстве комплексных кососимметрических матриц.

Рассмотрим в пространстве $\square^{\frac{m(m-1)}{2}}$ область D_{III} , состоящая из всех квадратных кососимметричных матриц W порядка m с комплексными элементами w_{kj} :

$$D_{III} = \{W \in \square [m \times m] : \text{Im} W > 0\}.$$

¹ Grinberg E. A boundary analogue of Morera's theorem on the unit ball of \square^n . Proc. Amer. Math. Soc. 1988, V. 102, p. 114 – 116.

² Nagel A., Rudin W. Moebius-invariant function spaces on balls and spheres. Duke Math. J. 976, V 43, № 4, p. 841 – 865.

³ Косбергенов С., Кытманов А.М., Мысливец С.Г. О граничной теореме Морера для классических областей. Сиб. мат. журн., 1999, Т. 40, № 3, с. 595 – 604.

Здесь знак > 0 означает положительную определенность эрмитовой матрицы $\text{Im}W$.

Граница ∂D_{III} области D_{III} состоит из матриц W , для которых эрмитова матрица $\text{Im}W$ положительно полу определена: ее собственные значения неотрицательны и хотя бы одно равно нулю. На ∂D_{III} имеется множество, состоящее из вещественно кососимметрических матриц W :

$$\Gamma_{III} = \{W \in \square [m \times m] : \text{Im}W = 0\},$$

которое называется остовом области D_{III} . Оно состоит из всех эрмитовых матриц порядка m .

Область D_{III} является радиальной трубчатой областью, основанием которой служит конус в пространстве $\square^{\frac{m(m-1)}{2}}$, состоящий из положительно определенных кососимметрических матриц порядка m . Такие области называются областями Зигеля первого рода.¹

В [4, стр.15] доказано, что всякая область Зигеля первого рода биголоморфно эквивалентна некоторой ограниченной области. В частности, рассматриваемая область D_{III} биголоморфно эк-

вивалентна классической области третьего типа \mathfrak{R}_{III} , определенной в пространстве $\square^{\frac{m(m-1)}{2}}$, всех квадратных кососимметрических матриц Z порядка m :

$$\mathfrak{R}_{III} = \{Z \in \square [m \times m] : I + Z\bar{Z} > 0\},$$

Граница \mathfrak{R}_{III} состоит из множества

$$\partial \mathfrak{R}_{III} = \{Z \in \square [m \times m] : \det(I + Z\bar{Z}) = 0, \quad I + Z\bar{Z} \geq 0\},$$

т.е. из множества матриц Z , для которых матрица $I + Z\bar{Z}$ является неотрицательно определенной, но не положительно определенной эрмитовой матрицей (ее собственные значения неотрицательны и хотя бы одно из них равно нулю). На граница лежит множество

$$S_{III} = \{Z \in \square [m \times m] : I + Z\bar{Z} = 0\},$$

которое называется *остовом* \mathfrak{R}_{III} (заметим, что S_{III} является границей Шилова для \mathfrak{R}_{III}).

Вещественная размерность остова равна $\frac{m(m-1)}{2}$.

Классом Харди $H^p(D)$ ($0 < p < +\infty$) называют множество всех функций, голоморфных в области D , для которых равномерно ограничены интегралы

$$\int_S |f(x)|^p d\mu < C_f$$

для: всех $0 < r < 1$.

Символом $H^\infty(D)$ обозначает множество всех функций, голоморфных и ограниченных в D .

Через Φ обозначим преобразование

$$U = \Phi(Z) = i(I + Z)(I - Z)^{-1}, \quad (1)$$

которое биголоморфно отображает \mathfrak{R}_{III} на D_{III} , при этом S_{III} переходит в Γ_{III} .

¹ Пятецкий-Шапиро И.И. Геометрия классических областей и теория автоморфных функций. М., Физматгиз, 1961.

² Хуа Локен. Гармонический анализ функций многих комплексных переменных в классических областях. М., ИЛ, 1959, 163 с.

С помощью преобразования Φ и автоморфизма Φ_A обобщенного единичного круга, переводящего точку $A \in \mathfrak{R}_{III}$ в 0 (0-нулевая матрица порядка m), определим следующее преобразование

$$\Psi_B = \Phi \circ \Phi_A \circ \Phi^{-1}, \quad B = \Phi(A),$$

которое является автоморфизмом области D_{III} , переводящий точку B из D_{III} в точку iI .

При отображении Φ унитарные преобразования области \mathfrak{R}_{III} , переводящие точку 0 в себя, переходят в преобразования области D_{III} , оставляющие точку iI неподвижным. Последние преобразования мы назовем унитарными преобразованиями области D_{III} и обозначим через Ψ_u . Они имеют вид

$$V = \Psi_u(U) = i((I + A)U + i(I - A))((I - A)U - i(I + A))^{-1}, \quad (2)$$

где A унитарная матрица.

Предложение. Пусть Ψ произвольный автоморфизм, области D_{III} и $\Psi(iI) = B$, тогда существует унитарное преобразование Ψ_u вида (2), для которого

$$\Psi_B = \Psi_u \circ \Psi^{-1}. \quad (3)$$

Пусть \dot{U} – элемент объема в S_{III} , а \dot{V} – элемент объема в Γ_{III} . В¹ Хуа Локена доказано следующее соотношение между \dot{U} и \dot{V} при отображении Φ :

$$\dot{U} = 2^{\frac{m(m-1)}{2}} (\det(V^2 + I))^{-\frac{m-1}{2}} \dot{V}, \quad (4)$$

где $V \in \Gamma_{III}$. Так как $V^* = -V$ и

$$\begin{aligned} \det(V^2 + I) &= \det(V - iI)\det(V + iI) = \\ &= \overline{\det(V + iI)}\det(V + iI) = |\det(V + iI)|^2, \end{aligned}$$

то (4) можно записать в виде

$$\dot{U} = 2^{\frac{m(m-1)}{2}} |\det(V + iI)|^{-(m-1)} \dot{V}. \quad (5)$$

Теперь выясним, как связаны между собой ядра Пуассона областей D_{III} и \mathfrak{R}_{III} при отображении Φ .

Ядро Коши-Сеге для области D_{III} имеет вид

$$C(U, B) = \frac{(\pi i)^{\frac{m(m-1)}{2}} \cdot 1! \dots (m-1)!}{(\det(B + \overline{U}))^{\frac{m(m-1)}{2}}},$$

где $U \in \Gamma_{III}$, $B \in D_{III}$.

Так как ядра Пуассона и Коши-Сеге связаны соотношением

$$P(U, B) = \frac{C(U, B)C(B, U)}{C(B, B)} = \frac{|C(U, B)|^2}{C(B, B)},$$

¹ Хуа Локен. Гармонический анализ функций многих комплексных переменных в классических областях. М., ИЛ, 1959, 163 с.

ядро Пуассона P области D_{III} записывается в виде

$$P_{D_{III}}(U, B) = \frac{(\pi i)^{\frac{m(m-1)}{2}} \cdot 1! \dots (m-1)! (\det(B + \bar{B}))^{\frac{m-1}{2}}}{|\det(U + \bar{B})|^{m-1}}.$$

Как известно, ядро Пуассона для области \mathfrak{R}_{III} имеет вид¹

$$P_{\mathfrak{R}_{III}}(W, A) = \frac{(\det(I + A\bar{A}))^{\frac{m-1}{2}}}{|\det(I + A\bar{W})|^{m-1}}, \quad (6)$$

где $W \in S_{III}$, $A \in \mathfrak{R}_{III}$.

Пусть $B = \Phi(A)$, $U = \Phi(W)$.

Лемма 1. *Справедливо соотношение*

$$P(\Phi^{-1}(U), \Phi^{-1}(B)) = \frac{(-2i)^{\frac{m-1}{2}}}{(\pi i)^{\frac{m(m-1)}{2}} \cdot 1! \dots (m-1)!} P_{D_{III}}(U, B) |\det(U + iI)|^{m-1},$$

где Φ^{-1} – обратное к преобразованию (1).

Доказательство. Из (1) имеем

$$W = (U + iI)^{-1}(U - iI), \quad A = (B + iI)^{-1}(B - iI).$$

Тогда

$$\begin{aligned} I - AW^* &= I - (B + iI)^{-1}(B - iI)(\bar{U} - iI)(\bar{U} + iI)^{-1} = \\ &= (B + iI)^{-1}[(B + iI)(\bar{U} + iI) - (B - iI)(\bar{U} - iI)](\bar{U} + iI)^{-1} = \\ &= 2i(B + iI)^{-1}(\bar{U} + B)(\bar{U} + iI)^{-1}. \end{aligned}$$

Точно также

$$\begin{aligned} I - WA^* &= -2i(U + iI)^{-1}(U + \bar{B})(\bar{B} + iI)^{-1}, \\ I - AA^* &= -2i(B + iI)^{-1}(B + \bar{B})(\bar{B} + iI)^{-1}. \end{aligned}$$

Подставляя найденные в (6) и используя свойства, определителей матриц, мы получим нужное соотношение.

Лемма доказана.

Рассмотрим следующее вложение круга $\Delta = \{t \in \mathbb{C}, |t| < 1\}$ в область D_{III} :

$$\{\xi_t \in \mathbb{C}^{\frac{m(m-1)}{2}} : \xi_t = \Phi(t\Phi^{-1}(\lambda^0)), t \in \Delta\}, \quad (7)$$

где λ^0 – фиксированная точка из Γ_{III} . Если Ψ – произвольный автоморфизм области D_{III} , то множество (7) под действием этого автоморфизма перейдет в некоторый аналитический диск с границей на Γ_{III} .

Теорема. *Пусть f – непрерывная ограниченная функция на Γ_{III} . Если для функции f выполнено условие*

¹ Хуа Локен. Гармонический анализ функций многих комплексных переменных в классических областях. М., ИЛ, 1959, 163 с.

$$\int_T f(\Psi(\xi_t)) dt = 0 \quad (8)$$

для всех автоморфизмов Ψ и фиксированного $\lambda^0 \in \Gamma_{III}$, то функция f голоморфно продолжается в D_{III} до функции, класса $H^\infty(D_{III})$ непрерывной вплоть до Γ_{III} .

Доказательство. Так как Γ_{III} инвариантно относительно унитарных преобразований (2), то условие (8) будет выполняться для произвольных $\lambda \in \Gamma_{III}$.

Рассмотрим автоморфизм Ψ_B , переводящий точку B из D_{III} в точку iI :

$$\Psi_B = \Phi \circ \Phi_A^{-1} \circ \Phi^{-1}.$$

Тогда, подставляя в условие (8) вместо Ψ автоморфизм Ψ_B , мы получим

$$\int_T f(\Phi \circ \Phi_A^{-1} \circ \Phi^{-1}(\xi_t)) dt = 0. \quad (9)$$

Учитывая, что $\xi_t = \Phi(t\Phi^{-1}(\lambda))$ и обозначив $\nu = \Phi^{-1}(\lambda)$, мы получим

$$\int_T f(\Phi \circ \Phi_A^{-1}(\nu t)) dt = 0. \quad (10)$$

Параметризуем многообразие S_{III} следующим образом:

$$\zeta = t\nu, \quad t = e^{i\phi}, \quad 0 \leq \phi \leq 2\pi, \quad \nu \in S'_{III},$$

если $\zeta \in S_{III}$. Здесь S'_{III} — группа специальных унитарных матриц, т.е. $\det \nu = 1$.

Нормированная мера Лебега $d\mu$ на многообразии S_{III} может быть записана в виде¹

$$d\mu = \frac{d\phi}{2\pi} \wedge d\mu_0(\nu) = \frac{1}{2\pi i} \frac{dt}{t} \wedge d\mu_0(\nu),$$

где $d\mu_0(\nu)$ — есть дифференциальная форма, определяющая положительную меру на S'_{III} .

Умножая (10) на $d\mu_0$ и интегрируя по S'_{III} , мы из (10) получим

$$\int_{S_{III}} f(\Phi \circ \Phi_A^{-1}(\zeta)) \zeta_k d\mu(\zeta) = 0, \quad (11)$$

для всех $k = 1, \dots, m^2$, где ζ_k — компонента вектора ζ .

Сделаем замену переменных $W = \Phi_A^{-1}(\zeta)$. Тогда (11) переходит в условие

$$\int_{S_{III}} f(\Phi(W)) \Phi_A^k(W) d\mu(\Phi_A(W)) = 0, \quad (12)$$

где Φ_A^k есть k -я компонента автоморфизма Φ_A .

Как показано в работе Корани²

$$d\mu(\Phi_A(W)) = P_{\mathfrak{R}_{III}}(W, A) d\mu(W).$$

¹ Кытманов А.М., Никитина Т.Н. Аналоги формулы Карлемана для классических областей. Мат. заметки. 1989, т. 45, № 3, с. 87 – 93.

² Koranyi A. The Poisson integral for generalized half-planes and bounded symmetric domains. Ann. Math. 1965, V. 82, № 2, p. 332 – 350.

Тогда из (12) получаем

$$\int_{S_{III}} f(\Phi(W)) \Phi_A^k(W) P_\tau(W, A) d\mu(W) = 0. \quad (13)$$

Как известно

$$\Phi_A(W) = R^{-1}(I + W\bar{A})^{-1}(W - A)Q,$$

где R, Q – невырождены и зависят только от A . Поэтому, если условие (13) выполнено для компонент отображения Φ_A , то это же условие будет выполняться и для компонент отображения

$$\varphi_A(W) = (I + W\bar{A})^{-1}(W - A).$$

Обозначив компоненты отображения $\varphi_A(W)$ через $\varphi_A^{ks}(k, s = 1, \dots, m)$, из (13) получим

$$\int_{S_{III}} f(\Phi(W)) \varphi_A^{ks}(W) P_{\mathfrak{R}_{III}}(W, A) d\mu(W) = 0, \quad (14)$$

для всех точек $A \in \mathfrak{R}_{III}$ и всех $k, s = 1, \dots, m$.

Теперь сделаем замену переменных $U = \Phi(W)$. Тогда, учитывая лемму 1 и соотношение (5), мы получим

$$\int_{\Gamma_{III}} f(U) \Psi_*^{ks}(U) P_{D_{III}}(U, B) d\mu_{\Gamma_{III}}(U) = 0, \quad (15)$$

где $d\mu_{\Gamma_{III}}$ – нормированная мера Лебега на Γ_{III} , а

$$\Psi_*(U) = \varphi_A \circ \Phi = (iI + \bar{B})(U + \bar{B})^{-1}(U - B)(B + iI)^{-1},$$

и Ψ_*^{ks} – его ks – компонента. Так как $B + \bar{B}$ невырождена, то условие (15) будет выполняться и для компонент Φ_B^{ks} , отображения

$$\Phi_B(U) = (U + \bar{B})^{-1}(U - B)(B + \bar{B})^{-1}.$$

Значит

$$\int_{\Gamma_{III}} f(U) \Phi_B^{ks}(U) P_{D_{III}}(U, B) d\mu_{\Gamma_{III}}(U) = 0, \quad (16)$$

для всех $B \in D_{III}$ и $k, s = 1, \dots, m$. Найдем выражение

$$\sum_{k,s=1}^m \bar{b}_{k,s} \frac{\partial P_{D_{III}}(U, B)}{\partial \bar{b}_{k,s}} + i \sum_{s=1}^m \frac{\partial P_{D_{III}}(U, B)}{\partial \bar{b}_{s,s}}. \quad (17)$$

Вычисления показывают, что

$$\begin{aligned} & \sum_{k,s=1}^m \bar{b}_{ks} \frac{\partial \det(B + \bar{B})}{\partial \bar{b}_{ks}} + i \sum_{s=1}^m \frac{\partial \det(B + \bar{B})}{\partial \bar{b}_{ss}} = \\ & = - \left(\sum_{k,s=1}^m \bar{b}_{ks} \det(B + \bar{B})[s, k] + i \sum_{s=1}^m \det(B + \bar{B})[s, s] \right), \end{aligned}$$

где $\det(B + \bar{B})[s, k]$ означает алгебраическое дополнение к элементу $b_{ks} + \bar{b}_{sk}$ в матрице $B + \bar{B}$.

Аналогично

$$\begin{aligned} & \sum_{k,s=1}^m \bar{b}_{ks} \frac{\partial \det(U + \bar{B})}{\partial \bar{b}_{k,s}} + i \sum_{s=1}^m \frac{\partial \det(U + \bar{B})}{\partial \bar{b}_{ss}} = \\ & = - \left(\sum_{k,s=1}^m \bar{b}_{ks} \det(U + \bar{B})[s, k] + i \sum_{s=1}^m \det(U + \bar{B})[s, s] \right). \end{aligned}$$

Следовательно, выражение (17) равно

$$\begin{aligned} & \frac{m-1}{2} P_{D_{III}}(U, B) \left(\sum_{k,s=1}^m \bar{b}_{ks} \frac{\det(U + \bar{B})[s, k]}{\det(U + \bar{B})} - \sum_{k,s=1}^m \bar{b}_{ks} \frac{\det(B + \bar{B})[s, k]}{\det(B + \bar{B})} + \right. \\ & \quad \left. + i \sum_{s=1}^m \frac{\det(U + \bar{B})[s, s]}{\det(U + \bar{B})} - i \sum_{s=1}^m \frac{\det(B + \bar{B})[s, s]}{\det(B + \bar{B})} \right) = \\ & = \frac{m-1}{2} P_{D_{III}}(U, B) (Sp((U + \bar{B})^{-1} \bar{B}) - Sp((B + \bar{B})^{-1} \bar{B}) + \\ & \quad + i Sp(U + \bar{B})^{-1} - i Sp(B + \bar{B})^{-1}), \end{aligned}$$

где знак Sp означает след матрицы.

Теперь найдем сумму

$$\sum_{k,s=1}^m \bar{b}_{ks} \Phi_B^{ks} + i \sum_{s=1}^m \Phi_B^{ss},$$

Очевидно, что эта сумма равна

$$Sp(\Phi_B(U)(B^* + iI)).$$

Итак,

$$\begin{aligned} Sp(\Phi_B(U)(B^* + iI)) &= Sp((U + \bar{B})^{-1}(U - B)(B + \bar{B})^{-1}(\bar{B} - iI)) = \\ &= Sp((U + \bar{B})^{-1}(U + \bar{B} - (B + \bar{B}))(B + \bar{B})^{-1}(\bar{B} - iI)) = \\ &= Sp(((B + \bar{B})^{-1} - (U + \bar{B})^{-1})(\bar{B} - iI)) = \\ &= Sp((U + \bar{B})^{-1} \bar{B}) - Sp((B + \bar{B})^{-1} \bar{B}) + i Sp(U + \bar{B})^{-1} - i Sp(B + \bar{B})^{-1}. \end{aligned}$$

Сравнивая найденные выражения, мы из условия (16) получаем

$$\bar{\partial} F(B) = 0 \tag{18}$$

где

$$\bar{\partial} = \sum_{k,s=1}^m \bar{b}_{ks} \frac{\partial}{\partial \bar{b}_{ks}} + i \sum_{s=1}^m \frac{\partial}{\partial \bar{b}_{ss}},$$

а $F(B)$ – интеграл Пуассона от функции f :

$$F(B) = \int_{\Gamma_{III}} f(U) P_{D_{III}}(U, B) d\mu_{\Gamma_{III}}(U).$$

Функция $F(B)$ является вещественно-аналитической в области D_{III} . Разложим ее в ряд Тейлора в окрестности точки $I = (I_1, \dots, I_m)$, где $I_k = (0, \dots, i, \dots, 0)$ — m -мерный единичный вектор, у которого на k – месте стоит i :

$$F(B) = \sum_{|\alpha|, |\beta|} c_{\alpha, \beta} (B-I)^\alpha \overline{(B-I)^\beta},$$

где $\alpha = \|\alpha_{qj}\|$, $\beta = \|\beta_{qj}\|$ ($q, j = 1, \dots, m$) – матрицы с целочисленными элементами,

$$|\alpha| = \sum_{q, j=1}^m \alpha_{qj}, \quad B^\alpha = \prod_{q, j=1}^m b_{qj}^{\alpha_{qj}}.$$

Тогда условие (18) влечет

$$\bar{\partial} F(B) = \sum_{|\alpha|, |\beta|} |\beta| c_{\alpha, \beta} (B-I)^\alpha \overline{(B-I)^\beta} = 0,$$

отсюда все коэффициенты $c_{\alpha, \beta}$ равны нулю при $|\beta| > 0$. Значит $F(B)$ голоморфна в D_{III} и принадлежит классу $H^\infty(D_{III})$.

Доказательство теорема 1 показывает, что в условии теоремы можно потребовать выполнения условия (8) лишь для тех автоморфизмов, которые переводят точку iI в точки из некоторого открытого множества $V \subset D_{III}$. Для этого достаточно применить теорему единственности для вещественно аналитических функций. Поэтому теорема 1 допускает следующее обобщение.

Теорема 2. Пусть f – непрерывная ограниченная функция на Γ_{III} . Если для функции f выполнено условие (8) для всех автоморфизмов, переводящих точку iI в точки из некоторого открытого множества $V \subset D_{III}$, тогда f голоморфно продолжается в D_{III} до функции $F \in H^\infty(D_{III})$ непрерывной вплоть до Γ_{III} .

Абдикадиров Султанбай Мамутович (старший преподаватель кафедры Математического анализа Каракалпакского государственного университета имени Бердаха, старший научный сотрудник Каракалпакского отделения института Математики имени В.И.Романовского Академии наук Республики Узбекистан; abdikadirov1983@inbox.ru)

ОБ АНАЛОГЕ ТЕОРЕМЫ БЛАНШЕТА ДЛЯ α – СУБГАРМОНИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ

Annotatsiya. Bu ishda \square^n dagi α – subgarmonik funkciyalar uchun Blanshet teoremasining analogi isbotlangan. Xulosa sifatida α – garmonik funksiyalar uchun Blanshett teoremasining analogi olingan.

Аннотация. В статье доказан аналог теоремы Бланишета для α – субгармонических функций в \square^n . В качестве следствия получен аналог теоремы Бланишета для α – гармонических функций.

Annotation. The paper proves an analogue of Blanchett's theorem for α – subharmonic functions in \square^n . As a corollary, obtained an analogue of Blanchett's theorem for α – harmonic functions.

Kalit so'zlar: garmonik va subgarmonik funkciyalar, α – garmonik va α – subgarmonik funkciyalar, $(n-1, n-1)$ bidarajali differencial forma, Δ_α operatori.

Ключевые слова: гармонические и субгармонические функции, α – гармонические и α – субгармонические функции, дифференциальная форма бистепени $(n-1, n-1)$, оператор Δ_α .

Key words: harmonic and subharmonic functions, α – harmonic and α – subharmonic functions, differential form of bidegree $(n-1, n-1)$, operator Δ_α .

1. Введение. Изучение субгармонических функций, а именно изучение множества особенностей субгармонических функций является важным направлением теории потенциала. В изучении множества особенностей субгармонических функций главный роль играет устранимые особенности. В свою очередь это связано с некоторыми задачами многомерного комплексного анализа. Устранимые особенности класса субгармонических функций изучены в работах ряда учёных (см. [1], [2], [3], [4], [5] и др.).

В данной статье мы рассмотрим класс α -субгармонических функций, который расширяет класс гармонических и субгармонических функций в комплексном пространстве и играет важную роль в теории функций. Класс α -субгармонических функций и их свойства были исследованы во многих работах (см. [6], [7], [8], [9] и др.). Основным результатом данной работы является аналог теоремы Бланшета (см. [1], также [2]) об устранимых особенностях субгармонических функций.

2. Теорема Бланшета. Мы начнем с того, что напомним теорему Бланшета об устранимых особенностях субгармонических функций в пространстве \square^m (см. [1], стр. 312).

Теорема 1 (Бланшет). Пусть Ω область в \square^m и пусть S гиперповерхность класса C^1 , которая делит Ω на две подобласти Ω_1 и Ω_2 , а также функция $u \in C(\Omega) \cap C^2(\Omega_1 \cup \Omega_2)$ является субгармонической в Ω_1 и Ω_2 . Если $u(x)|_{\Omega_1} \equiv u_1(x) \in C^1(\Omega_1 \cup S)$, $u(x)|_{\Omega_2} \equiv u_2(x) \in C^1(\Omega_2 \cup S)$ и

$$\frac{\partial u_j(x)}{\partial n^k} \geq \frac{\partial u_k(x)}{\partial n^k}$$

на S для $j, k = 1, 2$ и $j \neq k$, где $n^k = (n_1^k, \dots, n_m^k)$ - единичная внешняя нормаль к границе Ω_k , тогда функция $u(x)$ является субгармонической в Ω .

3. α -субгармонические функции. Пусть α - произвольная замкнутая, строго положительная дифференциальная форма бистепени $(n-1, n-1)$ в области $D \subset \square^n$:

$$\alpha = \left(\frac{i}{2}\right)^{n-1} \sum_{j,k=1}^n \alpha_{jk}(z) dz[j] \wedge d\bar{z}[k], \alpha_{jk}(z) \in C^1(D), d\alpha = 0,$$

где

$$dz[j] = dz_1 \wedge \dots \wedge dz_{j-1} \wedge dz_{j+1} \wedge \dots \wedge dz_n, d\bar{z}[k] = d\bar{z}_1 \wedge \dots \wedge d\bar{z}_{k-1} \wedge d\bar{z}_{k+1} \wedge \dots \wedge d\bar{z}_n.$$

Определение 1. (см.[8]) Дважды гладкая в области $D \subset \square^n$ функция $u(z) \in C^2(D)$ называется α -гармонической, если $dd^c u \wedge \alpha = 0$ в D .

Определение 2. (см.[8]) Дважды гладкая в области $D \subset \square^n$ функция $u(z) \in C^2(D)$ называется α -субгармонической, если $dd^c u \wedge \alpha \geq 0$ в D .

Определение 3. (см.[9]) Функция $u(z) \in L^1_{loc}(D)$ называется α -субгармонической в области $D \subset \square^n$, если:

1) она полунепрерывна сверху в D , т. е. $u(z^0) \geq \overline{\lim}_{z \rightarrow z^0} u(z), \forall z^0 \in D$;

2) оператор $dd^c u \wedge \alpha$ положителен в обобщенном смысле, то есть для обобщенной функции $dd^c u(z) \wedge \alpha(z)(\varphi)$ выполняется

$$dd^c u(z) \wedge \alpha(z)(\varphi) = \int_D u(z) \alpha(z) \wedge dd^c \varphi(z) \geq 0, \forall \varphi \in F(D), \varphi \geq 0.$$

Класс α -субгармонических функций обозначается через $\alpha - sh(D)$, причем для удобства, включаем в этот класс и функцию $u(z) \equiv -\infty$. Для $\alpha = \beta^{n-1} = (dd^c |z|^2)^{n-1}$ мы будем иметь классические субгармонические функции. Заметим, что $dd^c u \wedge \beta^{n-1} = (n-1)! \Delta u dV$. При $n=1$ на комплексной плоскости α -субгармоничность функции эквивалентна обычной субгармоничности.

Аналогично оператору Лапласа Δu , определим и запишем оператор $\Delta_\alpha u$ в вещественной форме пространства $\square^{2n}(x_1, \dots, x_{2n})$, $z_j = x_j + ix_{n+j}$. Для любой дважды гладкой функции $u(z) \in C^2(D)$ представим $dd^c u \wedge \alpha$ в виде

$$\begin{aligned} dd^c u \wedge \alpha &= \left[\frac{i}{2} \sum_{j,k=1}^n \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_k} dz_j \wedge d\bar{z}_k \right] \wedge \left[\left(\frac{i}{2} \right)^{n-1} \sum_{j,k=1}^n \alpha_{jk}(z) dz[j] \wedge d\bar{z}[k] \right] = \\ &= \left(\frac{i}{2} \right)^n \sum_{j,k=1}^n \alpha_{jk}(z) \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_k} dz \wedge d\bar{z} = \left[\sum_{j,k=1}^n \alpha_{jk}(z) \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_k} \right] \left[\left(\frac{i}{2} \right)^n dz \wedge d\bar{z} \right] = \\ &= \left[\sum_{j,k=1}^n \alpha_{jk}(z) \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_k} \right] dV. \end{aligned}$$

Положим $\Delta_\alpha u = \sum_{j,k=1}^n \alpha_{jk}(z) \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \bar{z}_k}$ и представим оператор $\Delta_\alpha u$ в виде

$$\Delta_\alpha u = \sum_{j,k=1}^{2n} a_{jk} \frac{\partial^2 u}{\partial x_j \partial x_k},$$

где

$$a_{jk} = \begin{cases} (-1)^{j+k} \operatorname{Re} \alpha_{jk}(z), & 1 \leq j \leq n, 1 \leq k \leq n \\ (-1)^{j+k} \operatorname{Im} \alpha_{j,k-n}(z), & 1 \leq j \leq n, n+1 \leq k \leq 2n \\ (-1)^{j+k} \operatorname{Im} \alpha_{j-n,k}(z), & n+1 \leq j \leq 2n, 1 \leq k \leq n \\ (-1)^{j+k} \operatorname{Re} \alpha_{j-n,k-n}(z), & n+1 \leq j \leq 2n, n+1 \leq k \leq 2n. \end{cases}$$

Пусть функции u и \mathcal{G} дважды непрерывно дифференцируемые на замыкании ограниченной области $D \subset \square^n$ с гладкой границей ∂D . Нетрудно видеть, что

$$\mathcal{G}(z) \Delta_\alpha u(z) - u(z) \Delta_\alpha \mathcal{G}(z) = \sum_{j,k=1}^{2n} \frac{\partial}{\partial x_k} \left[a_{jk}(z) \left(\mathcal{G}(z) \frac{\partial u(z)}{\partial x_j} - u(z) \frac{\partial \mathcal{G}(z)}{\partial x_j} \right) \right].$$

Следовательно, формула Грина с оператором Δ_α принимает вид (см. [10])

$$\begin{aligned} \int_D \left[\mathcal{G}(z) \Delta_\alpha u(z) - u(z) \Delta_\alpha \mathcal{G}(z) \right] dV(z) &= \\ &= \int_{\partial D} a(\xi) \left(\mathcal{G}(\xi) \frac{\partial u}{\partial \nu}(\xi) - u(\xi) \frac{\partial \mathcal{G}}{\partial \nu}(\xi) \right) d\sigma(\xi), \end{aligned} \quad (1)$$

где $\nu(\xi) = (\nu_1(\xi), \nu_2(\xi), \dots, \nu_{2n}(\xi))$ – внешняя нормаль к границе ∂D в точке ξ , а $\frac{\partial u}{\partial \nu}$ и

$\frac{\partial \mathcal{G}}{\partial \nu}$ – производные от функций u и \mathcal{G} , соответственно, по направлению нормали ν , а функция $a(\xi)$ определяется формулой

$$a(\xi) = \left[\sum_{j=1}^{2n} \left(\sum_{k=1}^{2n} a_{jk}(\xi) \nu_k(\xi) \right)^2 \right]^{\frac{1}{2}}.$$

4. Основной результат. Теперь приведём и докажем основную теорему, которая обобщает теорему Бланшета об устранимых особенностях субгармонических функций.

Теорема 2. Пусть D область в \square^n , $n \geq 2$ и S гиперповерхность из класса C^1 которая разделяет D на две подобласти D_1 и D_2 , а функция $u \in C(D) \cap C^2(D_1 \cup D_2)$ является

α – субгармонической на D_1 и D_2 . Если $u_1 \equiv u|_{D_1} \in C^1(D_1 \cup S)$, $u_2 \equiv u|_{D_2} \in C^1(D_2 \cup S)$ и на S выполняется

$$\frac{\partial u_2(z)}{\partial v^1} \geq \frac{\partial u_1(z)}{\partial v^1} \quad (\text{или} \quad \frac{\partial u_1(z)}{\partial v^2} \geq \frac{\partial u_2(z)}{\partial v^2}),$$

где $v^k = (v_1^k, v_2^k, \dots, v_{2n}^k)$ – единичная внешняя нормаль к границе D_k ($k=1,2$), тогда функция $u(z)$ является α –субгармонической в D .

Доказательство. Напомним что, $C^1(D_l \cup S)$ ($l=1,2$) класс функций из $C^1(D_l)$, чьи частные производные первого порядка непрерывно продолжаются на $D_l \cup S$. Это означает, что если $u_l(z) \in C^1(D_l \cup S)$ ($l=1,2$), то существует $2n$ функций $\psi_l^\eta(z)$, $\eta=1, \dots, 2n$, непрерывные на $D_l \cup S$ такие, что $\psi_l^\eta(z) = \frac{\partial u_l(z)}{\partial x_\eta}$ для $\eta=1, \dots, 2n$ на D_l , где $z = (z_1, \dots, z_n) \in D_l \subset \square^n$, $z_j = x_j + ix_{n+j}$, $j=1, \dots, n$.

Так как функция $u \in C^2(D_1 \cup D_2)$ является α –субгармонической на D_l , тогда по определению $dd^c u_l \wedge \alpha \geq 0$ в D_l , $l=1,2$. Теперь рассмотрим функцию $\varphi(z) \in F(D)$, $\varphi(z) \geq 0$. Если носитель $\text{supp} \varphi(z) \cap S = \emptyset$, тогда $\text{supp} \varphi(z) \subset\subset D_1$ или $\text{supp} \varphi(z) \subset\subset D_2$. Пусть $\text{supp} \varphi(z) \subset\subset D_l$, $l=1,2$, то существует область U_l с гладкой границей, такая что $\text{supp} \varphi(z) \subset\subset U_l \subset D_l$. Теперь для любого неотрицательного $\varphi(z) \in F(D)$ в D имеем

$$dd^c u(z) \wedge \alpha(z)(\varphi) = \int_D u(z) \alpha(z) \wedge dd^c \varphi(z) = \sum_{l=1}^2 \int_{D_l} u_l(z) \alpha(z) \wedge dd^c \varphi(z) = \sum_{l=1}^2 \int_{U_l} u_l(z) \alpha(z) \wedge dd^c \varphi(z)$$

и

$$\int_D \varphi(z) \alpha(z) \wedge dd^c u(z) = \sum_{l=1}^2 \int_{D_l} \varphi(z) \alpha(z) \wedge dd^c u_l(z) = \sum_{l=1}^2 \int_{U_l} \varphi(z) \alpha(z) \wedge dd^c u_l(z) \geq 0.$$

Теперь рассмотрим следующую разность

$$\begin{aligned} & dd^c u(z) \wedge \alpha(z)(\varphi) - \int_D \varphi(z) \alpha(z) \wedge dd^c u(z) = \\ & = \sum_{l=1}^2 \int_{U_l} u_l(z) \alpha(z) \wedge dd^c \varphi(z) - \sum_{l=1}^2 \int_{U_l} \varphi(z) \alpha(z) \wedge dd^c u_l(z) = \sum_{l=1}^2 \int_{U_l} [u_l(z) \Delta_\alpha \varphi(z) - \varphi(z) \Delta_\alpha u_l(z)] dV. \end{aligned}$$

Так как $u_l \in C^2(\overline{U_l})$, $l=1,2$, то по формуле (1)

$$\sum_{l=1}^2 \int_{U_l} [u_l(z) \Delta_\alpha \varphi(z) - \varphi(z) \Delta_\alpha u_l(z)] dV = \sum_{l=1}^2 \int_{\partial U_l} a(\xi) \left(u_l(\xi) \frac{\partial \varphi(\xi)}{\partial v^l} - \varphi(\xi) \frac{\partial u_l(\xi)}{\partial v^l} \right) d\sigma(\xi).$$

Последний интеграл равно нулю, потому что $\varphi(z)|_{\partial U_l} \equiv 0$ и $\frac{\partial \varphi(z)}{\partial v^l} \Big|_{\partial U_l} \equiv 0$, $l=1,2$. Зна-

чить, $dd^c u(z) \wedge \alpha(z)(\varphi) = \int_D \varphi(z) dd^c u(z) \wedge \alpha(z) \geq 0$ в D . Это и доказывает теорему в случае $\text{supp} \varphi(z) \cap S = \emptyset$.

В случае когда $\text{supp} \varphi(z) \cap S \neq \emptyset$, рассмотрим подобласть $U \subset \overline{U} \subset D$, содержащую носитель $\text{supp} \varphi(z)$, такую, что граница $U_l = U \cap D_l$ принадлежит классу C^1 , где $l=1,2$. Тогда мы имеем определяющие функции $g_l(x) \in C^1(\square^{2n})$ с $\text{grad} g_l(x) \neq 0$ на ∂U_l такие, что $U_l = \{x \in \square^{2n} : g_l(x) > 0\}$. Для каждого $\varepsilon > 0$ мы положим $U_l^\varepsilon = \{x \in \square^{2n} : g_l(x) > \varepsilon\}$. Тогда

$\overline{U_l^\varepsilon} \subset U_l, U_l^\varepsilon \sqcap U_l$ и семейство $\{U_l^\varepsilon\}_{\varepsilon>0}$ есть исчерпание U_l областями, имеющими границы класса C^1 . Обозначим через ν_ε^l единичную нормаль, внешнюю к U_l^ε , и затем, применяя формулу Грина, мы имеем

$$\int_{U_l^\varepsilon} u_l \alpha \wedge dd^c \varphi - \int_{U_l^\varepsilon} \varphi \alpha \wedge dd^c u_l = \int_{\partial U_l^\varepsilon} a(\xi) \left(u_l \frac{\partial \varphi}{\partial \nu_\varepsilon^l} - \varphi \frac{\partial u_l}{\partial \nu_\varepsilon^l} \right) d\sigma_\varepsilon(\xi).$$

Теперь перейдём к пределу в последнем равенстве, когда $\varepsilon \rightarrow 0+$, тогда

$$\lim_{\varepsilon \rightarrow 0+} \int_{U_l^\varepsilon} u_l \alpha \wedge dd^c \varphi - \lim_{\varepsilon \rightarrow 0+} \int_{U_l^\varepsilon} \varphi \alpha \wedge dd^c u_l = \lim_{\varepsilon \rightarrow 0+} \int_{\partial U_l^\varepsilon} a(\xi) \left(u_l \frac{\partial \varphi}{\partial \nu_\varepsilon^l} - \varphi \frac{\partial u_l}{\partial \nu_\varepsilon^l} \right) d\sigma_\varepsilon(\xi)$$

и

$$\int_{U_l} u_l \alpha \wedge dd^c \varphi - \int_{U_l} \varphi \alpha \wedge dd^c u_l = \int_{\partial U_l} a(\xi) \left(u_l \frac{\partial \varphi}{\partial \nu^l} - \varphi \frac{\partial u_l}{\partial \nu^l} \right) d\sigma(\xi).$$

Значит

$$\int_{U_l} u_l \alpha \wedge dd^c \varphi = \int_{U_l} \varphi \alpha \wedge dd^c u_l + \int_{\partial U_l} a(\xi) \left(u_l \frac{\partial \varphi}{\partial \nu^l} - \varphi \frac{\partial u_l}{\partial \nu^l} \right) d\sigma(\xi),$$

и поэтому мы имеем

$$\begin{aligned} dd^c u(z) \wedge \alpha(z)(\varphi) &= \int_D u(z) \alpha(z) \wedge dd^c \varphi(z) = \sum_{j=1}^2 \int_{U_j} u_j(z) \alpha(z) \wedge dd^c \varphi(z) = \\ &= \sum_{l=1}^2 \int_{U_l} \varphi(z) dd^c u_l(z) \wedge \alpha(z) + \sum_{l=1}^2 \int_{\partial U_l} a(\xi) \left(u_l(\xi) \frac{\partial \varphi(\xi)}{\partial \nu^l} - \varphi(\xi) \frac{\partial u_l(\xi)}{\partial \nu^l} \right) d\sigma(\xi) = \\ &= \sum_{l=1}^2 \int_{D_l} \varphi(z) dd^c u_l(z) \wedge \alpha(z) + \int_S a(\xi) \left((u_1(\xi) - u_2(\xi)) \frac{\partial \varphi(\xi)}{\partial \nu^1} - \varphi(\xi) \left(\frac{\partial u_1(\xi)}{\partial \nu^1} - \frac{\partial u_2(\xi)}{\partial \nu^1} \right) \right) d\sigma(\xi), \end{aligned} \quad (2)$$

где $\nu^1(\xi) = (\nu_1^1(\xi), \nu_2^1(\xi), \dots, \nu_{2n}^1(\xi))$ – единичная нормаль к гиперповерхности S в точке ξ

и внешняя к области $D_l \subset \square^n$.

Так как, по условиям теоремы $(u_1(z) - u_2(z))|_S \equiv 0$, а

$$\int_S a(\xi) \varphi(\xi) \left(\frac{\partial u_1(\xi)}{\partial \nu^1} - \frac{\partial u_2(\xi)}{\partial \nu^1} \right) d\sigma(\xi) \leq 0$$

и

$$\sum_{l=1}^2 \int_{D_l} \varphi(z) dd^c u_l(z) \wedge \alpha(z) \geq 0,$$

тогда по формуле (2) имеем

$$dd^c u(z) \wedge \alpha(z)(\varphi) \geq 0, \forall \varphi \in F(D), \varphi \geq 0,$$

т. е. оператор $dd^c u \wedge \alpha$ положителен в обобщенном смысле в D и функция $u(z)$ является α -субгармонической в D . Теорема доказана.

Из теоремы 2 вытекает

Следствие 1. Пусть D область в \square^n и S гиперповерхность из класса C^1 которая разделяет D на две подобласти D_1 и D_2 , а функция $u \in C(D) \cap C^2(D_1 \cup D_2)$ является α -гармонической на $D_1 \cup D_2$. Если $u_1 \equiv u|_{D_1} \in C^1(D_1 \cup S)$, $u_2 \equiv u|_{D_2} \in C^1(D_2 \cup S)$ и на S выполняется

$$\frac{\partial u_2(z)}{\partial \nu^1} = \frac{\partial u_1(z)}{\partial \nu^1} \quad (\text{или} \quad \frac{\partial u_1(z)}{\partial \nu^2} = \frac{\partial u_2(z)}{\partial \nu^2}),$$

где $v^k = (v_1^k, v_2^k, \dots, v_{2n}^k)$ – единичная внешняя нормаль к границе D_k ($k = 1, 2$), тогда функция $u(z)$ является α – гармонической в D .

Использованная литература:

1. Blanchet P. On removable singularities of subharmonic and plurisubharmonic functions. *Complex Variables*, 26 (1995), pp. 311 – 322.
2. Riihenta L. Removability results for subharmonic functions, for harmonic functions and for holomorphic functions. *Matematychni Studii*, 2016. vol. 46, issue 2, pp. 152 – 158.
3. Садуллаев А., Ярметов Ж.Р. Устранимые особенности субгармонических функций класса Lip_α . *Мат. сб.*, 186, 1995, № 1, с. 131 – 148.
4. Абдуллаев Б.И., Имомкулов С.А. Устранимые особенности субгармонических функций из класса L_p и L_p^1 . *Узбекский математический журнал*. Ташкент, 1997, № 4, с. 10 – 14.
5. Абдуллаев Б.И., Ярметов Ж.Р. Об особых множествах субрешений эллиптических операторов. *Вестник КрасГУ*, 2006, № 9, с. 74 – 80.
6. Садуллаев А. Теория плюрипотенциала. Применения. *Palmarium Akademic Publishing*, 2012, с. 316.
7. Ваисова М.Д. Ёмкости в классе α – субгармонических функций и её свойства. “Илм сарчашмалари”, Ургенч, 2018, № 6, с. 8 – 13.
8. Ваисова М.Д. Теория потенциала в классе α – субгармонических функций. *Узбекский математический журнал*. Ташкент, 2016, № 3, с. 46–52.
9. Б.И.Абдуллаев, С.А.Имомкулов, Р.А.Шарипов. α – субгармонические функции. *Современная математика. Фундаментальные направления*. РУДН, том 67, № 4 (2021), с. 620 – 633.
10. Миранда К. Уравнения с частными производными эллиптического типа. М., ИЛ, 1957.

**Teshaboyev Muhiddinjon (PhD, TDIU mustaqil izlanuvchisi)
JAMIYATDA IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI VA PRINSIPIAL
MASALALARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarining muhim prinsipial masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarining falsafiy-huquqiy muammolari tadqiq etilgan bo'lib, uni amaliy hayotga tatbiq etishning turli usullari ko'rib chiqilgan. Ijtimoiy hayotda adolatni ta'minlash masalalari ilmiy asosda tadqiq etilgan. Maqolada jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy ahamiyatga ega tavsiyalar berilgan.*

***Аннотация.** В данной статье проанализированы важные принципиальные вопросы механизмов обеспечения социальной справедливости. А также рассматриваются философско-правовые проблемы механизмов обеспечения социальной справедливости, освещаются различные этапы её практического внедрения. Делается попытка исследования вопросов обеспечения справедливости в общественной жизни на научной основе. В статье даются научно значимые рекомендации по совершенствованию механизмов обеспечения социальной справедливости в обществе.*

***Annotation.** Important fundamental issues of the mechanisms for ensuring social justice have been analyzed in this article. It also researches the philosophical and legal problems of the mechanisms for ensuring social justice, examines the various stages of its practical implementation. The issues of ensuring justice in public life have been researched on a scientific basis. The article provides scientifically significant recommendations for improving the mechanisms for ensuring social justice in society.*

***Kalit so'zlar:** adolat, ijtimoiy adolat, adolatsizlik, jamiyat, qonunlar, tenglik, globallashuv, huquq, huquqiy madaniyat, mulqot madaniyati, ijtimoiy tanazzul, ijtimoiy muammolar, haqiqat, ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy javobgarlik.*

***Ключевые слова:** справедливость, социальная справедливость, несправедливость, общество, законы, равенство, глобализация, право, правовая культура, культура общения, социальная деградация, социальные проблемы, истина, социальное неравенство, социальная ответственность.*

***Key words:** justice, social justice, injustice, society, law, equality, globalization, law, legal culture, communication culture, social degradation, social problems, reality, social inequality, social responsibility.*

Jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash muammolari muhim prinsipial masalalardan biri bo'lib, bugungi zamonaviy dunyoda har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bu masalani yetarlicha ilmiy asosda o'rganishni taqozo etmoqda. Ushbu maqolada jamiyatda aynan ana shu ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarining ilmiy asoslari o'rganilgan bo'lib, uni tadqiq etishning turli ilmiy metodologik asoslari tahlil qilingan. Bunga bugungi kunimizdagi ijtimoiy adolat me'yorlarining buzilishi, ijtimoiy adolatni ta'minlash borasidagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarning o'rta tashlanayotgani, zamonaviy jamiyatlarda adolatning qadrsizlanishini sabab sifatida ko'rsatib o'tish mumkin. Bu esa, albatta, muammoning naqadar murakkab ekanligini ko'rsatibgina qolmay, balki uning yechimlarini izlashning ilmiy mexanizmlarini yaratishni kun tartibiga qo'yimoqda.

Bugunga qadar ushbu muammo turli nuqtayi nazardan o'rganilgan bo'lib, faylasuf olimlar, huquqshunos va siyosatshunoslar chuqur tadqiq etishgan. Ayni paytda, mazkur ilmiy muammoni o'rganish doirasida olim va faylasuflar tomonidan keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda va xorijda jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarini o'rganish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilayotganligi bu masalaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarining prinsipial masalalari faqatgina falsafa yoki huquqshunoslik doirasi bilan cheklangan muammo sifatida emas, balki ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida ham o'rganilmoqda.

Jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganishda adolat tushunchasining mohiyatini ham tadqiq etishni talab etadi. Huquqiy-falsafiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, adolat tushunchasi ham huquqiy, ham axloqiy, ham uni jamiyat bilan bog'liq holda tahlil qilish jihatidan falsafiy ahamiyatga ega bo'lib, umumiy qadriyat hisoblanadi. Shu ma'noda, adolat tushunchasi har birimiz yashaydigan ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar mavjudligi asoslari to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Tom ma'noda, adolatni ma'naviy-huquqiy va ijtimoiy-siyosiy ong kategoriyasi, odamlarning ijtimoiy ideallar, shuningdek, normalar va inson huquqlari to'g'risidagi g'oyalarini tarixan o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan va zarur bo'lgan tushuncha sifatida baholash mumkin. Adolat insonning yoki ijtimoiy guruhning amaliy roli va ularning ijtimoiy mavqeyi, ularning huquq va majburiyatlari, xatti-harakati va jazosi, odamlarning xizmatlari va bu boradagi jamoatchilik fikri o'rtasidagi muvofiqlikni talab qiladi. Bundan tashqari, ushbu munosabatlardagi nomuvofiqlik adolatsizlik deb tan olinadi.¹ Misol uchun, "Yangi falsafiy ensiklopediya"da adolatni ijtimoiy hayotning fikrlar, pozitsiyalar, manfaatlar va boshqalar kurashlari bilan bog'liq bo'lgan umumiy axloqiy sanksiyasi sifatida belgilaydi. Bundan tashqari, u adolatning ikkita shaklini: umumiy adolatni (axloqiy-huquqiy hayotni) va maxsus (xususiy) adolatni, ya'ni moddiy Tovarlarni taqsimlashda ma'naviy jihatdan mutanosiblikni belgilaydi.²

Boshqacha qilib aytganda, adolatli jamiyat bu "vijdonan" qurilgan jamiyat, ya'ni ushbu jamiyatda qabul qilingan axloqiy ongga, uning a'zolari yaxshi va yomon g'oyalariga muvofiq qurilgan jamiyat. Bundan tashqari, huquqiy davlatda "yaxshilik va yomonlik" huquqiy normalar ko'rinishida tuzilgan. Shunday qilib, adolat tushunchasiga munosabatda ikki xil yondashuv mavjud bo'lib, birinchisi, adolatning huquqiy talqinini odamlarning axloqiy ongidan sezib bo'lmaydigan tarzda ajratish, shu bilan birga, adolat to'g'risidagi rasmiy-ma'naviy va axloqiy g'oyalar o'rtasidagi ma'naviy-huquqiy "kelishuv" tushunchasini aniqlash mavjud. Ikkinchisi, "adolat" tushunchasining yana bir talqini mavjud bo'lib, ya'ni nafaqat "haqiqiy", "to'g'ri", lekin, ayni paytda, "qonuniy ravishda amalga oshirish" tushunchasidir.³ Ushbu ta'riflarning qiyosiy tahlili bizga adolat va ijtimoiy adolat tushunchalariga yangicha yondashuvni shakllantirishga imkon beradi. Shubhasiz, ijtimoiy adolat, avvalambor, insonning ongida mavjud bo'lgan va shundan keyingina obyektiv voqelikda mavjud bo'lgan axloqiy kategoriya. Ushbu tezis ijtimoiy adolatga nisbatan faol munosabatni nazarda tutadi. Ijtimoiy adolatning mavjudligi faqat insonning jamiyatdagi ijtimoiy harakatida ko'rish mumkin.

Bir qator sotsiologlarning fikricha, adolat kabi ijtimoiy adolat tushunchasini ham to'laqonli ilmiy asoslash mumkin emas. Ilm, birinchi navbatda, mavjud, haqiqiy bilan shug'ullanadi, ammo tegishli ravishda har doim mavjud va haqiqiy bilan qarama-qarshi bo'lishi shart emas. Bundan tashqari, bu ularning tabiiy namoyon bo'lishi va davomi bo'lishi mumkin. Masalan, bunga misol qilib qarz oldi-berdi munosabatini olishimiz mumkin. Bunda qarz mavjud bo'lgan narsadan kelib chiqadi, aslida, to'lov mavjud, ammo kelajakda ko'rib chiqiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, adolatni tushunish tarixiydir, unga ko'plab omillarni sabab qilib ko'rsatish mumkin (tarixiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqalar). Ammo bu o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan bir qator barqaror aqliy xususiyatlar, axloqiy imperativlarning mavjudligini inkor etmaydi (masalan, sevgi va tenglik istagi ijtimoiy hayot tuzilishining adolatli ta'moyili sifatida).

Ijtimoiy adolat kategoriyasi juda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega va chuqur ma'noga ega, chunki bir tomondan, jamoat ongida nima borligi va mavjudligi haqida axloqiy g'oyalar, boshqa tomondan esa qonuniy ruxsat etilgan normalar mavjud (siyosiy, huquqiy va iqtisodiy). Boshqacha qilib aytganda, biron-bir davlat tizimi, me'yoriy huquqiy hujjat yoki mulkchilik shakli, agar u aholining katta qismi ongida mavjud bo'lgan ijtimoiy hayotning adolatli asoslari tushunchalariga mos kelmasa, mutlaqo qonuniy bo'lmaydi. Uning eng umumiy shaklida aytish mumkinki, ijtimoiy adolat tarixiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan aniqlangan axloqiy kategoriya bo'lib, u nima va nima bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlarni aks ettiradi. Ijtimoiy adolatning ma'nosi shaxs yoki ijtimoiy guruhning jamiyatdagi amaliy roli va ularning ijtimoiy mavqeyi o'rtasidagi muvofiqlik talabini, balki, bundan tashqari, bu nafaqat shaxs, balki ijtimoiylik tushunchasini ham anglatadi. Qolaversa, ijtimoiy adolatning "haqiqatga muvofiqligi" degan ta'rifi nizoni hal qilish, odamlarning xulq-atvori obyektiv voqelikdan kelib chiqqan holda, haqiqatga asoslanishi kerakligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy adolat muayyan masalalarni hal qilishda teng va tengsizning o'ziga xos o'zaro bog'liqligi bo'lib, yaxshilik va haqiqatga xizmat qilishi, konstruktiv tabiat va yo'nalishga ega bo'lishi kerak. Ijtimoiy adolat, Aflotunga ko'ra, "tarqatish qobiliyati,

¹ Философский словарь. А.В.Адо и др.; под ред. И.Т.Фролова. 6-е изд., перераб. и доп. М., "Политиздат", 1991, с. 559.

² Новая философская энциклопедия. В 4 т., Т. 3, Н – С, Ин-т философии Рос. акад. наук; Нац. обществ.-науч. фонд; науч.-ред. совет. Степин В.С. пред. [и др.], М., "Мысль", 2001, с. 693.

³ Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. 80000 слов и фразеол. выражений, РАН, Ин-т рус. яз. им. В.В.Виноградова. 4-е изд., доп., М., "Азбуковник", 1997 (1999), с. 943.

har kimga o'z qadr-qimmatini berish", "tenglik". Shuningdek, ijtimoiy adolat "hayotdagi qonunlarga bo'ysunish qobiliyati", "to'g'ri qonunlarga bo'ysunish qobiliyatidir".¹

Aflotunning fikricha, ijtimoiy adolatning mohiyati quyidagilarda aks etadi: birinchisi, har biriga o'z qilmishiga qarab taqsimlash. Bu ijtimoiy adolatni taqsimlash funksiyasini ifodalaydi; ikkinchisi, odamlarni amalda, harakatlar uchun tenglashtirish. Bu ijtimoiy adolatni tenglashtiruvchi funksiyani ko'rsatadi; uchinchi, qonunlarga, "to'g'ri" qonunlarga bo'ysunish. Bu axloqiy burchni bajarish qobiliyatidan boshqa narsa emas. Shunday qilib, ijtimoiy adolatni tenglashtiruvchi va taqsimlovchi qobiliyatini ochib beradigan birinchi ikkita funksiya uni javobgarlik prinsipi sifatida tavsiflaydi, bu esa shaxsning ijtimoiy subyekt sifatidagi xatti-harakatlariga to'g'ri obyektiv baho berishni, mukofotni xolisona aniqlash uchun asosni tashkil etadi. Ijtimoiy (huquqiy, jinoiy) javobgarlikning obyektiv tomonida namoyon bo'lgan bu qobiliyat ijtimoiy adolatning obyektiv tomonini aks ettiradi. Ijtimoiy subyektning mas'uliyatli xatti-harakatlarida, uning xulq-atvoriga subyektiv baho berish (o'zini-o'zi baholash) orqali amalga oshiriladigan "to'g'ri" qonunlarga bo'ysunish ijtimoiy adolatning subyektiv tomonini aks ettiradi. Ushbu qobiliyat ijtimoiy adolat va axloqiy qonunlarning uzviy bog'liqligini, unga bo'ysunish esa odamning e'tiqodi, ongli ehtiyoji, amaliy hayotda odamlarning ishlarida va xatti-harakatlarida axloqiy burchning namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Pifagor o'z davridagi qonunlar unga adolatsiz ekanligiga ishora qilib, talabalariga: "avvalo, qonunlardan ko'ra odob-axloqqa ega bo'lishga harakat qiling: axloq – bu birinchi ijtimoiy qonunlar", deb ta'kidlaydi.²

Ijtimoiy adolatning huquqiy-falsafiy asoslarini rivojlantirishga T.Gobbs, J.Lokk, D.Yum va I.Kant kabi mutafakkirlar eng katta ta'sir ko'rsatdilar. Ular ijtimoiy adolatni nafaqat mavhum huquqdan, balki individual harakatlardan nisbatan mustaqil bo'lgan ijtimoiy axloq va ijtimoiy institutlardan ajralib turadigan soha sifatida to'ldirdilar. T.Gobbs fikricha, shaxslar bir-birining huquqlarini hurmat qilishga tayyor, lekin boshqalar ularning huquqlarini hurmat qilishlariga amin emaslar. Bu shaxslarning tabiiy holati urush holatidan boshqa narsa emas.

Bu holatda hech qanday jamiyat yo'q, lekin, eng yomoni, abadiy qo'rquv va zo'ravon o'limning doimiy xavfi mavjud va odamning hayoti yolg'iz, umidsiz, zerikarli va qisqa umrdir. Shuning uchun jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashning yagona yo'li faqatgina ijtimoiy shartnoma va davlatga yoki fuqarolik holatiga o'tish bo'lishi mumkin.³ Lokk nazariyasi ko'ra esa jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash jamiyatda individuallikni inkor etmaydi. Aksincha, uning g'oyasi liberal ijtimoiy adolatni himoya qilishga qaratilgan. D.Yum Lokkning empirik etikasini qayta ishlab chiqdi, uning ijtimoiy adolat nazariyasiga adolat ijtimoiy muloqotning asosiy shakli sifatida qaraladi. Yumning mazkur nazariyasi utilitizmning keyingi rivojlanishiga asos yaratdi.⁴ Yum nazariyasi I.Kantning ijtimoiy adolat haqidagi nazariyasini rivojlantirish uchun asos bo'ldi. Kantning nuqtayi nazari bo'yicha, inson erkin va avtonom bo'lgan irodaga ega. Aynan shu narsa insonni boshqa tabiatdan ajratib turadi, qadr-qimmatini beradi. Insonni inson qiladigan narsa bu qandaydir maqsadlar, turlicha qiziqishlar va yaxshilik tushunchalari emas, balki o'z-o'zidan harakat qilish qobiliyatidir. Bundan kelib chiqadiki, inson predmeti o'z maqsadlaridan oldin keladi va yaxshisi oldinda turadi. Adolat va ijtimoiy adolat o'ziga xos maqsad sifatida maqsadlar va manfaatlarga nisbatan ustun turadi va ulardan chekinib bo'lmaydi. Ammo Kant zamonaviy ma'noda, odillik nazariyasiga ega emas edi, chunki u axloqning ishlashini axloqdan ajratish, shuningdek, ijtimoiy institutlarning individual irodasiga bog'liq holda mustaqil ishlashini tasavvur qila olmagan.⁵ Shu ma'noda aytish mumkin-ki, ijtimoiy adolatga nisbatan jamiyat tarixining o'tish davrida qarama-qarshi tendensiyalar xarakterlidir.

Hozirgi zamonaviy dunyoda ijtimoiy adolatga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlar mavjud: birinchi, fuqarolar, jamoat tashkilotlari tomonidan uning prinsiplarini amalga oshirishda faollikni oshirish; ikkinchi, turli xil "ijtimoiy adolat modellari"ni yaratib, odil sudlovning mohiyati va tabiatiga turli xil yondashuvlar; uchinchi, gumanistik xarakter bilan tobora ko'proq aniqlanadigan shaxs manfaatlariga yo'naltirilganlik, ham mazmuni, ham ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish usullari. Jamiyatda ijtimoiy ado-

¹ Платон. Диалоги. Пер. с. С.Я.Шейман-Тошнштейн. М., "Мысль", 1986, с. 607.

² Таранов П.С. Философская афористика: заповеди, притчи, наставления. М., "Остожье", 1996, с. 574.

³ Гоббс Т. Левиафан, или материя, форма и власть государства церковного и гражданского. Гоббс Т. Сочинения в 2 т., М., "Мысль", 1991, т. 2, с. 3 – 590.

⁴ Юм Д. Трактат о человеческой природе. Пер. с англ. С.И.Серетели; под общ. ред., сов вступ. ст. и примеч. И.С.Нарского, Минск, ООО «Рориği», 1998, с. 720.

⁵ Кант И. Метафизика нравов. Собрание сочинений. В 8 т., под ред. А.В.Гулыги, М., "Мысль", 1994, т. 6, с. 223–543.

latni ta'minlash uchun mamlakatimizdagi islohotlar jarayonlariga nimalarni tatbiq etish mumkin? Jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashning o'ziga xos xususiyati shundaki, u ikki omil ta'sirida aniqlanadi va amalga oshiriladi. Ulardan biri bu bozor. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, na hukumat, na davlat miqyosidagi komissiya, na boshqa biron-bir tashkilot mehnatning har xil turlarini sifat jihatidan o'lchab, yagona o'lehovni o'rnatmaydi. Ammo barcha farqlarni yo'q qiladigan shunday universal o'lchagich mavjud: bu bozor orqali harakat qiladigan qiymat qonunidir. Bozor haqiqiy ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun obyektiv chorani ta'minlaydi. Bozor insoniyat sivilizatsiyasining eng katta yutuqlaridan biri bo'lib, u har qanday jamiyatga nisbatan o'zgarmasdir. Yana bir omil bu demokratiyadir. Iqtisodiyotdagi demokratiya, avvalambor, ishlab chiqaruvchining bozorda, o'z mehnatiga obyektiv va adolatli baho berish erkinligida namoyon bo'ladi. Adolat inson munosabatlarining keng sohasiga ta'sir ko'rsatadigan eng murakkab ijtimoiy-falsafiy kategoriyalardan biridir. Iqtisodiyot, huquq, siyosat va axloqning o'zaro ta'siri, jamoat hayotining ijtimoiy hodisalari haqidagi umumiy tushuncha sifatida xizmat qiladi.

Boshqacha qilib aytganda, adolat toifasi turli ijtimoiy hodisalar va omillarni baholash uchun qo'llaniladi: iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy; shaxsning jamiyat va boshqa odamlar bilan munosabati. Unga bunday yondoshish uning rivojlanishining tarixiy istiqbolini tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ijtimoiy adolat har qanday ijtimoiy-iqtisodiy shakllanish uchun amal qiladigan rasmiy mantiqiy jihati bo'yicha quyidagi umumiy prinsiplar bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy munosabatlarning muayyan jamiyatning asosiy prinsipiga muvofiqligi prinsipi "ijtimoiy adolat" kategoriyasining mohiyatini ifoda etuvchi va uning ikkita boshqa prinsiplarining mazmunini belgilovchi asosiy prinsipdir. Bu ijtimoiy tizimning normal ishlashini ta'minlaydi, uni begona nafas va dushman ijtimoiy hodisalarning kirib kelishidan himoya qiladi. Ushbu tamoyilning mazmuni ushbu ijtimoiy-iqtisodiy shakllanish mavjud bo'lgan davrda saqlanib kelmoqda va uning mohiyatini ifoda etadi.

Ikkinchi tamoyil – ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir ijtimoiy tizim prinsiplariga muvofiqligini o'lchash prinsipi. Har qanday ijtimoiy tizim doimiy ravishda rivojlanib boradi va faqat uning barcha qismlarini doimiy ravishda moslashtirgan holda o'z mohiyatini saqlab qolishi mumkin. Shu sababli, ta'kidlash mumkinki, ijtimoiy adolat prinsipi ijtimoiy tizimning turli qismlarini ularning rivojlanishi jarayonida muvozanatni ta'minlaydi va mavjud jamiyatning barqaror ishlashiga imkoniyat yaratadi. Uchinchi tamoyil – ijtimoiy adolatning me'yoriy va baho jihatlarini aks ettiruvchi prinsip. Adolat ma'naviy hayotning elementi sifatida barcha ijtimoiy munosabatlarni yaxlit baholaydi, barcha maqsadlar, vositalar va natijalarning ijtimoiy rivojlanishini baholash mezonidir. Shunday qilib, maqsadlar haqiqiy ehtiyojlarga mos keladigan bo'lsa, haqiqiydir.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy adolatni hayotning barcha sohalarida shaxs va ijtimoiy hamjamiyat (jamoat, millat va boshqalar) salohiyatini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning tarixiy shakllangan shakli (shartlari va usuli) sifatida aniqlash mumkin. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotni ta'minlaydigan taraqqiyotga bo'lgan ehtiyoj, shaxs yoki guruh natijalarining ijtimoiy ahamiyati odamlarning kelib chiqadigan tengsizligini oqlaydi. Jamiyat har bir kishiga ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va ro'yobga chiqarishga imkon beradigan sharoitlarni yaratishda shaxs va turli ijtimoiy qatlamlar oldida javobgardir. Shaxs jamiyat uchun eng samarali rivojlanishi va qo'llanilishi uchun javobgardir. Ushbu tushuncha bilan ijtimoiy adolat ijtimoiy javobgarliksiz mumkin emas, chunki adolatsizlik teng huquqsizlik sifatida tushuniladi, inson va jamiyatning huquqlari va majburiyatlarining dialektik birligini o'z ichiga oladi.

Qulmatov Primqul Meliqo'ziyevich (Jizzax Politexnika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, f.f.n., dotsent)

XVI ASR IJTIMOIY-FALSAFIY TARAQQIYOTIDA MUHAMMAD SHAYBONIYXON ILMIY-IJODIY FAOLIYATINING AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'z davrining atoqli davlat arbobi, shoh Muhammad Shayboniyxon va uning ilmiy-ijodiy faoliyati haqida so'z boradi. Xususan, uning ushbu davr ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotidagi o'rni va roli to'g'risida fikrlar bildirilgan.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена известному государственному деятелю своего времени, царю Мухаммаду Шейбанихану и его научной, творческой деятельности. В частности, приводятся суждения о его месте и роли в социально-философском развитии этого периода.*

***Annotation.** This article is about the famous statesman of his time, King Muhammad Shaibanikhan and his scientific and creative activity. In particular, its place and role in the socio-philosophical development of this period were discussed.*

Kalit soʻzlar: davlat, ijtimoiy hayot, falsafiy taraqqiyot, ilm-fan, ijod, Muhammad Shayboniyxon, "Shayboniyнома", Muhammad Solih, Kamolliddin Binoiy, "Baxr ul-xudo", London, "Britan muzeyi", "Devon", Turkiya, "Yangi Turkiston" jurnali, Muhammad Shayboniyxon Shohbaxt, Shayboq, Shaybek, Sheboniy, Shoxibek nomlari, Buxoro, Samarqand, Urganch, Yassi.

Ключевые слова: государство, общественная жизнь, философское развитие, наука, творчество, Мухаммад Шайбанихан, «Шейбани-наме», Мухаммад Салих, Камоллиддин Бинаи, «Бахр уль-худа», Лондон, «Британский музей», «Дивон», Турция, журнал «Новый Туркестан», имена Мухаммад Шейбанихан Шохбахт, Шайбак, Шайбек, Шибани, Шоксибек, Бухара, Самарканд, Ургенч, Ясси.

Key words: state, social life, philosophical development, science, creativity, Muhammad Shaibanihan, "Shaibaniynoma", Muhammad Salih, Kamolliddin Binoi, "Bahr ul-Khuda", London, "British Museum", "Devon", Turkey, New Turkistan Magazine, Muhammad Shaybanikhan Shohbakht, Shayboq, Shaybek, Shebani, Shoxibek names, Bukhara, Samarkand, Urgench, Yassi.

XVI asrda shahar va qishloq aholisining farzandlari maktablarda ta'lim olgan. Muhammad Solih "Shayboniyнома"da Qunduz shahrida boʻlgan voqealarni tasvirlar ekan, har bir mahallada maktab mavjudligini maktabdorlar lutf-u inoyatda boʻlganligini yozadi. Oʻsha davrda mahalliy muallimlar ta'lim-tarbiya ishlariga keng jalb etilgan.

Zayniddin Vosifiy Toshkent viloyatida oʻzbek shahzodasi Navroʻz Ahmad huzurida xonaki muallimlik qilgan. Bu paytda bolalar olti yoshdan maktabga qabul qilingan. Ularga alifbodan saboq berilib, yozuv-chizuvlar oʻrgatilar edi. Soʻngra bolalar maktablardan madrasalarga qabul qilinar edi. Madrasalarda, asosan, diniy ta'lim berilsa-da, hisob-kitob, sheʼr oʻqish, musiqa, xattotlik, naqqoshlik singari maxsus hunarlar madrasadan tashqarida oʻqitilar edi. Oʻsha davrning vaqf hujjatlariga asosan, madrasada uch guruh, quyi, oʻrta va yuqori guruh tolibi ilmlar boʻlib, nafaqa va oziq-ovqat shu guruhlarga qarab belgilanardi. Har bir guruhda oʻqish muddati 8 yildan, jami 24 yillik ta'lim hisoblanardi. Madrasa toliblari madrasa hujralarida istiqomat qilar, darslarga qatnashish majburiy boʻlib, tartibni buzgan tolibi ilmlar, oʻz vaqtida ogohlantirilib, jazolangan.

Temuriylar davridan qolgan maʼnaviy merosni Shayboniylar davom ettiradi. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Movarounnahr oʻzining badiiy ijod bobidagi tarixiy anʼanalarini davom ettirdi. Bu davrda badiiy ijodning turli janr va yoʻnalishlarida ijod qilgan koʻplab shoir va yozuvchilar yetishib chiqdilar. Ular oʻz ijod durdonalari bilan jahon fani va madaniyati xazinasiga munosib hissa qoʻshdilar.

Sulola asoschisi boʻlgan Muhammad Shayboniyxonning, asosan, urushlar bilan oʻtgan 59 yillik umri davomida yuqori saviyali badiiy asarlar yozib, meros qoldirgan. Ammo uning ijod durdonalari uzoq-uzoq yurtlarga sochilib ketgan. Muhammad Shayboniyxon tomonidan 1508-yilda chigʻatoy-turkiy tilida yozilgan "Bahr ul-xudo" ("Haqiqiy yoʻlning dengizi") diniy qasidasining yagona qoʻlyozma nusxasi Londondagi "Britan muzeyi" kutubxonasida saqlanadi.¹

Muhammad Shayboniyxonning yagona sheʼrlar toʻplami boʻlgan "Devon"i Turkiyaning Istanbul shahridagi Toʻpqopi Saroyi kutubxonasida saqlanadi. Undan koʻchirilgan nusxa Oʻzbekiston Milliy universitetining oʻzbek mumtoz adabiyoti kafedrasining qoʻlyozmalar jamgʻarmasida mavjud. Bu asar haqidagi birinchi maʼlumotni tarixchi olim Zakiy Validiy Toʻgʻon 1927-yilda "Yangi Turkiston" jurnalining 1-sonida bosilgan "Muhammad Shayboniyxonning sheʼrlari" maqolasida bergan. Muallifning bergan maʼlumotlariga qaraganda, Muhammad Shayboniyxon Shohbaxt, Shayboq, Shaybek, Sheboniy, Shoxibek nomlari (tahallus)da ijod qilgan devoni 191 varaqdan iborat.² Muhammad Shayboniyxon Sakkokiy, Atoy, Navoiy anʼanasidagi klassik chigʻatoy-turkiy sheʼriyatni davom ettiradi. Uning ijodiyotiga xos boʻlgan xususiyat shundaki, Muhammad Shayboniyxon oʻz asarlarida ona diyori Turkistonga mehr-muhabbatini joʻshib kuylaydi. Turkistonning Buxoro, Samarqand, Urganch, Yassi (Turkiston) kabi shaharlari nomlarini oʻz sheʼrlarida biror kimsa Muhammad Shayboniyxonchalik koʻp ishlatgan emas. Muhammad Shayboniyxon boshqa yurtlar, shaharlarda yurgan kezlarda ham, Samarqand, Buxoro, Turkistonni sogʻinadi. Karmon, Shodmon, Qoqlik, Dargʻon kabi qadimiy ariqlarning zilol suvlarini qoʻmsaydi. U Movarounnahrdek goʻzal yurtni bizga Xudoning oʻzi qimmatbaho sovgʻa sifatida hadya qilgan deb aytadi.³

¹ R.Shamsutdinov va boshq. Oʻzbekiston tarixi. T., "Sharq", 2013, 42-bet.

² Koʻrsatilgan asar. 42-bet.

³ Koʻrsatilgan asar. 42 – 43-betlar.

Shayboniylar sulolalari hukmronligi davrida Movarounnahrda fan va madaniyat rivoj topdi. Muhammad Shayboniyxon hayotligi chog'ida yozilgan turli manbalarda, shu qatorda, Muhammad Solihning chig'atoy-turkiy tilidagi "Shayboniynoma", Fazlulloh bin Ro'zbexonning forscha "Mehmonnomayi Buxoro", Kamolliddin Binoiyning forscha "Shayboniynoma", Sayid Hasanxoja Nisoriyning forscha "Muzakkiri-ahbob" asarlarida Muhammad Shayboniyxon davrida fan va madaniyat rivojlanganligi, Muhammad Shayboniyxon esa fan va madaniyatga homiylik qilgani, o'zi ham o'qimishli, o'tkir, badiiy ijodiy did egasi bo'lganligi ko'rsatiladi. Shayboniylarning deyarli barchasi o'qimishli shaxslar bo'lganlar. Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Rustam Sulton, Abdulazizxon, Juvonmard Sulton kabilar turkiy va forsiyda she'r bitganlar. Muhammad Shayboniyxon Buxoro va Samarqandni temuriylardan so'ng fan, madaniyat va san'at markazlari sifatida rivojlantirdi. Hirot va boshqa joylardagi olimlar, san'atkorlar, adib-shoirlarni Buxoro, Samarqandga olib keltiriladilar. Muhammad Shayboniyxon, asosan, urushlar bilan o'tgan 59 yillik umri davomida yuqori saviyali badiiy asarlar yozib, meros qilib qoldirgan. Ammo uning ijod durdonalari o'z ona zamini O'rta Osiyodan uzoq-uzoq yurtlarga sochilib ketgan.

Shoir ijodi yuzasidan xorijiy olimlar F.Koprulu, Y.Ekman, O.Akbiyik, Y.Qorasovning tadqiqotlari ma'lum. O'zbek olimlaridan E.Ahmadxo'jayeva I.Bekjon uning "Bahr ul-xudo" ("Haqiqiy yo'lning dengizi") nomli qasidasini topishadi.¹

Tarixchi olim, akademik B.Ahmedov Muhammad Shayboniyxon haqida fikr yuritib, bugungi kunda unga bo'lgan munosabat o'zgarishi kerakligini, uning madrasa ko'rganligini, mashhur shayx va olimlardan ilm olganligini, saroyga ahli donishlarni taklif etib, ularni har tomonlama qo'llaganligini, o'zi ham ijod bilan shug'ullanganligini, Naqshbandiya va Yassaviya tariqatlariga ixlos qo'yganligini ta'kidlagan.

Muhammad Shayboniyxon, ba'zi olimlar o'ylaganiday, besavod, qo'pol bir ko'chmanchi emasdi. U zamonasiga yarasha keng ma'lumotli odam, qolaversa, iste'dodli shoir ham edi. Muhammad Shayboniyxon hokimiyat tepasiga hali kelmasdan burun ham, bir necha bor Buxoroda bo'lgan.

Birinchi marta bo'lganida, u Buxoroyi sharifda ikki yil turib, madrasada mashhur ilohiyot olimi mavlono Muhammad Porsoning izdoshlaridan Hofiz Husayn Busiriy va uning xalifasi Xoja Mahmudlar bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Ular, hatto muntazam ravishda bir-birlari bilan bordi-keldi qilishgan. Bir gal Hofiz Husayn Muhammad Shayboniyxon huzurida bo'lsa, ikkinchi safar xon uning huzuriga tashrif buyurgan. Umuman, har ikkalalarining majlisi ulamo va shuaroning ishtirokisiz o'tmagan.²

Muhammad Shayboniyxon Naqshband mozorini ziyorat qilib turganligi ko'p manbalarda ta'kidlangan. Hasanxoja Nisoriyning yozishicha, "Amir Abdul Ali Tarxon zamonida Buxoro mulkida sokin bo'lgan"da, ba'zilar unga qarshi bo'lib, Buxorodan chiqib ketishini talab qilishgan. U Xoja Bahouddin Naqshband qabriga borib ziyorat qilgan. Xojaning nabiralardan bo'lgan Nizomiddin xoja Mirmuhammad Naqshband nazariga tushib, bir muddat uning huzurida yashagan, tarbiyasini olgan. Xoja unga kelajakda Turkistonda xon bo'lishini bashorat qilgan ekan.³

Hasanxoja Nisoriyning yozishicha, Muhammad Shayboniyxonning naqshbandiyani qabul qilish vaqti, uning pir-murshidi, nihoyat, o'n ikki yillik mulkgirlik tarixi qayd etilgan. Muhammad Shayboniyxon Naqshbandning nurga to'la mozorini ziyorat qilib, Naqshbandning nabirasi, hidoyatpanoh nabirasi Mir Muhammad Naqshbandiy xizmatini qilgan. Tavof va xizmat sharafidan so'ng esa ketishga ruxsat so'raganlar. Xoja Mir Muhammad bo'lsa, biz sizga darhol javob bermaymiz, deganlar. Shundan so'ng biroz muddat o'sha nurga to'la mozor yonida bo'lganlar va tahajjud nomozini sav ma'da o'qib yurganlar. Bir kuni Xoja Mir Muhammad debdilarki, "G'ayb kalitlari uning oldida" (Qur'on. 6-sura, 59-oyat) bo'lgan buyuk fattoh o'z ochqichlaridan bir kalitni kifoyatli kaftingizda qo'yadigan ko'rinadi. Ammo bu ishning yuzaga chiqishi Turkiston viloyati taraflarida ro'y berajak. Himmat otini o'yin maydonida tez orada yo'rtirib qolish darkor, zero, iqbol shohi rux ko'rsatsa, farzin yurishli dushman agar quturgan fil bo'lsa ham, piyodalaringiz oyog'i ostida yanchilib, hayotining kishti (hosili) mamot (o'lim) otashida kuyib, kuli ko'kka sovrilajak... Ular bu bashoratli ishoratga rioya qilgach, deyarlik o'n ikki yil davomida Turkiston viloyatidagi Domg'on (Xuroson) chegarasigacha bo'lgan yerlarni o'z tasarrufi doirasiga kiritib, dorussaltanat Hirot va Samarqandda o'z Humoyun otlariga xutba o'qitganlar... She'riyat sohasi va shoirlarga e'tiqod-e'tibori katta bo'lgan. Mudom olimu fozillarni o'ziga hamsuhbat qilgan. Yaxshi she'rlari bor.⁴

¹ Muhammad Shayboniyxon: Shoh va shoir. Internet sayti. 02.18.2008.

² B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. "O'qituvchi", Toshkent, 1994, 248-bet.

³ B.Valixojayev, Q.Tohirov. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1998, 85-bet.

⁴ Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. T., 1993, 19 – 20-betlar.

Muhammad Shayboniyxonning turkiy she'rlarini o'z ichiga olgan turkiy devoni "Devoni Shayboniy" Turkiyada nashr etilgan. Uning she'rlari din va tasavvuf ruhidagi pandnomalar bo'lib, sodda turkona uslubda yozilgan.¹

O'zbek she'riyatining mumtoz shoirlaridan biri Ubaydulloxon. Ubaydulloxon 1487-yil Dashti Qipchoq hukmdori bo'lgan Muhammad Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sulton xonadonida dunyoga kelib, 1539-yil Buxoroda vafot etgan. Shayboniylar sulolasining yirik siyosiy va harbiy namoyandalardan bo'lgan Ubaydulloxon 1533–1539-yillarda Buxoro taxtiga ega bo'lib, mamlakatni idora qilishi bilan bir qatorda, madaniy-ma'rifiy sohalarda ham muhim ishlarni amalga oshirgan. O'sha davr tarixchisi Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" sida qayd etilishicha, Ubaydulloxonning harbiy mahorati va jasorati hamda davlat arbobi sifatida qattiqqo'lligi Turkiston xalqlarini "qizilboshlar", ya'ni, Ismoil Safaviy boshchiligidagi eroniylar istibdodidan saqlab qolgan. Shu bilan bir qatorda, uning halovatli zamonida Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati gullab-yashnagan.²

Muhammad Shayboniyxonning Ismoil Safaviy qo'shinlari tomonidan "tuzoq"qa tushib yengilishi va uning fojiali o'limi shayboniylar orasida ma'lum darajada ma'naviy parokandalik yuz berishiga olib keldi. Ubaydulloxonning harbiy mahorati va jasorati, uning davlat arbobi sifatidagi qattiqqo'lligi tufayli safaviylar qo'shini chekendi. Ubaydulloxonning mahorati bois O'rta Osiyo shaharlarining qirg'in qilinishi, talashi to'xtatildi. Ubaydulloxon Shayboniy hukmdorlaridan Ko'chkinchixon (1510–1530), uning o'g'li Abu Said (1530–1533) hukmronligi davrida ularning noibi, 1533–1539 yillarda Esaxon ko'tarilib, mamlakatni boshqardi. Shu davrda uning mablag'iga mashhur Mir Arab madrasa qurildi, uning hoki shu madrasa xonalaridan biriga qo'yilgan.³

Ubaydulloxonning otasi Mahmud Sulton 1505-yili Qunduzda vafot etgan. Uni Samarqandga olib kelib ko'mishgan. Bu vaqtda 18 yoshda bo'lgan Ubaydulloxon Buxoro hokimi etib tayinlangan. U ko'plab harbiy yurishlarda qatnashgan. Urushlarda amakisi Muhammad Shayboniyxonning o'ng qo'li bo'lgan. Hasanxoja Nisoriyning yozishicha, Muhammad Shayboniyxon g'alabalarining deyarli hammasi Ubaydulloxon harbiy mahorati va shijoatining natijasi bo'lgan. Ubaydulloxon 1529-yildan to umrining oxirigacha shayboniylar egallagan o'lkalarning bosh hukmdori bo'lgan. U xonlik qilgan davr siyosiy jihatdan nisbatan tinchlik hukm surgan, madaniy hayotda jonlanish yuz bergan, qator shoirlar, madaniyat arboblari o'zlarini namoyon etgan bir davr bo'lgan.⁴

Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasida yozilishicha, Muhammad Shayboniyxon o'limidan so'ng Ubaydulloxon juda ozchilik qo'shin bilan g'animlarini mag'lubiyatga uchratib, yaratganining izmi bilan g'alaba qozonib, davlat tepasiga kelgan. Hazrat xon Shayboniy shahid bo'lganlaridan keyin Movarounnahr viloyatlarining barchasi Shaybon sultonlari qo'lidan chiqib, to'qqiz yuz o'n yettinchi (917) yili mazkur amir (Mir Arab)ning nafis nafaslari sharofati sabab Hazrat Ubaydullo Bahodirxon uch ming qurollangan chavandoz bilan kelib, oltmish ming kishiga qarshi jang qilib "Olloning izmi bilan ozchilik ko'pchilik ustidan g'alaba qozonib, Movarounnahr mulkini butunlay qo'lga kiritganlar.

Ubaydulloxon jasur va dovyurak lashkarboshi, qattiqqo'l hukmdor va adabiyotshunos edi. U Muhammad Shayboniyxondan so'ng kuchli va tartibli davlatga asos soladi, olti marta Xurosonga lashkar tortib boradi, Eron qo'shinlariga bir necha bor qaqshatqich zarbalar beradi, Xorazmni o'ziga bo'ysundiradi.⁵

XVI asrda mamlakatning turli markazlaridan yuzlab olimlar, shoirlar, tarixchilar, rassomlar, husnixat egalari faoliyat ko'rsatganlar. Birgina Buxoroning o'zida bir vaqtda o'nlab ilm va madaniyat namoyandalari ijod qilganlar. Ular orasida qomusiy ilm egalari ham kam bo'lmagan. Ko'rilayotgan asrlarda ijod qilgan olim-u fozillar, shoirlar, tarixchilar shular jumlasidandir.⁶

Muhammad Shayboniyxon Buxoro va Samarqandni temuriylardan so'ng fan madaniyat va san'at markazlari sifatida rivojlantiradi. Hirot va boshqa joylardagi olimlar, san'atkorlar, adib-shoirlar Buxoro, Samarqandga olib keltiriladilar.

Shayboniylar davrida fan va madaniyat sezilarli darajada rivojlangan. Bunga ushbu sulola hukmdorlari orasidan o'z davrining yetuk ilm-fan afboblari yetishib chiqqanligi ham ta'sir ko'rsatgan. Chunon-

¹ Yoqubjon Is'hoqov. Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. Toshkent, 2002, 94-bet.

² Hoshimxonov M., G'oziyev S. Nur Sharqdandir. "Yangi asr avlodi", Toshkent, 2003, 133-bet.

³ Qul Ubaydiy. Vafo qilsang. T., 1997, 3-bet.

⁴ B. Valixojayev, Q. Tohirov. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1998, 94-bet.

⁵ B. Valixojayev, Q. Tohirov. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1998, 94-bet.

⁶ Karimov E. Markaziy Osiyoda Kubroviya tariqati tarixiga oid ayrim so'nggi o'rta asr manbalarining tavsifi xususida. "O'zbekiston tarixi", 2006, 1-son, 24 – 33-betlar.

chi, Muhammad Shayboniyxon, Kuchkunjixon va Ubaydullaxonlar o‘z davrining nihoyatda o‘qimishli kishilari bo‘lganlar.

**Юлдашев Фахриддин Абдуваситович (фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори, PhD,
Фаргона Давлат университети)**

ФОРОБИЙ ФАЛСАФАСИДА ИНСОН БАРКАМОЛЛИГИ ВА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАР МАСАЛАСИ

Аннотация. Шарқ перипатетизми вакилларида бири ҳисобланган Абу Наср Форобий яратган буюк асарлари орқали ўрта асрлардаги Европа фалсафий тафаккури ўзининг ривожланиши даврини бошлаган десак, муболага бўлмайди. Қомусий олимнинг асарларида инсон омили масаласи баркамоллик ҳамда қадриятлар уйғунлиги билан йўғрилиб кетган. Ушбу мақолада Форобий қарашларида инсонни баркамолликка етишув ахлоқий қадриятлар орқали юзага келишининг фалсафий жиҳатлари назарий таҳлил қилинган.

Аннотация. Не будет преувеличением сказать, что средневековое европейское философское мышление начало свой период развития благодаря великим трудам Абу Насра Фараби, одним из представителей восточного перипатетизма. В работах ученого-энциклопедиста проблема человеческого фактора пронизана совершенством и гармонией ценностей. В данной статье проведен теоретический анализ философских аспектов становления человека через нравственные ценности в его предрассуденных воззрениях.

Annotation. It would not be an exaggeration to say that medieval European philosophical thinking began its period of development thanks to the great works of Abu Nasr Farabi, who is considered one of the representatives of Eastern peripatetism. In the works of the encyclopedic-scientist, the problem of the human factor is permeated with perfection and harmony of values. This article provides a theoretical analysis of the philosophical aspects of human development through moral values in his preconceived views.

Калит сўзлар: инсон, инсон баркамоллиги, ахлоқий қадриятлар, фозил инсон, бахт-саодат.

Ключевые слова: человек, человеческое совершенство, нравственные ценности, добродетельный человек, счастье.

Key words: man, human perfection, moral values, virtuous person, happiness.

Абу Наср Форобийнинг фалсафий-илмий меросида инсон ва унинг моҳияти, инсон ҳаётининг ақлий қувватлар ва ҳис-ғуйғуга хос, кўнгил – руҳий фазилатлар орқали жамият билан узвий боғлиқлиги масаласи муҳим ўринни эгаллайди. Инсон ўзи нима, у чек-чегараси йўқ бепоён оламда қандай ўрин тутади, табиатдаги ёввойи ҳайвонлар, умуман, жониворлардан қандай хусусиятларига кўра фарқ қилади, инсон ҳаётининг моҳияти – бош мақсадини нима ташкил этади? Бу саволлар буюк файласуф олимни умр бўйи ўйлантирган масалалар эди. Айни шу маънода Форобий фалсафасида ақлли инсон ва фозил инсон ўртасидаги муносабатлар диалектикаси тўғрисидаги қарашлари ахлоқий қадриятлар масаласи билан уйғунлашиб кетган.

Форобий инсон камолотини вужуд майл-истакларида ва ҳайвонларда бўлган сезгилар соғломлигида эмас, балки инсонийликнинг, асли, жавҳари бўлган ақлий ва руҳий қувватларида деб билади.

“Ҳар бир ҳайвоннинг ҳам бадани, ҳис-сезгиси, фарқлаш қобилияти бор ва шулар туфайли (ҳайвон) ўзининг бадани, ҳис-сезгисининг соғломлигини сақлаб қолишга интилади, дейди Форобий, аммо инсонда ҳиссий идрок этиладиган нарсаларнинг (нима учун, қандай мақсадда) мавжудлигининг сабабларини англашга ва ер юзидаги барча нарса-ҳодисаларнинг сабабларини билишга бўлган интилиш бор. Ҳайвонда эса бундай интилиш йўқ”¹.

Форобийнинг фикрича, инсон билимларга интилиши сабабли қобилиятларини ўстириб боради ёки инсон ўз қобилиятларини ўстириш учун билимларга интилади. “Инсоннинг билимга интилишининг сабаби нимада? деб ёзади Форобий “Арасту фалсафаси” рисоласида. –Инсонни ҳақиқатга йўналтирувчи, билиш, идрок этишга бўлган интилиш қобилияти ва биринчи, даст-

¹ Юлдашев Ф. Абу Наср Форобийнинг “Фи маъоний ал-ақл” асарида гносеологик масалалар. Монография, Тошкент, “Tamaddun”, 2012, 112-бет.

лабки билимлар унга нега (нима учун) берилган? Балки, булар (оламни билиш, идрок этиш (тушуниш, англаш) фақат одамзотга хос хислатлардир? Балки, билиш – инсон моҳияти ёки инсон моҳиятининг таъсирларидан биридир? Агарда билиш – инсон моҳиятининг таъсиридан бири бўлса, инсон моҳиятининг ўзи – энг юксак баркамолликка эришувчи интилишдан иборатдир?”¹

Арасту фалсафасини ривожлантириш йўлидан борган Форобий шу рисоласида инсонлик моҳиятини очишга жуда чуқур кириб боради. Форобий бу мураккаб масалани ҳал этишда инсоннинг билимларга интилиши – энг биринчи зарурий эҳтиёжлардан келиб чиқишини айтади. “Ҳақиқатан ҳам, одамлар зарурат сабабли ўзлари эҳтиёж сезган ҳолатлар (ҳодисалар)ни билишга, идрок этишга интиладилар. Нарсаларни идрок этиш (тушуниш), билишга зарурат туғилмай туриб (олинган), билим хайрли бўлмайди. Яна, билим сифати... зарурий даражадан ошиб кетмаслиги керак. Инсон интилаётган нарса ҳаддан зиёдми, йўқми ва инсонга табиатан хос бўлган бу ҳаддан зиёд хоҳишни чегаралаш ва босиб туриш керакми ёки, умуман, йўқотиш зарурми?”²

Арасту ҳам, Форобий ҳам ақлий фазилатларни қобилият дейдилар, ахлоқий фазилатларни эса илоҳий неъматларга боғлаб талқин қиладилар. Жумладан, Арасту “Никомах этикаси”нинг б-китобида рух (жон) фазилатларини икки турга бўлади:

1. Хулқ-атвордаги фазилатлар.

2. Фикрлашдаги фазилатлар.³

3. Муҳаммад Форобий “Фозил одамлар шаҳри” асарининг “Инсонларнинг бирлашувга, ўзаро ёрдамга эҳтиёжи борлиги ҳақида сўз” деб аталган 26-бобида инсон жамиятда камол топишини ахлоқийликка асосланиши ҳақида тушунтиради.

Инсон табиатан шундай мавжудотки, у ўзи яшаши учун ва энг юқори камолотга етишиш учун кўп нарсаларга муҳтож бўлиб, бир ўзи уларни тайёрлай олмайди, шу сабабли у бир қанча одамлар жамиятига иши тушади. Жамият аъзоларидан ҳар бири барча инсонларга зарур бўлган нарсалардан бирортасини тайёрлаб беради. Демак, ҳар бир инсон шу маънода бошқа инсонга иши тушади. Бир жамиятда яшаб, бир-бирларига ёрдам берганларидагина инсонлар энг юқори камолотга эриша оладилар. Жамият аъзолари бирлашиб, ҳаракат қилганида ҳар бир инсон ҳаёти учун кўпгина нарсаларни тайёрлай оладилар. Шу сабабли одамлар кўпайиб, ер юзининг яшаш мумкин бўлган қисмларига ўрнашганлар, бунинг оқибатида турли жойларда одамларнинг жамиятлари вужудга келган.

Муҳаммад Форобий фалсафий меросининг энг қимматли томонларидан бири шундаки, у ҳар бир замондаги, давлат, жамият ҳаётининг маънавий соғломлиги, мусаффолиги, фуқароларнинг илғор, ватанпарварлик, адолатпарварлик, инсонпарварлик руҳидаги дунёқараши билан ахлоқий, маънавий бойлиги ёки янглиш дунёқараши, маънавий қашшоқлиги билан боғлиқдир. Форобий фикрича, ҳақиқат йўлини танлаш ҳар бир инсоннинг хулқидаги яхши хислатларга, фазилатларга боғлиқдир. Чин инсон эзгулик (яхшилиқ), адолат, ҳақиқат йўлини танлайди. Инсоннинг барча ишлари, хатти-ҳаракатлари, ақлий қувватлари гўзал, эзгу мақсадларга йўналган бўлса, уни оқил ва фозил инсон, дейдилар. Агар инсон ақлий қобилиятларини ёвузлик, ёмонлик учун сарф қилса, уни айёр, маккор одам, дейдилар.

Инсонлар ҳаётида, тақдирида илғор дунёқарашнинг буюк аҳамияти ҳақидаги Форобийнинг назарий фикрлари инсон учун юксак маънавият зарурлиги ғояси бугунги Янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегиясида белгилаб қўйилган “Инсон қадри учун” тамойили устувор ҳисобланаётган шароитда ҳам жуда қимматлидир. Модомики, Форобий асарларида шахс камолоти, жамият ва шахс масалалари алоҳида ўрин эгаллайди. Унинг асарлари тасниф этилганда, сиёсат илми, “шаҳар ҳақидаги илм, шаҳарни бошқариш илми”, яъни “илми ал-маданӣ” юриспруденция (фикҳ) ва мусулмон теологияси (илми калом) хусусида билдирган фикрлари ҳам ўз даврига нисбатан илғор қарашлардан иборат эди. Бинобарин, унинг фалсафий таълимоти, ижтимоий-ахлоқий, сиёсий масалаларни рационалистик позициядан туриб тушунтириши, мантикий далиллаши, изчиллиги билан ажралиб туради.

Бахт-саодатга эришиш учун инсон камолот касб этмоғи, жамият унга бу борада ҳар жиҳатдан қўмак бермоғи, бошқача айтганда, жамиятда инсоннинг энг олий ва охирги мақсадига

¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т., “Янги аср авлоди”, 2016, 68 – 69-бетлар.

² Арасту. Ахлоқи кабир. Таржимонлар: Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. Т., “Янги аср авлоди”, 2015, 212-бет.

³ Шу манба.

эришмоқ учун етарли шарт-шароит яратиб берилган бўлмоғи лозим. Ана шу олижаноб мавқе-даражага қадар юксалмоқ учун инсон билимли, яхши трабияланган бўлиши, бошқаларни ҳам хурмат қиладиган, инсонпарвар ва адолатпарвар бўлмоғи лозим. Форобий, шу тарика, жамият ва шахс камолоти ва унинг аҳамияти, илғор жамият масалаларига доир ғоят қимматли фикрларини олға суради. Жумладан, унинг фикрича, аҳолини ақл орқали бошқариш икки хил бўлади.

Бири – шундай хулқ-одоб, турмуш усуллари, ахлоқ қоидаларини мустаҳкамлашга қаратилганки, улар ҳақиқий бахт-саодатга олиб боради. Шундай бошқаришга асосланган шаҳар яхши, фозил шаҳардир, унга асосланиб иш олиб боровчи халқ эса яхши, фозил халқдир.

Иккинчиси – шундай хулқ-одоб, ахлоқ қоидаларини жорий этишга қаратилганки, гарчи бахт-саодатга олиб борадиган бўлиб кўринса-да, аслида, кишиларни адаштиради, нотўғри йўлга бошлайди. Бунга асосланган шаҳарлар жоҳил, авом шаҳарлардир, унга амал қилган халқлар эса – оми, жоҳил халқлардир.¹

Шуниси диққатга сазоворки, Форобий ҳар қандай оқилона бошқариш замирида гўзал хулқ-одоб, ахлоқ қоидалари ва уни мустаҳкамлашга қаратилган фаолиятни кўради. Бундай фаолиятнинг бирламчи талаби шуки, тарбиячининг ўзи тарбияланган бўлмоғи керак, аввало, хулқ-атвори нуқсонсиз, тарбия кўрган, билимли, маданиятли, бир сўз билан айтганда, фозил инсон бўлиши талаб этилади. Акс ҳолда, аҳолини бошқаришга қўйилган шахслар ахлоқий меъёрларни назар-писанд этмайдиган, уларни менсимайдиган инсонлар бўлса, бу унинг тарбия кўрмаганлигидан далолат бўлиб, улар аҳолини ҳақиқий бахт-саодатга олиб бора олмайдилар.

Файласуф олим, шу тарика, гўзал инсоний фазилатлар, хайрли, эзгу ишлар, инсоний фазилатларни шакллантиришга оид йўл-йўриқлар, инсонни камолотга эришувидан маҳрум қиладиган салбий хислатлар, ҳар турли ёмон одатлар, нуқсонлар, бузуқ хатти-ҳаракатлар ҳақида фикр юритади. Форобий бу мулоҳазаларига яқун ясар экан, “мана шу билимларга маданий билимлар деб ном берамиз”, деб таъкидлайди. Олим нуқтаи назарича, маданий билим шундай билимки, унинг ёрдамида шаҳар халқлари ва шаҳарлик бўлмаган халқларни ўз ичига олган, яъни, инсон оламига хос бўлган барча хислатларни ўзида мужассам этган одамзод жисмидаги ҳар турли аъзолар каби маълум бўлади. Бу ўринда шуниси эслатмоқ жоизки, олим маданий илм деганда шаҳарни ёки замонавий тил билан айтганда, кенг маънода ижтимоий ҳаётни, жамиятни тадқиқ этувчи илмларни назарда тутаяди, яна-да характерли жиҳати шуки, у жамиятни одам организмига қиёс қилади.²

Форобий фалсафасида кишидаги фазилатлар моҳияти ва уларнинг турлари кенг таҳлил этилади. Шулардан бири фикрий фазилатдир. Бироқ олим фикрий фазилатни фикрий қувватдан фарқлаб, уларнинг бир нарса эмаслигига эътиборимизни қаратади: “Фикрий қобилият шуки, у билан ўта кетган манфаатли предметлар билинади ва ихтиро этилади, фикрий қувват шуки, унинг билан ўта кетган зарарли нарсалар кашф ва ихтиро этилади. Шунинг учун бу фаолиятни фикрий қобилият деб эмас, балки кейинги ном билан – фикрий қувват дебгина аташ керак”.³

Олим назарий фикрларини яна-да ривожлантириб, фикрий қобилият билан туғма қобилиятни ўзаро таққослайди ва улар ўртасидаги муносабат ҳамда боғлиқлик хусусида тўхталди. Унинг фикрича, қуввати жиҳатидан энг кучли бўлган фикрий қобилият билан кучли туғма қобилият бир-биридан ажралмайди. Туғма қобилият инсонда устун (файласуф ибораси билан айтганда – “раис”) фазилат бўлса, у ақлий назарий қобилиятга айлангандан сўнг, шу ақл воситаси билан қобилиятларни айира билиш ва улар ёрдамида қутилган предметни кашф этиш ва ҳосил қилиш ҳеч, сўзсиз, мумкин бўлиб қолади. Файласуф фикрича, инсон қобилиятлар эгаси бўлмоғи ва ўз қобилиятларининг куч-қуввати, даражаси, турлари, неларга қодир эканлигини англаб етмоғи мақсадга мувофиқдир. Негаки, инсон фаолиятида содир бўладиган юксалиш ва таназзуллар, ютуқ ва хатолар, ижобий ёки салбий хусусиятлар одатда ана шу қобилиятлар туфайли келиб чиқади.

¹ Юлдашев Ф.Ю. Концепция познания аль-Фараби в истории философии. «Философия инноваций и социология будущего в пространстве культуры: научный диалог». Сборник статей Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. Уфа, 2020, с. 389 – 393.

² Аль-Фараби. Совершенный град. Ибрагим Т.К., Ефремова Н.В. (ред.). Мусульманская философия (Фалсафа): антология. Казань, изд-во ДУМ РТ, 2009, с. 106 – 206.

³ Юлдашев Ф.А. Абу Наср Форобийнинг ақл ва билим эволюцияси ҳақидаги қарашлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. 09.00.03-фалсафа тарихи. Самарқанд Давлат университети, Самарқанд, 2018, 134-бет.

Қизиғи шундаки, файласуф санъат, касб-хунарға хос қобилиятларни бошқа ҳамма қобилиятларнинг энг кучлиси ва мукаммали, деб ҳисоблайди. Унинг хулосасига кўра, бу шундай улуғ фазилатки, инсон уни эгаллаш учун бошқа ҳамма қобилиятларини, ижодий фаолияти, туғма фазилатини ҳам ишга солиши зарур бўлади. Шундай хусусиятга кўра, бу қобилиятни “барчага қобилиятларнинг раиси” деб улуғлайди, раисликда ундан ўтадигани йўқ ва бўлиши мумкин эмас, деб ҳисоблайди.

Эътиборли томони шундаки, файласуф ижтимоий ҳаётда юз берган ёки содир этилган натижалардан уни содир этган шахсга томон эмас, балки инсондаги мавжуд қобилиятлардан содир этилиши ёки қўлга киритилиши мумкин бўлган натижалар томон боришни маъқул деб биледи. Бу чиндан ҳам, мантиқан тўғри йўл бўлиб, жамиятда ижобий қобилиятларнинг устувор бўлиши учун шарт-шароит туғдиради. У ана шу мантиқдан келиб чиқиб, бир қатор ҳаётий мисолларга мурожаат қилади. Айтайлик, лашкарбошида ҳарбий билим, малака, кўникма билан бирга ҳарбий санъатга оид энг гўзал ва фойдали нарсаларни кашф этувчи фикрий қобилият ҳам бўлмоғи лозим. Лекин олим нуқтаи назарича, чинакам лашкарбоши бўлиш учун яна унда аскарликка, умуман, одамзодга тааллуқли бўлган умумий туғма қобилиятлар ҳам бўлиши керак. Акс ҳолда, лашкарбоши оддий аскар ёки аскарлар гуруҳи томонидан амалга ошириладиган вазифани нотўғри белгилайди, топширикни мавҳум тарзда кўяди ва натижада ортиқча талафотларга йўл очади. Худди шунингдек, бу каби хатти-ҳаракатлар бошқа соҳаларда, масалан, тadbиркорликда, тижоратда ҳам содир бўлиши мумкин. “Мол-давлат эгасида бўлган фикрий қобилият фақат мол-давлатни қўлга киритиш учун энг қулай ва манфаатли йўллари излаб топишидир”, деб таъкидлайди олим.¹

Хулоса қилиб айтганда, Форобий жамиятнинг ахлоқий камолоти ва фаровонлиги билан шахс ахлоқий камолоти ва фаровонлиги диалектик, узвий бирликда, деб ҳисоблайди. Чунончи, жамиятда яшовчи баркамол инсон зиммасига бошқа масъулият ҳам юкланган бўлади. Бу масъулият шундан иборатки, фозил шахс ўзида мавжуд бўлган гўзал одат, ирода ва шижоатни бошқаларга ҳам ўргатмоғи зарур. Бунинг учун эса одатда инсондан зўр куч, ғайрат, сабр-тоқат, ирода талаб қилинади. Шу муносабат билан, олим ижтимоий ҳаётда жамият аъзоларида ахлоқ, одоб, расм-русум, касб-хунар, одат ва иродани ҳосил қилиш йўл-йўриқларини тушунтиришга ўтади ва уни икки йўл билан амалга ошириши ҳақида маълумот беради. Булар таълим ва тарбия йўлларидир. Бу йўллар юксак ахлоқий кадрларга асосланган бўлсагина, ҳар бир инсонни баркамоллик даражасига олиб чиқишга хизмат қилади.

Abdullayev Madamin Saotboyevich (UrDU tadqiqotchisi)
MAXTUMQULI FIROG‘IYNING PAND-NASIHATLARIDA AXLOQIY KAMOLOT
MASALALARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada, turkman xalqining buyuk shoiri Maxtumquli Firog‘iyning pand-nasihatlari, ularning insonlarda mehr-oqibat, sahovat, muruvvat kabi fazilatlarini tarbiyalashdagi ahamiyati, inson tabiatiga xos bo‘lgan fazilat va illatlar, axloqiy kamolotga yetaklovchi g‘oyalari bayon etilgan.*

***Аннотация.** В данной статье приводятся суждения об учениях великого поэта туркменского народа Махтумкули Фирого, их значения в воспитании в человеке таких качеств, как доброта, великодушные, качества и пороки человеческой природы, идеи, ведущие к нравственной зрелости.*

***Annotation.** This article tells about the teachings of the poet of the Turkmen people Makhtimguly Pyragi, their value in education in a person, such qualities as kindness, generosity, quality and vices of a great nature, ideas that surpass moral maturity.*

***Kalit so‘zlar:** pand-nasihath, ona yurt, millat manfaatlari, o‘zaro hurmat, ota-onaga, ustozga ehtirom, Vatanning qadriga yetish, mehnatsevarlik, yuksak axloqiy fazilatlar, mehmondo‘stlik.*

***Ключевые слова:** нравовучение, Родина, национальные интересы, взаимоуважение, уважение к родителям, уважение к учителю, уважение к Родине, трудолюбие, высокие моральные качества, гостеприимство.*

¹ Юлдашев Ф.А. Абу Наср Форобийнинг ақл ва билим эволюцияси ҳақидаги қарашлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси, 09.00.03-фалсафа тарихи, Самарқанд Давлат университети, Самарқанд, 2018, 134-бет.

Key words: *admonition, motherland, national interests, mutual respect, respect for the parents, respect for the teachers, respect for the motherland, industriousness, high moral character, hospitality.*

Insoniyat tarixida shunday shaxslar borki, ular millat yuzi bo‘lib, uning sha‘ni va dovrug‘ini dunyoga taratib keladi. Millat dardini kuylagan, uni yorqin kelajak sari chorlovchi da‘vatkor asarlar yaratgan olim-u mutafakkirlar, allomayi zamonlar, shoirlar va san‘at ahli bunga misol bo‘ladi.

Turkman xalqining buyuk mutafakkir shoiri Maxtumquli Firog‘iy mana deyarli 300 yilga yaqin vaqt davomida o‘zining benazir ma‘naviy merosi bilan adabiyot ixlosmandlarini o‘ziga rom etib kelmoqda. U nafaqat turkman xalqining, balki butun insoniyatning falsafiy fikr taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkir desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoirning boy ma‘naviy merosi o‘z zalvori, salobati bilan insoniyatning yetuk daholari qoldirgan ma‘naviy durdonalar qatoridan munosib o‘rin egallaganligi sir emas. O‘zining mashaqqatli turmush sharoitlari, taqdir taqozosi bilan duch kelgan qiyinchiliklar oldida esankirab qolmasdan ijod qilgan va jamiyatdagi mavjud illatlarni ayovsiz qoralagan mutafakkir tom ma‘noda zamonlar osha hurmat va ehtiromga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Mazkur maqolada biz shoirning axloqiy tarbiyaga yo‘g‘rilgan pand-nasihatlarini, imkon qadar, tahlil qilishga jazm etdik.

Maxtumquli o‘z xalqini birlashishga, jabr-zulmga qarshi kurashga chorlagan. Millatning birligi ta‘minlansagina o‘z davlatchiligiga ega bo‘lish mumkinligini qayta-qayta uqdirgan. O‘z xalqining ozodligini, ma‘naviy yetukligini, ruhan tetikligini orzu qilgan shoir ayni mavzuda ko‘plab she‘rlar yozdi. O‘z sh‘erlarida tarqoq turkman urug‘larining yagona millat sifatida birlashishi, avvalo, o‘zligini tanishiga, bir-biriga bo‘lgan ishonch, o‘zaro hurmat va ishonchga bog‘liqligini shoir teran falsafiy mushohadaga asoslangan holda ko‘rsatib bergan.

Maxtumquli ijodiga nazar tashlar ekanmiz, undagi beqiyos falsafa diqqatimizni tortadi. Shoir ijodida pand-nasihatlar alohida o‘rin tutadi. Uning asarlaridagi g‘oyalar xalqona ohangda, sodda va tushunarli tarzda bayon etilib, kishilarni teran falsafiy mushohadaga chorlaydi. Mutafakkir shoir xalqini, zamon-doshlarini adolatli va baxtiyor jamiyatning, farovon va bexavotir turmushning asoslarini anglashga, zamon va makonda sodir bo‘layotgan narsa-hodisalarning asl mohiyati va sabablarini bilish va his qilishga chorlagan. I.Haqqulovning yozishicha, ”turkiy she‘riyat Maxtumquli siymosida o‘zining eng qadimiy g‘oyaviy-badiiy an‘analarini davom ettirib, rivojlantirib, olamda donolik va donishmandlik nurlarini sochdi. ”Hibat ul-haqoyiq”, ”Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy pandnomalaridagi ohanglar Maxtumquli tajribalarida yangilanib, hayot va real voqelik bilan chuqur munosabatini topgan yo‘nalishlarda umr kechirmoqqa boshlagan edi”.¹

Maxtumquli she‘rlarida ustuvor o‘rin egallovchi kuchli xalq falsafasi, pand-nasihatlar shoirning ko‘rgan-kechirganlarini qalamga olib, ular yuzasidan teran xulosalar chiqarganligi mahsulidir. Xalqona ohanglarda yaratilgan she‘rlari o‘zining sodda va ravon tili, shu bilan birga, chuqur ma‘no-mazmunga egaligi bilan hayratga soladi. Unung ijod mahsulini diqqat bilan o‘qib organish asnosida, har bir misrani nihoyatda katta asar salobatiga mehgzash mumkin.

*Har yigitning aslin bilay desangiz,
Ma‘rakada o‘tirish-turishin ko‘ring.
Birov bilan oshno bo‘lay desangiz,
Avval iqrorida turishin ko‘ring.*²

Albatta, ushbu misralar jamiyatda axloqiy me‘yorlarning muvaffaqiyatli tatbiq qilinishi, kishilar axloqiy kamolotiga o‘zining benazir hissasini qo‘shib kelmoqda. Shoir she‘rlarida yaxshi-yomon, halol-harom, mard-nomard, boy-kambag‘al, urush-tinchlik kabi o‘zaro zid tushunchalar ko‘p uchraydi. Xususan, u kishilarni ikki toifaga – mard va nomardga ajratadi. Mard kishi barcha ezgu insoniy fazilatlar sohibi bo‘lsa, nomard – hamma yomon illatlarni o‘zida mujassam etgan.

*Yuz nomard joyini bosmas bir mardning,
Chekar tashvishini mard el-u yurtning.
Qilgan qilig‘ini ko‘ring nomardning:
Jangmu deya qochar tuman uchrasa...
Mard kutar mehmonni ochiq yuz bilan,
Nomard qochib qolar mehmon uchrasa.*¹

¹ Haqqulov I. She‘riyat – ruhiy munosabat. Toshkent, 1989, 100-bet.

² Магтымгулы. Сайланма шыгырлар. Ашгабат-Баку, 1960, 359-нжы сахыпа.

Yuqorida ta'kidlangan o'zaro zid tushunchalarni qo'llash orqali mutafakkir insonlarni ezgu amallar va yaxshi xulq sohibi bo'lishga chorlaydi. Jamiyatda barqaror minosabatlar ta'minlanishining eng muhim shartlaridan biri, insonlar o'rtasidagi o'zaro hamjihatlik, mehr-oqibat, sadoqat kabi qadriyatlarining ustuvor bo'lishi ekanligini ko'p bora ta'kidlagan. Insonlarni yaxshiliklarga chorlash, yaxshi-yomonning farqini tushunib olishga qaratilgan pand-nasihatlar shoir she'rlarida muhim o'rin tutadi.

*Yaxshilar yonida yurgil sen o'zing,
Dur bo'lsin doimo so'zlagan so'zing,
Olimga yondashsang, ochilar ko'zing,
Johilga yondashsang, ko'rdek bo'larsan.²*

Shoirning she'rlaridagi da'vatkor so'zlar barcha davrlarda katta-yu kichikning ruhini poklab, bu go'zal dunyoga, insonga, hayotga muhabbat uyg'otgan, xalq ko'nglini yuksaklikka ko'tarib, butun turkman jamiyatining ruhiy sog'lomligini ta'min etib kelgan. Shoirning umrning o'tkinchiligi, yoshlikning g'animatligi, vaqt borida toat-ibodatni qilib qolish zarurligi tasvirlangan misralariga e'tibor qaratamiz:

*Maxtumquli, to'g'ri so'yla,
Umring kelib-kechar, o'yla,
Yoshi ulug'larni siyla,
Bosh go'rga kirmasdan burun.³*

Mutafakkir, shunindek, insonlardagi xushfe'llikni, xushmuomalalikni qadrlagan. Kishilar fe'lidagi qusurlarni o'z she'rlarida mohirona tasvirlab, bu kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish zarurligiga urg'u bergan. Insonlarni oxirat azobidan ogohlantirgan:

*Maxtumquli, kimki ishni pok etmas,
Oxiratning azobidan xavf etmas,
Zaif tani o't zarbiga tob etmas,
Yo Rab, qanday bo'lar holi bandaning?⁴*

Maxtumquli she'rlaridagi bosh g'oya: iymon-e'tiqod, dunyoning o'tkinchiligi, barcha qilgan ishlarining javobi tayinligini uqdirish. Mutafakkir o'z she'rlarida jamiyatda uchraydigan kishi moliga yomon nazar bilan qarash, o'g'rilik, firibgarlik kabi illatlarni qoralagan. U insonlarni to'g'ri yashashga, halol bo'lishga, o'tkinchi dunyoda nafs quliga aylanib qolmaslikka da'vat etadi. Shoir insonlar orasidagi mehr-oqibat, birodarlikning qiymatini ulug'lab, o'zaro ahillikka chorlaydi:

*Odam bo'lib odam qadrin bilmasa,
Undan ko'ra o'tlab yurgan mol yaxshi.
So'zlaganda so'z ma'nosin bilmasa,
Undan ko'ra so'zlamagan lol yaxshi.
Maxtumquli, sen so'zlagin har bobdan,
Dunyoga suyanma, chirikdir tubdan,
Boshi-oxiri yo'q ming quruq gapdan,
Bir shuvillab o'tadigan yel yaxshi.⁵*

Ushbu satrlardagi axloqiy g'oyalarning ahamiyati globallashuv jarayonlari nihoyatda tez sodir bo'layotgan bugungi shiddatli zamonda qanchalik ahamiyatli ekanligini tushunish qiyin emas. Har qadamda aldov, firibgarlik, tovlamachilik, o'zgalar moliga xiyonat qilish kabi illatlar uchrayotgan jamiyatda mutafakkir g'oyalarga har qachongidan-da ko'proq ehtiyoj sezilmoqda.

Maxtumqulining she'rlarida mehmondo'stlik ulug'lanadi, har bir kishining uyiga kelgan mehmon kim bo'lsa ham, uni ochiq yuz va shirin so'z bilan kutib olish, izzatini saqlashni maslahat beradi. Kelgan mehmonning osh-non uchun emas, balki shirin diydor uchun talabgorligini unutmazlik zarurligini ta'kidlaydi. Shoir, shuningdek, faqirlaru miskinlar holidan xabar olish savob ekanligini, berilgan mol-u davlatda beva-bechoralarning ham rizqi borligini, bu xususda saxiylik darkorligini mard yigit obrazida bayon etadi:

*Mard yigitning ot-yarog'i shay bo'lsa,
Yetishar har yerda hayda-hay bo'lsa,*

¹ O'sha asar, 261-nci sahifa.

² Махтумқули. Ҳикматлар. Тарж. Э.Очилов. Т., "O'zbekiston", 2013, 6-бет.

³ Махтумқули. Асарлар. Тўпловчи А.Аширов. Тарж. Э.Очилов. Т., "Akademnashr", 2013, 257-бет.

⁴ O'sha asar. 397-бет.

⁵ Махтумқули. Устозингдан айрилма. Таржимон Э.Очилов. Т., "O'zbekiston", 2012, 114-бет.

*O'zi Hotam bo'lib, yana boy bo'lsa,
To'rt tarafdin mehmon kelishin ko'ring.*¹

Albatta, ushbu satrlar insonlarda mehr-oqibat, saxovat, muruvvat kabi fazilatlarini tarbiyalashda ahamiyatli. Xalq ichida yashab, uning dard-u sitamlari, qayg'u-shodliklaridan boxabar bo'lgan shoir inson fe'lining turfa ekanligini, uning tabiatiga xos bo'lgan fazilat va illatlarni teran anglashi natijasi o'laroq, o'z asarlarida falsafiy fikrlarini xalqona sodda va tushunarli tarzda bayon etadi.

Maxtumquli pand-nasihati ruhida yozilgan asarlarida insoniy fazilatlarini tarannum etadi, ona yurt, millat manfaatlarini asrashga chaqiradi. Uning she'rlarida o'zaro hurmat, ota-onaga, ustozga ehtirom, el-yurt, Vatanning qadriga yetish, mehnatsevarlik g'oyalari targ'ib etiladi. "Ko'ring", "Ayrilma", "El yaxshi", "Bo'lma", "Suhbat yaxshidur" kabi she'rlarida yuksak axloqiy fazilatlar shakllantirishga qaratilgan chaqiriq mujassam.

Shoir insonlarga bu dunyoning o'tkinchiligini, mol-u davlatga xirs qo'ymaslikni, xayrli ishlarga ulgurish lozimligini ta'kidlab, "Nega yotibsan" degan she'rida chuqur falsafiy qarashlarini sodda tilda ifodalashga erishgan:

*Ey o'lkasi obod, mulkiga mag'rur,
Mulkning yo'q baqosi, nega yotibsan?
Ey iqboli bedor, davlati masrur,
Yo'q davlat vafosi, nega yotibsan?
Jon ipi omonat, bir qil misoldir,
Nafsing pashsha bo'lsa, mol xuddi boldir,
Dunyo bir seldir-u, umring-chi soldir,
Yo'q ishonch-asosi, nega yotibsan?*²

Maxtumquli do'st tanlashda uning yurish-turishiga, odobiga, el orasida o'zini tutishiga qarash kerakligini uqtiradi. Xulqi, odobi yomon kishilardan uzoqroq yurishni ta'kidlaydi. Shoir bunday fikrlarini xalqona hikmatlarga tayangan holda, nihoyatda chiroyli va haqiqiy tasviriy vositalar orqali bayon etadi:

*Ko'ngli qora bilan bo'lmanglar ulfat,
Yuqar undan turli-tuman kasofat.
Ko'mirga har qancha aylasang izzat,
Yuzingga qorasi yuqqancha bo'lmas.*³

Maxtumqulining pand-nasihatlariga nazar tashlar ekanmiz, ularda insonlardagi ayrim salbiy odatlar xususida ham so'z yuritilganligiga guvoh bo'lamiz. Shoir "Chilim chekmagil" nomli she'rida inson salomatligining eng katta dushmanlaridan bo'lmish chilim chekizning zararli oqibatlari haqida fikr yuritib, odamlarni bu balodan yiroq bo'lishga da'vat etadi:

*Joningga qasd etma dudkashim, o'zing,
Hayf erur joningga, chilim chekmagil!
Pandim shu – ro'za tut, o'qi namozing,
Hayf erur joningga, chilim chekmagil!
Yolg'onchi dunyodan istama vafo,
O't emak bo'larmish bezavq-u safo,
Dudkash ummat emas, deydi Mustafo,
Hayf erur joningga, chilim chekmagil!*⁴

Maxtumquli har jihatdan komillikka yetishgan inson edi. O'z davrida zamondoshlari uni oqil, donishmand, bilimli inson sifatida hurmat qilishar, hatto eng obro'li ulamolar ham u bor majlislarda sukut saqlashni afzal ko'rishardi. Bu o'z xalqining shoiriga ko'rsatgan ehtiromidan darak edi.⁵

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Maxtumquli Firog'iy ma'naviy merosi asrlar osha insoniyatni axloqiy kamolot sari yetaklovchi yo'lchi yulduz misoli porlab turaveradi.

¹ Махтумқули. Ҳикматлар. Таржимон Э.Очилов. Т., "O'zbekiston", 2013, 92-бет.

² Махтумқули. Асарлар. Тўпловчи А.Аширов. Таржимон Э.Очилов. Т., "Akademnashr", 2013, 356-бет.

³ Ўлмас шеърят. Методик-библиографик қўлланма. Т., Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008, 10-бет.

⁴ Махтумқули. Асарлар. Таржимонлар: А.Жумайев, Ж.Зулпийев. Т., "Istiqloq nuri", 2014, 8-бет.

⁵ Ораз Яғмур. Махтумқулинома. Тарж. Музаффар Аҳмад, Рустам Жаббор. Т., "O'zbekiston", 2016, 183-бет.

**Shukurov Otabek Ulashevich (Qarshi davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent; otabekshukurov1@mail.ru)
ATAMA NEOLOGIZMLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI**

Annotatsiya. Maqola atama neologizmlar o'zlashishi xususida bo'lib, leksikada termin ma'nosida talqin etilib, ilm-fan, muayyan kasbiy soha doirasidan tashqarida ham yashayotgan, umumxalq tilida faol ishlatilayotgan neologizmlar tahlil qilingan. Tadqiq etilgan atama neologizmlar mustaqillik davri bilan bog'liq bo'lib, ularning o'zlashishiga xalqaro globallashuv, davlatlararo munosabatlar, sohalarning ortishi, tilning ijtimoiy funksiyalari kengayishi, ish yuritish hujjatlarining murakkablashuvi jarayonlari omil qilib ko'rsatilgan. Termin, atama, so'z termin, termin birikma birliklariga o'rganilayotgan muammodan kelib chiqib munosabat bildirilgan. Troll, blekaut kabi atama neologizmlar tahlilga tortilgan, izohlangan. Ularning orfografik xususiyatlariga munosabat bildirilgan, o'zlashma neologizmlarni leksikaga qabul qilish yuzasidan takliflar bildirilgan. Maqolada tildagi determinizatsiya jarayoni, kalkalash asosida so'z qabul qilish bo'yicha tahlillar mavjud bo'lib, ular komponent, differensial-semantik metodlar asosida ochib berilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы освоения терминов-неологизмов, трактующиеся в лексике по смыслу термина, анализируются неологизмы, активно употребляемые в просторечии, живущем вне рамок науки, конкретной профессиональной области. Исследуемые неологизмы связаны с периодом независимости, факторами международной глобализации, межгосударственными отношениями, ростом отраслей, расширением социальных функций языка, усложнением делопроизводства. Единицы термин, обозначение, слово-термин, терминологическое сочетание трактуются в соответствии с изучаемой проблемой. Анализируются и объясняются терминологические неологизмы, такие как тролль, блэкаут. Высказывалось отношение к их орфографическим особенностям, вносились предложения о принятии в лексику неологизмы-заимствования. Статья содержит анализ процесса детерминизации в языке, дословного восприятия на основе кальки, которые описываются на основе компонентных, дифференциально-семантических методов.

Annotation. The article deals with the development of the term neologisms, interpreted in the vocabulary according to the meaning of the term, analyzes neologisms that are actively used in vernacular, living outside the framework of science, a specific professional field. The studied neologisms are associated with the period of independence, the factors of international globalization, interstate relations, the growth of industries, the expansion of the social functions of the language and the complexity of office work. The term, phrase, terminological units are interpreted in accordance with the problem under study. Terminological neologisms such as troll, blackout are analyzed and explained. The attitude to their spelling features was expressed, proposals were made on the adoption of neologisms-borrowings in the vocabulary. The article contains an analysis of the process of determinism in the language, verbatim perception based on tracing paper, which are described on the basis of component, differential-semantic methods.

Kalit so'zlar: neologizm, termin, o'zlashma so'z, leksika, ma'no, o'zbek tili, so'z, lug'at, ta'sir, nom.

Ключевые слова: неологизм, термин, заимствованное слово, лексика, значение, узбекский язык, слово, словарь, влияние, наименование.

Key words: neologism, term, loanword, lexis, meaning, Uzbek language, word, dictionary, influence, name.

O'zbek tili leksikasida termin ma'nosida talqin etilib, ilm-fan va muayyan kasbiy soha doirasidan tashqarida ham yashovchanlik xususiyatiga ega birliklar ham borki, ularni umumxalq tilida faol ishlatilishi bilan farqlanuvchi so'zlar sifatida ham tushunib, atama neologizmlar nomi ostida o'rganish mumkin.

Ma'lumki, nafaqat o'zbek, balki xorijiy tilshunoslikka oid manbalarda ham termin va shunga uyg'un bo'lgan atama yoki subterminlarning farqli xususiyatlarini ajratish masalasi to'laqonli o'z yechimini topmagan. Monosemantik xususiyat kasb etish, muayyan sohani qamrab olish, asosan, fan, texnika va ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liqlik, mutaxassislar nutqigagina xoslanish, aniq ma'noda ishlatilish kabi hodisalar sof ilmiy uslub terminlariga xos ta'rif hisoblanadi. Biroq shunga yaqin definitsiya atama

neologizmlarga ham xos bo'lsa-da, ular xalqning kundalik hayotidagi so'zlarga aylanayotgani, insonlarning erkin muloqot shaklida faollashayotgani, muayyan professional leksika chegarasidan tashqariga chiqayotgani, muhimi, umumiylik kasb eta boshlashi bilan ahamiyatlidir.

Xalqaro globallashuv, davlatlararo munosabatlar, sohalarning ortishi, tilning ijtimoiy funksiyalari kengayishi, ish yuritish hujjatlarining murakkablashuvi jarayonida terminlarning leksik qatlami ham ortib, ularni tartibga solish ishlariga katta ehtiyoj sezilmoqda. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, texnik sohalarda o'zlashayotgan so'z, birikma, atama va termin kabilarning miqdori oshishidan tashqari, so'z hamda terminlarning ma'no chegaralarida kesishuvlar ham yuzaga kelyapti. Bu esa tilshunos-terminologlar oldiga ularni tartibga solib borish, tadqiq etish kabi mas'uliyatli vazifalarni kun tartibiga chiqarmoqda.

Aslida, sohalardagi terminlarni tartibga solib borish ishi faqat tilshunos-terminologlarga tegishli emas, soha mutaxassislarining ham doimiy vazifasidir. Negaki, har qanday soha mutaxassisi bo'lmasin, qaysidir ma'noda o'z sohasidagi terminlarni o'rganar ekan, terminologik sistemani tartibga solish bilan shug'ullanadi, metodlarini ishlab chiqadi va stixiyali tarzda tilshunoslarning nazariy masalalarini hal etishga ko'mak beradi.

Ilmiy manbalarda har qanday termin – so'z, biroq har qanday so'z termin bo'la olmasligi ta'kidlanadi. Terminlarga tilning murakkab birligi sifatida qarash Danilenko monografiyasida ko'rsatilgan 19 turdagi ta'rif orqali ham ko'p bora eslangan.¹

Ma'lumki, terminologik leksikaning taraqqiyoti nafaqat intralingvistik, balki ekstralingvistik, immanet kabi qator faktorlar bilan ham aloqador bo'lyapti. Termin tushunchasiga A.Hojiyev quyidagicha ta'rif beradi: "Termin (lot. terminus – chek, chegara, chegara belgisi). Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi, atama. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo'lmashligi kabi belgilari bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi".²

Ta'kidlanganidek, terminlar umumiste'moldagi so'zlardan bir ma'nolilik, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo'lmashligi belgilari asosida farqlanar ekan, bu ularni xalq tilida faol ishlatilayotgan so'zlardan chegaralaydi, ajratadi. Ularning, asosan, ot turkumiga mansub bo'lishi o'rganib kelingan bo'lsa, so'nggi paytlarda tadqiqotchilar belgi anglatuvchi terminlarni o'rganishni ham kun tartibiga qo'yishdi.³

Bundan tashqari, filologiya fakulteti talabalari uchun 1980-yil nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida terminologik leksika kengroq sharhlangan. Unda mazkur leksika professional va ilmiy terminlarga ajratilib, *termin* tushunchasiga ilm-fan, texnika, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi sifatida ta'rif berilgan.

Ma'lumki, har bir soha o'zining terminlari, aniqrog'i, terminologik sistemasiga ega. Deyarli barcha ilmiy adabiyotlarda ishlatiladigan terminlarning faqat birgina sohada qo'llanishi talab etiladi, chegara qo'yiladi. Darslik mualliflari termin mohiyatini sharhlar ekan, ikki holatga e'tibor qaratishadi:

1. Terminlarning ma'nosi sohaga aloqasi bo'lmagan kishilar uchun ham tushunarli bo'ladi va ular tomonidan ham qo'llanaveradi. Masalan: botanikaga oid *bug'doy, paxta, o'rik, g'o'za, uzum, nok*; san'atshunoslikka oid *sahna, afisha, aktyor*; meditsinaga oid *ukol, narkoz, gripp* kabi.

2. Terminlarning ma'lum qismi shu termin oid bo'lgan soha kishilari uchun tushunarli bo'ladi va shular nutqida qo'llanadi: tilshunoslikka oid *morfema, fonema, urg'u, o'zak*; ximiyaga oid *oksidlar, indikator* kabi.⁴

E'tibor qaratsa, birinchi ta'rifdagi "sohaga aloqasi bo'lmagan kishilar uchun ham tushunarli bo'ladi va ...qo'llanaveradi" jumlasini terminlarning o'z "chegara"laridan tashqariga chiqishi bilan bog'liq. Shuningdek, leksikadagi umumiste'mol so'zlaridan ayrimlari, ma'lum bir sharoitdan kelib chiqib, maxsus leksikaga ham o'tishi ilmiy asoslangan, tajribada faol qo'llanib kelayotgan usullardandir. Ular lug'atlarda dastlabki ma'nosiga ko'ra umumiste'mol leksikaga, terminologik ma'nosiga ko'ra chegaralangan leksikaga tegishli holda ko'rsatiladi.

Termin tushunchasiga berilgan ta'riflardagi ayrim jihatlarning, detirminatsiya hodisasini boshdan kechirayotgan birliklar uchun, hozirgi kunda o'z ahamiyatini qisman yo'qotayotgani seziladi. Avvalo, ter-

¹ Даниленко В.П. Русская терминология. М., "Наука", 1977, с. 83.

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002, 24-bet.

³ Nabiyeva M. O'zbek tilida belgi anglatuvchi terminlar tizimi, strukturasi va leksikografik talqini. Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... avtoref., Qarshi, 2022, 24-bet.

⁴ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980, 129-bet.

minologik leksika va umumxalq soʻzlari orasidagi muayyan guruh – oraliq jarayondagi birliklar bilan bogʻliq boʻlib, maxsus leksikani tark etib, xalqning kundalik ehtiyoj soʻzlari qatoriga kirish uchun intilayotgani seziladi. Bunday birliklar, asosan, oʻzlashma soʻzlardan tashkil topadi. Ular leksikaga soha soʻzlari sifatida kirib, keyinchalik, maʼno hajmining kengayishi bilan ham oʻz taraqqiyot yoʻlini oʻzgartirishga kirishadi. Umumian olganda, umumisteʼmol leksika va terminlar oʻz sistemalarini toʻldirishda bir-birlariga koʻmaklashib boradigan fenomen sifatida qaraladi.

Terminologik leksika bilan umumisteʼmol soʻzlar orasidagi oraliq uchinchi birliklarning oʻz qatlam doirasida kamroq uchrashida ham oʻziga xos sabablar mavjud. Negaki, bunday birliklarning istiqboli umumiylikdan xususiylikka tamoyili yoʻnalishida boʻlib, xalq tilidagi soʻzlar maʼnolarini maxsuslashtirishga qaratilgan boʻladi. Shunga koʻra, bunday terminlar oʻzining taraqqiyot yoʻlini, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, teskari harakatlanish evaziga davom ettirmaydi.

Demak, terminologik va umumisteʼmol birliklar orasida oʻtish jarayonini bosib oʻtayotgan soʻzlar mavjud ekan, avvalo, ularni nomlash va leksik sistemadagi oʻrni masalasini aniqlashtirish ham dolzarb sanaladi.

Ilmiy tadqiqot ishlari, monografiya va ayrim oʻquv adabiyotlarida bunday birliklar alohida ajratilmasa-da, *termin*, *atama*, *soʻz* (*soʻz termin*), *subtermin*, terminlik xususiyatini yoʻqotish – *determinologizatsiya* kabilarning tushuntirishlari asosida izohlab oʻtiladi. Biroq terminologik leksika va umumisteʼmol birliklar orasida ham muayyan darajadagi bosqich mavjud ekan, bu bosqichdagi birliklarni alohida oʻrganishga ehtiyoj mavjud.

X.Qodirova terminlarni semantik tahlil qilgan ekan, ularni turlicha rakurslarda oʻrganadi. Olimaning kuzatishlaricha, terminlar umumisteʼmol soʻzlarning terminlashishi va terminlarning umumleksik qatlam qatoridan oʻrin egallashi; grammatik strukturasi; morfologik-sintaktik tuzilishi (*soʻz termin* va *birikma termin*); morfologik tuzilishi; semantik xususiyatlari; monosemantik va polisemantiklik xususiyatlarga koʻra tasniflangan.

Soʻz termin istilohi biz oʻrganayotgan terminologik va umumisteʼmol birliklar orasidagi referentlarga adekvat boʻlsa ham, nominativ jihatdan ularni nomlashga asos boʻla olmaydi. Zero, bugungi kunga qadar ishlatilayotgan va tushunilayotgan *soʻz termin* istilohi denotatni *birikma termin*dan ajratish vazifasi jihatidan nomlagan. Terminni soʻzga yaqinlashtirish vazifasi jihatidan qaralganda bu istiloh mutanosib koʻrilishi mumkin. Biroq denotatning nomi haqida gap ketar ekan, uning tushunchasini allaqachon qabul qilgan shaxslar ongida reallashib boʻlgani jihatidan qarash hodisaga oʻzgacha nom berishni talab etadi.

Tilshunoslar mustaqillikdan soʻng tilni milliyashtirish asnosida *terminni atama* istilohiga almash-tirish masalasini keskin tanqid qilishgan edi. Shundan soʻng ilmiy tadqiqot ishlarida, lingvistik monografiyalarda *termin* istilohi yagona planga chiqqan boʻlsa, ayrim oʻrinlarda til meʼyorini saqlash, uslub, takroriylikdan qochish talabi bilan atamaga ham murojaat qilindi. Shunday boʻlsa-da, geografik nomlar, maktab oʻquvchilari uchun darsliklar doirasida atamaning oʻrni saqlab qolindi. Negaki, atamani oʻquvchilar tushinishi oson boʻlib, ommaboplik xususiyatiga ega.

Atama istilohini termin va soʻzlar (umumisteʼmol leksika) orasidagi birliklarga, aniqrogʻi, terminning maʼnoviy chegaralanganlik qobigʻidan chiqib, soʻz maqomiga yetish uchun harakatlanayotgan unsurlar sifatida qabul qilish oʻrinli boʻladi.

Toʻgʻri, uning statusi va nominatsiyasi tilshunos va tadqiqotchilar uchun toʻla qabul qilinmasligi mumkin. Lekin oʻrganilayotgan obyekt va uning alohida ajratib tadqiq etilishi jihatidan alohida nomlashga ehtiyoj bor. Shuningdek, oʻrganilayotgan birliklarning oʻzlashmaligi, yangiligi hamda bir maʼnoda ishlatilishi ularni termin sifatida oʻrganishga yaqinlashtirsa-da, bugungi kun ijtimoiy hayotidagi muloqot jarayonida faollashib ulgurani va qoʻllanish doirasi kengayib borayotganini ham hisobga olish oʻrinli boʻladi.

Oʻrganilayotgan atama neologizmlarda terminlik va soʻzlik xususiyatlari mavjud, biroq ular terminlik statusidan siljigan, ijtimoiy tabiatiga koʻra esa istiqboli bevosita umumisteʼmol soʻzlar sirasi bilan bogʻliq.

Hozirgi paytda yaratilayotgan innovatsion ilmiy tadqiqot ishlarining ishlab chiqarishga tez joriylanishi va uning kichik detallarigacha ijtimoiy tarmoqlar orqali koʻpchilikka jozibador shaklda namoyish etib borilishi terminlarning ommalashishi uchun puxta zamin yaratyapti. V.M.Leychik maxsus leksik birliklar miqdorini aniq hisoblash juda murakkab ekani, bunga tabiiy tillar kesimidagi ushbu birliklarning mukammal lugʻatlari hanuz yaratilmaganini sabab qilib koʻrsatar ekan, maxsus va umumisteʼmol leksikaning hissasini esa bilvosita hisoblash mumkin deb hisoblaydi: “Buning bir yoʻli neologizm lugʻatlarida bunday leksik birliklarning foizini aniqlashdir. Masalan, XX asrning 60-yillaridagi matbuot va adabiyot

materiallari lug‘at-ma‘lumotnomasida (Yangi so‘zlar va ma‘nolar, 1971) materialning 80 foizga yaqini maxsus birliklar yoki “maxsus ma‘noda” ishlatiladiganlar tashkil etgan... Shu bilan birgalikda, sobiq ittifoqda ishlab chiqarilgan sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining Butunittifoq klassifikatorida (80-yillarning boshlari) taxminan 24 mln termin qayd etilgan. Hozirgi vaqtda 3 millionga yaqin kimyoviy terminlar ma‘lum. Boshqacha qilib aytganda, ma‘lum bir zamonaviy tabiiy til doirasida maxsus leksik birliklar soni maxsus bo‘lmagan birliklar sonidan ikki baravar ko‘pdir”.¹

Tilda doimiy jarayon sifatida amal qiladigan terminizatsiya va determinizatsiya hodisasi tilshunoslarning doimiy diqqat-e‘tiborida bo‘lib kelyapti. Darhaqiqat, terminga dinamik hodisa sifatida qarash, undagi muayyan o‘zgarishlarni hisobga olib borish lug‘at tuzuvchilarni diqqat-e‘tiboridagi masala bo‘lishi kerak.

XXI asrda asr ommaviy vositalarining bosma shaklidan tashqari, elektron versiyalarining paydo bo‘lishi bilan Internet globallashuvi fonida ma‘lumotlar yoyilishi va almashinish jarayoni jadallashdi. Bunga yirik miqdordagi auditoriyaning jalb etilishi va axborotlarni jozibador usulda etkazilishi ham maxsus leksikaning ommalashishi va tezlashishiga sabab bo‘lyapti. Jamiyat hayotida terminlarning qo‘llanish doirasi kengaya boshladi. Ijtimoiy tarmoqlarda muhim yangiliklarni ko‘pchilikka qisqa axborotlar ko‘rinishida sanoqli so‘z yoki terminlar yordamida tushunarlicha yetkaza olish, hatto terminlarni sarlavhalarga *dayjest* izohi bilan ifodalash tus oldi. Natijada ularga qo‘yilgan chegara kengayib, uslubiy vazifalar bajarishga kirishdi, emotsional-ekspressiv xususiyat kasb eta boshladi. Shuningdek, terminlar iste‘mol doirasi chegaralanmagan so‘zlar qatori ko‘p ma‘noliligi bilan so‘z yasash jarayonida faol qatnasha boshladi.

Leksikada ildiz, fe‘l, ot kabi xalq tilida bir ma‘noni, fan tilida o‘zga ma‘noni bildiruvchi terminlar bor. Biroq determinizatsiyaga uchragan terminlar o‘z “qobig‘i”dan chiqib, umumiste‘mol leksika – adabiy tilning kundalik ishlatiladigan so‘zlar qatoriga o‘rinlashadi. Internet terminlarining ijtimoiy hayotda faollashuvi boshqa maxsus leksik guruhlariga nisbatan faolroq ekani isbot talab qilmasligi tayin. Dunyo miqyosida olib qaraganda ham Internet fenomenining insoniyat hayotidagi o‘rni keskin oshib boryapti. Shunga ko‘ra, Jon Allen Paulos uni “Internet dunyodagi eng katta kutubxona, faqat hamma kitoblar yerda sochilib yotibdi”, deya ta‘rifladi, Dmitriy Pashkov esa “Internet – axlatxona ustida qurilgan shahar” deya o‘xshatishlar qiladi. Bu esa til, madaniyat va ma‘naviyat sohalariga internet omilining ta‘sirini belgilashda unga serqirra xilqat sifatida qarash kerakligini ko‘rsatib beradi.

Darhaqiqat, internet terminlari nafaqat soha mutaxassisleri, balki katta miqdorga ega undan foydalanuvchilar tilida ham ommalashayotgani sir emas. Masalan, *internet, monoblok, noutbuk, netbuk, planshet* terminlari allaqachon maxsus leksika chegarasidan chiqib, ommalashib ulgurdi.

Bugungi kunda jamiyatning rivojlanishi axborot texnologiyalarini soha va tarmoqlar miqyosida faol qo‘llash va ulardan pragmatik foydalanish bilan ahamiyatlidir. Bu esa, o‘z navbatida, axborot texnologiyalari va shunga bog‘liq bo‘lgan kompyuter texnologiyalari terminologik tizimining faol rivojlanishi istiqbollari bilan bog‘liq. Shunga muvofiq, ayni paytda, axborot texnologiyalari barcha soha atama neologizmlari uchun vosita vazifasini bajarib, sohalararo flagman vazifasini bajaryapti. Bu sohada internet fenomeni neologizmlarni tashuvchi faktor bo‘lib, *internet, noutbuk, netbuk, planshet, smartfon* kabi atamalar aynan ular uchun motivatsion omil hisoblanadi. Bu kabi o‘zlashmalar leksikadan o‘rin olar ekan, ularning manba tildagi shaklini ko‘plab tillarda saqlanib qolinishi, tabiiy. Biroq o‘zlashmalarining singayotgan tilning tabiatiga mos o‘zgarishlar bilan qabul qilishni ham e‘tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Ma‘lumki, rus tili o‘tgan asrning 90-yillariga qadar nafaqat o‘zbek, balki ittifoqdoshi bo‘lgan ko‘plab tillarning o‘z ta‘siri doirasida ushlab turdi. Shunga ko‘ra, sobiq ittifoq tuzumi tillari ham xalqaro madaniy integratsiyadan uzilib, motivatsion faktor sifatida rus tiligagina bog‘lanib qolishi bu borada ayrim muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Bu tillarda shu hodisaning ta‘siri o‘laroq, hali hanuz o‘zlashayotgan referentni qabul qilishda uning ruscha ifodasini tanlash masalasi kun tartibidan uzoqlashishi sekin ketyapti. Bu, ayniqsa, o‘zbek tili leksikasida yangi o‘zlashmalarining imlo masalalari bilan bog‘liq muammolarini ham kun tartibiga qo‘yishga sabab bo‘lyapti.

Oxirgi paytlarda axborot texnologiyalari inson faoliyatining rang-barang sohalarida istifoda etilib, davlat xizmatlarini raqamli shaklga transformatsiya qilish masalasi kun tartibida turibdi. Hukumat miqyosida hujjatlar aylanishining ortib borishi sabab yangi turdagi texnik qurilmalar va aloqa jihozlariga ehtiyoj ortib boryapti. Shunga ko‘ra, leksikada *akkaunt, identifikatsiya, brauzer, login, profil* kabi atama neologizmlar paydo bo‘ldi.

¹ Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. М., ЛКИ, 2007, с. 8.

Axborot texnologiyalarining muhim bir xususiyati shundaki, u tez yangilanuvchi soha bo'lib, zamonaviy modifikatsiyaga ega bo'lar ekan, uning terminologik tizimi ham muayyan o'zgarishlarga uchraydi. Bu esa leksikaga o'zining muayyan ta'sirini ko'rsatishi, tabiiy. Umuman olganda, sohalar orasida axborot texnologiyalariga tegishli atamalarining o'zlashishi faolroq bo'lib, tillar kesimida esa inglizcha o'zlashmalar yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari nutqida *troll* so'zi faollashib, kundalik muloqot so'zlari qatoriga kirdi. Uning etimologik tahliliga e'tibor qaratsa, avvalambor, skandinaviya xalq afsonalarida uchraydigan, asosan, tog'larda yashovchi gigant yoki mitti shakldagi maxluq, sehrgar, jodugar sifatida ta'riflanadi. Biroq atamaning motivlovchi asosini bu so'zga emas, inglizcha *trolling* – *baliq ovlash* so'ziga bog'lashadi. Trollar internetning turli jabhalarida faoliyat yuritib, maqsadli ravishda uyushgan foydalanuvchilarni ommaviy chalg'itish, o'rtaga fitna solish, mental olamiga (ko'proq salbiy) ta'sir qilish yoki "ovlash" ishi bilan shug'ullanadilar. Ular, asosan, virtual olamda anonim holatda paydo bo'lib, real hayotda shaxsini sir saqlaydigan insonlardir. Shunday bo'lsa-da, foydalanuvchilar *troll* so'zini ko'proq gigant shakldagi maxluq, jodugar sifatida tasavvur qilishadi.

Rus tili orqali o'zlashgan *троль* (*troll*) so'zi tilimiz uchun orfografik jihatdan murakkab shaklga ega. Bu o'rinda o'sha tilda vazifa bajaruvchi yumshatish *б* belgisi, qo'sh undosh sifatida kelgan *l* harfi ham o'zlashmaning o'zbekona tabiatiga mos emas, aniqrog'i, ularning qo'llanishiga ehtiyoj yo'q. Mazkur so'z o'zbekona tabiatda *trol* shaklida imlo lug'atlariga kiritilsa, yozma savodxonlik uchun osonlashadi. Aks holda, bu kabi murakkab o'zlashmalar ta'siri orfografik savodxonlikning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda xalqimizning turmush tarzida turli-tuman maishiy texnika vositalari, aniqrog'i, mehmonxona, yotoqxona, oshxona, hammom jihozlari paydo bo'lmoqdaki, ular, asosan, xorijiy davlat brendlari mahsulotlari bo'lib, o'zi bilan birga tilimizda yangi-yangi atamalarni ham olib kirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yangi innovatsiyalarni nomlash yoki mavjud nomlarni qay shaklda qabul qilish muam-molarining yechimini, hodisalarga individual va pragmatik yondashuvlarni talab etadi.

"Maishiy texnika jihozlari" birikma zanjiridagi "texnika" so'zi shu sohaga aloqador anjom nomlari – terminlarga ishora qilsa-da, *tefal*, *mikser*, *blender*, *kuler*, *toster*, *termopot* kabi atamalar allaqachon xalq tilida ommalashib ulgurdi. Anglashiladiki, bu o'rinda termin va atama birliklari muayyan farqlarga ega bo'lib, ularni nutqiy vaziyatlarda o'rinli ishlatish pragmatik jihatdan ham to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

Atama neologizmlar tadqiqi xususida so'z ketar ekan, maishiy texnika jihozlari nomi yaxlit mikro-maydon sifatida qaralsa, uning tarkibini mehmonxona, yotoqxona, oshxona, hammom buyumi nomlari kabi lug'aviy-ma'noviy guruhlar asosida tasniflab o'rganish mumkin. Ularning ayrimlariga o'zlashish ho-lati nuqtayi nazaridan tahliliy yondashimiz. Bu birliklar hayotimizga begona tildagi yangi mahsulot nomi sifatida kirib kelgani bois ham leksikamizga, asosan, inglizcha, ruscha yoki boshqa tildagi moddiy shakli orqali o'zlashtiriladi. Bundan tashqari, ularning til lug'at boyligi takibiga kalkalash usuli bilan yaratila-yotgani ham talaygina.

Xalq orasida "El og'ziga elak tutib bo'lmaydi" jumlasiga bugungi kun neologizmlarining o'zlashishi uchun ham ahamiyat kasb eta boshladi. Negaki yaqindagina respublikamiz va yana ayrim qo'shni respub-likalarining katta hududlaridagi yirik elektr energiyasi uzilishi fonida paydo bo'lgan ijtimoiy tarmoq ma-qolalarida *blekaut* neologizmi nafaqat paydo bo'ldi, balki aks sado berib, tarqalishga ham ulgurdi. Qisqa fursatda ixchamlikka qarab intilayotgan jurnalist va blogerlar o'z xabarlarida *blekaut* neologizmini ko'p bora ishlatib, faollashtirib yubordi. Ehtimol, ularning axborotni tez va qulay uzatishlari uchun *elektr ener-gitika tizimida yuz beradigan yirik avariya* jumlasiga murakkablik qilgandirki, umumxalq tili uchun nota-nish bo'lsa-da, yangi so'zning ixcham, sodda va qulayligidan kelib chiqib, *blekaut*ga murojaat qilishdi. Inglizcha *blackout* so'zining lug'atlarda texnik termin xususiyatidan tashqari, ko'plab ma'nolari mavjud. Xususan, rus tilida ham *elektr energetika tizimida yuz beradigan yirik avariya* ma'nosida qo'llanadi.

O'zbek tili leksikasida tarixan *производство* – *ishlab chiqarish*, *больница* – *kasalxona*, *рукопись* – *qo'lyozma* kabi etalon vazifasidagi kalkalash yo'li bilan so'z hosil qilish hodisalari ko'p uchraydi. Ho-zirgi kunda ham *микроволновая печь* – *mikroto'lqinli pech* – *microwave oven*, *соковыжималка* – *shar-bat siqqich* – *juicer*, *havo namlagich* – *увлажнитель воздуха* – *humidifier* kabi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan kalkalashlar davom etyapti.

Sohaviy terminologiyada o'z o'rnini yo'qotib, umumiste'mol leksik birliklar qatoriga o'tish deter-minizatsiya jarayoni sifatida talqin etiladi. Masalan, ruscha *толерантность* so'zi yarim kalkalash aso-sida *tolerantlik* ko'rinishida o'zlashtirilgan. "O'zbek tilining izohli lug'atida"da *tolerantlik* [*lot. Toleran-tia* – *sabr-toqat*, *chidam*, *bardosh*] so'zining uch ma'nosidan 1–2-ta'riflar *biologiya va tibbiyotga oid*

termin sifatida, uchinchi esa determinizatsiya jarayoniga uchragan ma'no sifatida berilgan: 1 *biol., tib.* Organizmning immunologik jihatdan tashqi ta'sirlarga javob bera olish qobiliyatining to'liq yoki qisman yo'qolishi; ya'ni, antigen ta'sirlarga nisbatan odam yoki hayvon organizmi tomonidan antitanalar ishlab chiqarish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qolishi. 2 *tib.* Organizmning muayyan modda yoki zaharning noqulay, salbiy ta'siriga chidash, bardosh berish qobiliyati. 3 O'zgalarning fikr-g'oyalari, e'tiqodi, his-tuyg'ulari, turmush tarzi va xulq-atvoriga nisbatan sabr-toqatli bo'lish, beparvo qarash; bag'rikenglik.¹

Tahlilga olinayotgan leksemaning sememasi *tashqi ta'sirlarga qarshi organizmdagi qobiliyatning yo'qolishi* bo'lsa, tarkibi esa *ta'sirlarga qarshi, qobiliyat, yo'qolish* sememalaridan iborat. Uning referenti manba tildagi genetik ma'no – *sabr-toqat*dan yetarlicha uzoqlashganki, bunda termin izohidagi *yo'qolish* semasigina etimologik jihatdan o'z aloqadorligini saqlab turibdi. So'zning termin sifatidagi ikkinchi izohida birinchisiga nisbatan genetik bog'liqlik ancha yuqori. Aniqrug'i, *organizmning zahar ta'siriga chidashi* sememasidagi *chidash* semasi o'zlashmaning manba tildagi lug'aviy ma'nosini o'zida muayyan darajada aks ettiradi. So'zning uchinchi ma'nosi ikkinchisiga qiyos etilsa, *chidash* mushtarak sema, boshqalari esa differensial xususiyat kasb etgan.

Umuman olganda, uzvli, differensial-semantik metodlar o'zlashma so'zlarning ma'no taraqqiyotini o'rganishda eng samarali tahlil usullaridan hisoblanadi. Aniqlashdiki, tilning lug'at tarkibidagi muayyan so'z, o'rni bilan, determinizatsiya jarayoni ta'siri o'laroq, umumiste'mol doirasidagi so'z yoki termin vazifasini ham bajarishi mumkin.

Sof ilmiy terminlarni ilmiy-ommabop terminlardan farqlash tilshunoslik uchun normal hodisa sifatida qaraladi. Ana shu ilmiy-ommabop terminlar, asosan, xalq kundalik hayotidagi umumiste'mol leksika orasida "ko'prik" vazifasini bajaradi. Shunday ekan, tilimizdagi ayrim terminlar umumxalq uchun tushunarli shaklga o'tar ekan, o'zining tildagi yangi bosqichini, istiqbolli yashash jarayonini boshdan kechiradi.

Mustaqillikdan so'ng lug'at boyligimizga *stiker, stipler, marker, antistepler* kabi kanselyariya jihozlari nomi ham o'zlashdi. Bu olinmalar ham rus tili orqali o'zlashgan bo'lsa-da, so'zlarning manbasi ingliz tili leksikasi bilan bog'liq edi. Kuzatishlarimizgagina ko'ra, tilimizda mustaqillikka qadar kanselyariya jihozi nomlari qatorida paydo bo'lgan *дырокол* so'zining na birorta o'zbekcha muqobili, na ruscha shakli yaratilgan imlo yoki izohli lug'atlarda uchramaydi. Vaholanki, *дырокол* so'zi xalqning jonli tilida faol ishlatilib kelayotgan birliklar sifatida uchraydi. Ko'rinadiki, lug'at tuzuvchilar uchun mazkur so'zning ruscha shakli yoki o'zbekcha muqobilini tanlashda aniq qarorga kelish murakkab kechgan.

Xullas, atama neologizmlar o'zlashishi o'ziga xos jarayon bo'lib, ular terminlarning umumiste'mol leksikaga aylanishi bilan ham, xalq turmushida yangi paydo bo'layotgan xorijiy innovatsiyalarning nomi sifatida ham yuzaga keladi. Shuningdek, bu o'zlashmalar sohalar kesimida o'ziga xos darajalanar ekan, asosan, innovatsiya qabul qilayotgan sohalarining ustunligiga qarab gradatsiya hosil qiladi. Bunga motivatsion omil esa internet va unga aloqador ijtimoiy tarmoqlar, turli blokklar bo'lib, o'zlashtirishda tilning tabiatini hisobga olib ish tutish uning sofligi va istiqboli uchun ham har doim manfaatli hisoblanadi.

Худайберганава Назокат Рахимовна (УрДУ Хорижий филология факультети Роман-герман филологияси кафедраси ўқитувчиси; nazokat.fransuz@mail.ru),

Худойберганава Гуласал Фахриддин кизи (УрДУ Хорижий филология факультети Француз тили таълим йўналиши 3-босқич талабаси; xudoyberganovagulasal21@gmail.com)

ЛУҒАТЛАРДА МАЪНО МУАММОСИ

Аннотация. Ушбу мақоламизда лугатларда учрайдиган муаммолар, лугат мақоласи учун танланган сўзларда маъно муаммосини ўрганиши, шу билан бирга, сўз маъносининг бир хил эмаслигини, бир хил турда эмаслиги, сўзда структур жиҳатдан хилма-хил бўлган лексик маъноларнинг турлари мавжудлиги кўрсатиб берилган.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы, встречающиеся в словарях, в частности, проблемы значения слов, отобранных для словарной статьи, а также то, что неоднотипность значения слова, наличие типов лексических значений, различающихся по структуре.

Annotation. In this article, the problems encountered in dictionaries, the study of the problem of meaning in words selected for a dictionary entry, as well as the fact that the meaning of a word is not the same, not the same type, there are types of lexical meanings that differ in structure.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild, 4-jild, Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007, 138-bet.

Калим сўзлар: маъно, терминологик алоқалар, термин, умумий тилишунослик, семантик алоқа грамматика, назарий тилишунослик, функционал-семантика, асосий маъно, кўчма маъно.

Ключевые слова: значение, терминологические отношения, термин, общее языкознание, грамматика семантической связи, теоретическая лингвистика, функциональная семантика, основное значение, переносное значение.

Key words: meaning, terminological relations, term, general linguistics, grammar of semantic connection, theoretical linguistics, functional semantics, basic meaning, figurative meaning.

Кириш. Маълумки, сўзнинг маъноси предмет (ходисанинг, муносабатнинг, сифатнинг, жараён)нинг маълум садоланишда амалга ошган онгимиздаги ифодаси ва тасвири бўлиб, тил тизимининг элементи ҳисобланган гўё хусусий структурани намоён қилади. Вазифамизга сўз маъноси муаммосига турли-туман ёндашувларни – уларнинг миқдори жуда катта – ўрганиш кирмайди. Шунингдек, биз маъноларнинг ўзаро боғлиқлиги ҳамда сўзнинг морфологик тузилишидан, ёки сўзнинг маъноси ва синтактик вазифаларидан, ёки сўзнинг ўзи аъзо бўлган лексик-семантик гуруҳдаги ўрнидан, ёки сўзнинг маъносини семантик компонентларнинг тизими деб тан олишдан келиб чиқадиган семантик структурасини таҳлил қилишнинг хилма-хил методикасини ҳам муҳокама қилмаймиз. Шубҳасиз, бу масала маъно муаммосига ўз ёндашувини белгиламасдан ҳал қилиниши мумкин эмас. Шунинг учун бу масаладаги учта асосий йўналишларни кўрсатиб, биз лексикографиянинг вазифаларига энг кўп мос келадиган деб кўринадиганини танлаймиз.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Қадимги давр семасиологиясида В.В.Виноградовнинг нуқтаи назари энг кенг тарқалди, бунга кўра кўп маъноли сўзни таърифлашда сўзларнинг синтагматик ва парадигматик муносабатлари эътиборга олинади. “Сўзнинг маъноси, – деб ёзган эди В.В.Виноградов, – фақат унинг шу сўз ёрдамида ифодаланадиган ўша ту-шунчага тўғри келиши билангина аниқланмайди...; у сўз тегишли бўлган ўша сўз туркумининг ху-сусиятларига, грамматик категориясига, унинг қўлланилишининг ижтимоий англаган ва сақлаб қолинган контекстларига, унинг бошқа сўзлар билан аниқ лексик алоқаларига боғлиқ”. Шу билан бирга, сўз маъносининг бир хил эмаслигини, бир хил турда эмаслигини қайд қилиб, В.В.Виноградов сўзда структур жихатдан хилма-хил бўлган лексик маъноларнинг турлари мавжудлигини кўрсатиб ўтади. Сўзнинг иккита хусусиятларидан – сўзнинг мазмуний структурасидан унинг маъноларининг алоқаларидан ва уни бошқа сўзлар билан бирга қўшила олиш қонуниятларидан келиб чиқиб, – у асосий номинатив маъноларни, конструктив боғлиқ маъноларни ва функционал-синтактик чекланган маъноларни ажратиб кўрсатади. Бу маъноларнинг барча турлари лексикографик жихатдан иерархик муносабатларда бўлади.

В.А.Звегинцев, К.А.Аллендорф ва бошқалар бошқа нуқтаи назарга амал қиладилар. “Лексик маънонинг табиатини, унинг ривожланиш ва уни ташкил қилувчи компонентларининг ўзаро муносабатлари қонуниятларини аниқлашга интилаётган семасиологик тадқиқот учун, “асосий маъно”, “тўғри маъно”, “кўчма маъно” каби категориялар бутунлай мақсадсиз саналади... Аслида, сўзнинг фақат лексик-семантик вариантлари мавжуд, тўғрилар ва кўчмалар ҳам бу жихатдан мутлақо тенг-ҳуқуқлидирлар”. Бошқача сўзлар билан айтганда, В.А.Звегинцев сўзда қандайдир умумий, инвариант, моҳиятига кўра мавҳум тушунчани ажратиб кўрсатади, унга нисбатан қолган барча маънолар унинг вариантлари сифатида чиқади.

Учинчи йўналиш Д.Н.Шмелевнинг ишлари билан кўрсатилган. У гўё оралиқ ўринни эгаллайди. Д.Н.Шмелевнинг фикрига кўра, “сўзнинг семасиологик бирлиги унда гўё ўзига анча хусусий, одатда бир тиллик изоҳли луғатларда ажратиб кўрсатиладиган маъноларни бўйсундирувчи қандайдир “умумий маънонинг” мавжудлидан эмас, балки бу алоҳида мустақил маъноларнинг бир-бири билан маълум алоқаси ва уларнинг айнан ўша битта белги ортидан мустаҳкамланганлигидан иборатдир”. Бу маъноларнинг бир-бири билан алоқаларидан келиб чиқиб, у кўп маъноли сўз семантик структурасининг доираси (“умумий маъноси”)–“секторларга бўлинган (бу умумий маънонинг “варианти”) сифатида эмас, балки бир-бири билан туташган ва маълум даражада бир-бирининг устига юкланган доиралар” сифатида тасаввур қилади. Семантик структура деганда муаллиф бир-бири билан семантик ҳосилалик, боғлиқлик муносабатларида бўлган маънолар қаторини тушунади. **Уй** ва **ер** сўзлари маъноларининг тақсимотини таҳлил қилиб, Д.Н.Шмелев шундай хулосага келадики, айрим ҳолларда (**уй** сўзи билан мисол) умумий маънони аниқлаш осон, айни пайтда бошқа (масалан, **ер** каби) сўзларда эса “асосий ёки “дастлабки” маънони ажратиб кўрсатиш қийин”. Бу билан Д.Н.Шмелев сўзда сўзнинг ҳамма маънолари учун умумий бўлган маълум се-

мантик элементларнинг мавжудлигини тан олади ва шундай қилиб, айрим ҳолларда “ўзига хос аб-стакция бўлган, таърифлаб беришга қийинчилик билан бўйсунадиган” “умумий маънони” бел-гилаш имконияти ҳақида гапирганда, гўё мурасага боради.

Тадқиқот методологияси. Лексикографик назария учун энг мақбули биринчи ёндашув бў-либ, у лексикографга маълум мантиқийликда луғат мақоласида сўзнинг лексик-семантик структу-расини ашқил қилувчи элементларни кенгайтириш имкониятини беради. Ушбу ишда бошланғич позиция шундан иборат.

Гарчи, кўриб турибмизки, семасиологик назарияда маълум муваффақиятларга эришилган бўлса-да, луғатда тушунтириш, сўз маъносини изоҳлаш муаммоси – бу муаммо тузувчилар томо-нидан ҳар гал у ёки бу усул билан ҳал қилинади, луғатлар тузилишда, чиқишда, одамларга хизмат қилаётганлигига қарамасдан – ҳалигача ҳал қилинган деб ҳисобланиши мумкин эмас.

Шу билан бирга, лексикографик амалиётни такомиллаштириш учун маъноларни изоҳлаш муаммоси, сўзнинг семантик структурасини аниқлаш ортидан, ишнинг муҳим қисмини намоён қи-лади, чунки сўзни луғатда изоҳлаш, унинг реал хусусиятларининг ва сифатларининг акси бўлиб, шунингдек, ушбу луғатнинг вазифаларига жавоб беради. Шунинг учун сўзни унинг структураси-нинг барчи қийинчиликлари билан, луғатда берилётган сўз билан янглиштириш мумкин эмас.

Таҳлил ва натижалар. Яна қайд қилиш керакки, лексикографик тажрибада, одатда бир маъноли ва кўп маъноли бирликлар ўртасида тафовут қилинади. Чамаси, бир маъноли сўзларни бериш усули ҳақидаги хилма-хил фикрларнинг мавжудлиги лексикографияга катта зиён етказ-майди. Кўп маъноли сўзларнинг берилишига келсак, бу ерда иш анча мураккаб, чунки ушбу муам-монинг мавжуд ишлаб чиқилганлик даражасида оптимал усулни танлаш ёки кўрсатиш қийин.

Бу муаммони ҳал қилишнинг асосий мураккаблиги нимадан иборат? Маълумки, лексико-граф дуч келадиган биринчи қийинчилик – бу ушбу сўзнинг маънолари сонини аниқлашдан ибо-рат, улар турли луғатларда бир хилда тақдим қилинмаган. Бу бўйича келишмовчиликка “маъно-ларнинг сони” тушунчасига нисбатан хилма-хил нуқтаи назарлар ўз изини қолдиради. Баъзи бир тадқиқотчиларнинг фикрича, бу тушунча сўзни ишлашда, умуман, аҳамиятсиз, чунки лексико-графнинг бош вазифаси “сўзнинг асл маъносини ва асл бўлмаган маъносини аниқ фарқлаш, ёки уни турли-туман маъновий контекстларда тушуниб етишдан иборатдир”. Масаланинг бундай ҳал қилиниши сўзда асосий, етакчи маънонинг мавжудлигини назарда тутаяди, қолганлари эса бу маъ-нони амалга ошишининг хилма-хил вариантлари сифатида тан олинади.

Бошқа муаллифлар луғатда сўзнинг маъновий структурасини умумий жиҳатларда кўрсатиш-нинг ўзи етарли ва сўз қанча лексик маъноларга эгаллиги ва улар луғатда ўз ифодасини қандай топишлиги унча муҳим эмас, деб ҳисоблайдилар.

Хулоса ва таклифлар. Бирок, амалий лексикографик ишлар кўрсатадики, сўзнинг умумий семантик структурасини аниқлашдан туриб кифояланиш қийин. Бунинг устига тан олиш керак-ки, кўп маъноли сўзларнинг семантик структурасини ўрганишда энг катта қийинчилик, гарчи бу катта куч ва вақт сарфлашни талаб қиладиган жуда сердиққат ва сермашаққат иш бўлса-да, маъ-ноларни аниқлашнинг ўзигина эмас, балки бу маъноларни уларни ташкил қилувчиларга ажратиш ва таснифлашдир. Бу бир жиҳати, иккинчи жиҳати эса бу маъноларни қандай кетма-кетликда бе-риш ва уларни қандай гуруҳлаштириш билан боғлиқ. Ягона мезонларни, ёндашувларни, усулларни ишлаб чиқиш – жуда мураккаб вазифа бўлиб, унинг ечими луғатда сезиларли жойни эгалловчи кўп маъноли сўзларни лексикографик тасвирлашнинг принципларини ва усулларини кейинчалик ишлаб чиқишга самарали таъсир кўрсатади. Бусиз уларни жуда шартли тасвирлашни тубдан яхши-лашни тасаввур қилиб бўлмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ш.Балли. Общая лингвистика и вопросы французского языка. 1955, с. 317.
2. Ж.Вандриес. Язык. Лингвистическое введение в историю. 1937, с. 76 – 90.
3. В.В.Налимов. К вопросу о логико-лингвистическом анализе языка науки. Проблемы структурной лингвистики. 1974, с. 132
4. Н.А.Слюсарьева. Тилнинг метатил функцияси ҳамда лингвистик терминологияси. Тадқи-кот иши. 1975.
5. Ж.Марузо, *Lexique de la terminologie linguistique: français, allemand, anglais, italien.* 1960, p. 261.

Allaberganova Dilbarjon Atabekovna (UrDU O‘zbek tili ixtisosligi tayanch doktoranti;
allaberganovadilbarjon@gmail.com)

OMON MATJON SHE‘RIYATI TILIDA DIALEKTIZMLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI HAQIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Omon Matjon she‘rlarida qo‘llangan dialektizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, shoirning hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo‘lgan holatning mahalliy belgisini bildirish maqsadida qo‘llagan dialektal so‘zlar tahlil qilingan, shoir she‘rlaridagi dialektizmlarning fonetik, leksik va grammatik ko‘rinishlari o‘rganib chiqilgan.

Аннотация. Статья посвящена особенностям диалектизмов, используемых в стихотворениях Омона Матждона. Отмечается, что для читателя важно понимать реалистичную картину жизни, передача местного колорита, индивидуализации речи персонажей, передаче смысла диалектного обозначения. Проанализированы диалектные слова, которые могут выразить особенность метсного колорита, изучаются фонетические, лексические и грамматические проявления диалектизмов в стихотворениях поэта.

Annotation. This article discusses the peculiarities of the dialectics used in the poems of Omon Matjon and analyzes the dialectal words used by the poet to draw a realistic picture of life, to give a local color, to individualize the speech of the characters or to express a local sign of a situation, the phonetic, lexical and grammatical forms of dialectics in the poet’s poems have been studied.

Kalit so‘zlar: Xorazm shevalari, lingvopoetika, Omon Matjon, dialektizmlar, she‘riyat tili.

Ключевые слова: Хорезмские диалекты, лингвопоэтика, Омон Матжон, диалектизм, язык поэзии.

Key words: Khorezm dialects, linguopoetics, Omon Matjon, dialectisms, poetic language.

Omon Matjon o‘zbek she‘riyatida o‘z ovozigaga, o‘z uslubiga ega bo‘lgan, adabiyotimizda serjilo shoirlik maktabining asoschilaridandir. Shoir she‘riyatida xalqqa, insonga chuqur hurmat va muhabbat ruhining namoyon bo‘lishini kuzatamiz. Ijodkor yurtga cheksiz mehr ufurib turgan mazmundor satrlarni yaratishda umumxalq tili boyliklaridan unumli va mohirona foydalangan.

Omon Matjon ijodida ham so‘z tanlashdagi va qo‘llashdagi mahoratining tadqiq etilishi tilshunosligimiz rivojida o‘ziga xos ahamiyatga ega. O‘zbek tilshunosligida ijodkor badiiy nutqining o‘ziga xosligi, uning til vositalaridan foydalanishi kabi jihatlar bosh mavzu darajasiga ko‘tarilib bormoqda.

Fikrimizning dalili sifatida shoir she‘rlarida qo‘llangan dialektizmlarning tahlil jarayoniga e‘tibor qaratmoqchimiz.

Dialektlarga xos so‘zlar qo‘llanishi territoriyaga ko‘ra chegaralangan leksemalardir.¹ Dialektizmlar faqat ma‘lum dialekt yoki sheva vakillari tomonidagina faol qo‘llaniladi. Adabiy tilda ular ishlatilmaydi, ammo til taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, umumiste‘moldagi leksika bilan dialektal leksika o‘rtasida doimiy aloqa mavjuddir. Bu, ayniqsa, ijodiy asarlarning jozibador bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

Yozuvchilar o‘z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy koloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo‘lgan holatning mahalliy belgisini bildirsagina, dialektal so‘zlardan foydalanishi mumkin.²

Dialektizmlarning fonetik, leksik va grammatik ko‘rinishlari mavjud bo‘lsa, Omon Matjon she‘rlarida ularning barchasiga misollarni uchratishimiz mumkin. Shoir o‘z she‘rlarida Xorazm farzandi sifatida Xorazm dialektiga xos so‘zlarni o‘rni bilan qo‘llagan:

Hoy *og‘a*, hay do‘stim, ukam, hoy singlim,
Bilmadim yoshingiz kattami kichik,
Ilk sarob ko‘riboq maqsaddan qaytib,
Dunyoni yolg‘onchi etishlik nechuk?!³
Lekin nima kechar oqillar holi,
Hayot nodonlarni etsa *kadxudo!*¹

¹Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Talqin”, 2005, 198-bet.

²Shomaqsudov A. va boshqa. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1983, 57-bet.

³Omon Matjon. Iymon yog‘dusi. Toshkent, Adabiyot va san‘at, 1995, 254-bet.

Misralardagi *og'a*, *kadxudo* soʻzlari leksik dialektizmlar boʻlib, adabiy tilda ekvivalenti mavjuddir. *Og'a* soʻzining adabiy tildagi koʻrinishi aka. Aka – oʻzidan katta er kishiga murojaatda yoki unga hurmat yuzasidan ishlatiladi (bunda yakka holda yoki nutq qaratilgan shaxsni bildiruvchi soʻz bilan qoʻllanadi).²

Kadxudo soʻzi adabiy tildagi *oqsoqol* soʻzining shevadagi koʻrinishidir. Oqsoqol – soch-soqoli oqargan kekxa odam; moʻysafid.³ “Yoshi ulugʻ”, “donishmand”, “maslahatgoʻy odam” maʼnosida Xorazm shevasida *kadxudo* soʻzidan foydalanilgan. Shoir ham “elning ulugʻi” maʼnosida bu soʻzni qoʻllagan. Mazmunan tahlil qilsak, nodonlar el kattasi, maslahatgoʻyi boʻlolmasligiga ishora qilgan.

Sozchi tanburni tuzdi,
Duldul arqonni uzdi,
Degish qirgʻoqni buzdi.
Daryoga kim yetkazdi
Nera borajagimni.⁴

Ushbu sheʼriy parchada qoʻllangan *degish* soʻzining esa adabiy tilda ekvivalenti mavjud emas. *Degish* Xorazm shevalarida ishlatilib ”oʻpirilish”, ”toshqin natijasida daryo qirgʻogʻining oʻpirilishi” maʼnolarida qoʻllanadi.

Shoir sheʼrlarida qoʻllangan shevaga oid soʻzlarning ichida fonetik dialektizmlarga misollarni ham koʻpgina uchratishimiz mumkin.

Bilamizki, fonetik dialektizmlar adabiy tildagi soʻzlardan oʻziga xos fonetik xususiyatlari – unlilarning choʻziqligi va yumshoqligi, bir tovush oʻrnida boshqa tovushning kelishi, tovush orttirilishi va tovush tushirilishi kabilar bilan farq qiladigan soʻzlardir. Aynan Xorazm shevasining adabiy tildan farqi ham uning fonetik xususiyatlarida koʻzga tashlanadi:

Lekin *muni* koʻring, ebi, birovlar
Qanoat qilmaydi oʻz nonini yeb.⁵

Ajratib koʻrsatilgan *muni* soʻzi *bu* olmoshiga kelishik -ni qoʻshimchasini qoʻshish orqali yuzaga kelgan *buni* koʻrsatish olmoshining shevada qoʻllanishidir. Yaʼni, *b* sonor tovushi oʻrniga *m* sonori ishlatilgan.

Bu – navbahor, oʻynoli,
Sayradi tor, oʻynoli.
Oʻrtada yor oʻynoli,
Dil intizor oʻynoli.⁶

Oʻynoli soʻzi adabiy tildagi *oʻynamoq* feʼlining “raqs tushish” maʼnosidagi oʻynaylik soʻzining shevadagi koʻrinishidir. Oʻyna asosidagi *a* unlisi *o* unlisiga oʻtgan.

Ishq bogʻini sayr etdim – qish yoz boʻlib koʻrindi,
Dunyo – kelin, *durmushi* pardozi boʻlib koʻrindi.⁷

Durmushi soʻzida soʻz boshidagi jaransiz *t* undoshi oʻrniga jarangli *d* undoshi kelgan. Bu soʻz adabiy tildagi *turishi* soʻzining shevada qoʻllanilishidir.

Omon Matjon sheʼrlarida ishlatilgan dialektizmlarni soʻz turkumlari boʻyicha quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. Ot turkumiga mansub dialektizmlar: Yuqoridagi misollarda qoʻllangan *og'a*, *kadxudo* soʻzlari shaxs oti hisoblanadi. Quyidagi misralarda “dugona” maʼnosida qoʻllangan *chiqonjon* soʻzi ham shaxs otiga misol boʻladi:

Osmonga qarasam oyning bolasi,
Orqamga qarasam Gurlan qalʼasi.
Umidimga yetkazmadi, *chiqonjon*,
Harom oʻlsin ulli boyning bolasi.⁸
Qator-qator minor koʻrdim Xivada,
Koʻk toqini bekor koʻrdim Xivada.

¹ Yuqorida koʻrsatilgan manba. 254-bet.

² Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Toshkent, ”Oʻzbekiston”, 2013, 60-bet.

³ Shu manba. 181-bet.

⁴ Omon Matjon. Umr oʻtar, vaqt oʻtar. Toshkent, ”Oʻzbekiston”, 2016, 104-bet.

⁵ Omon Matjon. Iymon yogʻdusi. Toshkent, Adabiyot va sanʼat, 1995, 254-bet.

⁶ Omon Matjon. Yuqoridagi manba. 36-bet.

⁷ Omon Matjon. Yuqoridagi manba. 36-bet.

⁸ Omon Matjon. Iymon yogʻdusi. Toshkent, Adabiyot va sanʼat, 1995, 182-bet.

Ichon uchun *Dishon* qurbon bo‘libdir,
Elga jonlar nisor ko‘rdim Xivada.¹

Bu yerda *Ichon* va *Dishon* so‘zlari atoqli otlar bo‘lib, Xivadagi *Ichon* qal‘a va *Dishon* qal‘ani ifodalash uchun qo‘llanilgan. Adabiy tilda *ichon* – ichkari, *dishon* – tashqari ma‘nolarini bildiradi.

2. Sifat turkumiga oid dialektizmlar:

Bir *ko‘na* vulqon bor ichingda, bildim,
Dud – quyqum pusquring kelar damodam.²

Jumaniyoz Qo‘ziyev o‘zim bo‘laman,
Qisinchoq el bilan savash boshlayman
Faylasuf emasman, lekin dunyoga
Balandroq masnaddan nazar tashlayman.³

Misollardagi *ko‘na* – eski, *qisinchoq* – tortinchoq ma‘nolarida qo‘llangan dialektizmlar.

Ko‘na so‘zi adabiy tildagi *ko‘hna* so‘zining shevadagi shaklidir. *Ko‘hna* so‘zi fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ”eski”, ”qadimgi” ma‘nolarini ifodalaydi. Misolda so‘zdagi *h* tovushining tushib qolgan holatda, ya‘ni *ko‘na* shaklida qo‘llanishini ko‘ramiz. Bunday *h* tovushi tushish hodisasini Xorazm shevalariga oid ko‘pchilik so‘zlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, Ahmad – Amat kabi.

3. Fe‘l turkumiga oid dialektizmlar:

Quyosh tong oldida qizargan kabi,
G‘unchalar *qisinib* yuz yorgan kabi,
iymanib kelasan, ochilolmaysan...⁴
Sal bulutga barglarimni *gizlab* teskari,
Sal shamolga *qo‘porilib* ildizim bilan.⁵

Misralarda ko‘rganimiz, *qisinib* – *tortinib*, *gizlab* – *bekitib*, *qo‘porilib* – *ko‘tarilib* ma‘nolarini bildirgan shu kabi fe‘l so‘z turkumiga oid dialektizmlarni Omon Matjon she‘rlarida talaygina uchratishimiz mumkin.

Yuqoridagi she‘riy misrada *qo‘porilmoq* so‘zi “yer bag‘ridan sug‘urib ol” ma‘nosini anglatuvchi *qo‘por* leksemasi shaklidir. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni anglatgan bu so‘z “ko‘taril” “tik tur” ma‘nosini anglatuvchi *qop* fe‘liga -(u)r ortirma qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan: *qop+ur* = *qopur*⁶. Qadimgi turkiy tildayoq bu so‘z *qopar* tarzida ham talaffuz qilingan; o‘zbek tiliga ana shu shakli a unlisi o unlisiga almashgan holatda yetib kelgan: *qopur* → *qopar* → *qopâr*.⁷

Bizningcha, “xalta” so‘zining sinonimi bo‘lgan *qop* leksemasi, Xorazm shevalaridagi *qopchi* (ilib ol), *qopmoq* (tishlamoq), *qopqoq*, *qopi* (eshik) leksemalarining barchasi tarixan *qo‘p* asosiga borib taqaladi, asosning o‘zi esa “tik turmoq” ma‘nosidan tashqari, “qopmoq”, ya‘ni “biror narsaning orasiga olmoq”, “ushlab tortmoq”, “yopmoq” ma‘nolariga aloqador deb o‘ylaymiz.

Navoiy asarlari tilida ham *qo‘por* so‘zi 1. “ko‘tarmoq”, “qo‘zg‘atmoq”, “turg‘izmoq”, “tiriltirmoq.”⁸

Labing malohati g‘avg‘o *qo‘pordi* olamdin,
Shakarni bo‘yla kishi hayda ko‘rdi sho‘rangez.

Tengri taolo kufroni ne‘mat qilg‘anlarni va‘da qilg‘an dastur bila to‘ng‘uz shakli bila o‘runlaridin *qo‘pordi*.

2. “ag‘darmoq”, “buzmoq.”

Pand ila sabrim uyin, ey aql, ma‘mur istama,
Qim *qo‘pormish* ko‘z yoshim sayli ani bunyodidid..

A.Primov “Zafarnoma”da *qo‘pormoq* so‘zi “qurmoq”, “bunyod qilmoq” ma‘nolarini ham ifodalagani haqida qiziqarli misollar keltiradi.

¹ Omon Matjon. Yuqoridagi manba. 91-bet.

² Omon Matjon. Yuqoridagi manba. 318-bet.

³ Omon Matjon. Yuqoridagi manba. 254-bet.

⁴ Omon Matjon. Umr o‘tar, vaqt o‘tar. Toshkent, ”O‘zbekiston”, 2016, 42-bet.

⁵ Omon Matjon. Iymon yog‘dusi. Toshkent, Adabiyot va san‘at, 1995, 246-bet.

⁶ PDP, 414; Devon II, 75; DS, 457.

⁷ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 1-jild, Toshkent, ”Universitet”, 2003, 588-bet.

⁸ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt jildli, Toshkent, “Fan”, 1983–1985, 4-jild, 1985, 91-bet.

Omon Matjon o'ziga xos shoirdir. Uning she'rlari o'ziga xos ohanglarda bitilganligi bilan boshqa shoirlar ijodidan farqlanadi. Ana shu o'ziga xoslikni ta'minlovchi badiiy til vositalarini chuqur o'rganish va tadqiq etish orqali shoirning lingvistik tafakkur doirasi qay darajada keng ekanligini ko'ra olamiz.

Omon Matjon she'riyatining tili nihoyatda boy, rang-barang va serqirra bo'lib, dialektizmlar uning bir qirradi, xolos. Shoir tomonidan qo'llanilgan dialektizmlar tasvirlanayotgan voqeaning real, jozibali chiqishini ta'minlab, kitobxonga milliylikni, xalq tili bilan yaqinlikni singdira olgan.

Nizomiddinova Dildora Nosirovna (Qo'qon DPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi)
«BOBURNOMA»DA TOPONIMLAR TALQINI

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida zikr qilingan toponimlar – aholi maskanlari, suv havzalarining nomlari, relyefni ifodalovchi joy otlari kabilar xususida fikr yuritiladi, o'rni bilan ulardan ba'zilarining anglatgan ma'nosi, kelib chiqishi, etimologiyasi yoritib beriladi.

Аннотация. В статье рассматриваются топонимы, упомянутые в «Бобурноме» Захириддина Мухаммада Бабура – названия населенных пунктов, водоемов, топонимы, представляющие рельеф, значение, происхождение и этимология некоторых из них.

Annotation. The article discusses the toponyms mentioned in Zahiriddin Muhammad Babur's "Boburnoma" – the names of settlements, water bodies, place names representing the relief, the meaning, origin and etymology of some of them.

Kalit so'zlar: joy nomi, toponim, oykonim, gidronim, oronim, etnooykonim, antropotoponim, etimologiya, xalq etimologiyasi, o'z qatlam, o'zlashgan qatlam.

Ключевые слова: топоним, топоним, ойконим, гидроним, ороним, этноойконим, антропо-топоним, этимология, народная этимология, собственный пласт, освоенный пласт.

Key words: place name, toponym, oykonim, hydronym, oronym, ethnooykonim, anthropotoponym, etymology, folk etymology, own layer, mastered layer.

O'zbek adabiy tilining muhim yodgorligi bo'lmish Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari ma'naviy qadriyatlarimizning bir bo'lagi hisoblanmish toponimlar va ularning tarixini o'rganishda noyob manbadir. Unda mingdan ortiq geografik nom – mamlakat, shahar, qishloq, qal'a, dasht, tog', dovon, dara, daryo, ko'priq, kechuv, ko'l, chashma, bog', yaylov, o'tloq va boshqa joylarning nomlari tilga olib o'tilgan.¹

«Boburnoma»da uchraydigan toponimlar ular ifodalagan obyektlarning turiga ko'ra, bir necha guruhga bo'linadi. Bularning bir qismini aholi maskanlari nomlari – oykonimlar tashkil etadi. Oykonimlar: 1) mamlakatlar nomlari – Afg'oniston, Hindiston, Arabiston, Mo'g'uliston, Iroq, Ozarbayjon, Misr, Xitoy, Xuroson; 2) shaharlar nomlari – Dehli, G'azna, Kobul, Mashhad, Banoras, Lohur, Buxoro, Urganch, Toshkand, Andijon, Kesh, Sayram, Xo'jand, Qarshi, Buxoro; 3) qishloq va kentlar nomlari – Muhammad og'a kenti, Xudak kenti, Beshkent, Qulba kenti, Archakent, Yorkand, Navkand, Dehi G'ulomon, Yettikent, Dehi Afg'on; 4) qal'a va qo'rg'onlar nomlari – Qal'ayi Dabusi, Qal'ai Zafar, Olaqo'rg'on, Toshqo'rg'on, Asfidak qo'rg'oni; 5) rabotlar nomlari – Raboti Sarhang, Raboti Zavraq, Surxrobot, Raboti Ro'zak kabilarni o'z tarkibiga birlashtiradi.

Bobur asaridagi toponimlarning bir guruhi gidronimlar – suv havzalari nomlaridan iboratdir. Gidronimlar qanday suv obyektlarining atoqli otini anglatishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Daryolar nomi: Gang daryosi, Amu daryosi, Oqsuv daryosi, Jo'n daryosi, Sayhun daryosi, Saru daryosi, Satluj daryosi, Ilamish daryosi, Sind daryosi, Daryoyi Xo'r kabilar. Asarda daryolar nomi tarkibida ba'zan suyi so'zi ham ishlatilgan: Axsi suyi, Andijon suyi, Bajur suyi, Balxob suyi, Bahat suyi, Bora suyi, Tus suyi, Buthak suyi, Gambir suyi, Gandak suyi, Gulbahor suyi, Darg'am suyi, Kavoriy suyi, Karmnos suyi, Kishm suyi, Kobul suyi, Ko'hak suyi, Xo'jand suyi, Chir suyi, Suhon suyi singarilar buning misolidir. Shuningdek, rud so'zi ham daryolar nomi tarkibida qo'llanilgan: Jamrud, Kamrud, Surxrud, Chandoval rudi kabilar.

2. Buloq – chashma nomlari: Yonbuloq, Qarg'abuloq, Qorabuloq, Boboqaro chashmasi, Bodomchashma, Garmchashma, Halvochashma, Chashmai Para singarilar.

¹ H.Hasanov. Bobir sayyoh va tabiatshunos. T., "O'zbekiston", 1983, 25-bet.

3. Ariq, hovuz va soylar nomlari: Qirqariq, Xokon arig‘i, Havzi Mohiyon, Malluxon havzi, Qo‘ruqsoy, Alasoy va boshqalar. «Boburnoma»da ariq nomlarining ayrimlari tojikcha «jo‘y» so‘zi orqali ifodalangan: Jo‘yi Injil, Jo‘yi Shohiy.

4. Guzar (kechuv)lar nomi: Balva guzari, Kanor guzari, Kilif guzari, Nilob guzari, Oxor guzari, Chupora guzari, Yassikechit guzari kabilar.

5. Ko‘llar nomi: Qorako‘l, Ko‘ligil, Ko‘li Malik, Ko‘li Mag‘ok singarilar.

6. Ko‘priklar nomi: Mirzo ko‘prigi, Mulla bobo ko‘prigi, Muhammad Chab ko‘prigi, Cho‘pon ko‘prik, Qutluq qadam ko‘prigi. Ba‘zi ko‘prik nomlari tarkibida forscha-tojikcha «pul» so‘zi ishtirok etgan: Puli Mag‘ok, Pulikoh, Puli Molon, Puli Ravon, Puli Solor, Pulchirog‘ kabilar.

Bobur o‘z asarida o‘rni kelib qolganda gidronimlarning ba‘zilariga mufassal to‘xtaladi, ularni atroflicha izohlaydi. Xususan, hozirgi Sirdaryo haqida quyidagilarni qayd etadi: «Sayhun daryosikim, Xo‘jand suyg‘a mashhurdur, sharq va shimoli tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shohruxiyag‘a mashhurdur, o‘tub yana shimolg‘a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xili quyiroq bu daryo tamom qumg‘a singar, hech daryog‘a qotilmas». Ko‘hak suyi xususida mana bu ma‘lumotlarni keltiradi: «Ko‘hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki quruh bo‘lg‘ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur, Ko‘hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko‘hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug‘ rud ayiribturlar, balki daryochadur, Darg‘am suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir shar‘iy bo‘lg‘oy. Samarqandning bog‘ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ma‘murdur».

«Boburnoma»da qayd etilgan toponimlar tizimida yer sathidan balandda turuvchi obyektlarning atoqli otlari – oronimlar alohida o‘rinni egallaydi. Oronimlarni qanday ob‘ekt nomini bildirib kelishiga ko‘ra bir necha guruhga tasnif etib o‘rganish mumkin:

1. Tog‘ nomlari: Olatog‘, Sarvtog‘, Olg‘u tog‘i, Mehtar Sulaymon tog‘i, Murg‘on tog‘i, Shovdor tog‘i, Shunqorxonona tog‘i, Kirmosh tog‘i, Xoja Ismoil tog‘i singarilar. Ba‘zan bu xil nomlar tarkibida «tog‘» ma‘nosini ifodalovchi tojikcha «ko‘h» so‘zi qatnashgan: Anbarko‘h, Baroko‘h, Domanko‘h, Ko‘hi Jud, Ko‘hi Safid, Ko‘hisof, Ko‘hpoya kabilar.

2. Ko‘tal nomlari – Anbahor ko‘tali, Bodich ko‘tali, Gunbazak ko‘tali, Ko‘tali Zarrin, Oqko‘tal, Sangdoki ko‘tali, Qaroko‘ba ko‘tali.

3. Dara nomlari – Darai Boy, Darayi Bom, Darai Gaz, Darayi Zang, Darai Zindon, Darayi Nur, Darayi So‘f, Darayi Xush, Kamrud darasi, Pashgrom darasi, Puromin darasi, Tutumdara, Obdara.

4. Dovon nomlari – Itmak dovoni, Kandirlik dovoni, Muhammad pix dovoni.

5. Tapa, gumbaz, g‘or nomlari – Choshto‘ba, O‘njuto‘ba, O‘ratepa, Qo‘shgunbaz, Gunbazi chaman, G‘ori Oshiqon. Ayrim hollarda tapa, balandlik, qir nomlari asarda tojikcha «pushta» so‘zi vositasida ifodalangan: Pushtayi Aysh, Pushtayi Ko‘hak, Qorbug‘ pushtasi va shu kabilar.

Bobur «Boburnoma»da oronimlar haqida to‘xtalganda o‘sha tog‘, dara, ko‘tallarning joylashgan o‘rni, foydali qazilmalari, o‘simliklar va hayvonot olami, yo‘llari, iqlimi, gidrografiyasiga oid muhim ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi. Chunonchi, Xo‘jand yaqinida joylashgan tog‘ xususida shunday deb yozadi: «...daryoning shimol tarafida bir tog‘ tushubtur, Munug‘il otliq, derlarkim, bu tog‘da firuza koni va ba‘zi konlar topilur. Bu tog‘da bisyor yilon bor».

Qayd etish lozimki, «Boburnoma»da qo‘llanilgan toponimlarning ko‘lami ancha kengdir. Ular sirasiga yana bog‘lar nomlari – Bog‘i Binafsha, Bog‘i Behisht, Bog‘i Bo‘ldu, Bog‘i Vafo, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Zubayda, Bog‘i Kalon, Bog‘i Maydon, Bog‘i Safo, Bog‘i Shamol, Bog‘i Shahr; darvozalar nomlari – Shayxzoda darvozasi, Shayxulislom darvozasi, Charmgaron darvozasi, Chorraha darvozasi, Darvozayi Iroq, Darvozayi Malik, Darvozayi Firuzobod, Darvozayi Xush, Darvozayi Qipchoq, Mirzo darvozasi, Ohanin darvoza; saroy va ko‘shk nomlari – Bo‘stonsaroy, Jig‘onsaroy, Ko‘ksaroy, Oqsaroy, Saroy Mandi; masjid nomlari – Xoja Hizr masjidi, Masjidi Javzo, Masjidi Muqatta‘, Masjidi Laqlaqa; o‘lang, o‘tloq, yaylov, qo‘ruq nomlari – Qamariy o‘langi, Chiltu o‘langi, Choloq o‘langi, Yaka o‘langi, Qushxona o‘langi, Qo‘lba o‘langi, Qo‘sh Nodir o‘langi, Yor yayloq, Bo‘rka yayloqi, Bo‘dana qo‘rug‘i kabilarni kiritish mumkin.

Yuqoridagilardan Bobur o‘zi yaratgan Bog‘i Vafo to‘g‘risida mana bu ma‘lumotlarni yozib qoldirgan: «Odinapur qo‘rg‘onining olida, janubiy tarafida bir balandida tarixi to‘qquz yuz o‘n to‘rtta bir chahorbog‘ soldim. Bog‘i Vafog‘a mavsum, rudqa mushrif, rud qo‘rg‘on bila bog‘ning orasidadur, norinji va turunji va anori bisyor bo‘lur. ...Eri murtafi‘, oqar suyi muttasil, havosi qishlar mo‘tadil, bog‘ning o‘rtasida bir kichikroq pushta voqi‘ bo‘lubtur, bir tegirmon suyi bu bog‘ning o‘rtasidin va bog‘ning ichidagi pushtaning ustidin hamisha joriydir. Bog‘ o‘rtasidagi chorchaman bu pushtaning ustida voqi‘ bo‘-

lubtur. Bog'ning g'arbi janubiy tarafida dahi dardah havzedur. ...Bu havzening girdo-girdi tamom sebar-gazordur... Norunjar sarg'arg'on mahalda bisyor yaxshi ko'rinur, hili yaxshi bog' voqi' bo'lubtur» (190-bet).

«Boburnoma»ni o'qir ekanmiz, unda ko'plab geografik nomlarning etimologiyasi (kelib chiqishi, ma'nosi)ga doir asosli ilmiy fikrlar bayon qilinganligini ko'ramiz. Darhaqiqat, Bobur joy nomlarini tilga olganda, ba'zan ularning qanday ma'no anglatishiga, nima uchun shunday nom olganligiga e'tibor beradi, bu haqda o'z mulohazalarini kitobxon bilan o'rtoqlashadi. Chunonchi, Boburning Kandibodom shahri nomining ma'nosi to'g'risidagi fikri diqqatga loyiqdir. Kandibodom hozirda Tojikiston Respublikasi hududiga qarashli bo'lib, Konibodom shaklida yoziladi va shunday talaffuz qilinadi. Mahalliy aholining fikriga ko'ra, Konibodom toponimi ikki qismdan: kon va bodom so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, «bodom koni» ma'nosini bildiradi. Aslida, mazkur oykonimik nomning birinchi qismidagi kon so'zining «ko'p, mo'l, serob» ma'nosiga hech qanday aloqasi yo'qligini, u, aslida, kand so'zi bo'lib, «shahar» ma'nosida qo'llanganligi, binobarin, Kandibodom «bodom shahri», «bodomli shahar» ma'nosini anglatishligini biz «Boburnoma» mutolaasi orqali bilib olamiz. Bobur yozadi: «Muning tavobiidin Kandibodomdur. Agarchi kasaba emas, yakshig'ina kasabachadur. Bodomi yaxshi bo'lur. Bu jihatdin bu ismg'a mavsumdur. Hurmuz va Hindustong'a tamom muning bodomi borur» (62-bet). Ko'rinadiki, Bobur zamonida Kandibodom tarzida qo'llangan ushbu toponim vaqtlar o'tishi bilan fonetik o'zgarishga uchragan, natijada Konibodom shaklini olgan: Kandibodom>Konibodom.

Asarda hozirgi Qashqadaryo viloyatidagi Shahrisabz shahrining nomlanishi shunday izohlanadi: «Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo'b sabz bo'lur uchun Shahrisabz... derlar» (108-bet). Demak, Shahrisabz – «ko'kalamzor shahar», «yashil – bog'-rog'larga boy shahar» ma'nosidadir.¹

«Boburnoma»da Hindiston hududidagi Kashmir oykonimiga tubandagicha izoh berilgan: «...bu tog' elini Kas derlar. Xotirg'a yettikim, Hinduston eli «shin»ni «sin» talaffuz qilur. Chun bu tog'da mo'tabar shahr Kashmirdur, balki Kashmirdin o'zga bu tog'da yana shahre eshitilmaydur. Bu jihattin bo'la olurkim, Kashmir demish bo'lg'aylar» (342-bet). Darhaqiqat, geograf olim Hamidulla Hasanov to'g'ri ta'kidlaganidek, «kas», aslida, «kash» bo'lib chiqadi va Kashmir shu tog'dagi qabila nomi bilan bog'liq oykonim hisoblanadi.² Shuningdek, Bobur Afg'onistondagi viloyatlardan biri Lamg'on (ko'plik shakli – Lamg'onot) to'g'risida yozar ekan, uning besh tuman va ikki bo'lukdan iborat ekanligini ta'kidlaydi va nomning kelib chiqishi xususida mana bu fikrlarni bayon qiladi: «Hazrati Nuh payg'ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba'zi tarixta Mehtar Lomni Lamak Lamkon debturlar. Ul elni xili mulohaza qilibturkim, ba'zi mahal «kof» o'runig'a «g'ayn» talaffuz qilurlar, bu jihattin g'olibo bu viloyatni Lamg'on debturlar» (191-bet). Demak, muallifning tushuntirishicha, Lamkon nomi «k» harfining «g'» deb aytilishi tufayli Lamg'on shakliga kelib qolgan: Lamkon>Lamg'on. Aytilganlardan anglashiladiki, Kashmir kas etnonimiga aloqador holda vujudga kelgan etnooykonim, Lamg'on shaxs nomi bilan yuritilgan antropotoponim sanaladi.

Bulardan tashqari, «Boburnoma»da Isfaradagi Sangi oyina, Hindikush tog'idagi ko'tallardan biri – Tul, Afg'onistondagi Ko'hi Safid, Kobul viloyatidagi G'urband oronimlariga izoh berib o'tilgan, ma'nolari tushuntirilgan. Ularga asarning o'zidan aynan ko'chirmalar keltiramiz: «Isfaraning bir shar'isida janub sori pushtalarning orasida bir parcha tosh tushubdur, «Sangi oyina» derlar, uzunlug'i taxminan o'n qari bo'lg'ay, balandlig'i ba'zi yeri kishi bo'yi, pastlig'i ba'zi yeri kishining belicha bo'lg'ay, oynadek harnima mun'akis bo'lur» (61-bet). «Bu uch ko'taldin yaxshirog'i Tuldur. Vale yo'li bir nima uzunroqdur. G'olibo bu jihattin Tul derlar» (188-bet). «...bu tog'din qor hargiz o'ksumas. Bu jihattin g'olibo Ko'hi Safid derlar» (190-bet). «Yana bir G'urband tumanidur. Ul viloyatlarda ko'tallarni band derlar. G'ur sari bu ko'tal bila borurlar, g'olibo ul jihatdin G'urband debturlar» (193-bet). Binobarin, Boburning izohlashicha, Sangi oyina – oyna tosh, oynadek tekis, silliq tosh; Tul – olis, uzun yo'l; Ko'hi Safid – oq tog', doimo qor bilan qoplangan tog'; G'urband – G'ur tog'iga olib boruvchi, eltuvchi ko'tal ma'nosini bildiradi.

Bobur yana Hindistondagi Ko'hi Jud, Savo lak parbat, Afg'onistondagi Shohi Kobul tog'lari haqida to'xtalganda, ularning ma'nosiga e'tibor beradi. Ko'hi Jud tog'ida ellardan biri jud qabilasi yashaganligini aniqlaydi va bu tog' shu qabilaning nomi bilan atalganligini e'tirof etadi: «Bu tog'ni judqa mansub qilib, Ko'hi Jud debturlar» (289-bet). Savo lak parbat nomining ma'nosini bunday izohlaydi: «Bu tog'ni

¹ S.Qorayev. Geografik nomlar ma'nosi. T., "O'zbekiston", 1978, 156-bet; T.Nafasov. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T., "O'qituvchi", 1988, 217-bet.

² H.Hasanov. O'sha asar. 20-bet.

hind eli Savo lak parbat derlar, hind tili bila «savo» – rub, «lak» – yuz ming, «parbat» – tog‘, ya‘ni rub‘ va yuz ming tog‘kim, yuz yigirma besh ming tog‘ bo‘lg‘ay» (342–343-betlar). Savolak Parbat degan nom hozir ham geografik adabiyotda qo‘llaniladi. Bu Himolayning shimolidan janubgacha uzundan-uzoq cho‘zilgan pastroq tog‘laridir (yuz yigirma besh ming tepalik deganicha bordir).¹ Shohi Kobul oronimi-ning kelib chiqishini shunday tushuntiradi: «Qal‘aning g‘arb-janub tarafi kichikrak parcha tog‘ tushub-tur. Ul tog‘ning kullasida Shohi Kobul imorat qilgani uchun bu tog‘ni Shohi Kobul derlar» (185-bet). Anglashiladiki, Shohi Kobul tog‘i Kobul shohi nomi bilan atalgan.

Asarda bir qator gidronimlarning ma‘nosi to‘g‘risida e‘tiborga sazovor fikrlar bildirilgan. Siyohob, Takasekretku nomlariga berilgan izohlar buning dalilidir. Samarqanddagi Siyohob gidronimi haqida shunday deyilgan: «Konigil Siyohob yoqasidadurkim, bu qora suvni Obirahmat ham derlar» (107-bet). Ushbu parchadan ma‘lum bo‘ladiki, kelib chiqishiga ko‘ra siyoh – qora, ob – suv so‘zlaridan tarkib topgan mazkur gidronim aynan: «qora suv» ma‘nosini ifoda qilgan. Keyinchalik, bu nom tovush o‘zgarishiga uchrab, hozirgi holatiga – Ciyob shakliga kelib qolgan: Siyohob>Siyob.

Sirdaryodagi Takasekretku deb nomlangan qisq (o‘tkil) haqida quyidagi fikrlar bayon qilingan: «Andijonning shimol tarafida Sayhun daryosining yoqasida Takasekretku degan yerda, bu jihatdin ul mavze‘ bu ismg‘a mavsumdurkim, tog‘ domanasi jihatidin bu daryo andoq tor oqarkim, rivoyat qilurlarkim, ul yerdin taka sekriqandur, mag‘lub bo‘lub ilikka tushti» (65-bet). Darhaqiqat, Takasekretku – «daryoning tor, qisq joyi, taka sakrashi mumkin bo‘lgan yeri» ma‘nosidadir. Takasekretku o‘tkili Andijondan 60–70 kilometr shimolda, hozirgi Norin daryosi (Sayhunning katta irmog‘i)ning Uchqo‘rg‘ondan yuqoridagi qirg‘oqlarida bo‘lgan.² Joy nomi hozirda iste‘moldan chiqib ketgan, tarix – xotiraga aylangan.

Bobur ba‘zi xollarda joy nomlarini izohlashda aholi orasida tarqalgan turli afsona, rivoyat, aqidalarni – xalq etimologiyasini ham bayon etadi. Afg‘onistondagi Xoja Seyoron chashmasi (bulog‘i)ning nomlanishini quyidagi mazmundagi rivoyat bilan bog‘laydi. Boburning yozishicha, bu chashmaning atrofi uch nav daraxtlar bilan o‘ralgan. Chashmaning o‘rtasida ko‘plab chinor daraxtlari, ikki tarafida balut daraxtlari, old tomonida esa arg‘uvonzor bo‘lgan. «Derlarkim, bu uch jins daraxt uch azizning karomatidur. Seyorong‘a vajhi tasmiya muni derlar» (194-bet). Anglashiladiki, Seyoron «uch do‘st, uch aziz» ma‘nosini ifoda etar ekan.

Hodarvesh toponimiga berilgan izohni ham xalq etimologiyasi namunalaridan biri deyish mumkin. «Xo‘jand bila Kandibodom orasida bir dasht tushubtur, Hodarveshg‘a mavsumdir. Hamisha bu dashtga yel borur. «...Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo‘luqub, bir-birini topolmay, «Ho, darvesh», «Ho, darvesh», de-de halok bo‘lubturlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar» (62-bet). Hodarvesh hozirgi Qayroqqum cho‘lining avvalgi nomidir.³

O‘rni kelganda shuni aytib o‘tish lozimki, «Boburnoma»da zikr etilgan toponimlarning leksik tarkibi o‘ziga xosdir. Ularning aksariyat qismi o‘z qatlamga mansub leksemalardan, ya‘ni o‘zbekcha so‘zlardan tashkil topgan. Oqsuv, Qizilsuv, Beshkent, Yettikent, Yangiyo‘l, Toshqo‘rg‘on, Olaqo‘rg‘on, Toshkand, Yor yayloq, O‘ratepa, Ikki suv orasi, Qorasuv, Qo‘shtegirmon, Qirqariq, Olatog‘, Olmoliq, Archakent, Yonbuloq, Yassi kechit singlarilarni bularga misol qilib keltirish mumkin.

Asarda uchraydigan bir qator joy nomlarining zamirida o‘zlashma qatlamga oid forscha-tojikcha, arabcha so‘zlar yotadi. Bunday toponimlar turli ma‘nolarni ifodalovchi leksemalardan tarkib topgan. Garmchashma, Bog‘ikalon, Bog‘isafid, Dug‘oba, Darbandi Ohanin, Ko‘histon, Sangzor, Chorjo‘, Childuxtaron, Surxob, Regiravon, Obdara, Charmgaron, So‘zangaron, Panjob, Miyoni Duob, Ko‘hak, Obi Rahmat, Puli Ravon, Zarafshon, Ohangaron, Ko‘hpoya, Dahkat, Obburdon, Pulikoh, Puli Mirzo, Puli Ravon, Raboti Sarhang, Raboti Xoja, Sangi Buriyda, Saripul, Sarideh, Siyahsang, Surxob, Surx rabot, Tangob, Chilsutun, Chorsu, Shohidon, Hisor, Hisor Firuza kabilar shunday toponimlar jumlasidandir. Xullas, Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur «Boburnoma»si o‘lkamiz va undan tashqaridagi hududlar – Afg‘oniston, Hindiston mamlakatlaridagi joy nomlarini o‘rganishda boy material beruvchi muhim asar hisoblanadi. Unda keltirilgan toponimlarning turlari, ma‘nosi, kelib chiqishiga oid fikr-mulohazalar g‘oyat qimmatli ahamiyatga egadir.

¹ H.Hasanov. Zahiriddin Muhammad Bobir (hayoti va geografik merosi). T., "O‘zbekiston", 1966, 45-bet.

² S.Jalilov. Bobur va Andijon. T., "O‘zbekiston", 1993, 30-bet; H.Hasanov. O‘sha asar. 48-bet.

³ H.Hasanov. O‘sha asar. 48-bet.

Курбонова Шахло Шухратовна (Тошкент Давлат юридик университети ўқитувчиси)
ЖОРЖ ОРУЭЛЛ ИЖОДИНИНГ ЖАҲОН ВА ЎЗБЕК АДАБИЁТИГА ТАЪСИРИ

Аннотация. Мақолада Ж.Оруэлл ижодининг жаҳон ва ўзбек адабиётига таъсири бевоста ва билвосита инсон ботинидаги зиддиятли бахт тушунчаси, эрк категорияси ва ижтимоий воқелик билан чамбарчас боғлиқ адабий ҳодиса сифатида тадқиқ қилинган. Ж.Оруэлл асарларидаги ижодий индивидуаллик, поэтик шакл ва услуб ўзига хослиги, адабий қаҳрамон яратилиши ҳамда характерлар руҳиятини бадиий таҳлил ва тадқиқ этиши маҳорати индивидуал услуб нуқтаи назаридан яхлит адабий жараён негизда ўрганилган.

Аннотация. В статье рассматривается влияние творчества Дж.Оруэлла на мировую и узбекскую литературу как литературное явление, прямо и косвенно связанное с противоречивыми представлениями о счастье, категории свободы и социальной реальности в душе человека и навыками художественного анализа и изучения психики героев изучается на основе целостного литературного процесса с точки зрения индивидуального стиля.

Annotation. The article examines the impact of J.Orwell's work on world and Uzbek literature as a literary phenomenon directly and indirectly related to the conflicting notions of happiness, freedom category and social reality in the human heart and the skill of artistic analysis and study of the psyche of the characters is studied on the basis of an integrated literary process in terms of individual style.

Калим сўзлар: шахс ва жамият концепцияси, умумбашарий муаммолар, сиёсий-ижтимоий тузум, инсон шахси ва эрки, кўпқатламли тасвир, типологик ўхшашликлар, маънавий-ахлоқий қарашлар, киноя ва мажоз.

Ключевые слова: концепция человека и общества, общечеловеческие проблемы, общественно-политический строй, личность и свобода человека, многослойность образа, типологическое сходство, духовно-нравственные воззрения, ирония и метафора.

Key words: concept of person and society, universal problems, political and social system, human personality and freedom, multi-layered image, typological similarities, spiritual and moral views, irony and metaphor.

Жорж Оруэлнинг шахс ва жамият ҳақидаги концепцияси, у яшаган давр тарихий воқелиги, турли вазиятлар ва зиддиятлар, авторитар тузум ва унинг инсон эрки, ҳақ-ҳуқуқларига таъйиқи, таққиклар, илоҳий ҳақиқатлардан юз ўгириш, табиат ва жамият қонунлари ўртасидаги мувозанатнинг кескин ўзгариши, муаллиф англаган ва ифодаламакчи бўлган ҳақиқатларни ҳис-идроқ этиш учун XX аср биринчи ярмидаги Англиядаги (умуман, Фарбдаги), сиёсий-ижтимоий тузум, маънавий-ахлоқий қарашлар, хилма-хил адабий оқим ва мактаблар, адабий жараёнлардан хабардор бўлишни тақозо этади.

Табиийки, Жорж Оруэлдек умумбашарий муаммоларни фалсафий ва мажозий тарзда санъат мақомида ифодалай олган адиб кўриқ ерда пайдо бўлган эмас. Ҳаёти ва ижоди ўрганилган, китоблари турли тилларга таржима қилинган. Ж.Оруэлнинг ғайрихаёлий “1984” романи ва “Молхона” ривоят-қиссаси тарихнинг энг мураккаб даври – Иккинчи жаҳон уруши йилларида яратилганлигининг ўзи ҳам ҳар қандай китобхон ва тадқиқотчини чуқур мулоҳаза қилишга ундайди. Айтиш мумкинки, ҳар иккала асарнинг воқеа-ҳодисалари собиқ шўро даврида кечган.

Асарни ўқиган ёхуд таҳлил, талқин қилаётган шахс кўз олдида таниш манзаралар, ижтимоий-сиёсий вазият, мафкуравий таъйиқлар, инсон шахси ва эркига қарши ҳақ-ҳуқуқларининг топталиши, яккаҳокимиятчилик, бошбошдоқлик, сотқинлик, сохтакорлик, ўз манфур мақсадлари учун тарихни ўзгартирмоқчи бўлган бир тўда зўравон инсонлар жамияти намоён бўлади. Икки асарда тасвирланган воқеа-ҳодисалар ривожидан, ҳайвонлар тимсолидаги бир-бирининг устидан ҳукмронлик қилиш курашларидан англашиладики, пировард мақсад ҳокимиятга интилиш ҳирси. Бу манфур зулм-зўравонлик ҳиссини ниқоблаш учун эрк, озодликка интилиш восита қилиб олинади. Гўёки “Молхона”да инсоният – қутурган ҳайвонлар тенглик ва озодликка эришгандек. Бир сўз билан айтганда, асарда жониворлар диктатураси (мажозан) – собиқ шўронинг салкам 70 йилдан ортиқ ҳукм сурган тоталитар, даҳрийликка асосланган тузумининг авра-астари титилган.

Машхур румин компаративисти А.Диманинг назарий хулосаларига кўра, қиёсий адабиётшуносликнинг асосий мақсади уч турдаги ҳодисани ўрганишдан иборат: а) адабиётлараро тўғри-

дан-тўғри алоқалар – таржима, таъсир, ўзлаштирмалар; б) генетик қардошлиқда бўлмаган, лекин маълум мавзу, миф, образ, жанр, ўхшаш адабий оқимларни тадқиқ этишда намоён бўлувчи генетик ўхшашликлар; (бизнинг тадқиқот учун энг муҳим бўлган назарий асос айнан шу иккинчи ҳодиса); в) миллий адабиётларнинг ўзига хос жиҳатлари.¹

А.Дима таъкидлаган генетик қардошлиқда бўлмаган, лекин мавзу, миф, образ, жанр ва гоё, сюжетдаги ўхшашликлар асосида инглиз ҳамда ўзбек адабиёти намуналарини ўзаро типологик-ўхшашликлар асосида таҳлил ва талқин қилиш миллий адабиётшунослик учун янги хулосалар бериши тайин. Бунинг учун биз, энг аввало, Жорж Оруэлнинг дунёқараши, фалсафий концепцияси ва кўпқатламли тасвир услуби шаклланишига табиий асос бўлган XX аср бошидаги адабий оқимлар, жаҳон адабиёти хазинасига қўшилган мураккаб услубдаги асарлар тарихига назар солишга эҳтиёж сезамиз.

XX аср бошида Ғарб дунёсида энг машҳур бўлган ижодкорлардан бири Жеймс Жойс (1882 – 1941)дир. Унинг “Уилс” – мураккаб услубдаги фалсафий-ижтимоий, психологик романи машҳур бўлиб, унинг шуҳрати ўша пайтда Марсел Пруст (Франция), Франс Кафка (Австрия-Венгрия) каби жаҳон адабиётида янги даврни бошлаб берганлардан биридир. Жеймс Жойс ўз ижоди билан “онг оқими” деган янги оқимнинг бошловчиларидан ҳамдир. Ўз даврининг илғор зиёлиларидан бўлган Ж.Оруэлл бу машҳур шахслар ижодидан бебаҳра бўлиши мумкин эмас.

Иккинчидан, XX аср боши адабиёти анча мураккаб, парадоксларга бой бўлиб, Олмония, Австрия, Чехия, Швецария каби турли миллий маданиятларга мансуб бўлибгана тилда ижод қилган Ф.Кафка (1882–1924) мураккаб услубининг нишонларини ҳам Ж.Оруэлл асарларида кўриш мумкин. Ф.Кафканинг “Америка” (1911–1916), “Қаср” (1922), “Жараён”(1915–1918) каби романларининг Ж.Оруэлл асарларига таъсирини сезиш мумкин.

XX аср бошида Ғарб адабий дунёсида машҳур бўлганлардан яна бири, интеллектуал романларда инсон ҳақ-ҳуқуқи ва қадриятлари муаммосини юксак даражада ифодалаганлардан бири Ҳерман Ҳессе (1877–1962)дир. Унинг “Чўл бўриси” романи ўтган аср бошида анча машҳур бўлиб. Инсониятнинг маънавий инқирозларидан баҳс юритилади. Бу ҳам услубан мураккаб асарлар тоифасига киргани учун, кузатишимизча, Ж.Оруэлл асарларига моҳиятан яқин.

Яна бир XX аср жаҳон адабиёти дарғаларидан бири, Нобель мукофоти лауреати Э.Хемингуэй (1899 –1961)дир. Унинг “Алвидо, курол!” ва “Чол ва денгиз” асарлари ўз даврида анча машҳур бўлиб, бу машҳурлик мақомидан ҳозир ҳам тушган эмас. Ёзувчининг “Инсонни янчиш мумкин, аммо уни енгиш мумкин эмас”, деган эътиқодий қарашлари – фалсафий концепцияси Ж.Оруэлл асарлари гоёсига ҳамоҳанг.

Ж.Оруэлл билан замондош бўлган ва услубан яқин бўлган жаҳон адабиёти хазинасидан муносиб ўрин олган мутафаккири адиблардан бири А.Камью (1915–1960)дир. А.Камьюнинг “Ғоялар драмаси”, “Абсурд тушунчасининг тадқиқи” деб шуҳратланган фалсафий асари “Калигула” ўз даврида ҳам анча машҳур бўлган. Унинг файласуф бўлишни истасангиз, романлар ёзиш керак”, деган афоризми ижод аҳли ичида кенг тарқалган. Ж.Оруэлнинг бу машҳур замондоши ижодидан хабарсиз бўлиши мумкин эмас.

Ж.Оруэл ўз кундаликларида ёзишича, яна бир жаҳон адабиёти намояндalarидан бири, француз ёзувчиси Жюль Верн асарларини севиб, ҳатто саккиз мартагача такрор ва такрор ўқиган. Маълумки, Ж.Верн (1828–1905) илмий-фантастик роман жанри асосчиларидан бири бўлиб, у «Ер марказига саёҳат» (1864), «Ердан Ойга» (1865), «Ой атрофида» (1869), «Капитан Грант болалари» (1867–68), «Сув остида 20000 километр» (1869–70), «Ўн беш ёшли капитан» (1878), «Сузиб юривчи орол» (1895) каби 65 дан зиёд илмий-фантастик, саргузашт ва ижтимоий-танқидий роман, қисса ва ҳикоялар муаллифи. Ўрта Осиёда ҳеч қачон бўлмаган Ж.Верн «Клодиус Бомбарнак» романида унинг тарихини, географик ўрни ва иқлимни, маҳаллий халқларнинг урф-одатларини ҳақиқатга яқин қилиб тасвирлайди. Асар қаҳрамони тилидан Тошкент, Самарқанд, Бухоро шаҳарлари тасвирига тўхталади, Бухорони «Туркистон Рими» дея таърифлайди, Самарқанднинг тарихий обидаларини, кўча ва маҳаллаларини, боғу роғларини, одамларини тавсифлайди.² Адибнинг «Сирли орол» (1941), «Капитан Грант болалари» (1957), «Антифер тоғанинг ажойиб ва ғаройиб саргузаштлари» (1969), «Сув остида 20000 километр» (1973). каби саргузашт асарларидаги юзлаб башоратлари XX асрда илм-фанга татбиқ этилиб, амалда – реал ҳаётда ўз тасдиғини топган бўлса, Ж.Оруэлнинг ҳам

¹ Дима А. Принципы сравнительного литературоведения. М., “Прогресс”, 1977, с. 121.

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т., Ўзбекистон МЭ нашриёти, 434-бет.

130 дан ортик башоратларидан 100 дан зиёди XX аср иккинчи ярмида воқеликка айланди: инсоннинг инсон устидан ҳукмронлик қилишининг ниҳоятда авж олиши, шахс ва жамият ўртасидаги зиддиятларнинг тобора кучайиб бориши, ота-она ва фарзандлик, қариндошлик, дўстлик ришталарининг узилиши, суррогатлик, гиёҳвандликнинг ортиши, замоннинг технократлашиши, яккахокимлик, инсонни ўтмишидан маҳрум қилиш – манкуртлаштириш. Бу башоратларнинг XX асрдаги тасдиғини Чингиз Айтматовнинг “Асрга татиғулик кун” романида кўриш мумкин. Инсон шаъни ва ҳақ-ҳуқуқининг топталиши, мафкуравий курашларнинг шиддатли тус олиши, уруш хавфининг ортиб бориши, инсониятнинг тарих ғилдирагини ўзгартиришга уриниши, инсоний муносабатларнинг заифлашуви каби умумбашарий муаммолар акс этган.

Бизнинг ишимизда тадқиқот объекти қилиб олинган Ж.Оруэлнинг “Молхона” ривоят-қиссаси ва “1984” романлари ўз даври инглиз дистопик романлари В.Голдингнинг “Пашшалар хўжайини”, О.Хакслининг “Жасур янги дунё” романлари ғоявий жиҳатдан муштаракдир. Жаҳон адабиётшунослигида, айниқса. Рус олимлари томонидан Ж.Оруэлнинг “1984”, “Молхона” асарлари жаҳон адабиётига таъсири ва поэтикаси тадқиқига бағишланган фундаментал ишлар амалга оширилган.¹

Ж.Оруэлл ноёб истеъдод бўлиши билан бирга, серқирра фаолият соҳиби, у 1945 йилнинг ўрталарига қадар, бир пайтнинг ўзида, бир нечта иш билан шуғулланди: адабиётшунос, ёзувчи, шoir, сценарийнавис, журналист, эссенавис, ВВС ходими ва мухбири сифатида эса И.Сйлоне, А. Франция, Х.Уеллс асарларига асосланган радио ўйинларида мохир ҳикоячи, Г.Ҳ.Андерсен ва Шекспир ва О.Уайлд пьесаларининг нуктадон ва нуктазарб шарҳловчиси, шунингдек, 6 қисмдан иборат “Овоз” етакчи шеърый журнали аъзоси.

Долғали XX аср адабиётига Оруэлл ижоди жуда кучли таъсир кўрсатди. Унинг ижоди шўро мафкурисига мос келмаганлиги учун собиқ СССРда тақиқланган бўлишига қарамай, рус адабиётига ҳам катта таъсир кўрсатди. Қизил цензура тақибига учраган М.Булгаков, Е.Замятин, А.Платонов, А.Ахматова ижодига сезиларли таъсир кўрсатган адиб Ғарб адабиётининг энг забардаст ижодкорлари ўша пайтда асарлари салбий баҳоланган, ҳоявий мақсади зарарли деб топилган Ж.Жойс, Ф. Кафка, Т.Манн М.Пруст сингари сўз санъаткорлари ижодида адабий таъсирнинг муҳим аҳамият касб этади.

“Ишончим комил, деб ёзган А.Коестлер “Кузатувчи” газетасининг 1950 йил 29 январда эълон қилинган мақоласида, келажакдаги адабиётшунос олимлар Орвеллни Свифт ва Кафка ўртасидаги боғловчи бўғин сифатида кўришади. Супертоталитаризм шароитида ҳаёт Оруэлнинг даҳшати. Ҳаётнинг ўзи Кафканиннг даҳшати. Шунинг учун, эҳтимол (мен умид қилмоқчиман), XX асрда одамлар Кафкани ўқийдилар, Оруэлл эса адабиётшуносларга қолдирилади. Аммо бугун у Кафкадан ҳам муҳимроқдир».

Дарҳақиқат, ҳақиқий ёзувчилар инсоният билан минг йиллар оша бирга бўлади, чунки уларнинг асарларида даврийдан кўра абадий муаммолар, шахс ва жамият ўртасидаги зиддиятлар, инсон шаъни ва ҳақ-ҳуқуқи, савоб ва гуноҳ ўртасидаги азалий парадокс, зулм-зўравонлик, сотқинлик ва мунофиқлик, эътиқод ва эътиқодсизлик, эзгулик ва манфурлик ўртасидаги кураш юксак бадиийликда фалсафа ва ҳикматга тўла акс эттирилади.

Жорж Оруэллнинг китоблари вафотидан ярим аср ўтгач, жаҳон рейтингларида учинчи ўринни эгаллади: Библия, Маркс, Оруэлл асарлари. “Оруэлл” бош мутахассиси Виктория Чаликова, ўлимидан олти ой олдин шундай деган экан: “Ростини айтганда, мен Оруэллни охиригача тушунишимизни хоҳламаган бўлардим. Бу фақат жамият муқобилликка ишонганида содир бўлиши мумкин, бу жамиятнинг мафкуравий авангарди бугун нимани таклиф қилса, тоталитаризмга муқобил, у ҳам гуманистик эмас, оддий одамга хоҳлаган нарсасини бермайди ... “.² Бугун умрини адиб ҳаёти ва фаолиятини ўрганиш, унинг асарларини тадқиқ этишга бағишлаган фидойи олиманиннг ушбу сўзлари мағзида яширин аччиқ ҳаётий ҳақиқатни тўла идрок этиш оғир. Сабаби, Оруэлл асарлари шафқатсиз, у ўзини мутлақ ҳукмрон, барчадан кудратли деб санаган ва бошқаларни ҳам шунга даярли ишонтира олган тоталитар юзига тутилган кўзгудир. Бу кўзгуда ҳақиқат акс этади, мустабилликнинг энг жирканч, қора ишлари, ниқоблари тамомила фош бўлади. Озодлик, тинчлик, тенглик, дўстлик шиорлари билан халқларни алдаган, уларни ўзлигидан ажратиб ташлаган, меҳнаткашлар-

¹ Борисенко Ю.А. Ж.Оруэлл “1984” дистопиясидаги шахс муаммоси. XX1 аср остонасида гуманитар билим. Халқаро илмий анжуман материаллари. Тезислар, УДСУ, 1997, 76-бет.

² Вячеслав Недошивин. “Российская газета”, Федерал, 2013, № 135 (6111).

ни боши охири йўқ ширин ваъдалар билан авраган қизил империянинг асл қиёфасини кўриш мумкин.

Оруэлл ва М.М.Дўст асарларида уруш мавзуси, у қолдирган асоратлар, у туфайли бўлган йўқотишларга кенг ўрин ажратилган. Қаҳрамонларнинг тақдири уруш ёки коммунистик партия сиёсати билан боғлиқ, уларнинг барча асарларида шу нарса кузатилади. Уруш сабабли инсон қалбида қолган тузалмас жароҳат, тоталитар мафқуранинг инсон эркининг бўғиши, ҳақ-ҳуқуқларининг поймол қилиниши хилма-хил вазиятларда кўрсатилади. Урушлар, одатда, ёки ватан учун ёки бошқа одамларнинг бойлиги, худуди, бойликлари учун бўлади. Оруэлл 1931 йилдаёқ уруш хавфи ҳақида башорат қилган, 1936 йилга келиб урушнинг муқаррарлигини айтган эди. «Бу ғалати уруш эди. 1936 йилда биринчи ўқлар эшитилганда, Европадаги барча антифашистлар умид билан нафас олдилар. Ниҳоят, фашизм билан жангга кирган мамлакат пайдо бўлди. Японлар Манчжурия устидан ҳукмронлик қилишди, Гитлер Германияда рақиблирини қириб ташлади, Муссолини ҳабашистонликларни бомбардимон қилди. Аммо Испанияда мўътадил чап ҳукуматга қарши Франко тўнтариши бошланганда, дунё ларзага келди. Бундан ташқари, Франкога қарши уруш деярли инқилобга айланди. Халқ ундан озод бўлиш учун ҳам, Франкодан ҳимоя қилган қонуний ҳукумат капитализмига қарши ҳам кўтарилди. Испаниядаги дунё иккига бўлинмаган – тўртга. Сиёсий нотинчлик уруш бошланишига олиб келди. Юқорида таъкидланганидек, дунёнинг кўплаб мамлакатлари олов ичида, халқларнинг ҳаёти издан чиқди, қанчадан-қанча бегуноҳ одамлар, ёшлар, вояга етмаган болалар ўлимига сабабчи бўлди. Оруэлл айтган башоратлар амалда тасдиғини топди, аммо адиб, имкони борича, урушга қаршилик кўрсатди, уруш келтириб чиқараётган фожиаларни ўз асарларида кўрсатди. Бу навбатдаги Иккинчи жаҳон уруши бошланиши арафасидаги илк ҳаракатлар эди. Орадан кўп ўтмай, бу ҳаракат бутун дунё бўйлаб ёйилди.

Иккинчи жаҳон уруши ҳам бутун дунёдан кўнгиллиларни бирлаштирди: зиёлилар, рассомлар, файласуфлар. Қонли жанглар бораётган уруш ҳандақларида Екзюпери, М.Шолохов каби ватанпарвар адиблар инсоният эрки учун ёнма-ён туриб жанг қилишарди. Уларнинг сафида Ж.Оруэлл ҳам бор эди. У урушнинг бор даҳшатини ўз кўзлари билан кўрди, ҳукмронликка интилаётганларни аччиқ лаънатлади.

Ҳар қандай ижодкор, аввало, ўз даврининг фарзанди, худди шоир айтганидек, Қайга ҳам борардим асримдан нари (А.Орипов). Оруэлл яшаётган даврда Британия империяси ўзининг мустамлакаларидан бирин-кетин жудо бўлаётган ва дунёда ҳукмронлик мавқеини кундан-кунга йўқотиб бораётганди. Адиб мамлакатдаги вазиятни жуда яхши англади, бунинг сабаблари ҳам ўзига хос. Биринчидан, унинг аждодлари Ҳиндистон миссонерларидан эканлиги бўлса, иккинчидан, унинг касби журналист эди, учинчидан, ёзувчи 50 дан вазирлар етишиб чиққан машҳур Кэтоно илм ўчоғида таълим олганди. Буюк Британиянинг ташқи ва ички сиёсатидаги хатолар натижасида мамлакатнинг дунёдаги собиқ ҳукмронлигидан маҳрум бўлишига олиб келаётган пайтда миллий ғоя ва миссияни қайта кўриб чиқиш зарур эди. Бу масалалар журналистикада тўғридан-тўғри муҳокама қилинган ва бу баҳсларда Орвелл, Пристли, Ауден ва Макнейс етакчи эдилар. Шу муаммо билвосита ўша давр бадиий адабиётида ҳам акс этиши, табиий ҳол. Хаксли, Грин, Пауелл, Ишервуд, Орвелл, Во Люис асарларида худди шу муаммонинг бадиий талқинини кўриш мумкин. СССРда қизил империя оёққа тура бошлаган, дунёга ўз таъсирини ўтказа бошлаган пайтда, Англия, Италия ва бошқа бир қатор Ғарб давлатларида нотинчлик ҳукмронлик қиларди. Оруэлл ижодининг замон билан ҳамнафаслиги бошқа ёзувчиларни унинг ижодига бўлган қизиқишлари ортишига сабаб бўлди. Бу сабаб икки асосга эга бўлиб, ҳам салбий, ҳам ижобий. Салбий томони шундаки, Европада меҳнаткаш халқ СССРдаги тенг ва эркин ҳаётга ишонтирилган, аниқроғи, ишонтиришга эришилганди, худди шу маслак тарафдорлари бўлган айрим ижодкорларга Оруэлл асарлари ғоявий жиҳатдан нотўғри туюлган.

Бадиий адабиёт ва давлат олдидаги муаммолардан бири жамоатчилик онгини қайта қуриш, қалтис вазиятда қандай йўл тутиш, янгиликларга қандай муносабат билдириш масаласи ўз ечимини кутарди. Социлистик ғоялар Ғарб давлатларига ўз таъсирини ўтказганлиги тарихий ҳақиқат. М.Бульгаковнинг «Қасофат уруғлари»ини эсланг. «Молхона»да кўрсатилганидек, фермадан ташқаридагилар ҳам ҳайвонлар ҳаётнинг зўрлигига тан бера бошлаган вазиятда Оруэлл ҳақиқатни кўра олди ва ривоят-қиссада тасвирланган ўша мудҳиш жиноятлар сирин и ва тафсилотини дунёга кўрсатди. Унинг китоблари, ҳатто Англия ва Америкада ҳам маълум муддат нашр этилмастлигига сабаб ҳам шу билан боғлиқ.

Ўттинчи йиллар инглиз насрининг типологиясида жанрлар ўртасида алмашинув алоқаси, ички мувозанат мавжуд. Инглиз адабиётига хос иншолаш, саёхатлар, автобиография, таржимаи ҳол ва романнинг жанрлараро типологиялари шунини кўрсатдики, жанрлар даврининг умумий маънавий ва интеллектуал иқлими таъсири остида ривожланади, Ўттинчи йиллардаги бу иқлим анъанавий Европа либерализми, гуманистик қадриятлар ва тоталитаризмнинг бошланиш хавфи ҳақида чуқур ўйлаш жараёнлари билан чамбарчас боғлиқ. Инглиз адабиётида классик жанрлар ўз ўрнини янги адабий шакллар, ғояларга бўшатиб берди. Худди шу давр ўзбек адабиёти, аниқроғи, 30-йиллар миллий адабиётимиз тамомила янги бир йўлга тушди. Мумтоз адабий жанрлар ўрнини умуман бошқа шакллар эгаллади. Драматик турнинг пайдо бўлиши, роман жанрида энг муҳим ижтимоий-сиёсий муаммоларнинг акс этиши, дидактик, интим, диний адабиёт ўрнига жаҳид адабиёти жадаллик билан ривожланди, бадиий адабиёт ҳам шакл, ҳам мазмун жиҳатдан ислоҳ қилинди. Бу ҳодиса юз бериши, албатта, маълум бир ички ва ташқи асосларга эга. Юқоридагилардан келиб чиқиб, инглиз ва ўзбек адабиётидаги шакл ва мазмун ўзгаришининг асосий сабаби ижтимоий-сиёсий тузум, ҳукмрон мафкура билан боғлиқ, деб хулоса чиқариш мумкин.

Оруэлл ижоди дунё адабиётининг жуда кўп вакиллари таъсир қилганлиги, у илгари сурган қарашлар, ғоялар, тасвир усуллари турли миллат ёзувчиларини илҳомлантиргани дунё адабиётшунослигида эътироф этилган. Х.Норбурн, У.Ламбертс, Р.Бредбери, С.Воннегут (АҚШ); Линчон, И. Воугх, К.Фитсгиббон, Л.Хартли, К.Сегал, Е.Вергесс ва Т.Кларков, Англияда, М.Кундер (Чехия, Словакия, Польша) Т.Конвиски (Венгрия); Д.Далос, Б.Пекич (Югославия) ижодида Ж.Оруэллнинг таъсири яққол сезилади.

Бундан ташқари, маданий ва ижтимоий ҳаётнинг турли соҳалари вакиллари (аниматорлар, кино ва телевидение кинематографлари, рассомлар, музикачилар, тарихчилар, психологлар, сиёсатшунослар, социологлар, маданиятшунослар) орасида Ж.Оруэллнинг катта қизиқиш уйғотган асарларига бағишлаб яратилган ишлар талайгина. Шунингдек, адибнинг асарлари файласуфлар, адабиётшунослар, тилшунослар, танқидчилар, ёзувчилар томонидан ўрганган бўлса, таржимонлар ёзувчининг турли жанрга мансуб асарларини дунёнинг 65 тилига ўгиришган. Буларнинг барчаси Оруэлл ижодининг жаҳон адабиётида тутган ўрнини белгилашда асос бўлади, унинг асарлари кенг миқёсда оммалашганлигини яна бир қарра исботлайди.

Ж.Оруэлл асарлари Ғарбда ўтган асрнинг 40-йилларида оммалашган бўлса, собиқ СССРда тазйиқ ва тақибларга қарамасдан, ҳур фикрли зиёли қатлам орасига XX асрнинг 80-йилларидан кейингина яширин тарзда тарқала бошлади. Бизда эса фақат мустақилликдан кейин, янаям аниқроғи, янги асрнинг 20-йилларидагина Ж.Оруэлл ижоди тарқалди. Таржимон Карим Баҳриевнинг заҳматли меҳнатлари туфайли ёзувчининг “1984” романи ва “Молхона” қиссаси ўзбек тилида илк бор китоб ҳолида чоп этилди. Бу асарлар яратилгандан буён ўтган қарийб 80 йиллик вақт давомида миллатимиз ўз ўтмиши, тақдирига дахлдор бу бадиий сўз дурдоналаридан беҳабар қолди. Совет ҳукуматининг душмани, муҳолифат ёзувчиси, партияга қарши деган айбловлар билан қатағонга учраган мазкур асарларда инсон ақлий, сиёсий салоҳиятини юксалтирувчи фалсафа, этика, эстетика, дин, фан ва сиёсат каби фанлар синтезлашган. Фанлар кесимида яратилган Оруэлл асарлари эркин фуқаролик жамияти барпо этишда, ўсиб келаётган ёш авлодни миллий мафкура руҳида тарбиялашда муҳим аҳамият касб этади.

Генетик қардошлиги бўлмаган ва лекин маълум мавзу, ғоя, образ, жанр, мажозийликда ўхшаш (яқин ёки муштарак) адабий оқимларни кузатар эканмиз, Ж.Оруэллнинг мураккаб услубига хос кўпқатламли тасвир йўллари ўзбек миллий адабиёти намуналарида ҳам кўринади. Айтайлик, Омон Мухторнинг “Кўзгу олдидаги одам”, “Минг бир қиёфа”, “Афлотун”, “Фуу”, “Тепаликдаги хароба” каби асарларида услубан мураккаблик кўпқатламли тасвирга мойиллик, фалсафийликка интилиш, ўтмиш, бугун ва келажакни уйғун бир тарзда тасвирлаш, макон ва замонни қаҳрамон ўй-хаёлларига кўчириш усуллари сезилса, Хуршид Дўстмухаммаднинг “Бозор” ва “Донишманд Сизиф” романлари, “Нигоҳ”, “Паноҳ”, “Оромкурси”, “Чаёнгул” каби қиссалари ва “Жажман” ҳикоясида воқеа-ҳодисаларни мифология ва мажозлар алоқадорлигида бадиий синтез қилиш кўзга ташланади. Ёзувчи ижодида асосий тамойиллардан бири асар драматизмининг сюжет динамикасини кучайтириши ва фалсафий концепциясини рамзийликка, ижтимоий кинолар синтезида турли афсоналарга ўраб беришда кўринади ҳамда исломий маънавият муаммолари рамзий-мажозий шаклда ифода этилади. Бу эса бизга Жорж Оруэллнинг мураккаб услубига хос фазилатларни эслади.

Назар Эшонкулнинг “Гўрўғли”, “Момоқўшиқ”, “Шамолни тутиб бўлмади”, “Тобут”, “Маймун етаклаган одам” асарларида энг кўп қўлланилган усул рамзийлик ва мажозийликдир. Ёзувчи ўзининг ижтимоий-фалсафий, ахлоқий қарашларини қаҳрамонлар дунёқараши ва қисматига уйғун тасвирлайди. Н.Эшонкул асарларини шу маънода ноанъанавий асарлар силсиласига киритиш мумкин.

Улуғбек Ҳамдамнинг “Мувозанат”, “Исён ва итоат”, “Сабо ва Самандар” романларида илоҳий ҳақиқатлар, исломий қадриятлар ижтимоий-фалсафий, ахлоқий мазмундорлик замон ва қаҳрамон аччиқ ҳақиқатлари ракурсида тасвирланади. Шу маънода, адиб ижодида жаҳон адабиётининг бадиий синтез бўлганлигини кузатиш мумкин. Ёзувчининг рамзийлик ва мажозга ўралган, инсон эркига қарши тажовузларга аёвсиз муносабати адолатсизлик ва ҳақсизликка қарши исёнкор руҳ Ж.Оруэлл асарлари руҳини ва услубини эслатади.

Ўзбекистон халқ ёзувчиси Эркин Аъзамнинг “Анойининг жайдари олмаси”, “Отойининг туғилган йили”, “Шоирнинг тўйи”, “Байрамдан бошқа кунлар”, “Гули-Гули”, “Шовқин”, “Чапаклар ва чалпаклар мамлакати” каби асарларида мавжуд миллий ҳаёт тарзимизга қаҳрамонлар кўзи билан қараш, ижтимоий киноя устиворлик қилади. Э.Аъзам характерлар ранг-баранглиги ва руҳият тасвирига алоҳида эътибор қилиб, даврнинг ўзгарувчан қиёфасини ижтимоий-ахлоқий муаммоларни қаҳрамонлар тақдири орқали тасвирлар экан, уларнинг онгида, ҳаракатларида феъл-атвори ва дунёқарашига асосий ғояларни сингдиради. Бир сўз билан айтганда, Э.Аъзам ижодига воқеликка киноявий муносабат ниҳоятда кучли.¹

Замонавий ўзбек ёзувчиларидан яна бири Шойим Бўтаев ўзининг “Кунгабоқардаги боғ”, “Эски арава”, “Шўродан қолган одамлар”, “Бир кунлик меҳмон” қиссаларида давр ва шахс фожиаларини, даҳрийлик ва мустабид тузум кирдикорларини, мафкуравий тазйиқларни қаҳрамонлар қисмати орқали тасвирлар экан, уларда халқимиз онгидаги мутелик психологиясини келтириб чиқарган тоталитар тузумнинг манфур оқибатларини тасвирлайди. Шу нуқтаи назардан ҳам Ш. Бўтаевнинг асарлари моҳиятан М.Бульгаков, Ж.Оруэлл ижодига яқин.

Ўтган асрнинг 70–80-йилларида миллий-бадиий тафаккуримизда жиддий янгиликлар рўй берди. Бу, айниқса, Ш. Холмирзаев, О.Мухтор, М.М.Дўст, А.Аъзам, Э.Аъзам ижодида яққол кўзга ташланади. Бу авлод ичида айниқса, М.М.Дўст асарларининг ёзилиш услуби, фалсафий моҳияти, образлар дунёси, ижтимоий киноявийлиги, фикрлар тигизлиги билан ажралиб туради.

М.М.Дўст “Совчилик ҳангомаси” ҳикояси, “Истеъфо”, “Мустафо” қиссалари, “Лолазор” романи билан танилган пешқадам ёзувчилардан бири. Унинг асарларида миллий руҳ устивор ҳамда инсон қалбидаги эврилишлар, давр ва инсон, муҳит ва маънавият, сиёсат ва халқ ҳаёти каби муаммолар кенг кўламда батафсил ёритилади. Ёзувчи асарларининг ўзига хос хусусиятларидан бири унинг қаҳрамонлари ўзи яқиндан биладиган, танийдиган одамлар ва қаҳрамонларнинг асардан-асарга кўчиб юришидир.

“Совчилик ҳангомаси” ҳикоясидаги воқеа ҳам адибнинг бошқа асарларида бўлгани каби, ўзи туғилиб ўсган жойда бўлиб ўтади.² Бу ҳикоя асосида кинофильм суратга олинган ва у ҳозирга қадар халқимизнинг сеvimли фильмларидан бири бўлиб келмоқда. Ҳикоядаги воқеа билан фильм сценарийси орасида, албатта, бироз тафовут бор.

М.М.Дўст асарларида ижтимоий киноя, рамз ва мажоз, кўпқатламли тасвир устивор бўлиб, муаллиф ўзининг фалсафий концепциясини қаҳрамонлар тилидан баён қилади. Таъкидлаш керакки, ёзувчи асарларининг тили, услуби бирмунча мураккаб. Асарда илгари сурилган ғоявий мақсаднинг сиқик жумлаларда ифодаланиши, мантикий тафаккур ҳосиласи бўлган фикрларни оддий бир ҳаракат, деталь ёки қаҳрамоннинг бир гапига сингдирилиши китобхондан мулоҳаза юритишни талаб қилади. Ёзувчининг табиатан содда ёки ҳамма биладиган, атрофимиздаги одамларга ўхшаган қаҳрамонлари тилидан айтиладиган гаплар замирида, бир қарашда, сезилмайдиган аччиқ ҳақиқат, ҳаёт тажрибасидан келиб чиққан хулоса, бир ҳикояга тенг ҳикмат яширин. Киноя ва мажозга бой бўлган бундай асарларни ўқий олиш учун китобхон маълум бир тайёргарликка эга бўлиши керак.

“Мустафо” қиссаси одамийлик шеvasи, ўзбекона қариндош-уруғчиликдаги меҳр-оқибат, қишлоқ одамларига хос андиша ва орият ҳақида, “Истеъфо”да эса амалдор кишининг эл-юрт олдидаги қарзи, бурчи ва шу масъулиятни унутиб қўйиб, руҳий инқирозга юз тутган шахслар тўғриси-

¹ Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. Т., “Akademnashr”, 2016, 220-бет.

² М.М.Дўст. Совчилик ҳангомаси. “Ёшлик”, 1984, 12-сон, 18 – 21-бетлар.

да ҳикоя қилинган.¹ Асар қаҳрамонлари тилида халқона оҳанг, фақат ўзбек халқига хос ибора, матал, мақол, қочиримлар уларнинг характери очиқ беради, шу билан бирга, улар айтмоқчи бўлган фикрларга мажозийлик касб этади. Ёзувчининг бадиий маҳорати шундаки, у халқона сўзлашув услубида мажоз йўли билан сўзлайди. Бундай асарларнинг ўқилиши осон, аммо ҳазм қилиш, кўп маъноли матнда яширинган фикрларини бирданига англаш қийин.

“Лолазор” романи поёнига етаётган янги ўзбек адабиётининг жиддий ҳодисаси бўлиб, у миллий романчилигимиз тараққиётида муҳим босқич ҳисобланади. Бу асар романга хос тафаккур имкониятларини – тасвир ва талқин ранг-баранглиги, инсонга ёндошув, уни қайта бадиий кашф этув усулларининг чек-чегарасиз эканлигини исботлаб берди”, деб баҳо беради адабиётшунос Раҳмон Қўчқор асар охирида ёзган сўнг сўзида.²

Айтиш мумкинки, Ж.Оруэл Ж.Свифт ва Кафкани ўзаро боғлаб турувчи ришта бўлса, М.М. Дўст ижоди мустақилликдан олдинги ва кейинги даврни туташтириб турувчи кўприқдир. У ҳам худди инглиз адаби сингари давр ҳақиқатини, ижтимоий-сиёсий тузум моҳиятини, тоталитар мафкураининг ёвуз мақсадини ва мустабидлик замони қолдирган халқ руҳиятидаги асоратларни киноя ва мажоз йўли билан фош қилади. Илоҳий мезонлар бузилган жойда ҳамма нарса издан чиқиши, инсон руҳиятига доғ тушиши, одам таназзулга, давлат инқирозга учрашини бадиий жиҳатдан асослаб беради.

Бердиева Зебо Ураловна (ТерДУ Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси мустақил тадқиқотчиси) ЛИРИК ТАСВИР ВА ИФОДАДА МЕТОНИМИК КЎЧИМНИНГ КЎРИНИШЛАРИ

Аннотация. *Мазкур мақолада лирик тасвир ва ифодада метонимик кўчимнинг ўрни, унинг кўринишлари Асқар Маҳкам ва Нодира Афоқова ижоди мисолида тадқиқ этилган. Метонимия бадиий кўчимнинг бир тури сифатида шеърятда муҳим эстетик функцияга эга эканлиги аниқ мисоллар воситасида асослаб берилган ҳамда маъно кўчишининг қоришиқ ҳолда қўлланиши ҳам текширилган.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль метонимического переноса в лирической образности и экспрессии, его проявление в творчестве Аскара Махкама и Нодирь Афоковой. На конкретных примерах обосновано, что метонимия как вид художественного переноса выполняет важную эстетическую функцию в поэзии, а также рассмотрено смешанное употребление смыслового переноса.*

Annotation. *This article examines the role of metonymic migration in lyrical imagery and expression, its appearance in the works of Askar Mahkam and Nodira Afokova. The fact that metonymy as a type of artistic migration has an important aesthetic function in poetry has been substantiated through concrete examples and the mixed use of semantic migration has also been examined.*

Калим сўзлар: *метонимия, мажоз, шакл ва мазмун, метафора-метонимия, метонимия-синекдоха, киноя, қоришиқ мажозлар, шеърый нутқ, бадиий гоё.*

Ключевые слова: *метонимия, метафора, форма и содержание, метафора-метонимия, метонимия-синекдоха, ирония, смешанные метафоры, поэтическая речь, художественная мысль.*

Key words: *metonymy, metaphor, form and content, metaphor-metonymy, metonymy-synecdoche, irony, mixed metaphors, poetic speech, artistic idea.*

Ҳар қандай сўзнинг луғавий маъноси бирор белги, ҳаракат, хусусиятнинг бошқа худди шундай хусусиятга эга бўлган объектга кўчирилиши натижасида кенгайиб боради ва ривожланади. Маъно кўчишининг бундай ривожланишини белгилаб берадиган ҳар бир тилнинг ўзидаги семантик қонуниятлар бевосита бадиий ижод билан боғлиқ.

Метонимия (юнонча *metonymia* – “қайта номлаш”) йули билан маъно кўчишида бир белги, ҳаракатнинг номи бошқа бир ўхшашлик асосида эмас, ўзаро алоқадорлик, боғлиқликка асосланади.

Метафора, метонимия, синекдоха ва вазифадошлиқдан ташқари, маъно кўчишининг қоришиқ ҳолда қўлланиши ҳам кузатилади. Бу ҳодиса метонимияга ҳам тегишли: метафора-метонимия, метонимия-синекдоха тарзида учрайдиган кўчимлар оғзаки нутқда ҳам, бадиий адабиётда ҳам

¹М.М.Дўст. Галатепа қиссалари. Т., “Ёш гвардия”, 1985, 192-бет.

² Қўчқор Р. Искандару Доролардан қолган латифа. М.М.Дўст. Лолазор. Т., “Шарқ”, 1998, 559-бет

кўп учрайди. “Адабиётшунослик луғати”ида “бадий адабиётда, айниқса, метафорик тафаккур етакчилик қилаётган замонавий адабиётда метонимия метафорага нисбатан кам учрайди, зеро, эстетик функциядорлиги жиҳатидан у метафорадан қуйроқ туради. Шундай бўлса-да, бадий матнда метафора билан ёндаш қўлланган ҳолда у катта бадий самара беради, фикрни лўнда ва таъсирли ифодаашга хизмат қилади”.¹

“Адабиётшунослик терминлари луғати”да метонимия – “икки тушунча ўртасидаги яқинликка асосланган кўчма ифода”, дейилган бўлса,² бошқа бир адабиётшунослик луғатида эса қуйидагича таъриф берилган: “Икки тушунча ўртасидаги яқинликка асосланган ўхшашсиз кўчим. Метонимияда бирор нарса ёки воқеа-ҳодисанинг номи бошқасига кўчирилади, у бошқа ном билан ифодаланган, бироқ бу номлаш предмет ёки нарсалар ўртасидаги ўхшашликка эмас, балки улар ўртасидаги яқинликка, алоқадорликка асосланади. Мана шу жиҳати билан метонимия истиорадан фарқ қилади”.³ Юқоридаги таърифлардан келиб чиқиб, метонимия ҳақидаги тушунчаларни уммлаштирсак, қуйидаги тўхтамга келамиз. Демак, метонимия – маъно кўчиши, яъни мажознинг бир тури бўлиб, у икки нарса, воқеа-ҳодиса ўртасидаги алоқадорликка асосланади, бироқ улар ўртасида шакл, мазмун жиҳатидан ўхшашлик, яқинлик, умуман, кузатилмайди. Масалан, кўк (осмон, кўкат, ранг, пул бирлиги (доллор).

Метонимия йўли билан кўчиришнинг қуйидаги кўринишлари мавжуд:

1) бир предметнинг номи шу предметдаги бошқа бир предметга кўчирилади:

Истамбулни тинглайман кўзларим юмилган

Олдиндан майин бир шабада эсар

Аста-аста силкинар

Япроқлар дарахтларда

Узоқларда жуда узоқларда

Мешкобчиларнинг тинмаган шиқилдоқлари

*Истамбулнинг тинглайман кўзларим юмилган.*⁴

Турк шоири Ўрхун Вели шеърдан келтирилган мазкур парчада ўтган асрдаги Истамбул шаҳридаги ҳаёт тарзи, шаҳарда яшайдиган кишиларнинг турмуш шароити, уларнинг ўй-фикрлари, ташвишу изтироблари ифодаланган. Муаллиф қисқаликка интилиб, шаҳар сўзини тушириб қолдиради. Ўқувчига маълум бўлган ортиқча сўз-маълумотни тушириб қолдиради. Одатда, бундай усул оғзаки нутққа хос. Жумладан, *Тошкент шаҳрига бордим* гапи Тошкентга бордим тарзида ишлатилади ва бу нутқимиз учун одатдаги меъёр саналади. Чунки бундай усул нутқни ихчам, фикрни сиқик ва таъсирли қилади. Шеърнинг биринчи сатрида метафора (Истамбулни тинглайман) ва метонимия (Истамбулни тинглайман) қўлланган. Биринчисида *шаҳар* сўзи тушириб қолдирилган бўлса-да, у контекстда англашиб туради, иккинчисида эса *тингламоқ*, аслида, ўзидан товуш, акс садо чиқарувчи нарса ёки кишиларга хос хусусият «шаҳар»га кўчирилган.

Дунёга тоқ келган каби

Отиламан Ҳинд тоғи учига.

Кириб кетар калламнинг ичига

Кимсасиз дунёнинг соҳиби.⁵

Бандда тоғ ва тоқ сўзларининг шаклий ўхшашлигидан сўз ўйини сифатида фойдаланилган, тоғнинг учи – метафора, бунда параллел равишда *чўққи* сўзи бармоққа тенглаштирилиб, литота санъати ҳосил қилинган. Калламнинг ичи дейилганда шоир инсон бошини эмас, унинг бир қисми бўлган мияни назарда тутмоқда ва бутунни бўлак орқали ифодалаб, синекдоха намунасини яратмоқда. «Кириб кетиш» ҳаракати, одатда, жонли нарсаларга нисбатан қўлланса-да, нутқда оёғига тикан кирди, жон кирди, ақли жойига кирди, эси кирди каби эмоционал-экспрессив буёқдорликка эга кўчма маъноли бирикма (фразема) тарзида ҳам ишлатилади.

¹ Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Т., “Akademnashr”, 2013, 172-бет.

² Ҳомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. Т., “Ўқитувчи”, 1970, 98-бет.

³ Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Т., “Ўқитувчи”, 1979, 364-бет.

⁴ Ҳозирги замон турк шеърляти. Т., Фафур Фулом номидаги АС, 1980, 152-бет.

⁵ Шу манба.

Хоҳ шоир бўлсин, хоҳ носир бўлсин, ҳеч ким метонимиядан ҳам, перифразадан ҳам бош тортмаган ва бундай адабий приём (усул)лар орасида жуда қадимдан маълумлари то ҳозиргача ҳам учраб туради, улар Август даври (XVII аср охири – XVIII аср ўрталари)даёқ шоирларга оддий ва сийқа туюлган. Улар билан бир қаторда эса яна янгилари ҳам юзага келади ва улар келажакда давримизнинг адабий ғалатиликлари ҳақидаги асарларнинг саҳифаларини безаши, шубҳасиз, деб ёзди Ян Парандовский.¹ Унинг фикрига кўра, метонимия, перифраза, худди истиора каби ижтимоий тузум, ҳукмрон мафкура қандай бўлишига қарамай, барча асрлар поэзиясига хос муштараклик мавжуд, метонимия инсонни фикрлай бошлаган даврлардаёқ туғилган.

Метонимия киноя сифатида талқин қилинар экан,² бу унинг ибтидоий халқлар маданиятида етук тамаддунлардагига қараганда ҳам кўпроқ тарқалганлигини кўрсатади. Чунки истиоралар, киноя, қочиримлар панасида тилга олиш лозим бўлмаган сўзлар яширинган бўлиб, улар ифодалаган тушунчалар эса парда остига олинган ва таниб бўлмас даражада ниқобланган. Одамлар ёввойи ҳайвонларнинг, табиатдаги даҳшатли ҳодисаларнинг, касалликлар ва ўлимнинг номини тилга олишдан сақланишган. Баъзи бир қабилаларда шунга ўхшаш урф-одатлар то ҳозирга қадар сақланиб қолган, жумладан, қабила бошлиғига тааллуқли бўлган барча нарсаларни очиқ-ойдин айтиш мумкин эмас ва шама, ишоралардаги топқирлик, ижодкорлик гоҳо унингча чигаллик даражасигача етиб боради.³

Мажоз шеърий нутқни бойитади, шоирнинг тасвир объектига муносабатини ифодалашга имкон беради. Ўхшатиш, сифатлаш, метафора (истиора), жонлантириш ҳам мажоз турларига кирса, метонимия, муболаға, синекдоха, перифраз, киноя, антифраз, сарказм кабилар қоришиқ мажозлар деб юритилади.

Жазба тунларида ойнанинг шуъласин

Йўл билган ҳаёлман.

Бошқа ҳеч кимман.

Бир қудратли овоз қиличи

Сасим чиқармас.

Бўғзимга кўмилдим. Жимман.

Ғарлик, чақув, фаҳшу тухматни беор

Олқишлаб гулларга кўмганда шаҳар;

Тилларини чайнаб дўстларим ночор,

Тийнатим косамга қуйганда захар;

Покиза жонларни балчиққа булғаб,

Байроқ кўтарганда иблис лашкари;

Томошагоҳ бўлиб бўзлаётган қалб,

Ўғрилиб турганда дўстлар тескари,

Кетдим.⁴

Шеър адолатсизлик, зулм, ҳақсизликдан бағри қон бўлган, дўсту биродарларидан оқибат кўрмаган, ўзидан бошқа ҳеч ким суямаслигини тушуниб етган ва тан берган, шу мусибатга кўниккан, курашда енгилган ва чекинишга мажбур бўлган, ичи нафратга тўла, дўстларидан ёрдам кутганида улар юз буриб кетган инсон ҳақида. Унда бўғизга кўмилган овознинг қотили қудратли кучнинг зулм-истибдоди кўрсатилган. Фаҳш, чақув, фаҳш, тухматни олқишлаётган беор шаҳар қиёфаси акс этган. Шаҳар сўзи орқали синекдоха юзага чиққан, шаҳар эмас, унда яшаётган кўрок, оқибатсиз сохта дўстлар душманга хизмат қилади. Ҳатто ўша душманга қўшилиб, унга захар тутати, фақат бу оғу қахрамоннинг тийнатиға қуйилади. Бу ерда захар ҳам рамзий маънода қўлланган. Захар – жаҳолат, сотқинлик, кўроклик, манфаатпарастлик. Тилларини чайнаётган дўстлар – инсон қачон тилини чайнайди? Ё оғриқнинг зўридан, ё кўркувнинг кучлилигидан. Кўриниб турибдики, сохта дўстлар иккинчи тоифага мансуб. Иблис лашкари – индивидуал метафора, бу дўстларнинг яна бир кўриниши, улар байроқ кўтариб олишган, байроқ эса ғалаба белгиси. Байроқ кўтариш учун куч-қудрат бўлиши керак, иблис тўдаси шаҳарда байроқ кўтариб юрган экан, демак, у кучга, қудратга тўлган ва ўз атрофида деярли бутун шаҳар халқини бирлаштирган қавм. Шеърда

¹ Ян Парандовский. Сўз кимёси (манба: “Алхимия слова”, Москва, изд-во “Правда”, 1990 г.). 148-бет.

² Қуроно Д., Мамажоно В., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Т., “Akademnashr”, 2013, 159-бет.

³ Ян Парандовский. 148 – 149-бетлар.

⁴ Афоқова Н. Бизнинг эра. Т., “Ijod press”, 2010, 38-бет.

илгари сурилган бадий ғоя, муаллиф айтмоқчи бўлган фикр, лирик қаҳрамоннинг қалбини ўртаётган дардни очиб беришда метафора, метонимия, синекдоха ва бошқа кўчимлар жонли картина хосил қилган, воқеликни худди кинотасвирдек китобхон кўз олдида намоён қилган.

Осмон жойидами?

Қани ёмғирлар?

Қаерга яширди чақмоқларини?

Қасос мавсумида қаровсиз гуллар...

Қумурсқалар тешган япроқларини.

Бу гулларнинг хуни кимнинг бўйнида?

Айтинг, "Аналҳақ"дан тонганлар, айтинг!

Элчини уч пулга сотган шўрида,

Шоирни бичганлар, отганлар, айтинг!

Тун, кўзимга ташла пардаларингни.

Бу сўқир имдодинг қандоқ ярашгай!

Шу қадар заифман...

қўрқаман, ахир,

Қаровсиз гулларга қарашга...¹

Лирик қаҳрамоннинг осмон жойидами, чақмоқлар қани, деган сўрови бежиз эмас. Зулм шу даражага етганки, осмон ўз ўрнидан жилган. Осмон қўлингда бўлса, ташлаб юбор, деган халқ мақоли шеърда бошқа бир шаклда аксланган. Одатда, биров тазйик, зулмни ҳаддан оширса, мазлум шу мақолни айтишга мажбур бўлади. Чақмоқ – қасоснинг рамзи, лекин у ҳам йўқолган. Негаки, атрофда қўрқоқлар қолган, холос. Шунинг учун гуллар қаровсиз, уларнинг баргларини кумурсқалар тешган. Шеърда қўлланган гуллар, кумурсқалар мажозий образ бўлиб, улар жамиятдаги айрим тоифадаги кишиларнинг умумлаштирилган образидир. “Аналҳақ”дан тонганлар – ҳақни танимаган ва тан олмаган мутаассиб жоҳил, маърифатсиз кишилар. Тарихда Мансури Халлождек зотнинг кимлигини англамай туриб, турли бўхтон ва айблар билан ваҳшиёна қатл қилинганини эслатган шоир, воқеликни метафорик усулда таққослайди. Метафора бир сўз, бир образ, бир сатр, бир шеър, ҳатто бир асарга тенг бўлиши мумкин. Бу шеърда метафора асарни тўлиғича камраб олган. Элчи – пайғамбарни уч пулга сотилиши бу Исо пайғамбар тақдирига ишора. Исо пайғамбарни ўз ёнидаги ҳаворийлардан бири ўттиз уч тангага сотади. Бу ҳақда Л.Андреевнинг 1908 йилда ёзилган “Иуда Искариот” асарида ҳам ҳикоя қилинган бўлиб, мазкур қиссани Н.Афоқова маҳорат билан ўзбек тилига таржима қилган.

Шоирни бичганлар, отганлар – Машраб, Қодирий, Чўлпонларга қасд қилган шафқатсиз, жаллод, залолатга ғарқ одамлар. Лирик қаҳрамон мана шундай одамлар орасида яшашни истамайди, улар билан бир ҳаводан нафас ололмайди. Шунинг учун “Тун, кўзимга ташла пардаларингни”, деб ёлворади. Туннинг пардаси зулмат ва унда ҳеч нарса кўринмайди. Лирик қаҳрамон ҳам иблис лашкарини кўришни истамайди. Тун пардалари – метафора, пардани кўзга ташламоқ – ташхис, мажоз, синекдоха. У нафақат кўрмасликни, балки, умуман, эшитмаслик, сезмасликни хоҳлайди.

Асқар Маҳкам ижодида ижтимоий мотивлар ва кўнгилнинг ғаройиб бир тарзда уйғунлашган, шоир қайси давр, қайси воқеа, қайси бир инсоний дардли кечинмани шеърга айлантормасин, ёзганларида метафориклик бутун шеърни камраб олади. Асқар Маҳкам шеърларида метафора шунчалар қуюқ ва кенги, асарни ундан ажратиб олишнинг имкони йўқ. “Бухорода бир кун бўлганим” шеърида ҳам кеча ва бугуннинг энг оғир жароҳатлари тасвирланган. Шоир одамларга эмас, Бухоронинг фалакка очилган қўли – минораларга кўпроқ савол беради, у Бухорони Бухородан ахтаради. Аммо топа олмайди, чунки у севган, у соғинган, ардоқлаган зотлар энди бу муқаддас заминда йўқ. Бунинг сабабини шоир шундай ифодалайди:

Мен одамларни сўрадим Бухорои Шарифдан.

“Яшашяпти!..” – деди Бухорои Шариф.

Улар яшашяпти

мадрасада итни

хонақода кучукни

мачитда сувратларни

ва ўзларини боқиб.

¹ Шу манба. 48-бет.

Албатта, яхши яшашипти!
Мен одамларни сўрадим Бухорои Шарифдан.
“Яшашипти!..” – деди Бухорои Шариф.
“Я-ша-шип-ти!..” – деди ногаҳон...¹

Метонимиянинг ўзига хос кўриниши орқали юзага чиқаётган воқелик халқнинг жаҳолатга тутганлиги, ўзининг муқаддас қадамжолари, илм даргоҳлари, ибодатхоналарини оёқ ости қилаётганлигини кўриб, индамай яшаётганидан зорланади. Мана шу зорланиш, ғусса, изтироб шоирнинг феномени яққол кўрсатади. Шоир ўзи айтмоқчи бўлган фикрни метонимия воситасида қутилмаган бир усулда очиб беради. Миллатни йўқотиб юбориш учун уни қириб ташлаш шарт эмаслиги, уни она тили, дини, эътиқоди, тарихини унутинишга мажбур қилиш билан маънавий мажруҳ кишилар тўдаси – оломонга айлантириш мумкинлиги ва бундай катта қуллар тўдасини бошқариш осонлигини бошимиздан ўтган кечаги кунимиз исботлаб турибди.

Асқар Маҳкамнинг “Шоир Равшан Файз хотирасига” деб номланган шеърида метонимия давр фожиаларини, ижтимоий ҳаётдаги иллатларни, совет тузуми юритган мафқуранинг аянчли асоратларини кўрсатишга хизмат қилган: “*Ҳақ деган шоирлар кетолмас яшаб ё ўлар, ё қолар эгнида жанда... Сени бир темирнинг тагига ташлаб, Тошкент айи сурарди ресторанларда.... ёки Қўқонда йигитлар отилганида Тошкентда ашула айтган ...ваччамиз, ва яна: Сен тонгга интилдинг жасадинг билан “шоирлар” Дўрмонда ароқ қусганда...²* Шоир атоқли отларни кўчма маънода шахс оти ўрнида қўллайди, натижада метонимия орқали шеърнинг таъсирчанлиги ортган, лирик “мен”нинг кайфиятидаги кескин норозилик, жамиятдаги адолатсизликка бўлган нафрати шеърда ўзининг тўлиқ тасдиғини топган, бунда шоир “мен”и лирик “мен” билан бирлашган.

Хато бари
Барчаси хато...
Ҳамма ялар тотли руёни
Ҳатто баъзан бир муштумзўр шоҳ
Алдаб қўяр бутун дунёни....
Алдаш русум гарчи қизларни
ит сурувни алдаб ҳайдайди
Бир тепакал эса бизларни
етмиш йилдан буён алдайди.³

Асқар Маҳкам мазкур сатрларда собиқ шўро тузумининг илк йўлбошчиси даҳрий ва шафқатсиз Ленин ва унинг халқлар устидан олиб борилган мустабид сиёсатини фош қилган. Халқни ёлғон ваъдалар ўзига оғдириб олган ва шу йўл билан 73 йил дунёга таҳдид солган собиқ шўролар давлатининг мақсади халқларни руслаштириш, улардан текин ишчи кучи сифатида фойдаланиш, мустақил фикрни чеклаш орқали саноксиз қуллар империясини барпо қилиш бўлган. Инсон эркига даҳл қилинган ҳар қандай жамиятнинг таназзулга юз тутиши муқаррарлигини эса вақтнинг ўзи исботлади, ниҳоят, юртимиз истиқлолга эришди.

Xamraxanova Nasiba (O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi) **INGLIZ BOLALAR ADABIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

Annotatsiya. *Ushbu maqolada adabiyotshunoslikning bir qismi bo‘lgan bolalar adabiyoti va uning rivojlanish bosqichlari haqida so‘z boradi. Ayniqsa, ingliz bolalar adabiyotida muhim o‘rin egallagan er-taklar, hikoya va fantastik asarlarning yaratilishi va ahamiyatiga alohida to‘xtab o‘tiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается детская литература и этапы ее развития как части литературы. В статье речь пойдет о создании и значении сказок, рассказов и художественной литературы, которые играют особенно важную роль в английской детской литературе.*

Annotation. *This article discusses children’s literature and its development stages as a part of literature. This article is focused on the creation and importance of fairy tales, stories and fiction, which play an especially important role in English children’s literature.*

¹ Маҳкам Асқар. Ҳақ, Сайланма. Душанбе, “Адиб”, 1998, 222-бет.

² Шу манба. 257-бет.

³ Шу манба. 164-бет.

Kalit soʻzlar: bolalar, sanʼat, ertak, madaniyat, avlod, romantizm, din, cherkov, didaktik, qadriyat, falsafa.

Ключевые слова: дети, искусство, сказка, культура, поколение, романтика, религия, церковь, дидактика, ценность, философия.

Key words: children, art, fairy tales, culture, generation, romanticism, religion, church, didactic, value, philosophy.

Bolalar sanʼati zamonaviy madaniyatning keng, rang-barang va chinakam goʻzal sohasi hisoblanadi. U, oʻz navbatida, bolalar teatri, sirk, radio, video va televideniyaning oʻz ichiga oladi. Ammo yuqoridagilarning koʻpchiligi eng soʻnggi texnologiyalar asosida paydo boʻlgan hodisalardir. Qadimgi sanʼat turlaridan hisoblangan adabiyot, uning tarkibiga kiruvchi bolalar adabiyoti zamonaviy bola hayotida alohida oʻrin tutadi.

Qadim zamonlardan kattalar bolalarni ertaklar bilan xursand qilishgan. Bu xalq ertaklaridan bolalar adabiyotining mukammal qahramonlari yaratilgan. Bugungi kunda bolalar adabiyoti turli janrlarni oʻz ichiga oladi va har bir yoshdagi kitobxonlarni oʻziga jalb qiladi. Bolalar adabiyoti puritan anʼanalari kabi diniy manbalar yoki Charlz Darvin va Jon Lokk taʼsirida koʻproq falsafiy va ilmiy nuqtayi nazardan shakllangan.¹ Oʻn toʻqqizinchi asr oxiri va XX asr boshlari “bolalar adabiyotining oltin davri” deb nomlanadi, chunki oʻsha paytda koʻplab klassik bolalar kitoblari nashr etilgan.

Bolalar adabiyoti – 16 yoshgacha boʻlgan bolalar uchun maxsus yaratilgan va bolalarni badiiy obrazlari tilida tarbiyalash vazifasini oʻz oldiga maqsad qilgan adabiy janr hisoblanadi.² Har bir xalqning bolasini tarbiyalash, ajdodlari urf-odatlarini, madaniyat va qadriyatlarini avlodlar ruhiyatiga singdirish barobarida, vujudga kelgan milliy bolalar adabiyoti mavjuddir. Ingliz millati ham bundan mustasno emas.

Ingliz bolalar adabiyoti Yevropadagi eng muhim adabiyotlardan biridir. Uning shakllanishi va rivojlanishi umumiy qonuniyatlarga boʻysunadi, lekin uning oʻziga xos milliy xususiyatlar ham mavjud. Vaqti-vaqti bilan bolalar uchun tanlangan bolalarning oʻqishi (bolalar uchun maxsus moʻljallangan asarlar) va “kattalar” adabiyoti toʻgaragining shakllanishi bolalar adabiyotining ingliz xalqining barcha milliy adabiyoti bilan ajralmas aloqasini belgilaydi.

Buyuk Britaniya bolalar besselarlar mamlakatidir. “Alisa moʻjizalar mamlakatida”, “Vinni Puh”, “Piter Pan”, “Xobbit”, “Charli va shokolad fabrikasi”, “Narniya yilnomalari” shular jumlasidandir.

Angliyada bolalar adabiyoti qiziqarli tarixga ega. Ezop ertaklari, keyinchalik sheʼrlardagi risarlik romanslari, qirol Artur va uning davra stoli risarlari hayotidan epizodlar va boshqalar.³ Ushbu asarlarni jahonga tanish boʻlgan buyuk yozuvchi va shoirlar oʻqib katta boʻlishgan. “Robinzon Kruzo” asari muallifi Daniel Defo, “Gulliverning sayohatlari” asari muallifi Jonatan Svift shular jumlasidandir. Bu mashhurlarning bolaligida oʻqigan asarlari yozuvchi boʻlib shakllanishlarida katta turtki boʻlgan.

1600-yillarda bolalik tushunchasi rivojlanib bordi. Kichkinalar kattalar sifatida koʻrilib, ular oʻz ehtiyojlari va cheklovlariga ega boʻlgan alohida shaxslar sifatida qabul qilingan. Shunday qilib, butun Yevropadagi nashriyotlar bolalar uchun moʻljallangan kitoblarni chop etishni boshladilar. Bolalar adabiyotidagi dolzarb mavzular: jasorat, doʻstlik, sodiqlik, oila, yoʻqotish, qaygʻu, ulgʻayish, gʻazab, azob chekish kabilarni oʻz ichiga olgan.

Bolalar adabiyotini sanʼat sifatida tushunishning ilk koʻrinishlari 1789–1830-yillar romantizmga tegishli. Romantik madaniyatning tarixiylik va shaxsga murojaat kabi xususiyatlari bolalar adabiyotining badiiy asarga aylanishiga yordam berdi; demak, bir tomondan, bolalikni tarixiy metafora sifatida talqin qilinsa, ikkinchi tomondan, uni tasvirlashda shaxsiy-biografik psixologizm qoʻllanildi. Yuqoridagilarning ikkisi ham “kattalar” va “bolalar” janrlarida adabiy jarayonning oʻzaro bogʻliq jihatlar sifatida koʻrib chiqiladi. Shoir va bolani belgilovchi lirik metafora amalda qoʻllanilib, bolani sanʼat subyektiga ham aylantiradi. Ushbu romantik “ekstremal” XIX asrning ikkinchi yarmidagi bolalar klassikasida oʻzining badiiy ifodasini namoyon etdi.

XVII asrda din inson faoliyatining barcha jabhalariga oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Muqaddas kitoblar va diniy hikoyalar bolalar uchun oʻquv adabiyotining eng muhimlaridan hisoblanar edi. Protestant cherkovi

¹ Lerer Seth (15 June 2008). Children’s literature. A reader’s history, from Aesop to Harry Potter. Chicago.

² Антонина Петровна Бабушкина. История русской детской литературы. М., Гос. учеб.-педагог. изд-во, 1948, с. 9.

³ Jalongo Mary Renck (2004). Young Children and Picture Books. Washington, DC. National Association for the Education of Young Children, p. 39.

“bola tabiatan buzilgan”, deb va’z aytar edi. Bu qarash bolalar tarbiya nazariyasini hamda ularning o’qitish metodikasini ham belgilab berdi. Bolalar adabiyotiga puritanizmning qat’iy nuqsonlari kirib keldi. Bolalar uchun va’zlar yozilgan bo’lib, ular o’z ruhlarini saqlab qolish uchun o’zlarini qanday tutishni o’rgatila boshlandi. Bolalar adabiyotiga didaktiklik kirib keldi. Didaktika, asosan, yaxshi maslahatlar adabiyoti jamlanmasini tashkil qiladi. Bunday asarlar juda ko’p bo’lib, ular, asosan, otalardan o’g’illarga nasihatlari: dasturxonada o’zini qanday tutish, kiyimini pokiza saqlash, otga qanday qarash, kattalarga hurmat bilan munosabatda bo’lish haqida maslahatlardan iborat edi. Ko’pincha, bu nafaqat xulq-atvor qoidalari to’plami, balki yosh jentlmen uchun axloqiy qonundek qabul qilinardi.

Bolalar uch yoshdan boshlab o’qishga o’rgatilgan. Bola yetti yoshida maktabga kirgan va lotin, qadimgi yunon va yaxudiy tillarini o’rgangan. Tadqiqotchilar hatto ba’zi xalq qo’shiqlarida ham diniy madhiya elementlarini payqashgan. Shunday qilib, “Jek qurgan uy”da yaxudiy diniy madhiyasining o’ziga xos xususiyatlarini kuzatish mumkin.¹

XVII asr oxiriga kelib, didaktik va diniy nasrdan ma’lum bir chetlanishlar yuz berdi. Endi bolalar uchun adabiyotlarda janglar va turnirlarning tavsiflari, turli mamlakatlarga sayohatlar, hayvonlar haqidagi hikoyalar paydo bo’ldi. Kitoblar Angliyaning barcha burchaklariga mamlakat bo’ylab sayohat qilgan savdogarlar, bozorlarda, yarmarkalarda, qishloq tavernalarida to’xtashib targ’ib qila boshladilar. Shu tufayli bolalar kitoblarining xaridorlari ko’paydi.

1744-yil ingliz bolalar adabiyoti uchun ahamiyatli bo’ldi. Bu yil Jon Nyuberi maxsus bolalar nashriyoti tashkil etdi va “Jajji Tommi va kichik Pollining ko’rsatmalari va o’yin-kulgilari uchun mo’ljallangan” kichkina cho’ntak kitobini nashr etdi. Bu kitobcha o’zida qo’shiqlari va bolalarning zavqlanishi hamda alfavitni o’rgatish uchun yangi urinish bo’ldi.²

Ingliz bolalar adabiyoti tadqiqotchisi Xarvi Darton ta’kitlaganidek, Nyuberining birinchi kitobidan oldin bolalar o’zlarining orzu va o’yin-kulgiga bo’lgan ehtiyojlarini faqat yashirincha qondirishlari mumkin edi, chunki ko’p kitoblarning asosiy g’oyasi axloqdan iborat edi. Nyuberi bolalar adabiyotiga soddalik va yengillikning kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratdi va bu uning katta xizmati hisoblanadi. “Chiroyli kichkina kitob” nashr etilganidan sakkiz yil o’tgach, Jon Nyuberi bolalar uchun dunyodagi birinchi bolalar jurnali “Lilliputian Magazin”ni nashr eta boshladi. Umuman olganda, bu tinimsiz ishlovchi nashriyot yosh bolalar uchun 20 dan ortiq kitoblarni nashr etdi. Bolalar adabiyoti – bu yosh tomoshabinlar uchun mo’ljallangan, lekin kattalarni ham o’z ichiga olishi mumkin bo’lgan keng va kengaytirilgan hudud. Axir, bolalar kitoblari yoziladi, nashrga tanlanadi, sotiladi, sotib olinadi, ko’rib chiqiladi, ko’pincha, kattalar tomonidan ovoz chiqarib o’qiladi. Garri Potter seriyasi go’yo bolalar adabiyoti bo’lgan, ammo kattalar uchun juda katta auditoriyaga ega bo’lgan kitoblarning eng mashhur namunalaridan biridir.

XVIII asr falsafa va adabiyotda yangi g’oyalar – ma’rifatparvarlik g’oyalarini olib kelishi bilan xarakterlanadi. Ingliz ma’rifatchiligining yirik namoyandalari va Angliyada realistik roman asoschilari Daniel Defo va Jonatan Svift edilar. Ularning kitoblari mualliflar hayoti davomida ham bolalar mulkiga aylangan. Ularning ijodiy izlanishlari butun shiddatli XVIII asrni aks ettirdi.

Bolalar adabiyotining tegishli mavzusi, axborot yoki didaktik asarlardan tashqari, bolalardir. Kengroq qilib aytganda, u bolaning tasavvur dunyosi va uning kundalik muhitining butun mazmunini, shuningdek, unga xos bo’lgan muayyan g’oyalar va his-tuyg’ularni qamrab oladi. Bu dunyo aholisi nafaqat bolalarning o’zidan, balki jonlantirilgan narsalardan, o’simliklardan, hatto grammatik va matematik abstraksiyalardan iborat; o’yinchoqlar, qo’g’irchoqlar va qo’g’irchoqlar; haqiqiy, kimerik va ixtiro qilingan hayvonlar; miniatyura yoki kattalashtirilgan odamlar; yog’och, suv, havo, olov va kosmosning ruhlari yoki grotesklari; g’ayritabiiy va hayoliy mavjudotlar; ertak, afsona va afsona figuralari; tasavvur familiars va doppelgänger va kattalar bolaning ko’zlari bilan – Napoleon, doktor Dolitl, ota-onalar yoki burchak do’konchisi bo’ladimi. Yozuvchilar bu jonli koinotni ikki yarim ming yil davomida payqamaganlari adabiyotning eng qiziq jihatlaridan biridir. Har qanday vaqtda har doim ko’p sonli, jismoniy ko’rinadigan va eshitiladigan bolalar guruhi bo’lgan. Adabiy xomashyo sifatida baholangan bu katta ozchilik kattalar ko’pchiligi kabi foydali bo’lishi mumkinmi yoki yo’qmi, hech qachon so’ralmagan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz bolalar adabiyoti shu davrgacha juda ko’p bosqichlarda rivojlandi. Ulardan eng samarali bo’lgan davrlar XVIII va XX asrlar bo’lib, bolalarga bag’ishlangan kitoblar yuqori pog’onalarga chiqdi.

¹ Silvey Anita, ed. (2002). *The Essential Guide to Children’s Books and their Creators*. New York, Houghton Mifflin.

² Hunt Peter (2003). *Literature for Children Contemporary Criticism*. London, Routledge, p. 18.

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoira she'riyatida Vatan mavzusi tahliliy asosda ochib beriladi, Vatanga muhabbat tuyg'usini o'ziga xos tarzda tarannum etuvchi badiiy umumlashmalar, milliy o'zlikni chuqur anglab yetishga chaqiradigan jihatlari tahlil qilinadi. Shoiraning Vatan mavzusidagi she'rlari g'oya, mazmun jihatidan o'rganildi.

Аннотация. В данной статье анализируется тема Родины в лирике поэтессы, анализируются художественные обобщения, воспевающие чувство любви к Родине, аспекты, призывающие к более глубокому осмыслению национального самосознания. С точки зрения идей и содержания изучены стихи поэтессы на тему Родины.

Annotation. This article analyzes the theme of the Motherland in the poet's poetry, analyzes artistic generalizations that glorify the feeling of love for the Motherland, aspects that call for a deeper understanding of national identity. From the point of view of ideas and content, the poems of the poet on the theme of the Motherland have been studied.

Kalit so'zlar: poeziya, bashar hayoti, so'z va tafakkur olami, xalqona ruh, lirik tasvir, milliy his-tuyg'ular.

Ключевые слова: поэзия, человеческая жизнь, мир слов и мыслей, народный дух, лирическая образность, народные чувства.

Key words: poetry, human life, world of words and thoughts, folk spirit, lyrical imagery, folk feelings.

O'zbek she'riyati istiqloq yillarida o'ziga xos yangi adabiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi. Inson erkini qadrlash, Vatanning chin saodati, buyuk kelajagi uchun qayg'urish, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni e'zozlash kabi qator mavzular bu davr she'riyatida yetakchilik qildi. "Vatan bizga ato etilgan ulug' ne'mat ekan: Vatanga muhabbat ham har birimizga berilgan ulug' ne'matdir".¹ Shoirlar O'zbekistonning go'zal tabiatini, osmono'par tog'larini, dala-dashtlarini, bepoyon qirlarini, bebaho ma'danlarini madh etgan ko'plab she'rlar yozdilar. Vatan mavzusi barcha zamonlardan buyon ijod ahlining yuragiga eng yaqin, juda muhim va doimiy mavzu bo'lib qoldi.

Atoqli shoiramiz Oydin Hojiyevaning barakali ijodi ham xalqparvarlik, erkparvarlik, millatsevarlik, Vatanga muhabbat tuyg'usi bilan yo'g'rilgan. Shoiraning vatanparvarlik ruhida yozgan she'rlaridan ta'sirlanmaslikning iloji yo'q. Shoiraning "Nazokat", to'plamidan joy olgan "Vatanni sog'inib turnalar qaytdi", "Vatan deb", "O'zbekning yozi", "Ozodlik", "Ozod so'z yoqlari", "Buyuk karvon", "Millatning qayg'usi nima?" nomli she'rlarida asl vatanparvar xalq qizining dil nidolarini kuzatishimiz mumkin. Mustaqillik davri she'riyatida Oydin Hojiyeva xalqona ruh ufurib turgan go'zal ijod namunalari yaratdi. Shulardan biriga e'tibor qaratsak:

*Ey Vatan, qadringni men
Hazrat Navoidan so'ray,
Ming bir kechalar elchisi
Qirq mingta roviydan so'ray.
G'oziy-u shahidlarning
Haddi-hisobidan so'ray.
Najmiddin Kubrolarning
Hoki turobidan so'ray.*²

Ushbu she'rni o'qiganimizda, nazdimizda, tarix gavdalanadi. Ajdodlarimiz nomi birma-bir eslanib, ularga ehtirom ko'rsatiladi. Shonli tariximizga nazar tashlar ekanmiz, Hazrat Navoiy, shoh G'oziy, Najmiddin Kubro, qirq ming roviy, shoh Mashrab, Nodirayi davron, Qodiriy, Fitrat, Zulfiya, Saida Zunnunova, Erkin Vohidovlarni ko'rsatgan xizmatlari-yu jasoratlari ulug'lanadi. Oydin Hojiyeva o'z she'rlarida inson va tarix, inson va jamiyat, inson va tabiat mavzulari doim mahorat bilan yoritdi. Biz uning she'rlaridagi ko'hna Buxoroning serbo'yoq manzaralari va shu zaminda yashagan ajdodlarning lirik tasviri o'sha shoira yashagan va yashayotgan Vatan tarixini ko'z ongimizda ko'rgandek bo'lamiz. Bu

¹ Sharafiddinov O. Ma'naviy kamolot yo'llari. Toshkent, 2001, 26-bet.

² Hojiyeva Oydin. Shom shu'lalari. T., "Sharq", 2010, 11-bet (Keyingi o'rinlarda ham shu manbadan foydalanildi).

insonlardagi Vatan tuyg'usi, Vatanga muhabbat hissi bugungi o'zbek farzandlari qalbida ezgu fazilatlarini uyg'otib yuboradi. Shunday da'vat ruhida yozilgan she'rlar shoira ijodida behisobdir. E'tibor qarating:

*Vatan qoyasida lochin bo'lgaysiz,
Yovlar yelkasiga qamchin bo'lgaysiz,
Bulutsiz, beg'ubor ochun bo'lgaysiz,
Fikri hur, maqsadi nekbin bo'lgaysiz!*

Shoira yoshlarga "ko'nglida qulf urgan gulshanlarim, nafasi muborak gulxanlarim, toj-u taxt egasi, orzu-xayollari ozodlarim, yalpizli-rayhonli shabbodalarim" deya murojaat qiladi. Ijodkor bugungi kun yoshlariga o'gitlar beradi. Vatanni sotib, bir umrlik loyga botmaslikni, durday jigarlarini balchiqqa otib, nokas kishi bo'lmasligini, buzg'un xayollardan ehtiyot bo'lishlari kerakligini, onaga tik boqib, xato qilib qo'ymasliklarini uqdiradi. Shoira xalqimizni birlashishga chorlaydi. Birlashmas ekanmiz, hech qachon butun bo'la olmaymiz. Zero, bir-birimizga qo'l cho'zgan, muhabbat bilan qaraydigan ko'zimiz, dard bilan uradigan yuraklarimiz bor ekan, biz birlashgan, butun O'zbekiston bo'lamiz!

Shunday pand ruhida yozilgan she'rlar shoira ijodida talaygina. Masalan:

*Ne tashlading mansabmi,
Tuproq bo'lar bir kuni.
Oriyatmi, adabmi –
Urvoq bo'lar bir kuni.
Vatan – ona yuragi
Firoq to'lar bir kuni,
O'z onasin yig'latgan
Pushaymon farzandisan!*

Ozarbayjon xalq shoiri S.Vurg'un o'z maqolalaridan birida shunday yozadi: "Shoir va san'at Vatani ulug'lasa, Vatan so'zining buyuk ma'nosi uchun mas'uliyatni his qilishi kerak". Oydin Hojiyeva o'z ona xalqining his-tuyg'ularini, fikr-mulohazalarini badiiy obrazlar orqali mahorat bilan ifodalagan, o'z asarlarida eng go'zal insoniy fazilatlar mardlik, yurt va elga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ularini aks ettirgan. Uning dildan o'tgan she'rlarining manbayi – Vatani, mehnatkash xalqi.

*Vatanni sog'inib turnalar qaytdi,
Qirlarda lolalar salovat aytti.
Olcha, o'rik gullab, bol tugar payti
Sog'inchlar bosh urgan ostona bo'ldim.*

Shoira bir paytning o'zida, olamga rassom nigohi bilan boqishi, ayni damda, dizayner kabi tuyg'ularidan she'r "tikadi". Ijodkorning xayol-o'ylariga nazar tashlar ekansiz, kuygan yuragida bir oh – Vatan deya paydo bo'ladi. Shunda ijodkorning ko'ngil ko'zlarida bog'larida yosuman gullagan, qumrilari betinim "hu-hu"lagan, oftob yuraklarni yo'gdulay boshlagan, yozining shamollari jonga xush yoqadigan, qulupnay bargida qizil marjonlar taqadigan, oq qush ovozi xush yoqadigan jannatmakon O'zbekiston gavdalanadi.

Shoirlik – yarim payg'ambarlikdir deya e'tirof etgan dilkash shoira eliga dardkashlik, jonparvarlik tuyg'ularini o'zini ko'pgina she'rlarida ta'sircha ifodalay olgan.

*Pirlar duosin olib, palak yozgan Vatan bu,
Maydonda mard-u g'olib, ko'ngli o'sgan Vatan bu,
Dushman kelsa qoyaday yo'lin to'sgan Vatan bu,
Hech kimdan kam emasmiz, aslo, qaram bo'lasmiz!*

Inson dunyoga kelgan kunidanoq, Vatan tuyg'usi u bilan birga ulg'aya boradi. Vatanga bo'lgan mehr insonni qalbida yotadi, kimdir uni oshkor qiladi, kimdir esa yo'q. Shoira bong urib, Vatan – borliq, hayotim, iymonim, dardim, senga jonim, ardasmonim, xonumonim sadag'a deydi. She'rda o'zlik, g'urur, erk tuyg'ulari birlamchi o'rinlarga chiqadi. Mustaqil, hur O'zbekiston pirlar duosini olib, yuksalgan, palak yozgan. Har sohada, har jabhada har doim oldinda yurgan. Qudratli armiyamiz dushman kelsa qoyaday yo'lin to'sgan. Shuning uchun biz hech kimda kam emas, aslo, kam bo'lmaymiz ham.

*O'n ikki bahorim, o'n ikki yozim,
Ozodlikning ikki metin qanoti.
Xalqimga jo'r bo'lib ozod ovozim,
Turibman erkinlik bolidan totib.*

Ozodlikning buyuk ko'priklarida odimlab yurgan shoira dunyoga keng quloch yozib Vatani ko'z qorachig'ida asraydi, Hazrat pirlaridan najot so'rab, ozod sarhadlari, hur, qutlug' shomlarini ko'ksiga bo-

sib qo'yishini aytadi. Yillarning o'n ikki oyi ham shoira uchun bahor va yoz hisoblanadi. Ozodlikning ikki metin qanoti bu hurlikning belgilari hisoblanadi. Ozod ovozinang yangrashi xalqining erkinligiga jo'r bo'ladi. Vatanni e'zozlash, milliy urf-odatlarini targ'ib-tashviq qilish, milliy his tuyg'ularni tarannum etish tamoyillari Oydin Hojiyeva ijodida keng o'rin egallagan.

Bu kunning har lahza, har nafasi deb

Jonni garov qo'yib yashasang arzir.

O'n ikki yillikning qasidasi deb

Shukronam qabul et, ey Vatan, taqdir!

Shoira fikricha, Vatan, vatanparvarlik tushunchalari o'tmishni qadrlashda, e'zozlashda, uni yosh avlodga o'rnatqilib ko'rsatishda o'z ifodasini topadi. Erkinlik bolidan totgan shoiraning har kuni, har lahzasi, har daqiqasi aziz, chunki tinchlik uchun, osoyishtalik uchun jonni garovga qo'ysang arziydi.

Uchqur tulporiga uradi qamchi

Guldirab o'tadi momaqaldiroq.

Qur-qur turnajonlar solar arg'amchi

Yurakka yonoshib kelar hur chaqmoq!

Ushbu she'rda shoira uchqur tulporiga qamchi urgan botir pahlavonlarni, guldurab havoni qaqshatgan momaqaldiroqlarni, arg'amchi solgan qur-qur turnalarni, shoirani yuragiga yondashib kelayotgan hur chaqmoqlarni, maysalarning igna tillarini, yomg'irga jo'r bo'lgan o'lanlarni, yerning shodliklari-qo'ziqorinlarning tasvirini juda chiroyli ifodalagan.

Attor qutisida yo'q bo'yoqlarni

Malik cho'llargacha chaplagan mohir,

Hatto Qizilqumday qoq tuproqlarni

Yashnatgay sochilib maysa – javohir.

Qizilqumning qoq tuproqlarida maysalarning hidlari shoiraga Vatanini eslatadi. Shu maysa attor do'konida yo'q bo'yoqlarning isi kabi nafis va mayin. "Asl Vatan tashqarida yotgan tuproq emas, balki shu tuproqqa nisbatan kishining ko'ksida paydo bo'lgan munosabatdir, muhabbatdir".¹ Vatan tushunchasi ana shu tuproq inson ruhiyatining bir unsuriga aylangandagina o'zining asl ma'nosiga ega bo'ladi. Shundagina inson Vatan nimaligini chinakam his qila oladi.

Beshik boshidagi onaday dilbar

Suyumli shu tuproq, bahoriy VATAN.

Sehrgar ko'klamga oshiq ko'ngil ber,

Ey jon, boychechakka aylana qol san.

Sehrgar ko'klamga qo'l va ko'ngil bergan lirik qahramon beshik boshidagi onaday dilbar deya bahoriy Vatanni tasvirlaydi. Shu aziz Vatanga mehringni, ko'nglingni butkul berishga chorlaydi. "Vatanga, xalqqa muhabbat degani hech qachon uni yengil-yelpi maqtashdan, havoyi va chuchmal gaplar bilan kitobxon og'ziga poxol solishdan iborat bo'lgan emas".²

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, shoira she'rlarining badiiy jihatdan yuksakligi, qalb torlarini nafis chertishi, xayolot olamiga she'rxonni olib chiqishi, Vatan haqidagi dardli ko'ngil izhorlarini ifodalashi she'rni go'zallikka, hurriyatga yo'g'iradi. Oydin Hojiyeva asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, ko'z o'ngimizda Vatanimizning go'zal tabiati, unumdor dalalari, mehnatkash xalqi jonlanadi. Vatanga oid yorqin va mo'rt tuyg'u uning she'rlaridagi eng yuksak urg'ulardan biri, boshdan kechirgan eng kuchli, eng samimiy tuyg'ulardir.

Kurbanova Saida (UrDU)

TO'RA SULAYMON SHE'RIYATIDA METAFORA VA METAFORIKLIK

Аннотация. Мақоллада То'ра Сулаймон лирикасида метафора ва метафориклик масаласи тahlil qilinadi. То'ра Сулаймон ijodidagi metaforalarning turlari, ular bajargan badiiy-estetik vazifalari kabi masalalar shoir she'rlari asosida ko'rib chiqiladi.

Аннотация. В статье анализируется проблема метафоры и метафоричности в лирике Туры Сулеймана. На основе стихотворений поэта рассматриваются такие вопросы, как виды метафор в его творчестве и художественно-эстетические функции метафор.

¹ Qoziqboy Yo'ldoshev. Yoniq so'z. "Yangi asr avlodi", 2006, 376-bet.

² Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., "Sharq", 2004, 289-bet.

Annotation. The article analyzes the problem of metaphor and metaphoricity in the lyrics of Tura Suleiman. On the basis of the poet's poems, such issues as the types of metaphors in the work of Tura Suleiman and the artistic and aesthetic functions of metaphors are considered.

Калим сўзлар: lirika, metafora, metaforiklik, badiiy-estetik vazifa, badiiylik.

Ключевые слова: лирика, метафора, метафоричность, художественно-эстетическая функция, художественность.

Key words: lyrics, metaphor, metaphoricity, artistic and aesthetic function, artistry.

Adabiyotshunoslikda metafora masalasi antik davrlardan boshlab o'rganib kelinadi. Xususan, Aristotel metafora so'zini keng ma'noda, umuman, ko'chma ma'noli so'z ma'nosida qo'llagan. Faylasuf o'zining "Ritorika" asarida bu fikrni aniq ifodalaydi: "Metaforaning to'rtta turi ichida analogiyaga asoslanganlari alohida e'tiborga molik".¹ Aristotel metaforaning poeziyadagi o'rniga maxsus to'xtalmas-da, poeziya tili haqidagi mulohazalaridan buni bilib olish qiyin emas. Faylasufning fikricha, poeziya tili o'ziga xos so'z qo'llashni taqozo etadi, toki tanlangan so'zlar, bir tomondan, aniqlikni, ikkinchi tomondan, kundalik nutqdan farqlanib turishini ta'min etsin. Aristotel metaforalarni poeziya tilining belgilovchi xususiyati deb hisoblaydi va ularga katta ahamiyat qaratadi.

Sharq mumtoz adabiyotshunosligida ham metafora – istiora talqiniga, tashbeh va istiora orasidagi yaqinlikka katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, Atoullloh Husayniy tashbehi kinoya bilan istiora orasida farq yo'q deydi, biroq istiora bilan tashbeh bir narsa demaydi. Uning fikricha, majoz turi sifatida istiora haqiqat emas, lekin "fasohat-u balog'at arbobi qoshinda haqiqatting yaxshiroqdir".²

Metafora obrazli tafakkur natijasi bo'lib, narsa-hodisani shunchaki atab qo'ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqidagi jonli tasavvur – obraz yaratadi. Bu obraz poetik nutqdagina, aslicha, ya'ni obraz sifatida qabul qilinadi, nutqning boshqa ko'rinishlari doirasida esa tushuncha sifatida qabul qilinadi. Metafora shoirga o'z ichki olamini (tashqi olamga qiyosan) va tashqi olamni (ichki olamga qiyosan) anglashga yordam beruvchi asosiy vositalardan biridir.

Har qanday iste'dodli shoir badiiy tafakkur vositasida o'ziga xos san'atkor ekanini ko'rsatadi. Ta'biyki, bunday ijodkor asarlarida badiiy tasvir vositalarini mohirona qo'llash, badiiy tilning tasvir imkoniyatlari, ayniqsa, poetik ifodaning xalqona tarzi yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri To'ra Sulaymon lirikasida ham metaforalar o'ziga xos badiiy-estetik funktsiya bajarib keladi. To'ra Sulaymonning "Qayta ketmas bo'lib keldingmi, bahor!" she'riga diqqat qaratsak:

Malak holatinda ko'rgandim seni,

Qushlar qanotinda ko'rgandim seni,

Kuychi bayotinda ko'rgandim seni.

*Qayta ketmas bo'lib keldingmi, bahor!*³

Bu misralarda *malak* metaforasi ko'chma ma'noda go'zal ayol, nozanin yor ma'nosida qo'llanilgan. Ushbu metafora inson qalbidagi atash imkoni bo'lmagan holatlarni tasvirlab ko'rsatish, shoir uchun his-tuyg'uni ifodalash, she'rxon uchun esa qayta his qilib ko'rishga imkon yaratgan.

Poetik metafora o'ziga xos obraz sanaladi, u leksik metafora kabi biror narsa-predmetni atashga xizmat qilmaydi, unda ifoda so'z (yoki so'z birikmasi, gap, matn) vositasida emas, balki uning yordamida yaratilgan obraz orqali amalga oshadi.

Ne dillarga g'ulu sola keldilar,

Ne sanamlar ortda qola keldilar.

Ayamasdin o'chin ola keldilar,

*Qasosim bor deb bir To'ra Sulaymonda.*⁴

O'zbek tilining izohli lug'atida "sanam" so'ziga shunday ta'rif beriladi: "Sanam – but, sanam, manot. Toshidan, yog'ochdan yoki metallardan inson qiyofasida (ko'pincha, go'zal ayol obrazida) yasalgan va ziynatlangan but".⁵ Ushbu she'rda shoir sanam deb, go'zal ayolga ishora qilgan.

Shoirning "Cho'lpon" she'rida ham go'zal ayol tushunchasi "koinotning ma'budasi" metaforik ifodasi orqali obrazli ifodalangan:

¹ Аристотель. Риторика. Поэтика. М., "Лабиринт", 2000, 128-бет.

² Хусайний Атоуллох. Бадойий ус-санойий. Т., 1981, 220-бет.

³ Сулаймон Тўра. Сенсиз ёлғиз, ғариб бўлдим. Тошкент, "Мовароуннахр", 2013, 174-бет.

⁴ Сулаймон Тўра. Сайхон. Тошкент, "Шарк", 2003, 29-бет.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд, Тошкент, "Миллий энциклопедия", 2006, 469-бет.

*Yerda-Ko'kda tengi topilmas
Koinotning ma'budasiman.
Sevmoqlikning, sevilmoqlikning
Ibtidosi, intihosiman.¹*

Ilohiy sanam, ma'buda, malak metaforalarida olamni anglashning diniy-germenevtik usulidan tashqari, tasviriy, tavsifiy vazifa ham mavjud. To'ra Sulaymon metaforaning ana shunday imkoniyatlaridan ham keng foydalana olgan shoirdir.

Inson tirik mavjudot sifatida salbiy yoki ijobiy xususiyatga ega bo'lishi yoki unga munosabatdagi kishi uni shunday qabul qilishi mumkin. Shu sababli metaforalar ijobiy yoki salbiy metaforik ma'noda qo'llanishi mumkin. Bunda ayrim so'zlarning ijobiy, ayrimlari salbiy, ayrimlari esa har ikki ma'noda qo'llanilishi kuzatiladi.

To'ra Sulaymon lirikasida *pari, sanam, malak, farishta, gul, bulbul* kabi metaforalar insonning ijobiy xususiyatlarini aks ettirish uchun qo'llanilgan. Chunki bu so'zlar ma'nosida ijobiylik bo'yog'i mavjud:

*Shu-shu ikki o'rtada
Ulanar dil rishtasi.
Elnazar – qo'rg'on faxri,
Guljahon – farishtasi.²*

Shayton, ajdarho, alvasti, yalmog'iz, ilon kabi so'zlar ma'nosida salbiylik bo'yog'i mavjud bo'lgani uchun shoirning ushbu obrazlar qatnashgan she'rlaridagi metaforalar odamning salbiy sifatlarini ifodalashga xizmat qilgan:

*Elnimas Arkni qo'riqlar
Tunqator qo'rg'on aylanib.
O'rda atrofi xatarli,
Yuribdi shayton aylanib.³*

Shayton – iblis. Diniy nuqtayi nazardan odamlarni din yo'lidan ozdiruvchi, ularni gunohga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig'i. Ko'chma ma'noda ayyor, quv, aldanchi odamga nisbatan qo'llanilib, metaforik ma'no kasb etgan. Shoir "yuribdi shayton aylanib" deganda ham shunday odamlarga ishora qilgan.

*Shunday omon-omonda,
To'kinchilik zamonda,
Fashist degan yalmog'iz
Urushdan ochdi og'iz.⁴*

Bu misralarda shoir fashistga yalmog'iz sifatini berish orqali teomorfik metafora hosil qilgan. Ya'ni yalmog'iz teomorfik metaforasining ma'no taraqqiyoti, asosan, tashqi belgilar asosidagi va bajarilish funksiyasi asosidagi o'xshashlikka asoslangan.

"Adabiyot, she'riyat obrazlilik bilan tirikdir. She'riyatda samimiyat ham bo'lishi kerak. Shundagina u bir umr esda qoladi", degan edi O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov.⁵ Haqiqatan ham, ijodkor asar yaratar ekan o'z oldiga ikkita asosiy talabni qo'yadi: obrazlilik va samimiylik. Bularning birinchisi poeziyaning tabiati bilan, ikkinchisi esa ijodkor shaxs – shoir tabiati bilan bog'liqdir.

To'ra Sulaymonning ijodidagi lirik qahramon – atrofga shoirona o'tkir nigoh bilan boqib, undan hikmat uqayotgan odam. Shoir tabiat bilan inson, uning o'y-hislari, quvonch-tashvishlari, kayfiyati orasida o'xshashliklar topadi va ular yordamida dilidagini izhor qilishga intiladi. To'ra Sulaymonning ulkan so'z san'atkori bo'lib yetishishida tug'ma iste'dodi bilan birga bolaligi o'tgan joylar tabiatining ham ulkan xizmati bor. Shoirning bir qator she'rlari ("Qayta ketmas bo'lib keldingmi, bahor!", "Bulbul nolasi") tahlili shuni ko'rsatadiki, tabiat uning uchun obrazli ifodaning birlamchi manbasi bo'lib xizmat qilgan. Shunga mos ravishda she'rlaridagi tabiat bilan birlik hissi va uning go'zalligidan tug'iluvchi zavq, yoshlik shavqi, ishq sururi-yu hijron azoblari o'rmini ijtimoiy dard egallaydi. Agar shoir ijodining ilk bosqichida ichki olami bilan tashqi olam (tabiat) orasidagi o'xshashliklarga tayangan bo'lsa, hayotga chuqur-

¹ Сулаймон Тўра. Сайҳон. Тошкент, "Шарк", 2003, 14-бет.

² O'sha asar. 143-бет.

³ O'sha asar. 4-бет.

⁴ Сулаймон Тўра. Танланган асарлар. Тошкент, "Шарк", 2020, 233-бет.

⁵ Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Тўртинчи жилд, Тошкент, Адабиёт ва санъат, 2001, 76-бет.

roq kirib borgani sari o'xshashliklar doirasi ham kengayib boradi. Zero, borliqda mohiyatan bir-biriga o'xshash nuqtalar "o'tmish – hozir", "tabiat – jamiyat", "inson – nabotot", "inson – hayvonot", "inson – hodisa" kabi juftliklarning hammasidan ham topilaveradi.

To'ra Sulaymon she'riyatida qiyos obyektlari va ma'no ko'chish yo'nalishiga ko'ra, metaforaning quyidagi turlari qo'llanganini ko'ramiz:

1) ma'noni jonli narsadan jonsiz narsa-hodisalarga ko'chirish:

Bobomning orzulari amalga oshmas bo'lsa,
Yurgan yo'limda o'lan, qo'shiq qalashmas bo'lsa...
Ko'nglimda armon yotar

Tura bilmas nor misol.¹

Bu yerda shoir yuragidagi armonlarni "cho'kib yotgan nor"ga o'xshatgan.

2) ma'noni jonli narsadan jonli narsaga ko'chirish:

Saroy motam ichinda
Sukut saqlar donishlar.
Fursatdan foydalanib
Bosh ko'tarmish *boyqushlar*...²

3) predmet xususiyatini inson ruhiy olami bilan bog'liq yoki tashqi olamdagi abstrakt tushunchalarga ko'chirish:

Yer yorilib, osmon uzila tushdi,
Ko'kning avzoyi ham buzila tushdi.³

4) jonsiz predmetdan jonli predmetga ko'chirish asosida yuzaga keluvchi metaforalar:

Ikki yoshning, **ikki chamanda gulning**
Sevgisiga bo'lmagayman to'g'anoq.⁴

Shoir "ikki chamanda gul" deb sevishgan yigit-qizga ishora qilib, o'ziga xos metafora yaratgan. Odatda, gul fitoleksemasi qizga nisbatan qo'llaniladigan an'anaviy metafora sanaladi. To'ra Sulaymon uni oshiq yigitga ko'chirib, individual (xususiy) metafora hosil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, To'ra Sulaymon she'riyatidagi metaforalar milliy adabiy an'analar bilan aloqada bo'lib, shoir yaratgan qator metaforalar shu kontekstda voqelanadi. Holbuki, shoir metaforalari milliy turmush tarzi, xalqning urf-odatlarini, ishonch-e'tiqodlari, folklor, jahon adabiyoti an'analari kabi manbalardan ham oziqlanadi.

To'ra Sulaymon she'riyatida metafora turli darajalarda: poetik ko'chim, poetik obraz va butun boshli she'r doirasida namoyon bo'ladi. Bunday darajalanishda quyidan yuqoriga tomon integrativ aloqa mavjud. Ya'ni, metafora-ko'chimning obraz darajasidagi metafora uchun, ikkalasining esa metafora-she'r uchun material bo'lib xizmat qilishi taqozo etiladi.

¹ Сулаймон Тўра. Сайхон. Тошкент, "Шарк", 2003, 18-бет.

² Сулаймон Тўра. Ёв қочди. Тошкент, "Ёзувчи", 1998, 10-бет.

³ Сулаймон Тўра. Сайхон. Тошкент, "Шарк", 2003, 27-бет.

⁴ Сулаймон Тўра. Танланган асарлар. Тошкент, "Шарк", 2020, 261-бет.

Жуманазаров Умурзок (ЖДПИ профессори), Нурбоев Ширинбек (ЖДПИ тадқиқотчиси)
**ИСТИҚЛОЛ ДАВРИДА ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИНИ ЎРГАНИШНИНГ ПЕДАГОГИК
АСОСЛАРИ**

Аннотация. Мақолада ўзбек тарбияшунослиги соҳасида кейинги ўттиз йил мобайнида ҳимоя қилинган докторлик, номзодлик, фалсафа доктори (PhD) диссертациялари, шунингдек, эълон қилинган асосий монографик тадқиқотлар, рисолалардаги илмий гоялар, янги фикр-мулоҳазалар қисқача таҳлил этилган.

Аннотация. В статье дается краткий анализ научных идей, новых суждений, выдвигаемых в докторских, кандидатских диссертациях и диссертациях на соискание ученой степени доктора философии (PhD), защищенных в области узбекской педагогики за последние тридцать лет, а также в опубликованных монографических исследованиях, брошюрах.

Annotation. The article provides a brief analysis of doctoral, candidate, master's theses defended in the field of Uzbek pedagogy over the past thirty years, as well as published large monographs, scientific ideas in brochures, new ideas.

Калим сўзлар: тарбияшунослик, диссертация, дoston, тадқиқот, илмий муаммо, вазифа, тадқиқотчи ва ҳ.к.

Ключевые слова: педагогика, диссертация, эпос, исследование, научная проблема, задача, соискатель и др.

Key words: pedagogy, dissertation, epic, research, scientific problem, task, researcher, etc.

Истиқлол даврининг дастлабки йилларида педагог олимларимизнинг адабий таълим жараёнида халқ дostonларидаги маънавий-ахлоқий тарбия масалаларини ўрганишга, ёш авлодни тарбиялашдаги ўрнини белгилаб беришга қаратилган бир қатор тадқиқот ва мақолалари яратилган. Хусусан, Б.О.Қодировнинг тадқиқотида¹ фольклор намуналарига алоҳида мурожаат қилинган, ҳатто унинг биринчи боби шу соҳа материалларининг таҳлилига бағишлаган. Олим халқ педагогикасидаги тарбия унсурларининг қай тарзда намоён бўлганлигини фольклор материалларидан қидирган: «Ўзбек халқ оғзаки ижодининг ўзига хос ва хилма-хил намуналарини таҳлил қилиш ва солиштириш натижасида дадил айтиш мумкинки, фольклорда комил инсоннинг ўзига хос модели яратилган» деган мулоҳазани асослаб берган. Олим ёшларни халқ анъаналари руҳида тарбиялашда фольклор намуналаридан самарали фойдаланиш бўйича юзасидан муайян педагогик тизимдаги методик тавсиялар ишлаб чиққан.

«Алпомиш» дostonининг 1000 йиллиги халқаро миқёсда нишонланиши (1999) муносабати билан илмий анжуман материаллари чоп этилди.² Илмий жамоатчилик эътиборида «Алпомиш» дostonи нафақат гоявий-бадий, мукамал, серкирра, қомусий асаргина эмас, балки “китобхонга маданий, маънавий ва маърифий озик берувчи панднома асар” сифатида баҳоланди. Дostonнинг миллий тарбиядаги ўрни, хусусан, «Алпомиш»нинг қаҳрамонлиги ва жасоратларининг ёш авлодга таъсири хусусида айрим хулосалар берилди. “Бу эпик сиймонинг қаҳрамонлиги ва жасоратларини ўқувчилар, талабалар ҳамда кенг омма ўртасида тарғиб этиш миллий истиқлол гояларини такомиллаштиришга хизмат қилади”,³ деб эътироф этилди. Мазкур дostonнинг болалар тарбиясидаги аҳамияти, Ҳакимбек фаолиятидаги ҳавас қилса арзигулик ибратли фазилатларга қизиқишларининг таъсир этишидаги дидактик омиллар ҳақида сўз юритилди.⁴

О.Мадаев «халқ қадриятларига алоҳида эътибор берилаётган бугунги кунда халқ оғзаки ижоди асарларини умумий ўрта таълим мактабларида алоҳида назарий курс сифатида ўрганишни жорий этиш зарурлиги»ни таъкидлаган ҳолда ва илмий жамоатчилик эътиборига бир қатор амалий

¹ Кадиров Б. Формирование узбекской народной педагогики. Т., “Мехнат”, 1992, с. 21.

² «Алпомиш» дostonи ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзусидаги халқаро конференция материаллари. Т., “Фан”, 1999, 164-бет.

³ Ёрматов И. “Алпомиш” дostonи ва халқ педагогикаси. «Алпомиш» дostonи ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзусидаги халқаро конференция материаллари. Т., “Фан”, 1999, 68 – 69-бетлар.

⁴ Иброҳимова З. “Алпомиш” дostonи кичкинтойлар оламида. «Алпомиш» дostonи ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзусидаги халқаро конференция материаллари. Т., “Фан”, 1999, 70 –71-бетлар.

таснифлар беради: “Кейинги йилларда халқ дostonларида олиб борилган илмий кузатишлар шуни кўрсатадики, эпосимиз гултожи ҳисобланган “Алпомиш” дostonини йирик эпик асар сифатида мактабларда камида икки босқичда ўқитиш мақсадга мувофиқдир. Биринчи босқични дostonдаги сюжет чизиги билан боғлиқ масалалар, образларга бериладиган дастлабки тавсиф, иккинчи босқични дostonдаги Ватан ва халқ бирлиги учун кураш, халқ қаҳрамонларининг маънавий қиёфаси, тавсифи, илм ва ҳунар ўрганиш масалаларининг ҳал этилиши, ирода ва шахс феълени шакллантириш, ислом дини фалсафасининг дostonга таъсири, бадий маҳорат муаммолари ташкил этади... “Алпомиш” дostonини умумий ўрта таълим мактабларида ўрганиш муаммоларидан яна бири дарслик-мажмуада бериладиган бадий парчани танлаш масаласи ҳисобланади, деб давом эттиради олим. Дostonдаги энг эътиборга молик лавҳалар акс этган парчаларни ажратишда асарнинг умумий мазмуни, бадиияти, образ яратиш тамойиллари ҳақида тасаввур уйғотишини назарда тутиш лозим бўлади. Ўқувчини ажратилган матн устида ишлашга ўргатиш ва қизиқтириш синфдан ташқари ўқиш жараёнида дostonни тўлиқ ўзлаштириш учун асос бўлади”,¹ деган тўғри ва асосли хулосани беради.

О.Мадаевнинг бу мулоҳазаларини олима Д.Жуманазарова ҳам муайян маънода қўллаб-қувватлаган ҳолда, умумий ўрта таълим мактабларида “Алпомиш” дostonининг ёзиб олиниши, ўрганилиши ва нашр этилиши тарихи юзасидан зарур маълумотларни бериш, дostonнинг бош етакчи ғояси – Ватан ва халқ бирлиги учун кураш, халқ эпик қаҳрамонлари маънавий-ахлоқий тарбиясининг ҳозирги ёшларга қай даража таъсир этиш усуллари каби жиҳатларни ҳозирги “Адабиёт” дарслигида кучайтириш мақсадга мувофиқ бўлади. Ҳеч бўлмаса, уларни адабий таълим босқичларининг синфдан ташқари ўқиш жараёнида ва дарсдан ташқари вақтда ташкил этиладиган, маънавий-маърифий мақсадларга қаратилган машғулотларда ўзлаштириб олиши зарур,² деб ҳисоблайди.

Қўйилган муаммонинг ўрганилиши билан алоқадор адабиётлар ичида халқ дostonларидаги маънавий-ахлоқий тарбия тизимларининг баъзи жиҳатлари тадқиқ этилган манбалар мавжуд. М. Муродов ва А.Эргашевнинг “Алпомишнома”³ китобида “Алпомиш” ва шу туркумга мансуб, масалан, “Ёдгор”, “Барчинбека” каби дostonлардаги урф-одатлар, расм-русумлар, одоб-ахлоқ, қадриятларнинг таҳлили алоҳида берилган ва дostonдаги халқ ҳикматлари “Алпомиш ўғитлари” номи остида ўқувчиларга тақдим этилган. Д.Жуманазарованинг юқорида таъкидланган илмий ишида халқ одобномасининг гултожи бўлган бундай ҳикмат-ўғитларни синфдан ташқари ўқиш жараёнида ва дарсдан ташқари вақтда ташкил этилган, маънавий-маърифий мақсадларга қаратилган машғулотлар ва тадбирларда ўрганиш зарурлиги асослаб берилган. Миллий тафаккурнинг нечоғлиқ юксаклиги, халқона улғворлик билан жуда катта қатламдаги маънавий-ахлоқий меросга эга эканлиги қайд этилган. Биз учун энг муҳими, деб таъкидлайди Д.Жуманазарова, “Алпомиш” дostonи тажриба-синов майдонларида ўқувчиларнинг маънавий камолотида етакчи дидактик манба эканлигини, юксак маънавий-ахлоқий фазилатларини ривожлантиришда муҳим тарбиявий таъсир кўрсата олганлигини исботлади.⁴

М.Муродов ва А.Эргашевнинг “Қадриятнома”⁵ номли китобларида миллатимизнинг орзу-умидлари, кураш ва интилишлари заминида туғилган ва тарихий ҳаётининг, яшаш тарзининг ажралмас бир тармоғи бўлиб қолган ижтимоий, маиший, оилавий, маънавий-ахлоқий фазилатлар, урф-одатлар ва қадриятларнинг фольклор асарларидан олинган мисоллар асосида тарбиявий-дидактик имкониятлари анча батафсил шарҳланган. Илмий-оммабоплиги туфайли бу китобдан адабий таълимнинг синфлар кесимида барча босқичларида, синфдан ташқари машғулотлардаги тарбиявий тадбирларда, муҳими, ёшларнинг юксак маънавий-ахлоқий фазилатларини ривожлантиришда маънавий-ахлоқий қадриятларнинг таҳлил ва талқинларидан ўқитувчилар ҳам ўз иш тажрибаларида, ота-оналар эса фарзандлар тарбиясида самарали фойдаланиш имкониятлари мавжуд.

¹ Мадаев О. «Алпомиш» дostonини умумий ўрта таълим мактабларида ўрганиш методикаси муаммолари. «Алпомиш» дostonи ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзусидаги халқаро конференция материаллари. Т., “Фан”, 1999, 69-бет.

² Жуманазарова Д. Синфдан ташқари ўқиш жараёнида ўқувчиларда юксак маънавий-ахлоқий фазилатларни ривожлантириш (“Алпомиш” ва “Зайдиной” дostonлари мисолида). НД, 64-бет.

³ Муродов М., А.Эргашев. Алпомишнома (1-китоб, Сурхондарё талқини). Т., “Меҳнат”, 1999, 486-бет.

⁴ Жуманазарова Д. Синфдан ташқари ўқиш жараёнида ўқувчиларда юксак маънавий-ахлоқий фазилатларни ривожлантириш (“Алпомиш” ва “Зайдиной” дostonлари мисолида). НД, 64-бет.

⁵ Муродов М., Н.Ҳақимов, А.Эргашев. “Қадриятнома” 1-китоб, Т., “Адабиёт ва санъат”, 2001, 544-бет.

О.Мадаевнинг айрим ишларида¹ адабий таълимдаги энг долзарб муаммолар кўтарилган. Адабиёт дарслари жараёни ва уларнинг шаклида ҳам, мазмунида ҳам миллий мафкурамизнинг сезилмаётганлиги, ўқитувчилар фаолиятида бадиий асарларни эскича таҳлил қилиш усуллари ҳали ҳам давом этиб келаётганлиги ҳақида куюнчаклик билан сўз юритилган. Маиший турмушимизда учраб турадиган андишасизликлар, дабдабали ҳаётга интилиш, юртдошларимиз ўртасида учрайдиган хиёнатларнинг авж олишига асосий сабаблардан бири – бевосита адабиёт дарсларининг сифатсиз ва мақсадсиз уюштирилаётганлигидадир, деб ҳисоблайди методист олим. Мақолада кўп йиллик иш тажрибаларидан келиб чиққан ҳолда, 8-синфда ўрганиладиган “Алпомиш” достони ми-солида ўз мулоҳазаларини асослаб бера олган. Бундан ташқари, мазкур олим “Алпомиш билан суҳбат”² рисоласида шу пайтгача дostonда алоҳида ўрганилмаган шахс эрки, асарга ислом дини таъсири, инсон руҳий аҳволи ифодаси каби масалаларни махсус ёритган. Унинг “Алпомиш” ҳик-матлари” номли бўлимида дostonдаги ҳикматли сўзлар, иборалар ва мақоллардан намуналар ило-ва қилинган.

Қ.Йўлдошев ўзининг “Алпомиш” достонига бағишланган китобида “Ҳар бир ўзбекнинг мил-лий китобига айланиши лозим бўлган “Алпомиш” достони замиридаги бадиий жавоҳирларни из-лаб топиш, унинг кўркам ва умри узок асарлигини таъминлаган жиҳатларини тайин этиш дoston-нинг ақли миллат томонидан тушуниб ва севиб ўқилишини таъминлаган бўларди”,³ дея тўғри эътироф этади. Олимнинг дostonнинг бадиияти ва миллатимиз маънавияти билан боғлиқ кузатиш-лари, филологик илмимизда маълум маънода шаклланган илмий-ижодий ёндошувлар тизимидаги янгича фикр-мулоҳазаларидан, ўзига хос содда, айна пайтда, теран таҳлиллардан бевосита адабиёт дарсларида самарали фойдаланиш имкониятлари катта. Улар тил ва адабиёт ўқитувчилари имкон қадар ўз иш тажрибаларига татбиқ этишса, яхши самара бериши тайин. “Алпомиш” таҳлиliga ба-ғишланган бу иш андозасидан бошқа дostonларни ҳам таҳлил қилиш анча қулайлашади, назарий асос сифатида хизмат қилади.

Халқ дostonларидаги эпик қаҳрамоннинг дунёга келиши, ўсиб-улғайиши, турли-туман сар-гузаштларининг баёнида одоб-ахлоқ тизимларига кенг ўрин берилганлигини А.Эргашев ва Р. Ҳакимовларнинг мақоласида⁴ «Зайдиной» достонига мурожаат қилиш орқали асослашга ҳаракат қилган. Хусусан, сафарга чиқаётганида эпик қаҳрамонларга бериладиган халқона дуолар, хайрла-шиш вақтида айтиладиган насиҳатларнинг педагогик асосларини таҳлил этганлигини, уларнинг маънавий-ахлоқий тарбиядаги ўзига хос ўрнини белгилашга уринганлигини алоҳида таъкидлаш жоиз.

О.Мусурмонова ва А.Телегеновнинг “Алпомиш” достони материаллари асосида ёзилган ме-тодик қўлланмасида⁵ ёшларни маънавий-ахлоқий қадриятларимиз руҳида тарбиялашда “Алпо-миш” дostonининг ўрни ва аҳамияти, ўрта мактабларда таълим-тарбия жараёнида дoston матери-аллардан фойдаланишга оид амалий тавсиялар берилган. Хусусан, “Алпомиш” дostonини ўрга-ниш жараёнида ёшларни маънавий-ахлоқий қадриятлар руҳида тарбиялашнинг шакл ва усуллари, синфдан ташқари ишларда “Алпомиш” дostonидан фойдаланиб, ўқувчиларни маънавий-ахлоқий қадриятлар руҳида тарбиялаш йўллари каби бўлимларида берилган фикр-мулоҳазалар ва методик тавсиялар шулар жумласига киради.

А.Эргашев Б.Узоқовларнинг “Дostonлар – одобнома дарслиги” номли қўлланмасида⁶ Қодир бахши Раҳимовнинг эпик репертуаридан жой олган “Зайдиной” дostonидаги эпик ҳомийлар 40 чилтоннинг ёш Гўрўғлига берган 40 та насиҳати (сабоғи) таҳлил қилинган. Бу насиҳатлар ўзбек халқ дидактикасининг чинакам мағзи бўлиб, уларда инсоннинг инсон сифатида буюклиги, унинг ақлий, жисмоний, руҳий, ахлоқий камол топишида нималарга эътибор қилиш ҳақидаги йўл-йўриқ ва дастур бўлиб, уларнинг ҳар бирини ёдлаб олган ўқувчини сўзамол бўлишига, эркин фикрлашга, энг муҳими, оғзаки нутқ бойлиги ва малакаларини оширишга хизмат қилиши педагогик жиҳатдан

¹ Мадаев О. Адабиёт дарсликлари ва миллий мафкура. “Тил ва адабиёт таълими”, Т., 1998, 2-сон, 9–16-бет-лар.

² Мадаев О. “Алпомиш” билан суҳбат. Т., “Маънавият”, 1999, 75-бет.

³ Йўлдошев Қ. “Алпомиш” талқинлари ёки дoston бадиияти ҳамда миллат маънавияти ҳақида айрим фикр-лар. Т., “Маънавият”, 2002, 6-бет.

⁴ Эргашев А., Ҳакимов Р. Дostonлар – одобнома дарслиги. Ўзбек халқ донишмандлиги сабоқлари. Т., 1993, 120 – 125-бетлар.

⁵ Мусурмонова О., Телегенов А. Дostonлар – тарбия манбаи. Т., “Маънавият”, 1999, 72-бет.

⁶ Эргашев А., Узоқов Б. Дostonлар – одобнома дарслиги. Қарши, “Насаф”, 2004, 63-бет.

асослаб берилган. Мазкур қўлланмада ҳар бир сабоқ шарҳидан сўнг уларга дахлдор савол ва топ-шириқлар ҳам тавсия этилган.

Р.Мустафақулов ва Б.Ёриевларнинг қўлланмасида¹ халқимизнинг машҳур эпоси “Алпомиш” достонининг ғоявий-бадий хусусиятлари илмий тадқиқ этилган, тимсоллар тизимига, дидактик аҳамиятига муносабат билдирилган. Она тили ва адабиёти ўқитувчилари учун тавсия этилган мазкур қўлланмада достоннинг янги – Сурхондарёдаги вариантлари ҳақида мулоҳаза юритилган, янги-янги маълумот келтирилган. Хусусан, достоннинг Чорша бахши айтган варианты, Алпомиш ва Бойсарининг фарзандлари ҳақидаги “Кўнғирёт”, “Хурсуна” достонлари бўйича билдирилган мулоҳазалар ҳар бир китобхонга, адабиёт ўқитувчисига муайян даражадаги янгиликларни беради, шу соҳадаги билим ва қарашларни бойитади.

Сўнгги йилларда умумий ўрта таълим мактабларининг “Адабиёт” дарсликларидаги халқ оғзаки ижоди асарларини махсус ўрганиш, улардаги маънавий-ахлоқий тарбия ва кадриятларнинг қай даражада аҳамият касб этишини текшириш тамойили кучайди. Буни биргина Г.Холбоеванинг номзодлик диссертациясида ва бошқа ишларида² ҳам кузатсак бўлади. Олима халқ оғзаки ижоди асарлари таҳлили воситасида 5–7-синф ўқувчиларида миллий кадриятларни шакллантириш муаммосига ўз эътиборини қаратган ва илмий асосланган методик тавсияларини ишлаб чиққан.

Д.Ўраева ва Л.Тўраеваларнинг ўқув қўлланмасида³ Фозил Йўлдош эпик репертуаридан муносиб ўрин олган “Рустамхон” достонининг табиати, бадий-композицион ва лингвопозитик хусусиятлари, образлар таркиби, асосий анъанавий эпик мотивлари хусусида коллеж талабаларига билим беришнинг қулай усулларини аниқлаш бош мақсад қилиб белгиланган, достоннинг ёшлар тарбиясидаги ўрни ва аҳамияти бир қатор таҳлиллар орқали чуқур очиб берилган.

Мазкур муаллифларнинг “Авазхон” достонини ўрганишга бағишланган услубий қўлланмасида⁴ эса мазкур достоннинг ўқувчилар дунёқараши, эътиқоди ва нутқ бойлигини ривожлантиришдаги, бадий тафаккурини ўстиришдаги муҳим аҳамияти тадқиқ қилинган. Халқ оғзаки ижоди хос достон жанрининг табиати билан яқиндан танишишга, унинг ривожланиш босқичларини билиб олишга, халқ турмуши, урф-одатлари, руҳиятига дахлдор билимларни эгаллашга, миллий анъаналаримиз моҳиятини, уларнинг келиб чиқиш тарихини англашга ёрдам берадиган таҳлилий маълумотлар берилган. Шунингдек, ўқувчиларни миллий кадриятга ҳурмат ва садоқат руҳида тарбиялаш, уларни ажодларимиздан мерос бўлиб келаётган урф-одат ва анъаналаримизни асраб-авайлашга, уларни тўплаб ўрганишга рағбатлантиришда мазкур достоннинг ўрни нечоғлик катта эканлиги билан мулоҳазалар берилганлиги таҳсинга лойиқ.

У.Жуманазаров, А.Эргашев ва Д.Жуманазароваларнинг ҳамкорликда ёзиб, эълон қилган ўқув-услубий қўлланмасида⁵ умумтаълим мактабларининг адабиёт фани бўйича ДТС, дастур ва дарсликларида халқ достонларининг ёритилиши, халқ достонларини ўрганишга оид методик ишлар тизимлари каби масалалар ҳақида мулоҳазалар берилган. Синфдан ташқари ўқиш дарсларида Қора бахши Умировнинг “Алпомиш” ва “Зайдиной” достонларини ўрганишнинг методик жиҳатлари ёритиб берилган. Шунингдек, факультатив машғулотларда халқ достонларини ўрганишга оид тақлиф ва мулоҳазалар, илмий-педагогик тадқиқотнинг тажриба-синов ишлари дастури каби маълумотлар ҳам ўқув-услубий қўлланмада берилганлиги муайян маънода фан ўқитувчиларига амалий ёрдам бера олади.

Қ.Хусанбоева, Ш.Джамолдинова, И.Раҳимоваларнинг монографик тадқиқотининг⁶ “Юқори синфлар адабий таълимида муаммоли ўқитишдан фойдаланишнинг амалий намуналари” номли

¹ Мустафақулов Р., Ёриев Б. “Алпомиш” талқинлари. Термиз, ТерДУ, 2000, 75-бет.

² Холбоева Г. Халқ оғзаки ижоди асарлари орқали ўқувчиларда миллий кадриятларни шакллантириш тамойиллари (5–7-синфларнинг адабиёт дарслари мисолида). Педагогика фанлари номзоди ... дисс., Т., 2009, 128 бет; Халқ оғзаки ижоди асарлари орқали ўқувчиларда миллий кадриятларни шакллантириш тамойиллари. Методик қўлланма, Т., ГДПУ, 2007, 84-бет; Халқ достонларида миллий кадриятлар ифодаси. “Халқ таълими”, Т., 2004, 4-сон, 79 – 80-бетлар.

³ Ўраева Д., Тўраева Л. “Рустамхон” достонининг табиати ва бадиияти. Бухоро, “Истеъдод”, 2011, 42-бет.

⁴ Ўраева Д., Тўраева Л. “Авазхон” достонининг коллежларда ўрганилиши” (касб-хунар коллежларининг адабиёт ўқитувчилари учун услубий қўлланма). Бухоро, “Истеъдод”, 2011, 32-бет.

⁵ Жуманазаров У., Эргашев А., Жуманазарова Д. Халқ достонларини ўргатишнинг методик тизими (ўқув-услубий қўлланма). Тошкент, “Турон-замин-зиё”, 2017, 91-бет.

⁶ Хусанбоева Қ., Джамолдинова Ш., Раҳимова И. Муаммоли таълимда адабиёт ўқитиш методикаси. Т., Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2021, 280 – 287-бетлар.

охирги бобида “Равшан” достонини муаммоли ўрганиш” мақоласи берилганлиги фан ўқитувчилари учун фойдаланиш “Равшан” достонини ўрганишда мактаб ўқитувчилари ўз иш фаолиятида мазкур мақоладан самарали фойдалансалар, албатта, кўзлаган мақсадга эришади ва “нур устига аъло нур” бўларди.

Ш.Джамолдинованинг диссертациясида¹ умумтаълим мактабларининг “Адабиёт” дарсликлариди берилган фольклор материаллари асосида ўтиладиган дарс машғулотларида муаммоли вазиятларни яратишнинг назарий ва амалий муаммолари ўрганилган. Хусусан, 5-синфда топишмоқлар ва эртақлар, 6-синфда мақоллар ва кўшиқлар, 7-синфда “Равшан” достони, 8-синфда “Кунтуғмиш” достни ва 9-синфда “Алпомиш” достони мисолида ўқувчилар олдида муаммоли вазиятлар яратиш ва кўйилган муаммонинг ечимини топиш методикаси тадқиқ этилганки, буларнинг амалий натижалари сифатида эълон қилинган мақолалар фан ўқитувчилари учун фойдаланишда қулайлик туғдиради.

Хуллас, тарбияшунослик илмидаги маънавий-ахлоқий тарбия тизимларининг халқ оғзаки ижодида, шу жумладан, анъанавий достонларда кўйилиши ва уларни ўрганиш ҳолати билан алоқадор муаммолар бизни куйидаги хулосалар чиқаришимизга имконият берди:

1. Халқ педагогикасида фольклорнинг таълим-тарбиявий, дидактик имкониятлари, уларни ўрганиш услуби билан боғлиқ жиҳатлар турли даврларда мутахассис-олимларнинг эътиборида бўлган. Мазкур соҳада филолог ва педагог олимларимиз салмоқли ишларни амалга оширганки, улар, ўз навбатида, адабий таълим учун ҳам назарий, ҳам амалий асос вазифасини адо этади.

2. Мустақилликнинг дастлабки йилларида яратилган илмий тадқиқот ишларини, *биринчидан*, дастлаб, шўровий мафкурадан холи бўлиб бораётган ишлар сифатида баҳолаш мумкин, кейинчалик, уларда янгиланаётган илмий тафаккурнинг тобора кучайиб борганлиги сезилади. *Иккинчидан*, бундай типдаги ишларнинг илмий-назарий асосларида кенг қамровли, соғлом нуқтаи назар етакчилик қилганлиги, айти пайтда, амалий жиҳатдан тегишли хулоса ва тавсияларга бойлиги билан кўзга ташланади.

3. Ҳозирги таҳлилларнинг кўрсатишича, халқ достонларини педагогик асосларини ўрганиш олиб борилган тадқиқотларда қамровларнинг кенглиги, таҳлилларнинг чуқурлашиб бораётгани сезилса-да, ҳали фанларни ўқитишда, жумладан, адабий таълимда ҳам жиддий илмий тадқиқ этишни кутиб турган бир қатор муаммоларнинг оз эмаслиги аён бўлмоқда.

**Barakayeva Sarvinoz To‘lqunovna (Navoiy davlat Pedagogika instituti
Fizika va astronomiya kafedrası o‘qituvchisi)
ASTRONOMIYADAN “MARS” SAYYORASI MAVZUSINI TURDOSH FANLARARO
O‘QITISH METODIKASI**

Аннотация. *Ushbu maqolada astronomiyani o‘qitishda matematik bilimlardan foydalanish, fanlararo integratsiyasi turli fanlarning alohida bo‘limlarini yagona bir butunlikka birlashtirish bilan bog‘liq yangi pedagogik yechimlarni izlash yo‘nalishlaridan biri ekanligi bayon etilgan. Ta‘lim jarayoniga yangi individual, ilg‘or va pedagogik texnologiyalarni joriy etish o‘qituvchi va o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishni taqozo etadi. Shaxsni rivojlantirish vositasi, uning potensial qobiliyatlarini ochib berishga qodir, bu mustaqil aqliy va kognitiv faoliyatdir.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос об использовании математических знаний при обучении астрономии. Утверждается, что интеграция предметов представляет собой одно из направлений поиска новых педагогических решений, связанных с объединением отдельных разделов разных дисциплин в единое целое. Внедрение новых индивидуальных, передовых и педагогических технологий в учебный процесс требует изменения отношения педагога и студента к обучению. Средством развития личности, способным раскрыть её потенциальные способности, является самостоятельная мыслительная и познавательная деятельность.*

Annotation. *This article discusses the use of mathematical knowledge in teaching astronomy. Since the integration of subjects is one of the areas of search for new pedagogical solutions related to the unification of individual sections of different disciplines into a single whole. The introduction of new individual, advanced and pedagogical technologies in the educational process requires a change in the attitude*

¹ Джамолдинова Ш. Мактаб адабий таълимида халқ оғзаки ижоди намуналарини муаммоли метод асосида ўрганиш йўллари (5–9-синфлар мисолида). Жиззах, 2022, 44-бет.

of the teacher and student to learning. The means of personality development, capable of revealing its potential abilities, is independent mental and cognitive activity.

Kalit so'zlar: astronomiya, fanlararo integratsiya, Quyosh sistemasi, Mars sayyorasi, fizik parametrlar, integrativ yondashuv, radius, diametr, massa, hajm, aylanish davri, zichlik, kosmik tezlik, tezlantirishlar, ellips.

Ключевые слова: астрономия, междисциплинарная интеграция, солнечная система, планета Марс, физические параметры, интегративный подход, радиус, диаметр, масса, объем, период основания, плотность, космическая скорость, ускорения, эллипс.

Key words: Astronomy, interdisciplinary integration, solar system, planet Mars, physical parameters, integrative approach, radius, diameter, mass, volume, base period, density, cosmic velocity, accelerations, ellipse.

Hozirgi davrda xalqimiz oldida turgan eng asosiy va muhim vazifa – bu Mustaqilligimizning iqtisodiy poydevorini mustahkamlab, mamlakatimizni jahonning eng ilg'or hamda rivojlangan demokratik davlatlari qatoridan joy olish. Biz, pedagoglar oldiga qo'yilgan bunday vazifalarni amalga oshirishda uzluksiz ta'lim tizimining oliy ta'lim bosqichi ahamiyati keskin ortishi, shubhasiz. Ta'lim kishining butun hayot yo'li davomida zarur bo'ladigan bilim, malaka, ko'nikma va madaniy saviyasini yuksaltirib boradi, bilimga intilish va ilmiy dunyoqarashni keng shakllantirishga olib keladi.

Demak, bizning asosiy vazifa yoshlarning intellektual salohiyatga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularni har tomonlama dunyoviy va ilmiy bilimlar bilan qurollantirish hamda ajdodlarga munosib bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir. Yoshlarning intellektual salohiyatini yuqori darajaga ko'tarishda ta'lim berayotgan pedagoglarning dunyoviy va zamonaviy bilim, ko'nikma va yuqori malakalarga ega bo'lishlarini bugungi kun taqozo etmoqda. Bu esa ta'lim sohasiga zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etishni, o'quv jarayonining metodik ta'minotini yanada rivojlantirishda individual ijodiy yondashishni talab etadi.¹ Bu vazifani amalga oshirish esa ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlash talablarini bajarilishiga bog'liq.

Jumladan, astronomiya fanini o'qitishda ham individual yondashib, dars jarayonini namunali tashkil etish, qisqa vaqt davomida turdosh fanlarga tayanib, ko'proq ma'lumotlarni talabalar va o'quvchilarga yetkazish muhim o'rin tutadi. Astronomiya fanidan "Mars sayyorasi" mavzusini integrativ va individual yondashuv asosida o'qitishni taklif etamiz. Quyosh tizimida joylashgan 8 ta yirik sayyora ichida Mars (Sharqda Mirrix deb atashadi) Quyoshga yaqinligi jihatdan to'rtinchi sayyora hisoblaniladi. Mars Quyoshdan taxminan quyidagi uzoqlikda joylashgan:

$$l_{Quyosh,Mars} = 228000000 \text{ km} = 1,52 \text{ astronomik birlik} \approx 1,5 \text{ a.b.}$$

U Quyosh atrofida ellips bo'ylab harakatlanadi. Harakat orbitasi aylanadan ancha farq qiladi, eksentrisiteti boshqa sayyoralarga nisbatan kattadir. Sayyoralar ichida faqatgina Merkuriyning eksentrisiteti Marsning eksentrisitetidan katta, xolos.

$$e = 0,093$$

Shuning uchun sayyora Quyoshdan uzoqlashib va unga yaqinlashib turadi.

Sayyora massasi Yer massasining 0,107 qismini yoki 11% ni tashkil etadi, ya'ni:

$$m_{Mars} = 0,107 \cdot m_{Yer} = 0,107 \cdot 6 \cdot 10^{24} \text{ kg} = 0,64 \cdot 10^{24} \text{ kg}$$

O'lchami (diametri) ham Yerning o'lchamidan ancha kichik yoki 0,53 qismiga teng:

$$d_{Mars} = 6788 \text{ km}, r_{Mars} = 3394 \text{ km}$$

Hajmi esa Yer hajmining 0,15 qismiga teng:

$$V_{Mars} = 0,15 \cdot V_{Yer} = 0,15 \cdot 12,083 \cdot 10^{12} \text{ km}^3 = 1,8 \cdot 10^{12} \text{ km}^3$$

Sayyoraning massasi yetarlicha katta bo'lmaganligi uchun, undagi tortishish kuchi ham shunga yarasha yoki Yerning tortishish kuchi tezlanishi (g_{Yer})dan 2,6 marta kichikdir:

$$g_{Mars} = 3,72 \frac{m}{s^2}$$

¹ M.Mamadazimov. Astronomiya. T., "O'qituvchi", 2008, 264-bet.

Shuni ta'kidlash joizki, Mars va Merkuriy sayyoralarida tortishish kuchlarining tezlanishi bir xil.¹ Erkin tushish tezlanishining qiymatiga asosan, Yerda og'irligi 800 N bo'lgan jism Marsda 300 N ga teng bo'ladi.

Mars Quyosh atrofini har 687 Yer sutkasida bir marta to'la aylanib chiqadi. Demak, Marsda 1 yilning davomiyligi

$$T_{Mars} = 687 \text{ Yer sutkasi}$$

Mars sayyorasi har 780 Yer sutkasida Quyosh atrofini aylanayotib, Yerga yaqinlashadi. Astronomiyada bunday yaqinlashish qarama-qarshi turish deb ataladi.

Marsning har 15÷17 yilda Yerga eng yaqinlashishi (oralaridagi masofa 56000000 km) kuzatiladi. Bu yaqinlashish buyuk ro'para turish deb aytiladi.

Marsning Yerga nisbatan Quyoshdan uzoqda joylashganligi uchun uning orbital tezligi yanada kichik bo'ladi, chunki Quyosh va sayyora orasidagi tortishish kuchi kamayadi:

$$v_{or} = 24,1 \frac{km}{s}$$

Bu qiymatni biz quyidagicha ham topishimiz mumkin:

Orbita radiusi, ya'ni sayyoradan Quyoshgacha bo'lgan masofa

$$r_{or} = 228000000 \text{ km}$$

Orbitaning uzunligi

$$l = 2 \cdot \pi \cdot r = 1432000000 \text{ km}$$

Demak, Mars Quyosh atrofini bir marta to'la aylanib chiqishi uchun 1432000000 km masofani bosib o'tadi.

Bundan,

$$v_{or} = \frac{l}{T} = \frac{1432000000 \text{ km}}{687 \text{ Yer sutkasi}} = \frac{1432000000 \text{ km}}{687 \cdot 86400 \text{ s}} = 24,1 \frac{km}{s}$$

Radiolokatsion kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Mars o'z o'qi atrofida ancha tez aylanadi. O'z o'qi atrofida 1 marta to'la aylanish davri, ya'ni 1 Mars sutkasining davomiyligi

$$t = 24 \text{ soat } 39 \text{ min } 35 \text{ sekund}$$

Bundan ko'rinadiki, Marsda sutkaning davomiyligi Yer sutkasi davomiyligidan biroz kattadir.

Demak, bir Mars yili 687 Yer sutkasiga yoki 669 Mars sutkasiga teng ekan.

Aylanish o'qining orbita tekisligiga og'maligi Yernikidan biroz kattadir. Buning hisobida sayyora-da yil fasllarining o'zgarishi kuzatiladi. Marsning sirti va u haqidagi boshqa ma'lumotlar "Mars", "Mariner", "Viking" rusumidagi sayyoralararo avtomatik stansiyalar yordamida qo'lga kiritilgan.

Uning sirtida ko'plab kraterlar va tog'lar mavjud. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Quyosh sistemasidagi eng baland tog' ham aynan shu sayyora-ga tegishli. Bu tog'ning nomi Olimp deb yuritiladi va uning balandligi 21 km ni tashkil etadi.²

Sayyoraning o'rtacha zichligi Yer o'rtacha zichligini 0,72 qismini tashkil etadi, ya'ni

$$\rho_{Mars} = 0,72 \cdot \rho_{Yer} = 0,72 \cdot 5500 \frac{kg}{m^3} = 3950 \frac{kg}{m^3} = 3,95 \frac{g}{sm^3}$$

Mars sayyorasi sirt tuprog'i namunalari tahlil qilinganda, uning kimyoviy tarkibi quyidagicha ekanligi isbotlandi: temir – 12÷15%, kremniy – 20%, aluminiy – 2÷4%, kalsiy – 3÷5%, magniy – 5%, oltin-gurgurt – 3% va oz miqdorda fosfor, rubidiy va stronsiy bor.

Marsning massasi yetarlicha katta, shunga asosan, uning tortishish kuchi ham kattadir, bu esa sayyora atrofida atmosferaning bo'lishini ta'minlaydi.

Sayyora atmosferasining asosiy qismini karbonat angidrid gazi (95%), azot gazi (2,6%), kislorod gazi (0,3%), suv bug'lari (0,01%) tashkil etadi. Atmosferaning sayyora sirtiga beradigan bosimi 700 Pa dan oshmaydi. Sayyora sirtidan 40 km balandlikda ham bosim aynan shu qiymatga teng. Bunday past bo-

¹ Mamadazimov, B.F.Izbosarov, I.R.Kamolov. Astronomiya. O'quv qo'llanma, "Yurist-media markazi", T., 2013, 390-bet.

² B.F.Izbosarov, I.R.Kamolov. Mexanika. Darslik, "Yurist-media markazi", T., 2009, 344-bet.

simda suv faqatgina bug‘, qor, muz holatlarida bo‘lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, Marsdagi atmosfera bosimi Yer atmosfera bosimidan taxminan 1000 marta kichikdir:

$$P_{Mars} = 0,001 \cdot P_{Yer} = 0,001 \cdot 101325 \text{ Pa} = 0,01 \text{ atm} \approx 10^3 \text{ Pa}$$

Atmosferasining asosiy tarkibi karbonat angidrid (CO_2)dan iborat bo‘lganligi va sayyora sirt tuprog‘ida temir oksidlari mavjudligi uchun unga kunduzi Quyosh nurlari tushganda sayyora qizil tusga kiradi, ya‘ni, Quyosh nurlari tarkibidagi qizil nurlarning ko‘proq sochilishi kuzatiladi. Shuning uchun Mars sayyorasi “Qizil sayyora” deb ham yuritiladi.

Sayyora Yer sayyorasiga nisbatan Quyoshdan olayotgan issiqlikdan 2,3 marta kam bo‘lgan Quyosh issiqligini qabul qiladi, bunga asosiy sabab, sayyoraning Quyoshdan uzoqligi bilan baholanadi, chunki energiya masofaning kvadratiga teskari proporsional. Sayyorada o‘rtacha yillik harorat -70°C ni tashkil etadi. Sayyora ekvatorida kunduzi harorat $+(20 \div 25)^\circ\text{C}$ bo‘lsa, Quyosh botayotganda -10°C va ertalabda -90°C , qutblarda esa -130°C atrofida bo‘ladi.

Mars atmosferasida vaqti-vaqti bilan kuchli shamollar esib turadi. Shamol tezligi $50 \frac{m}{s}$ gacha bo‘lib, shamol kuchli chang bo‘ronlarini paydo qiladi, chang bo‘ronlari 20 km balandlikkacha ko‘tariladi.

Yuqoridagi berilganlarga asoslanib, biz sayyora uchun kosmik tezliklarni ham topishimiz mumkin:

$$v_I = \sqrt{g \cdot R} = \sqrt{3,72 \frac{m}{s^2} \cdot 3394000 \text{ m}} = 3553 \frac{m}{s} \approx 3,5 \frac{km}{s}$$

$$v_{II} = \sqrt{2 \cdot g \cdot R} = \sqrt{2 \cdot 3,72 \frac{m}{s^2} \cdot 3394000 \text{ m}} = 5000 \frac{m}{s} \approx 5 \frac{km}{s}$$

Bizning Yer sayyoramizdan Marsga borish uchun kosmik kemaning minimal tezligi $11,57 \frac{km}{s}$ bo‘lishi kerak.

Agar Yerdan Marsgacha bo‘lgan masofaning $78 \cdot 10^6$ km ekanligini e‘tiborga olsak, kosmik kema $11,57 \frac{km}{s}$ tezlikda 1 sutkada 999648 km masofani bosib o‘tadi va 78,06 sutkada sayyoraga yetib boradi.

Marsda magnit maydon mavjud va uning kattaligi Yer magnit maydonidan 500 marta kuchsiz:

$$B_{Mars} = \frac{B_{Yer}}{500} = \frac{5 \cdot 10^{-5} \text{ Tl}}{500} = 10^{-7} \text{ Tl}$$

Marsdagi iqlim sharoitlariga ko‘ra, unda biosfera mavjud emas. Sayyoraning tabiiy yo‘ldoshlari soni ikkita. Bular Fobos (Qo‘rqinch) va Deymos (Dahshat). Har ikkala tabiiy yo‘ldosh 1877-yilda amerikalik astronom A.Xoll tomonidan topilgan. Fobos Marsdan taxminan 9400 km, Deymos esa 23500 km uzoqlikda joylashgan.¹

Darsni yuqoridagi tarzda tashkil etishdan asosiy maqsad – talabalarga astronomiya fanini yanada chuqurroq o‘rgatish, nazariyaning amaliyotdagi tatbiqini ko‘rsatish, ularning fanni o‘zlashtirib olishlari zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish hamda astronomiya faniga oid asosiy tushuncha va yetakchi g‘oyalarni mustaqil amalda qo‘llay olishlari uchun imkoniyatlarni yaratishdan, shuningdek, fanni boshqa turdosh fanlar bilan bog‘lash asosida darsning mahsuldorligini oashirishdan iborat.

**Azamov Jasurbek Murodovich (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi kafedrasini dotsenti v.b., yuridika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
e-mail: jasurbekazamov@mail.ru)**

OLIV TA‘LIM BOSHQARUVIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TAMOYILLARNI JORIY ETISH ZARURATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta‘lim muassasalarini sifat bosqichiga olib chiqish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish uchun oliy o‘quv yurtlari boshqaruviga yangicha yonda-

¹D.I.Kamolova. Ommabop astronomiya. Toshkent, “Lider-Press” nashriyoti, 2009, 108-bet; B.F.Izbosarov, I.R. Kamolov, G.R.Fatullayeva, L.H.Jalilova. Oliy ta‘limda talaba mustaqil ishini yuqori darajaga ko‘tarish omillari. “Xalq ta‘limi”, 5-son, 2008.

shuvlar, tamoyillarni olib kirish, erkin va mustaqil boshqaruv tizimini yaratish va bu orqali akademik erkin o'quv jarayonini tashkil etishga doir muammolar va ijtimoiy talablar tadqiq etiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы и социальные потребности вы- вода высших учебных заведений на качественный уровень, внедрения новых подходов к управлению вузами, реформирования системы конкурсной подготовки, создания свободной и независимой сис- темы управления и тем самым организации академического свободного образовательного про- цесса.

Annotation. This article examines the problems and social requirements for bringing higher edu- cation institutions to a qualitative level, introducing new approaches to university management, refor- ming the system of competitive training, creating a free and independent management system and thereby organizing an academic free educational process.

Kalit so'zlar: venchur moliyalashtirish, benchmarking (benchmarking), franchayzing (franchising), outsorsing, jumladan, IT-outsorsing; out+source), kraudsorsing (crowd+sourcin), brending (branding), flantropik faoliyat (philanthropic activity), modulli ta'lim.

Ключевые слова: венчурное финансирование, бенчмаркинг, франчайзинг, аутсорсинг, в т.ч. ИТ-аутсорсинг; аут+источник), краудсорсинг (крауд+источник), брендинг, благотворительная деятельность, модульное образование.

Key words: venture financing, benchmarking, franchising, outsourcing (including IT outsourcing; out + source), crowdfunding (crowd+sourcin), branding, philanthropic activity, modular education.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi oliy ta'lim maussasasi boshqaruviga ham innovatsion yondashuv tamoyillarini olib kirishni va joriy etishni taqozo etmoqda. Binobarin, innovatsion yondashuv OTMni jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy o'zgarishlarga moslashgan holda rivojlanishi, ta'lim sifatining oshishi, malakali, kuchli raqobatga bar- doshli kadrlarni tayyorlashga erishishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Shu bois AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Kanada, Singapur, Turkiya, Rossiya davlat- larida OTMni innovatsion boshqarishning yangi tendensiyalari – venchur (venture) moliyalashtirish, ben- chmarking (benchmarking), franchayzing (franchising), outsorsing (jumladan, IT-outsorsing; out+sour- ce), kraudsorsing (crowd+sourcin), brending (branding), flantropik faoliyat (philanthro'ic activity) kabilar joriy etilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy integrallashuv jarayonining chuqurlashuvi xalqaro malaka talablariga mos kadrlar tayyorlash mazmuni, muassasa o'quv jarayonini takomillashtirish va ilmiy-meto- dik bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor berilmoqda. Oliy ta'limdagi sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi mexanizmlar xususiyatlarini ko'rsatuvchi benchmarking, tyuning metodi, ko'rsatkichlarni muvozanatda saqlash tizimi, yalpi sifat menejmenti, sifat kafolati, samaradorlikning asosiy ko'rsatkichla- ri, uzluksiz sifat yaxshilanishi kabi sifatni ta'minlashga va ilg'or tajribalarni o'rganishga yo'naltirilgan metodlaridan foydalanish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda ta'limning ko'pchilik uchun ochiqiligi, teng imkoniyatli bo'lishi, uning samaradorligiga ko'maklashish uchun samarali innovatsion tamoyillarni ishlab chiqish va isloh qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Dunyoda mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotida va iqtisodiy barqarorligida sifatli oliy ta'limning o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jahon hamjamiyati oliy ta'limga katta umid bog'lab, ulardan iqti- sodiyotning o'sishi va bilimlar jamiyatining shakllanishiga yordam beruvchi keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishni talab qilmoqda. An'anaviy ta'lim, ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyati bilan bir qa- torda, oliy o'quv yurtlari mamlakat taraqqiyotida keng ishtirok etishga hamda intellektual va innovatsion salohiyatining uzluksiz o'sishini ta'minlashga chaqirilmoqda.

Oliy ta'lim asta-sekin bozor munosabatlarining to'laqonli subyektiga aylanib, «akademik kapita- lizm» tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa uning boshqaruv tuzilmasi va vazifalarni faol o'zgartirishga, yangi moliyalashtirish manbalarini egallashga, yangi o'qitish usullarini izlashga va bilim- larni nazorat qilishga undaydi. Oliy ta'lim muassasalarining faoliyati, binobarin, ularni boshqarish tobora korporativ tus olmoqda.

Ko'pgina mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalarining roli o'zgarib borishi bilan ularning markaziy hokimiyat organlari bilan munosabatlarining tabiati ham o'zgarib bormoqda. Davlat nazorati bosqichma- bosqich yo'qotilmoqda. O'tgan o'n yilliklar mobaynida, deyarli butun dunyoda, alohida olingan oliy ta'- lim tizimining raqobatbardorligining o'ziga xos mezonini hisoblangan dinamizm, moslashuvchanlik, sama-

radorlikka ko'proq erkinlik berish maqsadida oliy ta'limni ham tizimli, ham institutsional darajada boshqarishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda.

Jahonda oliy ta'lim sifati va kadrlar raqobatbardoshligini oshirish, intellektual faolligini shakllantirish masalalari bilan YUNESKO shug'ullanadi. U oliy ta'lim mazmunini xalqaro darajaga ko'tarish, modulli ta'limni tashkil etish, o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish asosida bo'lajak mutaxassislarining kompetentligini takomillashtirish masalalari alohida e'tibor qaratmogda. Jumladan, «Oliy ta'limning Yevropa maydoni» kabi integratsion jarayonlar va harakatlarning paydo bo'lishi hozirgi vaqtda oliy ta'lim bir mamlakat doirasida rivojlana olmasligini ko'rsatmogda.¹

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 1994-yilda YUNESKO va Umumjahon banki oliy ta'limni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha olib borgan ishlarini jamlab, «Oliy ta'lim: tajriba saboqlari» ma'ruzasini chop etgan va unda daromad darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlarda ta'limga investitsiyani oshirish, ta'lim boshqaruviga yangicha tamoyillarni olib kirish katta samara berishini ilgari surgan holda, eng asosiysi, oliy ta'limga mablag'larni investitsiya qilish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar zarurligi ham e'tirof qilindi. 2000-yilda YUNESKO va Umumjahon bankinging birgalikdagi tashabbuslari natijasi o'laroq, matbuotda «Rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta'lim: xavf-xatar va istiqbollar» bildirishi e'lon qilindi va rivojlanishning har qanday umumiy strategiyasida oliy ta'lim muhim ahamiyati ta'kidlandi. Unda mamlakatlarni har tomonlama rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish uchun oliy ta'limning ahamiyatini butun tafsilotlari bilan ko'rib chiqilgan va tadqiqot institutlari tomonidan taklif qilinayotgan ta'lim strategiyalarini tajribadan o'tkazish zarurati alohida ta'kidlangan.

Shuningdek, 2002-yildagi «Bilim jamiyatini qurish: uchlamchi ta'lim sohasidagi yangi takliflar» nomli boshqa bir bayonotida oliy ta'lim mamlakatning rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda raqobatbardor bo'lishi uchun sharoitlarni yaratish ulkan ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Oliy ta'limning mavjud imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish uchun ijtimoiy talab va ehtiyojlar o'rganish va bu asosida ish olib borish muhim ahamiyatga ega. Hozirda kambag'allik darajasini kamaytirish va milliy daromad darajasidan qat'iy nazar, barqaror rivojlanishi uchun harakat qilish har bir mamlakat uchun muhim vazifalardan biri bo'lib qolmogda.

Oliy ta'lim muassasasi o'zini jahon darajasidagi oliy o'quv yurti deb e'lon qila olmaydi. Yaqin vaqtlargacha «xalqaro» maqomini olish jarayoni, asosan, universitet obro'siga asoslangan subyektiv baholashga asoslangan edi. Masalan, AQSHdagi Garvard, Yel yoki Kolumbiya, Buyuk Britaniyadagi Oksford va Kembrij va Tokio universitetlari an'anaviy ravishda elita universitetlarining ekskluziv guruhiga mansub bo'lib kelgan, ammo shu paytgacha ularni o'qitishda qat'iy, ilmiy asoslangan baholash mezonini bo'lmagan. Hatto, bitiruvchilarning yuqori maoshlari ham ularning bilimlarining haqiqiy qiymati sifatida, obyektiv dalil bo'la olmaydi.


Tayms reytingiga dunyoning eng yaxshi 200 ta universiteti kiradi. Birinchi marta bunday ro'yxat 2004-yilda taqdim etilgan. Reyting metodikasi, avvalambor, subyektiv ma'lumotlar (hamkasblarni baholash, bitiruvchilarni tayyorlash sifati bo'yicha ish beruvchilar o'rtasida o'tkazilgan savollar), miqdoriy ko'rsatkichlar (shu jumladan, chet ellik talabalar va o'qituvchilar soni) asosida yaratilgan xalqaro obro'ga hamda o'qituvchilar tarkibining vakolati (ularning ilmiy ishlaridan keltirilgan iqtiboslar indeksi bilan ifodalanadi)ga asoslangan edi.

Jahon darajasidagi oliy ta'lim muassasalarining mukammalroq ta'rifiga ko'ra, muassasaning yuqori natijalari (bitiruvchilarning yuqori reytingi, zamonaviy ilmiy izlanishlar va ularni amalga oshirish) asosida o'zaro bir-birini to'ldiruvchi uchta omil yotadi, bular: (a) iste'dodlarning yuqori konsentratsiyasi (professor-o'qituvchilar va talabalar), (b) qulay o'quv muhiti va ilg'or tadqiqotlarni olib borish uchun resurslarning ko'pligi va (c) strategik qarashlarni, innovatsiyalarni va moslashuvchanlikni rivojlantiruvchi boshqaruv tuzilmasi, OTMda byurokratik to'siqlarsiz qarorlar qabul qilish va resurslarni boshqarish imkoniyatini beradi.

XX asrning oxirlarida OTMning ijtimoiy-madaniy obyekt sifatidagi maqsad va vazifalari haqida quyidagicha tasavvurlar shakllandi: shaxsni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish, madaniy va ilmiy merosni saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, bilimlar hajmini kengaytirish, bilimlarni ommalashtirish. Sanab o'tilgan maqsadlarga erishish uchun oliy ta'lim tomonidan bir qator vazifalar bajarilib, amalga oshiriladi: ilm olishga oid, tadqiqot (bilish va amaliy), desseminatsion (bilimlarni ta'lim orqali tarqatish,

¹ European integration in higher education: the bologna process towards a european higher education area, Hans de Wit, University of Amsterdam, the Netherlands, Springer, 2007.

konferensiyalar, patentlar, nashrlar), konsaltingli ishlab chiqarish (bozorda ehtiyoj bo'lgan, ilm talab qiladigan tovar mahsulotini ishlab chiqarish).¹



1.1.1-shakl

YUNESKO tomonidan qabul qilingan oliy ta'lim muassasalarining maqomi haqidagi tavsiyalar.

Oliy ta'lim olish uchun yo'llar keng ochiq bo'lgan hozirgi sharoitda yuqori sifat standartlarining pasayish xavfi paydo bo'ldi. Davlat o'zini jamiyat manfaatining himoyachisi deb hisoblagan bunday sharoitlar har doim ham universitetlar manfaatlariga mos kelmaydi.² Nemis olimi Peterburg Fanlar akademiyasi a'zosi German Golg'mgolg'ts 1968-yilda Berlin universiteti rektori lavozimini qabul qilayotganda so'zlagan nutqida akademik erkinlik va universitetlarning mas'uliyatini birga qo'shish haqida nutq so'zlaydi. Bu nazariya Boloniya jarayonida akademik avtonomiya tamoyilini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qildi. Uning mohiyati shundan iboratki, universitet – bu ta'lim tizimining markazi, chunki bu yerda ta'lim va tadqiqot birga qo'shib olib boriladi va shunday qilib, “ilm-fan asosi”, “umumiy madaniyat muassasasiga” aylanadi. Gumbolg'ts asos solgan oliy ta'lim shakli o'z ligitimligini ta'lim olish va tadqiqot, jarayon va natija, tarix va ong, filologiya va tanqid, tarixiy bilimdonlik va estetik tajriba, institutsionallik va individuallik sintezini amalga oshiruvchi madaniyatdan oladi.³ Uning universitet modeli oliy ta'lim haqidagi Umumjahon deklaratsiyasida o'z ifodasini to'padi. 1997-yilda YUNESKO tomonidan qabul qilingan oliy ta'lim muassasalarining maqomi haqidagi Tavsiyaga muvofiq oliy o'quv yurtlari:

a) butun faoliyatlarida ilmiy hamda intellektual etika va talabchanlikni, o'zlarining asosiy vazifalarini saqlashlari va kengaytirishlari;

¹ Казакова Н.В. Университеты и экономика, основанная на знаниях. Саратов, 2002, с. 58 – 64.

² Ридингс Б. Университет в руинах. Отечественные записки. 2003, №6 (15), с. 78.

³ Гельмгольц Г. Об академической свободе в немецких университетах. Отечественные записки. 2003, №6 (15), с. 29 – 33.

b) o'ziga xos intellektual obro'ga ega bo'lib, to'liq mustaqillik va mas'uliyat bilan etikaga oid madaniy va ijtimoiy muammolar bo'yicha o'z fikrini bayon etish imkoniyatiga ega bo'lishi;

d) universal tan olingan qadriyatlarni, jumladan, tinchlik, adolatlilik, erkinlik, tenglik hamda hamfikrlikni himoya qilish va faol ommalashtirish uchun o'z intellektual imkoniyatlari va ma'naviy-axloqiy obro'sidan foydalanishi;

e) huquq va majburiyatlar majmuasi sifatida qabul qilinuvchi to'liq akademik erkinlik va avtonomiyadan foydalanish, shu bilan birga, jamiyat oldida to'liq javobgar bo'lishi va hisob berishga burchli bo'lishi;

f) mamlakatlar va jahon hamjamiyatining farovonligiga ta'sir ko'rsatuvchi muammolarni aniqlash va hal qilishga ko'maklashishda ma'lum darajada rol o'ynashi kerak.

Hozirda, oliy ta'lim muassasalarining davlatdan ajratilganligi va moliviy mustaqilligi BMTga a'zo bo'lgan mamlakatlarga qo'yilgan talab hisoblanadi.

Namozova Dilnoza Berdimurotovna (O'zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA KURSANTLARINING INGLIZ TILI FONETIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy va innovatsion usullar va texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitishda fonetik kompetensiyasini rivojlantirishning asoslari ko'rib chiqildi. Kursantlarni o'qitishda eng samarali usullar va texnologiyalar yordamida chet tilini o'zlashtirishning tamoyillari tahlil qilindi.*

***Аннотация.** В данной статье были рассмотрены основы развития фонетической компетенции при обучении английскому языку с использованием современных инновационных методов и технологий. Проанализированы принципы овладения иностранным языком с использованием наиболее эффективных методов и технологий обучения курсантов.*

***Annotation.** This article discusses the basics of the development of phonetic competence in teaching English using modern and innovative methods and technologies. The principles of mastering a foreign language using the most effective methods and technologies of teaching cadets are analyzed.*

***Kalit so'zlar:** fonetik kompetensiya, innovatsion uslub va texnologiyalar o'quv dasturi, loyiha ishi, guruh ishi.*

***Ключевые слова:** фонетическая компетенция, инновационные методы и технологии, учебная программа, проектная работа, групповая работа.*

***Key words:** phonetic competence, innovative methods and technologies, curriculum, project work, group work.*

So'nggi yillarda oliy harbiy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishning yangi zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish zarurati harbiy sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bular nafaqat yangi texnik vositalar, balki eng yangi o'qitish usullari, xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga yangicha qarashlar va yondashuvlardir. Ta'lim texnologiyasi – bu o'quv dasturlari tomonidan taqdim etilgan o'quv mazmunini amalga oshirish usuli bo'lib, u ta'lim shakllari, usullari va vositalari tizimini o'z ichiga oladi, buning natijasida maqsadlarga eng samarali erishish ta'minlanadi. Pedagogik texnologiya atrofida voqelikning subyekti sifatida shaxsning rivojlanishini maksimallashtirish maqsadida qilingan o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan kursantlar bilan o'zaro munosabat jarayonidagi ta'sir xususiyatini ilmiy asoslangan tanlovdir.¹

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – bu o'qitishning turli shakllari, usullari va vositalarini nazarda tutadigan o'quv dasturini amalga oshirish usullari, buning natijasida ilgari belgilangan maqsadlarga eng samarali erishiladi, bu jadal rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatga mos keladi.

Bugungi kunda o'qituvchining vazifasi har bir kursant uchun amaliy til egallash uchun sharoit yaratish, har bir kursantga o'z faolligini, ijodkorligini, individualligini namoyon etish imkonini beradigan shunday usul va o'qitish shakllarini tanlashdan iborat.

¹А.А.Хомутова. Формирование фонетической компетенции на основе мультимедиа (Прикладное языкознание и лингводидактика. Вестник ЮУрГУ. Серия “Языкознание”). Автореф. дисс. ...кан. пед. наук, Тамбов, 2007, с. 21.

O'qitishning texnik vositalari (O'TV) nisbatan uzoq vaqt davomida pedagogik tizimlarda ishlatilgan. Dastlab, ular shaffof "slyadlar" to'plamiga ega oddiy proyektorlar bo'lib, ularning tasviri oq matodan qilingan ekranga berilgan. Biroq, bugungi kunga qadar texnologiyalar oldinga qadam qo'ydi va O'TV bir qator o'qitish tizimlariga, shu jumladan, chet tillariga qat'iy kirib bordi. Ingliz tilini kompyuter dasturlari yordamida o'rganish kursantlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Internetning axborot resurslaridan foydalanib, ularni o'quv jarayoniga singdirish orqali auditoriyada bir qator didaktik vazifalarni yanada samarali hal qilish mumkin, ya'ni:

- darslarni yanada ko'rgazmali qilish;
- ta'lim jarayonining jadalligini oshirish;
- tezkor hisobot berish;
- barqaror motivatsiyani shakllantirish;
- fikrlash qobiliyatini faollashtirish;
- ishga passiv kursantlarni jalb qilish;
- axborot kompetentligini ta'minlovchi ko'nikmalarni hosil qilish;
- o'quvchilarni materiallar bilan mustaqil ishlashga o'rgatish;
- o'rganish uchun shaxs yo'naltirilgan va tabaqalashtirilgan yondashuvlarni amalga oshirish.¹

Tilning fonetik jihatini o'rgatishda o'yinlardan foydalanish haqida gapiradigan bo'lsak, unda quyidagi tadqiqotlarni ajratish mumkin. A.N.Odai o'zining "ingliz fonetikasini o'qitishda o'yin usullaridan foydalanish" tadqiqotiga asoslanib, kerakli tajribalarni o'tkazdi va o'yin usullari o'quvchilarga tilning ba'zi fonetik xususiyatlarini tushunishga yordam beradi, motivatsiya darajasini oshiradi, eng yaxshi assimilatsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, degan xulosaga keldi, fonetik materiallardan eng murakkab ingliz tovushlarini talaffuz qilishni osonlashtiradi.

A.A.Petrosova "fonetik ko'nikmalarni shakllantirishda fonetik o'yinlarning roli" tadqiqotida fonetik o'yinlar fonetik ko'nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishga hissa qo'shadi, nutqning fonetik tomonini o'zlashtirishda psixologik to'siqlar va qiyinchiliklarni olib tashlaydi, o'quv jarayonini qiziqarli va esda qolarli qiladi degan xulosaga keldi. Shuningdek, u chet tili darslarida fonetik o'yinlardan tizimli foydalanish bilan o'quvchilar fonetik ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarini ta'kidladi.

Shunday qilib, mahalliy va xorijiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tili darslarida (shu jumladan, fonetik darslarda) o'yinlardan foydalanish samaradorligi juda yuqori. Shu munosabat bilan, ingliz tilini o'rgatuvchi har bir o'qituvchi o'yin usullaridan xabardor bo'lishi va ulardan o'quv jarayonida faol foydalanishi lozim.

Loyiha metodologiyasi ham ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan innovatsion usullardan biridir. Loyiha usuli kursantlarning individual xususiyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, kursantlarning ijodiy fikrlashi va intellektual takomillashtirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan. U ularni mustaqil, bog'langan yoki guruhli faoliyatga va ta'limni faollashtirishga yo'naltiradi, bunda vazifani hal qilishda ijodiy yondashuv amalga oshiriladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi mavjud, tashabbuskorlik rag'batlantiriladi, kursantning ijodiy salohiyati o'sadi. Shaxsiy vazifalarni jamoaviy izlash, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish elementlari bilan birlashtirish qimmatlidir. Kursant o'z bilimi va harakatlarini mustaqil ravishda rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishni o'rganadi. Loyihalarning uch turi mavjud:

1. Guruh loyihasi. Butun guruh tadqiqotni olib boradi va har bir kursant tanlangan mavzuning ma'lum bir qismini o'rganish uchun javobgardir.

2. Mini-o'rganish. Shaxsiy sotsiologik so'rov turli xil anketalar va intervyular yordamida o'tkaziladi.

3. Adabiy manbalarni o'rganishga asoslangan loyiha. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, kursantlarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradigan yana bir usul "Bingo", "Nima? Qayerda? Qachon?" va hokazo. Bu yerda kursantlar og'zaki nutq mashq qilish imkoniga ega, shuningdek, albatta, ularning ingliz tili bo'yicha darajasini baholash uchun, til bilimlarini chuqurlashtirish uchun ko'p mashq qilinishi kerak.. Kursantlarning bu yo'nalishda rivojlanishi uchun ularni o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini ifodalashga o'rgatish lozim.²

¹Е.И.Пассов. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. 2-изд, М., "Просвещение", 1991, с. 223.

² Е.Н.Ярославова. Концепция непрерывного профессионально-ориентированного иноязычного образования как условие самореализации будущего специалиста высшей квалификации. Монография, Е.Н.Ярославова, М.Г.Федотова, Челябинск, ЮУрГУ, 2010, с. 316.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish kursantlar tomonidan bilim va ko'nikmalarni tanqidiy qayta ko'rib chiqish va ko'paytirish orqali o'quv va ijodiy vazifalarni mustaqil hal qilishni o'z ichiga oladi; ularga kognitiv universal harakatlarni shakllantirish uchun shart-sharoitlarni amalga oshirishga imkon beradi: haqiqatni birgalikda izlash, o'zini-o'zi baholash, o'zini-o'zi tuzatish, o'zini-o'zi ta'minlash. Innovatsion texnologiyalar kursantlarni chet tili darsida faol bilim olishning samarali vositasidir. Ushbu texnikani o'zlashtirgan kursantlar turli xil o'quv vazifalarini hal qilishda mustaqilroq bo'lishadi, yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'z faoliyatini oqilona qurishlari, sinfda bir-biri bilan muloqot qilishni o'rganishlari, suhbatdoshni tinglashlari, unga yordam berishlari mumkin.

Ingliz tilini o'qitishning turli zamonaviy usullaridan foydalanganda kursantlarning fonetik kompetensiyasini shakllantirishning uslubiy shartlarini hisobga olish kerak. Ingliz tilini o'qitish jarayonida kursantlarning fonetik kompetensiyasini samarali shakllantirish uchun biz an'anaviy tajriba va fonetikani o'qitishning zamonaviy tendensiyalariga asoslangan ingliz tilidagi kirish va tuzatish fonetik kursi kabi uslubiy shartlarni aniqlaymiz.

Pedagogik jamoada xorijiy talaffuzni yaxshilash usuli sifatida kirish-tuzatish fonetik kursiga noaniq munosabat mavjud. Kirish va tuzatish fonetik kursi to'g'ri talaffuz uchun asos yaratadi va kursantlarni chet tili fonetikasi bo'yicha tayyorlashning turli darajalari muammosini hal qilishga yordam beradi, degan fikr bilan o'rtoqlashamiz, chunki o'quv jarayonida fonetik bilimlarni tizimlashtirish, aniqlashtirish, chuqurlashtirish va fonetik bilimlarni takomillashtirish mavjud.

Barcha ishlab chiqilgan va sinalgan kirish fonetik kurslari fonetikani o'qitishda artikulyatsion (tovush-intonatsiya), fonologik (funktional-eshtituv), differentsiallashgan, integrativ kognitiv va boshqa yondashuvlarga tayanadi. Biroq ulardagi akslantirishlar maqsad va tarbiya vositalariga qarab turlicha joylashtiriladi.¹

An'anaga ko'ra, fonetika ta'limi artikulyatsion, akustik va tabaqalashtirilgan yondashuvlarga asoslangan edi.

Artikulyatsion yondashuv unli va undoshlarning bo'g'indan alohida ko'rib chiqilishidan iborat bo'lib, intonatsiya namunalariga taqlid qilish chet tilining ritmik-intonatsion bazasini egallashning asosiy maqsadi hisoblanadi. Har bir yangi tovushning rivojlanishi quyidagi fikrlarni o'z ichiga oladi: namoyish qilish, ovozni akustik va artikulyatsion tahlil qilish, taqlid qilish, fiksatsiya, – mashqlarga o'rgatish. Talaffuz mahorati murakkab tarzda o'rnatiladi: tovushlarning akustik taqdimoti artikulyatsiya, nutq-vosita mashqlari bilan, so'ngra tovush materialini grafik fiksatsiya qilish (transkripsiya) bilan almashtiriladi.

Akustik yondashuv shundan iboratki, talaffuz mashg'ulotlari, asosan, eshitish analizatorlariga asoslangan, ya'ni faqat taqlid mashqlariga asoslangan. Ushbu yondashuvning nazariy qoidalari quyidagilarni taklif qiladi: og'zaki nutqni o'rgatish jarayonida talaffuzni shakllantirish, chet tilidagi tovushlarni alohida qayta ishlashni rad etish, audio yozuvlar bilan ishlash jarayonida kursantlarning eshitish sezgilariga ishonish.

Fonetik ko'nikmalarni o'rgatishning an'anaviy amaliyotida kirish va tuzatish fonetik kursi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ilmiy ishonchlilik tamoyili
- o'qitishda qiyosiy tamoyilning lingvistik to'g'riligi tamoyilini umumlashtirish va tizimlashtirish tamoyili.

Umuman olganda, ingliz tilining amaliy fonetikasini an'anaviy o'qitish tovushlarni tavsiflash, ularni farqlash mashqlari, artikulyatsiya tizimining batafsil tavsifi va ingliz tilining transkripsiya belgilarini o'z ichiga oladi. An'anaviy fonetik ko'nikmalarni o'rgatish nutq vaziyatini yoki hisobga olmagan holda so'z yoki iboralarda alohida tovushlarni chiqarish uchun til mashqlaridan faol foydalanishni ta'minlaydi.²

Pedagogik amaliyot ko'rsatganidek, nutqning fonetik tomonini kommunikativ vazifalarsiz til mashg'ulotlari til mashqlaridan foydalangan holda, an'anaviy o'qitish tinglovchilarning og'zaki nutqda fonetik ko'nikmalarini deavtomatizatsiyalashga olib keladi. Shu munosabat bilan, bir qator fonetistlar chet el fonetik kompetensiyasini o'qitishda segmental (tovushlar) va o'ta segmental birliklar va tovushli nutq hodisalarini kiritish parallelizm prinsipi zarurligini va fonetikani o'qitishda kommunikativ yondashuv va aloqa tamoyilining ahamiyatini ta'kidlaydilar.

¹ Практическая фонетика английского языка: исследования. М.А.Соколова, К.П.Гинтовт, Л.А.Кантер и др. М., "Владос", 2001, с. 384.

² С.Л.Суворова. Теоретико-методические основы формирования коммуникативно-дискурсивной культуры будущих учителей. Монография, Челябинск, изд. ЮУрГУ, 2004, с. 131.

An'anaviy tajriba va zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda, biz materialni o'zlashtirishning quyidagi tamoyillarini aniqladik:

1. Birinchidan, o'quv materialining kursantlarning yoshga bog'liq bilim imkoniyatlariga mos kelishini ta'minlaydigan mavjudlik prinsipi, bundan tashqari, fonetik materialni o'rganishning nazariy murakabligi va chuqurligi darajasini to'g'ri aniqlash, fonetik materialni o'zlashtirishga ajratilgan o'quv vaqtini to'g'ri taqsimlash, kursantlarning aqliy faoliyati va xotirasining individual xususiyatlari, shuningdek, ularning chet tillarini o'qitish darajasi.

2. Fonetik terminologiyaning aniqligi va aniqligini hisobga olgan holda, lingvistik to'g'rilik prinsipi, ushbu prinsipni tanlash nazariy fonetik materialning xilma-xilligi bilan bog'liq.

3. Fonetik materialning tizimli ravishda taqdim etilishi, individual faktlar va amaliy vazifalarni tartibga solish va umumlashtirishdan iborat bo'lgan umumlashtirish va tizimlashtirish prinsipi.

4. Ushbu tovushlarni namoyish etuvchi so'zlar, iboralar va iboralar bilan tovushlarni bir vaqtning o'zida kiritishdan iborat segmental va supersegmental birliklarni kiritishning parallelizm (bir vaqtning o'zida) prinsipi.

5. Kursantlarga belgilangan vaqt davomida asosiy ma'lumotlar va amaliy mashqlarni olish zarurati tufayli materialni taqdim etishda intensivlik va konsentratsiya prinsipi; ushbu printsipga ko'ra fonetik materiallar modullar (bloklar)ga ajratilgan bo'lib, ular nazariy materiallar va tegishli amaliy vazifalar bilan ifodalanadi. o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tuzatish bo'yicha ko'rsatmalar.

6. Amaliy materialni tanlashda funksional-stilistik yondashuv, bu kursantlarning turli fonetik kontekstlarda tovushlarni ko'paytirishni o'rganganliklaridan iborat. To'liq (orfoepik talaffuz) va nutqiy talaffuz uslublarini o'rgangan kursantlar uchun tovushlarni alohida va turli xil fonetik sharoitlarda qanday talaffuz qilishni bilish muhimdir.

Shunday qilib, zamonaviy o'qitish texnologiyalari – bu o'qitishning turli shakllari, usullari va vositalarini nazarda tutadigan o'quv dasturini amalga oshirish usullari, buning natijasida ilgari belgilangan maqsadlarga eng samarali erishiladi, bu jadal rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatga mos keladi. Bugungi kunda o'qituvchining vazifasi har bir kursant uchun amaliy til egallash uchun sharoit yaratish, har bir kursantga o'z faolligini, ijodkorligini, individualligini namoyon etish imkonini beradigan shunday usul va o'qitish shakllarini tanlashdan iborat.

**Ramazonov Xusniddin Saidaxmadovich (Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti;
rahusa88densur@mail.ru)**

O'QITISH TIZIMLARINI MULTIMEDIA KO'RINISHIDA YARATILISHINING AFZALLIKLARI

Аnotatsiya. *Multimedia elektron o'qitish vositalarining yangi shakllarini yaratish, multimediani ta'lim va boshqa sohalarda qo'llash, multimedia texnologiyalarini ishonchlilik, xavfsizlik va samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishni takomillashtirishga harakat qilindi.*

Аннотация. *В данной статье были предприняты попытки по созданию новых форм мультимедиа для электронного обучения, а также использования мультимедиа в образовании и других областях, по повышению надежности, безопасности и эффективности мультимедийных технологий.*

Annotation. *Efforts have been made to create new forms of e-learning multimedia, to use multimedia in education and other areas, and to improve the reliability, security and efficiency of multimedia technologies.*

Kalit so'zlar: *elektron nashr, elektron darslik, multimedia, gipermatn, dasturiy ta'minot.*

Ключевые слова: *электронное издание, электронный учебник, мультимедиа, гипертекст, программное обеспечение.*

Key words: *electronic publication, electronic textbook, multimedia, hypertext, software.*

Axborot texnologiyalari hayotning barcha jabhalarida ta'lim jarayoniga keng joriy etilmoqda. Oliy ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish yangi innovatsion vositalardan foydalanish imkonini beradi. Bu yangi imkoniyatlar va jarayonlarni yaratadi. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish ta'lim jarayonini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sifatini oshirishda ifodalanadi va o'quvchilarning bilim olishga intilishini kuchaytirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari tushuncha-

si mohiyatiga ko'ra: "Turli obyektlar, obyektlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, saqlash, tarqatish va ulardan foydalanishning yangi zamonaviy usuli va mexanizmi".¹

Zamonaviy ta'lim axborotning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Bu jihat oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi zahirada yotadi. Ta'limda yangi o'qitish usullarini qo'llash zarurati katta imkoniyatlar ochadigan elektron nashrlarning yaratilishiga olib keldi. Elektron darslikda nazariy ma'lumotlar va amaliy topshiriqlar, foto va audiomateriallar mavjud. Elektron darslik – elektron shaklda tuzilgan materialni taqdim etuvchi vosita bo'lib, u o'quvchilarning o'zlashtirishi, ko'nikma va malakalarini shakllantirishi uchun zarur bo'lgan bilimlarni belgilab beruvchi darslikdir. U o'quv materialining mantiqiy tavsifi, yuqori darajadagi texnik jihozlanishi va badiiy dizayni bilan ajralib turadi.

Respublikamiz milliy iqtisodiyotining tarmoq va sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida amaliy ishlar O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni, "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida olib borilmoqda.

Respublikamizning barcha sohalarini texnik qayta qurollantirish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta'minlash hamda xalqaro zamonaviy talablarga javob beruvchi telekommunikatsiya va kompyuterli aloqa tizimini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Hamdo'stlik Davlatlari orasida birinchilardan bo'lib axborotlashtirishning yaxlit davlat siyosatini amalga oshirishga asos solgan. Bu esa Respublikamizda zamonaviy o'qitish tizimlarining yaratilishiga asosiy sabab bo'lib xizmat qilmoqda.

Qolaversa, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish maqsadida elektron tizim yaratish foydalanuvchilar uchun sodda va qulay ko'rinishdagi interfeys ishlab chiqish asosiy maqsad qilib olingan. Maqsadga erishish uchun o'qitish tizimlari, elektron qo'llanmalar haqida tushuncha va ularni yaratish asoslari, elektron qo'llanmalarni yaratuvchi dasturlash muhiti, bu dasturlash muhitining imkoniyatlari, o'qitish tizimi interfeysi va bu tizimdan foydalanishni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Olimlar tomonidan o'tkazilgan tajribalardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quv materialini qanday usulda yetkazib berish bilan olingan bilimlarni qandaydir muddatdan so'ng qayta tiklash va eslash qobiliyati orasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Agar axborot tovushli bo'lgan bo'lsa, inson uning to'rtidan bir qismini, axborot vizual ko'rinishda namoyish etilganda esa uchdan bir qismini, audio va vizual ko'rinishlar (ko'rish va eshitish) birgalikda ishlatilganda esa axborotni eslab qolish 50 foizni tashkil qiladi. Ta'lim oluvchi o'quv jarayoni mobaynida faol harakatga keltirilgan bo'lsa, axborotni o'zlashtirish 70 foizga teng bo'lar ekan.²Videokurslarda qo'llaniladigan faol o'qitish usullari aynan shu bog'liqlikni amalga oshiradi. Elektron o'quv tizimlarining ana'naviy bosma manbalari va elektron kitoblardan farqi foydalanuvchi va kompyuter orasidagi interaktivlik mavjudligidir.

Elektron o'qitish tizimlari orasidan multimediali o'quv mashg'ulotlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Multimediali o'quv mashg'ulotlari multimediali jarayonni amalga oshirilishga yo'naltirilgan elektron o'qitish tizimi hisoblanadi. Multimediali o'quv kursi – bu mavjud o'quv qo'llanma va darsliklarning undan foydalanuvchiga qulaylik yaratish maqsadida maxsus dasturiy vositalar yordamida ixcham holatga keltirilgan ma'lumotlar to'plami. Uni tayyorlashda taqdim etilayotgan ma'lumotlar undan foydalanuvchilarga qulay, qiziqarli va kerakli bo'lishligi ahamiyatlidir.

Qandaydir ma'noda multimediali o'quv mashg'ulotlari o'quv filmi, radio eshittirish yoki teleko'rsatuvlarning o'ziga xos turi deyish ham mumkin. Uning tarkibida real o'quv mashg'ulotlari (ma'ruza, seminar, suhbat, o'rganiladigan texnologiya va qurilmalar, ilmiy yoki ishlab chiqarish tajribalarning namoyishi va boshqalar)ning audio yoki videoyozuvi jamlangan bo'ladi. Multimediali o'qitish tizimining ajralib turgan jihati shundaki, uning muhimligi axborotning o'zi bilan emas, balki uni qanday usullar va shart-sharoitlar bilan yetkazilishidir. Odatda, multimediali o'qitish vositalari mashhur olimlarning ma'ruzalari, kam uchraydigan tajriba va texnologiyalar, san'at asarlari namoyishi, tarixiy voqealar yozuvi, ya'ni ama-

¹ Пугачев А.А. Теория и практика создания электронных учебников. Вестник Вост. Сиб. Института МВД России, 2000, № 3.

² Носов Н. Образование и виртуальная реальность. Дистанционное и виртуальное обучени. Дайджест рос. и зарубеж. прессы. 2000, № 11.

liyotda tanishish qiyin bo'lgan yoki axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositasi yordamida amalga oshirish murakkab bo'lgan holatlar ko'rinishida beriladi.

Ta'kidlash kerakki, multimediali o'qitish tizimi – bu shunchaki multimediali faylgina emas, balki dasturiy va informatsion qismlardan iborat bo'lgan dasturiy vosita.

Multimediali o'qitish tizimining informatsion tarkibiy qismi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

◆Kirish. Bunda multimediali faylning nomi beriladi, mazmuni ta'riflanadi, o'quv maqsadi (multimediali qo'llanmaning ta'lim oluvchilarning ma'lumoti qaysi darajada ekanligi, yo'nalishlari va kategoriyalari) aniqlanadi, uning o'quv jarayonida qo'llash uslublari keltiriladi.

◆Multimediali yozuv (audio yoki videofayl) ning o'zi.

Multimediali o'qitish tizimining asosiy funksiyasi, ya'ni dasturiy qismi ekranda kirish va multimediali yozuvlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Ikkinchi funktsiya Windows Media Player yoki shunga o'xshash video va audiofayllarni namoyish qiluvchi dastur yordamida bajariladi.

Odatda, aks ettirishni boshqarish vositalari quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

◆multimediali fayllarni ishga tushirish va to'xtatish;

◆yozuvning oldindan belgilangan fragmentlariga o'tish hamda uning bosh qismi va oxiriga yoki ixtiyoriy joyiga o'tish;

◆tovush balandligini boshqarish;

◆videoyozuvni kadrlar bo'yicha ishga tushirish;

◆videoyozuvning kadrlar o'tish tezligini boshqarish (tezlashgan va sekinlashgan rejimlarda amalga oshirish);

◆tasvir o'lchamini boshqarish.

Elektron o'qitish tizimlarida ma'lumotlarni namoyon qilishning turli xil shakllari qo'llaniladi.

Matn va gipermatn, grafika va gipergrafika, video, animatsiya, tovush, interaktiv uch o'lchamli tasvirlar shular jumlasidan.

Kerakli usul va formatni tanlash quyidagi shartlardan kelib chiqib amalga oshiriladi:

◆o'qitish tizimi tarkibiga kiruvchi informatsion komponentlarning hajmi va xususiyati;

◆dasturiy mahsulotning didaktik va funksional xarakteristikalarini;

◆dasturiy mahsulotning hajmiga qo'yiladigan cheklovlar;

◆dasturiy mahsulotning rejalashtirilayotgan dasturiy-texnik xususiyatlari (qo'llanuvchi hisoblash tizimlari, apparat va dasturiy ta'minotga talablar);

◆dasturiy mahsulot yaratish mobaynida ishlatilishi rejalashtirilayotgan instrumental vositalar imkoniyatlari;

◆u yoki bu formatlarni qo'llashga doir cheklovlar.

Multimediali o'qitish tizimlarini loyihalash va yaratish mobaynida quyidagilarni aniqlab olish kerak:

◆materialni qanday usulda yetkazish;

◆olingan bilimlarni qanday nazorat qilish;

◆o'qitish tizimining qanday qo'llanilishi.

Yaratilayotgan elektron o'qitish tizimlari apparat va dasturiy ta'minot jihatdan quyidagi talablarga javob berishi kerak:

◆axborot texnologiyalari sohasida tajribasi bo'lmagan foydalanuvchilar uchun ham tushunarli;

◆va sodda interfeys ko'rinishiga ega bo'lishi kerak;

kompleks tugallangan bo'lishi kerak, ya'ni, ta'lim berishning barcha bosqichlarini hamda ishtirokchilari – talabalar va o'qituvchilarni qamrab olgan bo'lishi;

◆o'qitilayotganlarning talablariga to'la javob berishi kerak, ya'ni ular foydalanuvchi huquqlaridan kelib chiqqan holda o'zgarishlar amalga oshishi kerak.

Elektron o'qitish tizimlari texnologiyasi rivojlanishi bilan birga ularning yangi turlari va ko'rinishlari ham yaratilib borilmoqda.

Bu yangi turlar quyidagi sifatlari bilan ajralib turadi:

1) elektron o'qitish tizimlari qog'ozdagi o'quv-metodik qo'llanmalarining elektron analogi sifatida qurilgan. Bu asoslanishga avtomatlashtirilgan darsliklar, ma'lumotnomalar va boshqalar mos keladi;

2) elektron o'qitish tizimlarida kompyuter o'quv vositalari funksiyalari emas, balki texnik funksiyalarni amalga oshiradi. Bu bilan yanada universal, ixcham va nisbatan arzonroq trenajyor tizimlar va laboratoriya mashg'ulotlari paydo bo'ladi;

3) elektron o'qitish tizimlari o'zlari mo'ljallangan o'quv mashg'ulotlari va tadbirlariga yo'naltiriladi. Bu multimediali ma'ruzalar, avtomatlashtirilgan nazorat ishlari va boshqalarni ajralishiga sabab bo'ladi;

4) elektron o'qitish tizimlari, ular yordami bilan yechiladigan pedagogik masalalarga moslashtiriladi. Bu aspektga avtomatlashtirilgan qayta ta'lim olish kurslari, bilimlarni nazorat qilish tizimlari va boshqalar mos keladi.

Yuqorida keltirilgan sifatlar asosida o'qitish tizimlarini klassifikatsiyasini tuzish mumkin.

Yechiladigan pedagogik masalalariga ko'ra, elektron o'qitish tizimlari asosan to'rtta sinfga ajratiladi:

- ◆ nazariy va texnologik tayyorgarlik vositalari;
- ◆ amaliy tayyorgarlik vositalari;
- ◆ yordamchi vositalar;
- ◆ kompleks vositalar.

Multimediali o'quv mashg'ulotlari – bu real o'quv mashg'ulotlarini yoki tadbirlarini (ma'ruza, seminar, namoyishlar) multimediali ko'rinishidagi elektron o'qitish vositalari.

Keng miqyosdagi pedagogik masalalarni qamrab oluvchi kompleks vositalarni elektron o'quv kursi orqali ajratib ko'rsatish mumkin.

Elektron o'quv kursi – ma'lum bir kurs bo'yicha tayyorgarlikka mo'ljallangan o'qitish vositasi bo'lib, unda nazariy, texnologik va amaliy tayyorgarlik bo'yicha asosiy masalalarni yechishga asoslangan funktsiya va vositalar mujassam bo'lgan.

Elektron o'qitish vositalarining asosiy ustunlik tomonlarini ko'rib o'tamiz:

◆ o'quv materialini mustaqil ravishda o'rganish. Bunda ta'lim oluvchiga o'zi uchun qulay joy va mos vaqtni hamda o'quv jarayoni tempini tanlashi mumkin;

◆ ta'limning individualligi va uning variativligi uchun qulay sharoitlar mavjudligi;

◆ o'rganilayotgan obyekt va jarayonlarning modellari bilan ishlash imkoniyati (jumladan, amaliyotda tanishish qiyin bo'lganlar bilan ham);

◆ ma'lumotlarni multimediya formasida namoyish etish imkoniyati;

◆ avtomatlashgan nazorat hamda bilimlar va ko'nikmalarni yanada obyektiv baholash imkoniyati; elektron o'qitish vositalarida ma'lumotlarni qidirish imkoniyati va ulardagi qulay interfeys ko'rinishi (gi-permatn, media, avtomatlashgan ko'rsatkichlar, kalit so'zlar bo'yicha qidiruv va boshqalar);

◆ progressiv psixologo-pedagogik metodikalarni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratib berilishi.

Keltirib o'tilgan sifatlar elektron o'qitish vositalarining didaktik va funksional tomondan xarakterlaydi. Ularning texnologik sifatlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

◆ o'qitish tizimini yaratish operativligi oshishi;

◆ nisbatan osonroq yangilash va takomillashtirish;

◆ tezlik bilan ko'paytirish;

◆ osonroq tarqatish imkoniyati.

Elektron o'qitish vositalarini o'quv jarayonida qo'llanilishi:

◆ ta'lim sifati oshishiga;

◆ o'quv jarayonini tashkil qilish va o'tkazishga ketadigan xarajatlarning kamayishiga;

◆ o'qituvchilarning bir xil zerikarli mashg'ulotlardan ijodiy faoliyatga undashga;

◆ o'quv jarayonini operativligi va mobilligi oshishiga ta'sir qiladi.

Xarajatlar kamayishiga quyidagilar tufayli erishish mumkin:

◆ har doim bajariladigan bir xil vazifalarni o'qituvchi emas, balki elektron o'qitish vositalari bajaradi;

◆ qog'ozdagi o'quv-metodik qo'llanmalar zaruriyatining kamayishi;

◆ o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti (o'quv xonalar, laboratoriya qurilmalari va boshqalar)ga ketadigan mablag'larning tejalishi;

◆ o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladigan joyga borishga ketadigan transport xarajatlari kamayishi¹.

G'arb mamlakatlarida elektron o'qitish vositalarini yaratish allaqachon axborot texnologiyalarining alohida tarmog'iga aylanib ulgurdi. Bunday yo'nalish O'zbekistonda ham jadallik bilan rivojlanmoqda.

¹A.Parpiyev, A.Marahimov, R.Hamdammov, U.Begimkulov, M.Bekmuradov, N.Taylokov. Yangi axborot texnologiyalari. T., 2008, 104-bet.

Hozirda elektron o'qitish tizimlarining keng ravishda yaratilishiga va tarqalishiga to'siq bo'luvchi quyidagi to'rt sababni keltirish mumkin:

1) mavjud ta'lim tizimining elektron o'qitish vositalarini faol ravishda qo'llashga, ularni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish va mavjud texnologik bazada tashkil qilishga hali to'liq holda tayyor emasligi;

2) malakali mutaxassislarning yetarli daraja emasligi;

3) rivojlangan uslubiyat yo'qligi;

4) elektron o'qitish tizimlarini ommaviy ravishda yaratish va tarqatishga ketadigan moliyaviy xarajatlarning ko'pligi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda shunday nuqtayi nazar mavjudki, elektron o'qitish tizimlarini ishlab chiqish juda qiyin va murakkab masalalardan biri, uni amalga oshirish texnologiya emas, balki ko'proq ijodga o'xshaydi. Umumiy holda esa elektron o'qitish tizimlarini yaratish qiyin, uzoq vaqt va mehnat talab qiladigan, katta xarajat talab etadigan jarayon sifatida baholanadi.

**Xalillayeva Go'zaloy Mo'minjon qizi, Abdulkarimova Fotima Bahramovna,
Rajabova Nilufar Egamberganovna (UrDU o'qituvchilari)
MATEMATIKA O'RGANISHDA MULTFILMLARNING TUTGAN O'RNI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarning multfilmlarni ko'rish orqali qanday qilib harflar, raqamlar, ranglar, shakllar va narsalarni o'rganishlari mumkinligi va ularning matematik savodxonlikni oshirishdagi roli muhokama qilingan. Undan tashqari, multfilmlarning yaratilish tarixi haqida alohida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, o'quvchilarga matematikani o'rganishlari uchun ko'pgina multfilmlar tavsiya qilingan.*

***Аннотация.** В статье рассматривается вопрос о роли мультипликации в обучении учащихся буквам, цифрам, цветам, формам и объектам, особенности того, как обучаются дети, просматривая мультфильмы, а также роль мультфильмов в улучшении математической грамотности. Также особое внимание уделяется истории мультфильмов. Приводятся сведения о мультфильмах, рекомендованных читателям для изучения математики.*

***Annotation.** In this article, it is given how schoolchildren learn letters, numbers, colors, shapes and objects by watching cartoons and their role in improving mathematical literacy. There is also a special emphasis on the history of cartoons. In addition to this, there are some cartoons recommended for pupils to learn math.*

***Kalit so'zlar:** matematik multfilm, multfilm kelib chiqish tarixi, inson shaxsining shakllanishi, mulqot jarayoni.*

***Ключевые слова:** математический мультфильм, история возникновения мультфильма, формирование личности человека, коммуникативный процесс.*

***Key words:** mathematical cartoon, history of cartoon origin, formation of human personality, communication process.*

Multfilmlar o'quvchilarning matematika tashvishlarini pasaytiradi, ularning tasavvur va ijodkorligini ochib berdi, ularga oldingi bilim va tajribalariga tayanishga imkon berdi. Bir holatda ularning orzularini qo'llab-quvvatlaydi, ularni muammolar qo'yishga undaydi. Ularning g'oyalari qadrlanishini ko'rsatadi va ularga matematikani o'qitish va o'rganish ekanligini tushunishga yordam beradi.

Bolalar multfilm ko'rish orqali nimalarni o'rganishi mumkin:

◆O'quv multfilmlari bolalarga harflar, raqamlar, ranglar, shakllar, narsalarni va boshqalarni o'rganishga yordam beradi.

◆Bolalar bosh qahramonning xatti-harakatlarini o'zlashtiradilar. Agar qahramon ijobiy fazilatlariga ega bo'lsa, yaxshi bo'ladi va multfilm yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi farqni tushunishga yordam beradi.

◆Boshqa tildagi multfilmlar xorijiy so'zlarni o'rganishga yordam beradi.

Multfilmlar haqida gapirishdan oldin uning tarixi haqida to'xtalib o'tamiz. Qadim zamonlardan beri odamlar chizilgan rasmlarni "jonlantirishga" harakat qilishgan. Animatsiya haqida birinchi eslatmalar miloddan avvalgi I asrga to'g'ri keladi. Miloddan avvalgi II ming yillikning boshlarida soyali spektakllar Xitoyda paydo bo'ldi. Ular kelajakdagi multfilmlarga juda o'xshash edi. XV asr o'rtalarida, buning uchun maxsus mexanizmlardan foydalanib, odamlarni harakatlanuvchi tasvirlar bilan zavqlantiradigan san'at-

korlar paydo bo'la boshladi. XVII asr oxirida A.Kisher oynada harakatlanuvchi tasvirni ko'rsatadigan "sehrli chiroq"ni ixtiro qildi. XIX asrning oxirida fransiyalik ixtirochi E.Reyna tasvirlarni ketma-ket uzatish prinsipidan foydalangan holda proyektor ixtiro qildi. 1906-yilda kinokamera ixtiro qilingandan so'ng, birinchi multfilm Amerikada ishlab chiqarilgan. Uning muallifi J.Blekton edi. Dastlabki multfilmlar oq-qora va ovozsiz bo'lgan.

Ovozli birinchi multfilm 1928-yilda V.Disney tomonidan yaratilgan. Bu Steamboat Wili multfilmi bo'lgan. Rossiyada volumetrik animatsiyaning asoschisi Vladislav Starevich Aleksandr Alekseevich Xanjonkov kinofirmasida suvda jonli yirtqichlardan kadrli kadrlarni suratga olib, "Tadpole taraqqiyoti" birinchi hajmli animatsion filmi ustida ish boshlaydi. 1911-yilni rus animatsiyasi tug'ilgan yili deb hisoblash mumkin.¹ Multfilm yaratish juda ko'p vaqt talab qiladigan jarayon. Qahramon oddiy harakat qilishi uchun yuzga yaqin rasm chizish kerak. Rasmning sifati yaxshi bo'lsa, multfilm ham shunchalik yaxshi bo'ladi. Tomoshabin ham undan yaxshi xulosa chiqara oladi.

Teslenko Egor aytganidek, "Inson hayotidagi eng ajoyib vaqt – bu bolalik. Ammo u bilan nima bog'liq? Albatta, multfilmlar! Ularda butun avlodlar o'sadi!"²



Shaxs mohiyatiga ko'ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan avlodlar vakili.³

Inson shaxsining shakllanishiga tashqi va ichki, biologik va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Inson taraqqiyotiga ta'sir etuvchi muhim omil bu muloqotdir. Muloqot – bu odamlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishda, shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda namoyon bo'ladigan shaxs faoliyatining universal shakllaridan biri.⁴

Kichkintoyni yaxshi multfilm tomosha qilayotganiga qarang. Uning yuzida – butun his-tuyg'ular va tajribalar ko'rishingiz mumkin. Kichkintoy multfilm tomosha qila turib, u qahramon bilan kuladi, qoshlarini chimiradi, achinadi, multfilm qahramonlari bilan birgalikda tanish qo'shiq so'zlarini takrorlaydi. Yaxshi multfilmlar bolaning o'sib voyaga yetishida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yaxshi multfilm orqali bola ota-onasiga munosabatni va do'st tanlashni o'rganadi, o'rtoqlarga yordam berishga va kuchsizlarni himoya qilishga, saxiy va ahil bo'lishga, ota-onalar va bobo-buvilarni sevishga, ko'plab qiyin vaziyatlardan chiqish yo'lini topa olishni va bolalik qo'rquvidan xalos bo'lishni o'rganadi. Undan tashqari, kichkina tomoshabin tomosha qilayotgan multfilmda yovuzlik jazolanishining yana bir tasdig'ini topadi va yaxshilik doimo g'alaba qozonadi.

Bundan tashqari, kichkina tomoshabin multfilm ko'rish orqali matematikani ham o'rganadi. Bola multfilmda sanashni, 10 ichida arifmetik amallar bajarishni, geometrik figuralarni o'rganadi. Bu orqali bola maktabga qadam qo'ygandan keyin matematikani bemalol qiyinchiliklarsiz o'zlashtira oladi. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida matematikani multfilmlar orqali qay darajada o'rganayotganlik-




¹ Aloqa o'rnatish va matematikani boyitish uchun multfilmlardan foydalanish. Janet Sent-Kler, Alabama shtati universiteti, jstclair@alasu.edu, 2018-yil.

² "Multfilmlarning bolaning rivojlanishiga ta'siri. Zamonaviy multfilmlarning bolaning ongi va ruhiyatiga ta'siri". Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Teslenko Egor Sergeevich, 2014-yil, 6-bet.

³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 14-jild, 2005-yil.

⁴ F.I.Xaydarova, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. Toshkent, "Innovatsiya-ziyo", 2021.


larini o'rganish maqsadida Xorazm viloyati Urganch shahar 6-son umumta'lim maktabining 2-sinf "Matematika fanida multfilmlarning tutgan o'rni" mavzusida maqola bo'yicha anketa-so'rovnoma o'tkazdik. Anketa-so'rovnomadani oldin ularga qisqa epizodli "Qiziqarli matematika" multfilmni qo'yib berdik. O'quvchilar bilan multfilmni tahlil qildik.



1. Siz multfilmlarni ko'rasizmi? a) ha; b) yo'q.
2. Qachon multfilm ko'rishni afzal ko'rasiz?
a) ertalab; b) tushlik paytida; c) kechqurun
3. Kim bilan multfilm tomosha qilasisiz?
4. Qanday multfilmlarni ko'rishni xohlaysiz?

5. Matematika fanidan necha bahoga o'qiysiz?
6. Siz multfilm ko'rish orqali matematikadan nimalarni o'rgandingiz?
7. Qaysi sevimli qahramoningiz sizga sanashni o'rgatdi?
8. Multfilmda siz arifmetik amallarni to'g'ri bajarib kimga yordam berdingiz?
9. Matematikada tushunmagan masalangizni multfilm orqali berilgan paytida tushunib olganmisiz?
10. Sizing sevimli multfilmingiz qanday nomlanadi?

Biz so'rovnoma shaklida tadqiqot o'tkazdik. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, barcha bolalar multfilm ko'rishni yaxshi ko'radilar. Biz buni diagrammada sinflar kesimida quyidagicha izohladik. Bundan ko'rinib turibdiki, diagrammada o'quvchilar so'rovnomadani o'tgandan keyin ularning javoblariga qarab tuzilgan.



Moviy rangda – multfilm orqali matematikani o'rganayotgan o'quvchilar, bu o'quvchilar matematikani obrazlar asosida ko'rib, tushunib o'rganib boryapti.

Qizil rangda – matematikani tushunmaydigan lekin matematik multfilmni sevib ko'radigan o'quvchilar. Bu o'quvchilar ham sonlarni narsa – predmetlarga, masalalarni o'zining sevimli qahramonlari obrazlar asosida multfilmlarda aks ettirib yechayotganini ko'chirib o'quvchining o'zida ham katta qiziqish uyg'onadi.

Yashil rangda – fantastik multfilmlarni ko'radigan o'quvchilar. Bunday o'quvchilarda fanlarga nisbatan sustkashlik kuzatilishi mumkin.

Bu orqali biz o'quvchilar multfilmlar orqali matematikani qay darajada o'rganayotganliklarini bilishdan iborat edi. Bundan tashqari, biz ularga “Qiziqarli matematika”, “Sehrli geometrik shakllar orolchasi”, “Quvnoq do'stlar”, “Qiziqarli matematika 2”, “Ziyakbola” kabi multfilmlarni tafsifiya qilamiz.

**Matkarimov Azamat Farhod o'g'li (Urganch davlat universiteti stajor tadqiqotchi;
e-mail: azamat.m@urdu.uz)**

TA'LIM JARAYONINING ESTETIK POTENSIALI VA TALABALARNING IJODIY TAJRIBASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada badiiy va pedagogik faoliyatning o'xshashligining muhim xususiyatlari ko'rsatilgan, o'quv jarayonining estetik salohiyati ochib berilgan, talabalarning bilim va ijod go'zalligiga sezgirligini rivojlantirish belgilari va shartlari ko'rsatilgan.

Аннотация. В статье рассмотрены важные черты сходства художественно-педагогической деятельности, раскрыты эстетические возможности образовательного процесса, признаки и условия развития у учащихся чуткости к красоте познания и творчества.

Annotation. The article shows the important features of the similarity of artistic and pedagogical activities, reveals the aesthetic potential of the educational process, the signs and conditions for the development of students' sensitivity to the beauty of knowledge and creativity.

Kalit so'zlar: badiiy-pedagogik faoliyat, o'qituvchi, obraz, pedagogik loyiha, estetik-potensial o'lchov, pedagogik-loyihalash, o'qituvchi-innovator, estetik did, pedagogik takt.

Ключевые слова: художественно-педагогическая деятельность, учитель, образ, педагогический проект, эстетико-потенциальное измерение, педагогическое проектирование, педагогический такт.

Key words: *artistic and pedagogical activity, teacher, image, pedagogical project, aesthetic-potential measurement, pedagogical-design, teacher-innovator, aesthetic taste, pedagogical tact.*

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning zamonaviy bosqichi o'quvchi shaxsi shakllanishida erkinlikni ta'minlashning yangi qirralari ochib berilayotganligi bilan tavsiflanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning asarlarida "Ta'lim va ma'rifat tizimini takomillash-tirish mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq ekanini biz yaxshi anglaymiz", deya ta'kidlagan.¹

Bugun mamlakatimiz taraqqiyotining yangi yo'lida fan va ta'lim sohalariga innovatsiya g'oyalarni tatbiq etish zarurati 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham o'z aksini topgan. Jumladan, "Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyoj-lariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ta'kidlangan.²

Estetik potentsial – obyekt yoki madaniy hodisaning go'zallikni – insonni tasdiqlaydigan kechin-malar, munosabatlar, hodisalar, uning muhim tamoyillari – axloq, ma'naviyat (oddiydan yuqoriga ko'ta-rish), subyektivlik, yaxlitlik, ijodkorlik va boshqalarni san'at sifatida aktuallashtirish qobiliyati. Uning ye-takchi vazifasi, inson tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat o'z imkoniyatlari (potensial)ga ko'ra, san'atga yaqinlashadigan boshqa ko'plab ijtimoiy-madaniy insonni shakllantiruvchi sohalar mavjud.

Bu soha, shubhasiz, shaxsni "ta'rifi bo'yicha" shakllantiradigan ta'lim bo'lishi kerak. Agar u biron-bir sababga ko'ra, insonning butunligini takrorlamasa, balki o'z vazifasini faqat fanlarni o'rganishda, "ax-borot bilan ishlashda", o'rnatilgan harakat usullari va hayot normalari bilan tanishishda ko'rsa, u yo'qo-tish xavfini tug'diradi, uning estetik salohiyati, u bilan birga bilim ko'nikma va malakalari hosil bo'ladi.

Ta'lim jarayonining estetik salohiyati – bu talabalar tomonidan ta'lim mazmunini yaxlit hissiy-majoziy idrok etish va uning insoniy ma'nolarini qabul qilish qobiliyatidir. Insonni tarbiya vositasida bunday yuksaltirish, ma'naviyatga yetkazish, agar estetika qonuniyatlari ta'lim tizimini didaktik qonu-niyatlar bilan uzviy birlikda qurish (loyihalash)da amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Pedagogik loyihalash – o'qituvchining eng muhim kasbiy funksiyasi bo'lib, uning faoliyatining keng doirasi, pedagogik maqsadni belgilash, ta'lim mazmunini tanlash, uni o'zlashtirish texnikasi va tex-nologiyalarini ishlab chiqish, o'quv va tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish, birgalikda amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Talabalar bilan ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy loyihalar – bu holda ta'lim jarayonini loyihalash-da eng muhim ko'rsatmalardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan estetik qonuniyatlar.

Bularga quyidagilar kiradi: insonlar ongi, faoliyati va xulq-atvorida estetik qadriyatlarining amal qi-lish qonuniyatlari; san'at asarlarini yaratish qonuniyatlari; san'at asarlarini tushunish va talqin qilish.

Estetika qonunlari va tamoyillarining inson xatti-harakatlarini boshqa tartibga soluvchilardan farqi, birinchi navbatda, ularning umumbashariylik, ya'ni, qonun yoki axloq normalaridan farqli o'laroq, har qanday hodisa, harakatlarga nisbatan qo'llanilishi tushuniladi.

Ta'lim jarayoniga estetika prizmasi orqali nazar tashlasak, bu umuminsoniy qonuniyatlar ta'lim jarayoniga xos ekanligiga bejiz ishonish imkonini beradi. Bu, birinchi navbatda, pedagogik faoliyat va ba-diiy asar yaratish o'rtasidagi keng o'xshashliklarda namoyon bo'ladi. Rassom (san'at arbobi) badiiy obraz dunyosini yaratadi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya bilan band, ya'ni u ham inson obrazini yaratadi, lekin badiiy emas, virtual emas, balki butunlay tirik, aktyorlik qiladi. Shu bilan birga, yozuvchi o'z qahramonlarining "hikoya satrlari"dan ko'ra, o'zi yaratgan "mahsulot" va bu dunyoda qilgan harakatlari uchun ustozning zimmasida yanada kattaroq mas'uliyat yuklanadi. Shunday qilib, pedagogik va badiiy ijodning birligi va o'xshashligi badiiy-pedagogik faoliyatning ma'lum bir muhim birligiga asoslanadi.

Har ikki holatda ham insonning yaxlitlik sifatida yaratilishi haqida so'z yuritamiz:

◆birinchi holatda u badiiy obraz sifatida, tipik va ayni paytda, shaxs sifatida ijodkor yaxlitligini o'zida mujassam etadi;

¹ Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017, 31-bet.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli farmonining 1-ilovasida keltirilgan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»[Elektron resurs]. <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>.

◆ikkinchi holda, xuddi shu narsa faqat spektaklda emas, balki real hayot sujetida sodir bo‘ladi va shaxsning qiyofasi emas, balki shaxsning o‘zi shakllanadi, garchi, ehtimol, odamlarning qiyofasi va o‘xshashligida hozirda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanadilar”.

O‘qituvchi faoliyati yagona tushuncha bilan singib ketganda, har qanday harakatning maqsadga muvofiqligi va o‘z vaqtida bajarilishi ta‘minlanganda, ya‘ni, o‘qituvchi faoliyatining individual tizimi insonparvarlik sifatida shakllansa, tarbiyaviy voqea badiiy asarga o‘xshaydi.

Mahsulot boshqa mavzu tomonidan va boshqa sharoitlarda ko‘paytirilmagan. Bu borada esa samarali o‘qituvchining faoliyati san‘at bilan qiyoslanishi bejiz emas. Har qanday badiiy asar, siz bilgani- ngizdek, muallifning ijodiy o‘zini-o‘zi rivojlantirish mahsuli, dunyoni individual qayta ko‘rib chiqish, bu holda, pedagogik haqiqatdir.

Pedagog faoliyatining eng muhim tartibga soluvchisi badiiy-estetik o‘lchov hissi bo‘lib, u o‘zini badiiy jarayon doirasida qoldirish, o‘z faoliyatining estetik ma‘nosi, yuksakligini va ongsiz ravishda his qilish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Bu me‘yordan tashqariga chiqish badiiy asarni siyosiy risolaga, psixologik tadqiqotga yoki talabani (tomoshabin, tinglovchini) tarbiyalashga tahdid soladi. Keyin esa san‘at, nozik badiiy o‘yin, badiiy obraz yaratish yo‘qoladi va boshqa narsa – fan, siyosat, didaktika yoki shunchaki kundalik hayot paydo bo‘ladi.

Pedagogik takt deb talabalar faoliyatining turli doiralarida ular bilan muloqotda bo‘lishning pedagogik tamoyili, o‘lchovi hamda talabalar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘g‘ri muloqotda bo‘la olish malakasi.¹

Pedagogik ta‘sirida pedagogik maqsadga muvofiqlik, adekvatlik, axloq va uyg‘unlik o‘lchovi, yaratilgan pedagogik vaziyatlarni insonning hayoti va rivojlanishiga jalb qilish, ikkinchisining subyektivlik o‘lchovi, uning o‘z rivojlanishidagi ishtiroki. Bu pedagogik taktikaning darslik xususiyatlarida aks ettirilgan. “Insonga, imkon qadar, ko‘proq talablar, shu bilan birga, uni hurmat qilish”, shuningdek, talabani o‘zini-o‘zi qadrlashini pasaytirmaydigan va “insonning o‘zini-o‘zi qadrlashiga” ta‘sir qilmaydigan “qisman”, mahalliyashtirilgan baholar foydasiga global baholashni rad etishni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik jarayonning ushbu nozik uyg‘unligi va estetikasini buzish, pirovardida, yo o‘qituvchining asossiz hukmronligi va hamma narsaga qodirligiga olib keladi, bu esa u bilan talabalar o‘rtasida to‘siq yaratadi va o‘qituvchining taniqli “emotsional charchash sindromi”ni keltirib chiqaradi. Talabalarning xulq-atvorida o‘zgarishga olib keladi, bu esa, o‘z navbatida, ularni og‘ishlarga, ijtimoiy yo‘nalishni yo‘qotishga, pedagogik maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarga olib keladi.

O‘qituvchi, afsuski, kamdan kam hollarda o‘z talabalari bilan “janjallashib”, ular uchun har qanday ma‘muriy jazoni talab qilib yoki men? ”yoki u”, talabani xulq-atvorini o‘z irodasiga bo‘ysundirishga urinish, uning kuchi va ustunligini isbotlash yoki, aksincha, uning injiqliklariga berilish va hokazo. Bir so‘z bilan aytganda, o‘qituvchi bu dunyodagi o‘z missiyasini unutganda, pedagogik haqiqat yo‘q qilinadi.

Pedagogik faoliyatning estetik xususiyatlari o‘qituvchi pedagogik tizimini yaratganda eng to‘liq namoyon bo‘ladi, bunda pedagogik tushuncha pedagogik jarayonning har qanday “burilishlari”ga moslashgan pedagogik texnikaning uyg‘un, eksperimental tekshirilgan tarkibini oladi. Mualliflik, o‘zini anglash istagi, improvizatsiya va ijodkorlik o‘qituvchiga ham xosdir. O‘qituvchi o‘zini, rejasini, pozitsiyasini, individualligini ifoda etishga, o‘zini talabalarga ular uchun muhim hayot sherigi sifatida ko‘rsatishga intiladi. “Men hech qachon maktabga bormasdim, deydi taniqli o‘qituvchi-innovator E.N.Ilin, agar meni faqat yozuvchining ichki dunyosi qiziqtirgan bo‘lsa. Men ham o‘zim uchun qiziqman.”⁵

Muallif tizimi o‘qituvchi tomonidan uning individual va tipologik fazilatlariga eng mos keladigan, ta‘limning zamonaviy tendensiyalarini, ijtimoiy to‘liq amalga oshiradigan texnika va usullarni uzoq va sinchkovlik bilan tanlash orqali yaratiladi. Agar barcha o‘qituvchilar yuqoridan berilgan ko‘rsatmalarni takrorlasa, ulardan chetga chiqishdan qo‘rqib, doimiy ravishda hisobot yozsa, ta‘lim, shubhasiz, o‘zining ijtimoiy samaradorligini yo‘qotadi. Keyingi sertifikatlash uchun o‘z portfelini “to‘plang”, afsuski, ular, ko‘pincha, ular bilan band.

O‘qituvchining pedagogik tizimi, xuddi badiiy asar kabi, o‘qituvchining “ijodiy izlanishlari” va izlanishlarida yaratilgan bo‘lib, u fidoyilikni, ishtiyoqni, qaror qabul qilishda jasoratni, haqiqatni izlashni, shubha va muvaffaqiyatsizlik tajribasini ham o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining mehnat tizimida badiiy asardagi kabi holizm qonuniyatlari amal qiladi, unda “shakl va mazmun birligi mavjud. Badiiy matnning

¹ N.N.Azizxo‘jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma, 154-bet.

⁵ Ильин Е.Н. Рождение урока. М., 1986.

har bir turi o'ziga xos qonuniyatlarga muvofiq tuziladi va ularga mos kelishi kerak. Haqiqiy san'at asarida hech narsani qo'shib yoki ayirib bo'lmaydi.

Yuqori darajada tashkil etilgan pedagogik faoliyatda aynan shunday bo'ladi: u yerda hamma narsa o'z vaqtida va o'z joyida sodir bo'ladi.

Nihoyat, ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirishning eng muhim qonunlari tarkibida to'liq ro'yobga chiqqan A.S.Pushkinning "daho va yovuzlik"ning nomuvofiqligi haqidagi mashhur g'oyasida ifodalangan yana bir estetik qonuniyatni hisobga olishimiz kerak. O'qituvchining ta'lim san'at sifatida insonni tasdiqlaydi va shuning uchun yaxshi xulqli bo'lishi mumkin. O'qituvchi shaxsidagi har qanday axloqiy nuqson uning pedagogik sa'y-harakatlarini qadrsizlantiradi, bu talabada, A.S.Makarenko aytganidek, o'zi ega bo'lmagan narsani rivojlantira olmaydi. O'qituvchi o'quvchi ongiga ezgulik, axloqiy izlanish, dunyoni idrok etish, hayotning ma'nosini tushunish tajribasini o'rgatadi.

Pedagog-novator E.N.Ilinning yana bir fikrini eslayman: "Agar o'qituvchi ruhiy tashvishlarning og'ir yo'lidan o'tmasa, u o'z darslarini qaysi materialdan foydalanib o'tadi? Bu "tashvish yo'li" o'z-o'zini rivojlantirish bosqichlari hisoblanadi. Differensial psixologiya asoschisi B.M.Teplovning mashhur g'oyasini ifodalab, shuni aytishimiz mumkinki, yagona ma'nosi akademik samaradorlik va intizomni saqlashdan iborat bo'lgan pedagogik faoliyat hisoblanadi. Insonning go'zal, ya'ni, bir xil bo'lgan muhim fazilatlarini ifodalash ham badiiy, ham pedagogik ijodning yagona mahsulidir.⁶

Shunday qilib, pedagogik faoliyatning estetik tamoyillari, asoslari va qonuniyatlarini izlash, biz ko'rib turganimizdek, insonni yaratish jarayonining chuqur mexanizmlarini tushunishga, ta'limni insonparvarlashtirishning yangi manbalari va yo'nalishini topishga imkon beradi.

O'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirish ta'limning yangi sifatining asosiy manbayi hisoblanadi.

Ta'lim jarayonining estetik imkoniyatlarini nima belgilaydi?

Shartli ravishda, biz ushbu salohiyatda uchta tarkibiy elementni ajratamiz:

– o'qituvchining o'zining estetik imkoniyatlari (mahorat, estetik did, individuallik);

– o'quv jarayoni mazmuni va shakllarining estetik yo'nalishi (o'quv faoliyatining ijodiy turlarining ustunligi, mustaqil kashfiyotlar muhiti va bilish ma'nolarini aks ettirish, badiiy manbalarga murojaat qilish, metafora va boshqa badiiy usullardan foydalanish va boshqalar);

– talabalarining estetik sezgirligi (umumiy madaniyat, bilimdonlik, hissiylik, go'zallik bilan muloqot qilish tajribasi, badiiy ijodga moyillik).

O'qituvchi mehnatining estetik jozibadorligi uning mahoratiga asoslanadi. Agar o'qituvchi "jiddiy" ishlasa, ijodiy tasavvurida erkin bo'lsa, ochiq, ixtirochi bo'lsa, darsning yuqori elementidan foydalansa, ta'lim jarayonining estetik imkoniyatlari dolzarblashadi. O'qituvchining estetik salohiyati uning badiiy bilimiga, san'at haqidagi bilim va tushunchasiga, estetik didiga bog'liq bo'lib, fikrlarning uyg'unligi, yorqinligi va o'ziga xosligi, so'zning mahorati, fan va san'atning nufuzli arboblarga murojaat qilishning o'rinliligi, o'ziga xosligi, badiiy ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liqdir.

Tashqi ko'rinish va xatti-harakatlarning estetikasi – o'qituvchining estetik imkoniyatlari uning pedagogik takti va mutanosiblik hissida namoyon bo'ladi, bu darsning har bir detalining maqsadga muvofiqligi, ijodiy, xayrixoh muhit, har bir talabani qo'llab-quvvatlash, o'zini namoyon qilish uchun sharoit yaratishda namoyon bo'ladi.

Estetik madaniyat tashuvchisi sifatida o'qituvchi tashqi ko'rinish va xulq-atvor estetikasi, hazil tuyg'usi, reaksiyalarning adekvatligi, zukkoligi, tashqi ko'rinish va vaziyatning mosligi, jozibali muloqot uslubi bilan ajralib turadi.

O'qituvchining estetik qobiliyatlari, eng avvalo, darslarining go'zalligida namoyon bo'ladi. Darsni nima chiroyli va ijodiy qiladi?

Fan tarixida haqiqat va yolg'on o'rtasidagi kurash, fan taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchisi sifatida olim shaxsi, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining haqiqatni himoya qilishga tayyorligi, tafakkurdagi qoliplardan voz kechish, dadil g'oyalar va dadil fikr yuritish ko'rsatib beradi.

Qarorlar qabul qilish, o'tmishdoshlar tajribasini qadrlash, boshqalarning fikrini hurmat qilish, bilimlarni qo'llash oqibatlarini uchun javobgar bo'lish, ilmiy kashfiyotning go'zalligini his qilish, olimlarning o'zlarining san'atga munosabati misollarini muhokama qilish, darsda dono fikr va metaforalardan foydalanish orqali dars chiroyli va ijodiy bo'ladi.

Agar idrok etuvchi va boshdan kechiruvchi subyekt bo'lmasa, go'zallik sodir bo'lmaydi. Talabalarining go'zallikka moyilligi ularning go'zallik bilan muloqot qilish tajribasi, o'qishi, bilimdonligi, badiiy

⁶ Shu manba.

san'at asarlarini bilishi, musiqa va san'at maktablari, havaskorlik to'garaklarida olingan qo'shimcha ta'limning mavjudligi bilan bog'liq. Go'zallikka bo'lgan bunday sezgirlik, shuningdek, go'zallikni his qilish va o'z his-tuyg'ularini og'zaki ifodalash, mulohazalar va baholashlar, badiiy asarlar – adabiy matnlar va rasmlar, klassik va zamonaviy musiqa, teatr, kino asarlarini bilish va tushunish qobiliyati bilan bog'liq.

Talabalarning badiiy sezgirligining eng muhim sharti – ular san'atning voqelikni sensorli-ma'juziy idrok etish quroli sifatidagi mohiyatini tushunishlari, ichki dunyoni badiiy obrazda ifodalash usuli sifatida, ya'ni, ijod mahsuli sifatida ichki dunyosini aks ettiruvchi va u bilan muloqotda bo'lganlarda "yaxshi tuyg'u"larni uyg'otadi.

Estetik idrok etuvchi talabalar turli davr va elatlarning badiiy an'analarini biladi, haqiqiy go'zallikni yuzaki go'zallikdan ("glamur") ajrata oladi, idrok etish va tushunish qobiliyatiga ega (chiroyli va xunuk, fojiali va kulgili, yuksak va asosli, qahramonlik va oddiy).

Darsning go'zalligi bevosita talabalarning ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga bog'liq. Shu bilan birga, talaba uchun mustaqil kashfiyot ilhom manbayi, o'zining aybsizligini isbotlash, o'z yo'lini tanlash va g'alabalarni qo'lga kiritish imkoniyatini anglashdir.

Estetik tajribaga yo'l, ko'pincha, rolli o'yinlar va biznes o'yinlari orqali ochiladi, bunda doimo raqobat mavjud. Darsda jamoaviy raqobatbardosh ish shakllaridan foydalanish talabalarning muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondiradi va ular uchun darsning jozibadorligini oshiradi. Bunga loyihalar, taqdimotlar yordam beradi, talabalarga o'zlarining badiiy yutuqlari va sevimli mashg'ulotlarini namoyish etish imkoniyatini beradi! Chiroyli dars yaxshi kitobga o'xshaydi, siz uni unutilmaysiz va unga qayta-qayta qaytishni xohlaysiz!

Ibadullayeva Nigora Egamberganovna (Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası katta o'qituvchisi; ibadullayevanigora@gmail.com),

Ibadullayev Saburjan Egamberganovich (UrDU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası o'qituvchisi)

XORAZM KULOLCHILIK VA KOSHINPAZLIK SAN'ATIDAGI AN'ANAVIY TEKNOLOGIYALARNING O'ZIGA XOS USLUBLARI VA ESTETIK TA'SIRCHANLIGI

***Annotatsiya.** Maqolada Xorazmda kulolchilik san'ati, koshinpaz ustaning koshin tayyorlash jaryonida foydalaniladigan tuproq, bo'yoq va asboblari haqida ma'lumotlar beriladi. Usta Rayimberdi Matchonovning Xorazm amaliy bezak san'ati, ayniqsa, koshin san'ati rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi.*

***Аннотация.** В статье представлена информация о гончарном искусстве Хорезма, почве, красках и инструментах, которые использовал мастер-гончар при изготовлении изразцов. Обсуждается вклад мастера Раимберди Матчанова в развитие декоративно-прикладного искусства Хорезма, в частности изразцового искусства.*

***Annotation.** The article provides information about the art of pottery in Khorezm, the soil, paints and tools used by the master in the process of making tiles, as well as, Master Rayimberdi Matchanov's contribution to the development of Khorezm applied decorative arts, especially tile art.*

***Kalit so'zlar:** bezak, tarakota, tuproq, koshin, taxbun, lojuvard rang, usta Rayimberdi Matchonov, madohili naqsh.*

***Ключевые слова:** декор, терракота, грунт, плитка, тахбун, цвет ладжувард, мастер Раимберди Матчанов, узор мадохили.*

***Key words:** decoration, tarakota, soil, tile, tahbun, azure color, Master Rayimberdi Matchanov, pattern "madohili".*

O'rta Osiyo xalqlari hayotida xalq amaliy san'ati muhim o'rin tutgan. Shu jihatdan ham xalq amaliy san'ati tarixini o'rganish O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy hayoti, unda yuz bergan o'zgarishlar to'g'risida atroflicha tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Bu davrda O'rta Osiyo xalqlari amaliy san'ati o'ziga xos bosqichga ko'tarilgan bo'lib, mamlakat iqtisodiyotida muhim o'zgarishlar sodir etilishiga sabab bo'lgan. Hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati ushbu xalqlarning iqtisodiy holatini ko'rsatib beruvchi omillardan biri bo'lib, asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar sifatida davlat taraqqiyotiga hissa qo'shgan.

Mamlakatimizning xalq amaliy san'ati tarixini, ayniqsa, kulolchilik san'ati tarixini o'rganish muhim amaliy ahamiyatga egadir.

1997-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atni yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni barcha sohalar qatorida kulolchilik an‘analarini rivojlantirishda samarali turtki bo‘ldi.¹

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash yuzasidan bir qancha qarorlar qabul qilindi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 17-noyabr kuni “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonini imzoladi.² Bu farmon barcha hunarmandlar uchun katta imkoniyatlar yo‘lini ochib berdi.

Xorazm viloyatining Xonqa va Yangiariq tumanlari usta kulollari bilan mashhur. Mahalliy ustalar yasagan kulolchilik mahsulotlari xalqaro ko‘rgazmalarda munosib e’tirof etib kelinmoqda.

Xalq hunarmandchiligining asrlar osha sayqal topib kelayotgan ushbu turini yanada rivojlantirish maqsadida Yangiariq tumanlari Kattabog‘ qishlogida kulolchilik markazi barpo etildi.

Adabiyotlar sharhi. Saidahbor Bulatovning “O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati” nomli o‘quv-metodik qo‘llanmasida usta Rayimberdi Matchonovning Xorazm kulolchilik maktabining shakllanishidagi beqiyos xizmatlariga to‘xtalib o‘tgan.³

G.A.Pugachenkova va L.I.Rempellarning 1958-yilda nashr qilingan “Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана” kitobida me‘morchilik san’atining rivojlanishi va me‘morchilik san’atida qo‘llanilgan koshin san’ati, me‘moriy bezaklar shakllanishi xususida so‘z yuritilgan.⁴

G.A.Pugachenkova va L.I.Rempellarning 1960-yilda nashr qilingan “Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана” kitobida O‘zbekiston hududida kulolchilik san’atining rivojlanish bosqichlari xususida so‘z yuritilgan. Kitobda O‘rta Osiyo keramika texnologiyasining muhim qismi bo‘lgan glazur va bo‘yoqlar va ularning kulolchilikda ishlatilishi haqida qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Keramika uslublarining davrlar mobaynida o‘zgarib borish jarayonlari yoritilgan.⁵

E.M.Pesherovalar o‘z tadqiqotlarida O‘rta Osiyo hududidagi kulolchilik san’ati va kulolchilik ishlari tarixini o‘rganishga e’tibor qaratib, qadimgi va o‘rta asrlardagi kulolchilik ishlari tarixiga baho bergan.⁶

Tadqiqot metodologiyasi. Vatanimizning ko‘hna kulolchilik maktablarida saqlanib kelayotgan an‘anaviyliklar, albatta, hozirgi kunda amaliy san’atni rivojlantirish pallasida muhim o‘rin kasb etadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, an‘anaviylikni saqlab qolish har qanday san’at yo‘nalishida o‘ta muhim hisoblanadi, chunki an‘anaviylik bu o‘ziga xos mustahkam poydevordir.

XX asrda boshlaridan bugungi kunlarimizgacha Xorazmda Xiva, Madir (Xonqa yaqinidagi qishloq) va Kattabog‘ (Yangiariq) kulollar maktabi faoliyat ko‘rsatmoqda. Xorazmda bu qadimiy san’at avloddan avlodga an‘ana tariqasida o‘tib kelgan va hozirgi kunda ham rivojlanib, takomillashib kelmoqda.

Ushbu maqolada usta Rayimberdi Matchonovning Xorazm amaliy bezak san’ati, ayniqsa, koshin san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi, uning hayoti va ijodi haqida qisqacha to‘xtalib otiladi.

Tadqiqotimizni asoslashda eski va zamonaviy manbalarga tayandik. Biz mavzuni tushuntirishda qo‘l kelishi mumkin bo‘lgan ilmiy farazlarga e’tibor qaratdik. Biz tadqiqotimizni yoritishda hozirgi davrda ijod qilib kelayotgan kulol ustalarning fikr-mulohazalariga tayandik.

Tahlil va natijalar. O‘zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an‘analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o‘ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo‘lsa-da, uning ko‘rinishi qismlarning aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmuninig birligi, uyg‘unligi o‘zbek kulollarining jahonga tanitib kelmoqda.

Kulolchilik charxi miloddan avvalgi 3 ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug‘ullana boshlaganlar. Keyinchalik, loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o‘choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

Xorazmning me‘morchilik maktabi o‘ziga xos asl va yaxlit yo‘nalish kasb etgan. Qariyb har bir me‘morchilik yodgorligi u xoh bir detall yoki ornament bo‘lsin, xoh bir kichik hujracha bo‘lsin, xoh sha-

¹ Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. T., «Toshkent oqshomi», 2-aprel, 1997, 38-son.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 17-noyabr 2017-yil.

³ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. Тошкент, “Меҳнат”, 1991, 284 – 292-бетлар.

⁴ Пугаченкова Г.А., Рempel Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. Т., 1958, с. 30 – 36.

⁵ Shu manba.

⁶ Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. М.–Л., 1989, с. 240.

har yoki qishloqdagi turar joy binosi bo'lsin, hatto yirik me'morchilik binosi bo'lsin, ularning har biri yagona bir badiiy uslub bilan bezatilgan bo'lib, bu uslub XVII–XX asrlarda yashagan Xorazm ustalarining o'ziga xos mahoratini ko'rsatib turadi.

Xorazm kulolchilik san'atiga katta hissa qo'shgan ustalardan biri Raimberdi Matjonovdir. Raimberdi Matjonov–Xorazm badiiy kulolchilik maktabi O'zbekiston amaliy bezak san'atida alohida o'rin tutadi.

Raimberdi Matjonov Xorazmning qadimiy kulolchilik markazlaridan biri Madir qishlog'ida 1909-yili kulolchilar oilasida dunyoga keldi. O'sha davrda Madir qishlog'ida o'n besh kulolchilik ustaxonasi bo'lib, ularda saksondan ortiq kulollar ishlar edi. Koshin pishirishda o'sha davrda nom qozongan ustalar Usta Bolta Matrizayev, Bolta Vaisov, Matjon Qulmatovlar bor edi. Matjon kulolning o'g'li Raimberdi o'z otasidan kulolchilik sir-asrorlarini o'rgana boshladi. U, avval, loydan har xil o'yinchoqlar, shakllar yasagan bo'lsa, keyinchalik, ixcham bodiya, koshinni o'rgandi. Kulolchilik sir-asrorlarini olti yil deganda o'rganib, Eshim kulolning oq fotihasini oldi. O'zi mustaqil idish va koshinlar ijod qila boshladi.¹

Shu tariqa, usta o'zining tajribasini rivojlantirib, yildan yilga kulolchilik va koshinpazlik texnologiyasini mukammallashtira bordi. U shu o'rgangan naqshlarini kulolchilik buyumlariga qo'llashga astoydil intilib, XIX–XX asr Xiva koshinkorlik an'analarini boyitadigan buyumlarda ham, koshinda ham uch xil oq, yashil, lojuvard ranglardan foydalandi.

Usta sirni o'zi tayyorlardi. Qoraqumga borib, chog'on yoki kirchop yig'ib, darhol o'sha joyda yoqib kulini ustaxonaga olib kelib, maydalangan shisha uniga qo'shadi. Ya'ni, uch qism kulga bir qism shisha kukuni qo'shiladi. Uch qism kulga bir qism shisha kukuni qo'shiladi. Uni biror idishda suv bilan aralashtirib tayyorlangan koshinga yoki bodiyaga surtiladi. Keyin bodiyani o'tda pishirishda o'sha yumaloq suyuqlik o'tga tashlanadi. U o'tda bodiyaga urilib, rangini o'zgartiradi. O'sha qum kukunini suv bilan aralashtirib, sovutiladi hamda tozalanadi. Unga un va ozgina mis oksidi qo'shib tayyorlaydi, so'ngra bodiya sirtiga surkaydi. Kulol Raimberdi Matjonov shu texnologiya asosida loydan xum, ko'za, tog'ora, chanoq, choynak, piyola, oftoba, bodiya va boshqa xilma-xil badiiy buyumlar tayyorladi.


O'zbekiston xalq ustalari birlashmasi Raimberdi Matjonov ustaxonasida hunarmandchilik maktabi ochtirib, u yerda hunarmandchilik sir-asrorlarini o'rgatdi.

Ko'p yillik tajriba va kuzatishlar davomida, ma'lum bo'lishicha, qadimiy koshinlarni tayyorlashda koshinpazlar, eng avval, tuproq tarkibida tuz, ohak, temir va boshqa moddalar bo'lmasligini ta'minlaganlar.

Darhaqiqat, bunday tuproqni tanlash uchun, avval, o'z mehnati va san'atini e'zozlagan koshinpaz ustaning o'zi jon kuydirib, qadimiy tepaliklar va suv qatlamidan tashkil topgan jarliklarda uchraydigan tuz, ohak, temir moddalar bo'lmagan tuproqni topgan. Xorazmda ham, asosan, bu tuproq maxsus joylardan (Xivadagi Avaz duvnaq qishlog'idan) tuproq keltirilgan. Tuproqdan bir qism olib, kaftida uqalab tashlaganda, qo'lda qolgan tuproq yuqini (o'rtacha nafas bilan) puflagan. Agar tuproq toza bo'lsa, gard qolmay uchib ketgan. Agar tuproq tarkibida yuqorida aytilgan va boshqa moddalar bo'lsa, qo'lida gardi qolgan.

• barcha juft tugunlar orasidagi eng qisqa yo‘lni aniqlash masalasi. Har bir x tugundan har bir y tugungacha bo‘lgan eng qisqa yo‘lni aniqlash talab etiladi.

Qaralayotgan masalalar, faqatgina ikkita tugun orasida joylashgan qirra uzunligi orqali emas, balki ularga qo‘shimcha bo‘lib vaqt birligi, qiymat, sarf-xarajat, ishlatiladigan resurs hajmi yoki bulardan tashqari ham boshqa muhim xarakteristikalar, belgi, parametrlar asosida berilishi mumkin. Shunday qilib, eng qisqa yo‘lni aniqlash masalasini ishlab chiqish, xalq xo‘jaligi, iqtisodiyot, telekommunikatsiya va h.k. jabhalarda u yoki bu ko‘rinishda o‘z o‘rnini topishi, joriy etilishi mumkin.

Tadqiqotlarda statik parametrlar bo‘yicha eng qisqa yo‘llarni topish masalalarini yechish algoritmlarining murakkablik darajasi bo‘yicha tahliliy jadvali keltirilgan.

4-jadval

Statik parametrlar bo‘yicha eng qisqa yo‘llarni topish algoritmlari

Algoritmning nomi	Murakkablik darajasi	Muallif
Ford algoritmi	$O(V^2E)$	Ford 1956
Belman va Ford algoritmi	$O(VE)$	Belman 1958, Mur 1957
Densig algoritmi	$O(V^2 \log V)$	Densig 1958, Densig 1960
Dijkstra algoritmi	$O(V^2)$	Leyzorek 1957, Deykstra 1959
Gabova algoritmi	$O(E \log E/VL)$	Gobov 1983, Gabov 1985
Axudja algoritmi	$O(E + V \sqrt{\log L})$	Axudja 1990
Jonson algoritmi	$O(E \log \log L)$	Jonson 1982, Karlson va Poblete 1983
Dijkstra algoritmini Binariy xip bilan qo‘llanilishi	$O((E + V) \log V)$	-
Dijkstra algoritmini Fibanachiy xip bilan qo‘llanilishi	$O(E + V \log V)$	Fridman va Taryan 1984, Fridman va Taryan 1987

Marshrutlarni tanlash masalasi va eng qisqa yo‘l topish masalalari tushunchalari bir-biriga juda yaqin tushunchalar bo‘lib, marshrutlarni tanlash masalasida bir joydan boshqa joyga borishda faqat yo‘lning minimum bo‘lishi yetarli emas, boshqa parametrlarni ham inobatga olib yechish nazarda tutilsa, eng qisqa yo‘lni topishda yo‘lning uzunligini inobatga olib masalani yechish talab etiladi. Ammo, eng qisqa yo‘lni topish masalasi marshrutizatsiya masalasining xususiy holi hisoblanadi va marshrutizatsiya masalalarini ushbu masalaning yechimlari yordamida mukammal yechimlarini topishda foydalanish mumkin. Eng qisqa yo‘llarni topish masalasi juda ko‘p masalalarning qism masalasi sifatida keng qo‘llaniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, maqolada birinchilar qatori eng maqbul yo‘llar zahirasini aniqlashning uchlari, qirralari orasidagi bog‘lanishlar ko‘p parametrlil funktsional bog‘lanishli dinamik holatlar uchun tadqiq etilgan.

Хамдамова Ханифа (ЖПИ)

“РУСТАМХОН” ДОСТОНДАГИ ФЕЪЛ СЎЗ ТУРКУМИГА ХОС СЎЗЛАРНИНГ МЕТАФОРАЛАШУВИ

Аннотация. Мақолада халқ бахшиси Фозил Йўлдаш ўғлининг куйлаган “Рустамхон” достонида метафорик маъно ҳосил қилишда феъл сўз туркумига оид лисоний бирликлардан қай даражада фойдалана олганлиги аниқланган. Мазкур бирликларнинг достон бадииятини юқори чўққига кўтаришда этик воқеанинг образи ва халқона тасвирлашда, экспрессивликни кучайтиришда таъсирчан омил сифатида қўллай олганлиги достон матни орқали таҳлил қилинган.

Аннотация. В статье раскрывается, что в эпосе «Рустамхан», воспетом народным поэтом Фозил Юлдаш оглы, им мастерски использовались глагольные языковые единицы для создания метафорического значения. Посредством анализа текста эпоса установлена способность этих единиц выражать образ эпического события в развитии дастанного искусства, усилении выразительности и в качестве влиятельного фактора народной изобразительности.

Annotation. The article reveals that in the epic “Rustamkhan”, sung by the folk poet Fozil Yuldash oglu, he was able to use the linguistic units of the verb to create a metaphorical meaning. The text of the epic analyzes the ability of these units to use the image of an epic event in the development of epic art and as an influential factor in international figurativeness, to enhance expressiveness.

Калим сўзлар: бахши, шоир, достон, феъл, метафорик маъно, эпик воқелик, образ, экспрессивлик, лексема, услуб, маҳорат ва ҳ.к.

Ключевые слова: сказитель, поэт, эпос, глагол, метафорическое значение, эпическая реальность, образ, экспрессивность, лексема, стиль, мастерство и др.

Key words: bakhshi, poet, epic, verb, metaphorical meaning, epic reality, image, expressiveness, lexeme, style, craftsmanship, etc.

Халқ бахшиси метафорик маъно ҳосил қилишда мазкур лисоний усулдан фойдаланиб, достон бадииятини яна-да юқори чўққига кўтаришда, эпик воқеани образли ва халқона тасвирлашда, экспрессивликни кучайтиришда таъсирчан омил сифатида қўллаш олган. Бинобарин, “Феълларнинг метафоризациялашгани фақат матндагина аниқлаш мумкин бўлади. Чунки субъект, объект ва предмет ўртасидаги грамматик феълнинг қандай маънада қўлланилаётгани ҳақида ҳукм чиқариш мушкулдир”.¹

Ушбу илмий мулоҳазаларнинг амалий тасдиғини аниқлаш учун достон матндаги метафораларнинг лисоний хусусиятларига қисқача тўхталамиз. Дастлаб, қуйидаги матнга эътибор қаратайлик: Мен **тирилиб**, қўзим билан келаман, // Қайтадан ўлдирма сендай муштинлар (442). Ушбу жумладаги **тирилмоқ** феъли ўзининг номинатив маъносидан чекиниб, эпик қаҳрамондаги муайян ҳолатнинг интенсивлиги туфайли нуқтаи назардан метафорик ҳосил қилганлигини кузатамиз. Нуфузли луғатларда **Тирилмоқ** феълнинг генетик асосидаги семаларнинг қурилиши қуйидагича изоҳланган: 1) диний тасаввурга кўра, жони кириб, қайтадан яшай бошламоқ; 2) ўлим ёқасидан қайтмоқ, ўлимдан қолмоқ; қайта жонланмоқ; 3) қайтадан кўкариб ўса бошламоқ; жонланмоқ; 4) қайта ишга тушмоқ, юришиб кетмоқ, жонланмоқ” кўринади.² **Тирилмоқ** феълнинг генетик асоси 2-семадаги “қайта жонланмоқ” семаси асосида достон матнида метафорик маъно ҳосил қилган.

Достондаги бош қаҳрамон Рустамхоннинг барча хатти-ҳаракатлари, руҳияти, шижоати ва бошқаларга бўлган муносабатининг эпик баёнида бахши юксак гоъвий-бадийлик ва анъанавийлик асосида ўта таъсирчан-образли тасвирлашда феъл метафоралардан салмоқли фойдаланган. Бу ўринда **тошмоқ** лексемаси қатнашган қуйидаги матнларга эътибор қиламиз: “**Тошиб** кетсин Рустамжоннинг гайрати, // Назарларда сенсан, боламнинг оти (375); Сен борасан йўлда кўнглимни хушлаб, // Бу йўлларда ўзинг дарёдай **тошиб**, // Қарамайсан жуда ақлинг шошиб (378); Отингни жилловидан ушлаб тўхтатганига жуда гайрати **тошиб**, аччиги келган эди (378); Ўтдай туташиб, отини қимчиб бобога яқинлашиб, Рустамнинг гайрати **тошиб**, бир ўз айтиб турган экан (402)”. Ушбу матнлардаги **тошмоқ** лексемасининг генетик асосларини аниқлаш учун нуфузли луғатлардаги маълумотларга мурожаат қиламиз. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да: 1) қирғоқдан ошмоқ, қирғоқдан ошиб, атрофга ёйилмоқ, атрофни босмоқ; 2) ўз қобиғи, идишидан тўлиб, ортиб, сиртга чиқмоқ; 3) жўш урмоқ, ошиб кетмоқ, ошиб тошмоқ, тўлиб тошмоқ; 4) тутакшишмоқ, қизишмоқ; 5) баданда пайдо бўлмоқ, юзага тепмоқ, чиқмоқ³ тарзида шарҳланган. Ўз-ўзидан маълум бўладиги, юқоридаги матнда **тошмоқ** лексемасининг генетик асоси 3-сидаги “жўш урмоқ, тўлиб тошмоқ” маъноларини кучайтириш учун метафоризациялашган. Бунинг сабаби шуки, халқ бахшиси достон ижросида ўз тингловчиларининг кизиқишини яна-да орттириш, улар диққатини ўзига табора жалб этишни асосий мақсад қилиб қўйганлигидир. Бу ҳол ижодкор халқимизнинг маънавий мероси бўлмиш анъанавий достонлар ижросидаги етакчи усул ва зарурият саналадики, ундан фольклоршунос мутахассислар яхши хабардор.

Гап **тошмоқ** лексемасининг достон матнида метафоризациялашув ходисаси сифатида қўлланганлиги ҳақида борар экан, “метафора нафақат ўхшашлик асосидаги кўчим сифатида, балки эллипсис натижасида ҳосил бўлишини⁴ ҳам эътиборга олишимиз зарур. Таҳлил этилаётган юқори-

¹ Каримов С. Зулфия асарлари лингвистикаси. Самарқанд, СамДУ нашри, 2006, 136-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик, 4-т, Тошкент, ЎзбМЭ, 2008, 110-бет.

³ Шу манба. 161-бет.

⁴ Шукуров И. Эллиптик йўл билан нутқий метафораларнинг содир бўлиши. “Ўзбек тили тили ва адабиёти”, Т., 1974, 3-сон, 69-бет.

даги матннинг 2-сида *тошиб* лексемаси ҳам эллипсис натижасида кўчма маъно ҳосил қилган: аниқроғи, “ўхшатиш конструкцияси тобе компоненти билан кўмакчи сўз эллипсисга учраб”,¹ метафорик кўчма маъно ҳосил бўлган.

Лексик мазмунига кўра, *тошмоқ* сўзи муайян суюқликка хос хатти-ҳаракат ифодаси саналади. Лекин бу матнда эпик қаҳрамон Рустамхоннинг хатти-ҳаракатидаги ҳолатнинг интенсивлиги ва бардавомлиги туфайли унинг фаолиятига кўчирилган ва бахши дoston тингловчилари учун кучли ҳиссий таъсирчан восита ясаган. Агарда матндаги мазкур гапни асл ҳолатига келтирсак, *сув каби тошди* шаклига эга бўлиши аниқ. Бу ўринда ўхшатиш объекти – *сув*, ўхшатиш воситаси – *каби* кўмакчиси тушириб қолдирилиб, *тошди* лексемаси нуткий метафорага айланиши муқаррар. Асл матндаги *ғайрати тошиб кетсин, дарёдай тошиб, ғайрати тошиб* тарзида эмас, балки нуткий метафорага хос *тошиб кетди, дарё каби тошди, ғайрати тошди* тарзида ифодаланиши мумкин. Халқ бахшисининг сўз танлаш маҳорати шундаки, дostonлар ижросидаги анъанавийликка таяниб, ўзига хос услубдаги импровизация асосида *тўлди* лексемасидан муайян ҳодиса, жараёнларнинг “яширин” хусусиятларини дoston тингловчилари кўз ўнгида қизиқарли ифодалаш мақсадида унинг ёрқин ва ишончли тасвир баённи бера олаган, оқибатда, дoston ижросида юксак даражадаги бадий-эстетик таъсирчанликни оширишга эришган. Бинобарин, “ижодкор метафорик маъно ҳосил қилишда нарсалар, ҳодисалар жараёнларининг ошкор ва яширин хусусиятларини турли томондан, турли мақсад ва нуқтаи назардан олиб бориш заруриятидан, уларга, мумкин қадар, аниқ, ёрқин, оригинал сифат бериш, чинакам эстетик қиммат бағишлаш мақсадини ўз олдига қўяди”.² Бу ўринда алоҳида қайд этмоқ лозимки, дoston ижрочиси *тошди* лексемасини ўз ўрнида қўллаш орқали ўзи куйлаган асарига бадий-эстетик қиммат бағишлаган, балки дostonнинг бош эпик қаҳрамони Рустамхоннинг душманлардан кўркмаслиги, олдига қўйган мақсадга эришишдаги матонатлилиги, кучли, ғайратлилиги ва жўшқинлиги каби инсоний фазилатларни дoston тингловчиларига қизиқарли қилиб етказа олган. Бундай лисоний омиллар бахшисининг сўз танлашдаги маҳоратини аниқлашда муҳим аҳамият касб этади.

Халқ бахшисининг “Рустамхон” дostonида кўчма маъно ҳосил қилишдаги услубий маҳоратини феъл сўз туркумига оид метафоралардан унумли фойдаланган хилма-хил матнларда кузатиш мумкин, албатта. Бу ўринда, биз яна бир *тилади* феъл лексемасининг лисоний хусусиятларини кўздан кечириш билан чегараланамиз. Куйидаги матнларга диққатни жалб қиламиз: “*Холисона қилган хизматингга мақсадингни тила мендан! –деди. Шунда Тоғай айтди: мен сендан нима тилайман! Бир нима оламан деб хизмат қилган бўлсам, тиласам тузук эди. Сиз ҳам бир нима берсангиз, холисона берсангиз менга. Бизга тила деманг (417); “Сўзини эшитиб, Офтобой тонг ёришгунча йиғлаб, ҳожатини тилаб, муножот қилиб ўтирди (431)”*.”

Матндаги *тиламоқ* лексемасининг генетик семасини бирданига аниқлаб олиш бироз баҳс-талаб. Дастлабки жумладаги *тила* феъл лексемасининг генетик асоси “бирор истак, тилак, ният билдирувчи, сўз айтмоқ, гап айтмоқ” маъносини бўрттириш учун кўчма коннотатив маъно ҳосил қилган. Кейинги жумлалардаги *тилайман, тиласам, тила* лексемалар матндаги маъно-мазмунига кўра, юқоридаги кўчма маънога зидлик қиляпти. Охирги жумладаги *тилаб* феъл лексемасининг генетик асоси “хоҳламоқ, истамок” маъноларини ифодалашга хизмат қилган. “Ҳозирги ўзбек тилида *тиламоқ* семаси тингловчини “садақа” беришга ундаш амалини билдиради, деб таъкидлайди тилшунос олим И.Кўчқортоев. Бу сема таркибида “садақа” семаси имплицит мавжуд. Гапирувчи (тингловчи) нутқ адресатини (тингловчини) қандай амалга ундаши бу феъл маъносидан яққол сезилиб туради. Шунинг учун биз уни кеузациялашган амал турини имплицит кўрсатувчи нутқий даъват феъллари қаторига киритдик. Ҳозирги тилда *тиланмоқ* феъли ҳам “садақа” беришга ундаш амалини ифодалашга хосланган”.³

¹ Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. ном. дис. автореф., Т., 2005, 275-бет.

² Мирзаева Н. XX аср шеърлятида метафорик образ муаммоси. Филол.фан.ном... дис., Тошкент, 2006, 26-бет; Сулаймонов Б.Н. Темирбек Тўрабоевнинг “Теорема” романида “Т” товуши билан бошланувчи сўзларнинг метафоралашуви ва фразеололашуви. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси, Самарқанд, 2020, 64-бет.

³ Кўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. Т., “Фан”, 1977, 137-бет.

Кўрамизки, юқорида берилган матндаги дастлабки ва энг охириги жумлалар лексик қуршовда *тиламоқ* феъл лексемаси ўзининг генетик семасини бироз кенгайтириб, ифода семалари ҳисобига метафорик кўчма маъно ҳосил қилган.

“Халқдан йиғилган *тўсат-тўсат*, *даста-даста* лашкар тарқаб кетган. Элу халқ оч-ялангоч, бари **тентираб** қолган (356); Бир подшо отам бўлса, унинг зулмидан **тентираб** чиқиб кетган одамман (421); Иккови мунгайиб гоҳ ерда туриб, **тентираб** қолганди беэга бўлиб (428). Достон матнида олинган мисоллардаги *тентирамоқ* феъл лексемасининг генетик асоси: 1) бир аниқ мақсадсиз кезиб юрмоқ, бекорга санқиб, вақт ўтказмоқ, кезмоқ; 2) сарсон-саргардон бўлмоқ, саргардонликда юрмоқ; 3) кезмоқ; эсмоқ; изғимоқ; 4) чарчаш, касаллик ва шу каби натижасида чайқалиб юрмоқ, гандиркаламоқ; 5) нима қилишини билмай қолмоқ, ўзини йўқотиб қўймоқ, саросимага тушмоқ, эсанкирамоқ” семаларига тегишлидир.¹

Аниқроқ айтганда, матннинг биринчи жумласидаги *тентираб* феъл лексемасининг генетик асоси “подшо лашкарлари сарсон-саргардон бўлмоқ” семасига суянган ҳолда “бекор юрибди” маъносидаги метафорик мазмун ҳосил қилмоқда, яъни, кўшин-лашкарларнинг тарқалиб кетишига ишора қилинган бўлса, 2-гаптаги *тентираб* феъл лексемасининг генетик асосидаги “бекорга санқиб юрмоқ” семасига асосан, “изғиб юрмоқ” маъносида метафоралашган. Матннинг охириги гапида *тентираб* лексемасининг генетик асосидаги “санқиб юрмоқ” семасига асосан “ўзини йўқотиб қўймоқ” маъносида метафорик маъно ҳосил қилган. Матннинг биринчи жумласидаги *тўсат-тўсат* лексемаси адабий тилимизда жуда кўп қўлланади, унинг бошқа бир варианты – *тўсатдан* равиши тилимизда анча фаол. Мазкур лексеманинг генетик асосидаги: 1) хаёлга келмаган ҳолда, қутилмаганда; 2) ғайриихтиёрий равишда; бехосдан, бирдан; 3) сездирмай туриб, бирдан, дабдурустдан² семасидаги “ғайриихтиёрий равишда” маъноларини кучайтириш учун метафоризацияшган. Матнда *тўсат-тўсат* лексемаси билан биргаликда қўлланилган *даста-даста* лексемасининг генетик асослари қуйидагиларга бориб тақалади: 1) дасталанган нарсанинг миқдордан кўплиги; 2) тўда-тўда, тўп-тўп; 3) устма-уст тахлаб пачкаланган нарсанинг миқдордан кўплиги; 4) устма-уст қилиб терилган, тахланган семаларидир.³ Тахлилга жалб этилган матндаги *даста-даста* лексемаси семалари иккинчисидаги “тўда-тўда, тўп-тўп” маъносини кучайтириш орқали метафорик маъно ҳосил қилган, холос. Кўрамизки, бахшининг достон ижросида ўзининг халқона тафаккури ва имровизацияси натижасидаги сюжетнинг тафсилотларини эпик баён этишда муайян тушунчаларни ифода-лаш учун сўз танлаш эркинлиги чекланмаган.

Умуман олганда, достон куйловчиси ўз ижросидаги эпик баёнда хилма-хил коннотацияли оккозионал кўчма маънолар, метафорик маънолар ҳосил қилишда феъл метафоралардан унумли фойдалана олган, бахшининг сўздан фойдаланиш маҳорати достон матннинг бадий-эстетик қимматини оширишга, прагматик мақсадларни юзага чиқаришга хизмат қила олганлигидан далолат беради.

**Nurmanov Furqat Ismoilovich (Navoiy davlat Pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchi; e-mail: nurmonov.f@gmail.com)
JAMIYAT TARAQQIYOTINING TIL SATHLARIGA TA’SIRI**

Аннотация. Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotining til sathlarida aks etishi, o‘zbek tili fonetikasi shakllanishida yevropa fonetik talqinlarining ta’siri tahlil etilgan.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние европейских фонетических интерпретаций на развитие общества на языковых уровнях, а также вопрос о формировании фонетики узбекского языка.

Annotation. This article analyzes the influence of European phonetic interpretations on the development of society at the language levels, the formation of the phonetics of the Uzbek language.

Kalit so‘zlar: fonetika, fonologiya, fonema, adabiy til, alifbo, imlo.

Ключевые слова: фонетика, фонология, фонема, литературный язык, алфавит, орфография.

Key words: phonetics, phonology, phoneme, literary language, alphabet, spelling.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик, 4-т, Тошкент, ЎзбМЭ, 2008, 66-бет.

² Шу манба. 246-бет.

³ Шу манба. 1-т, Тошкент, ЎзбМЭ, 2006, 571-бет.

Kirish. Tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar ikki xil bo'ladi: tabiiy hamda subyet aralashuvi natijasi-da. Til sathlaridagi o'zgarishlarga jamiyatdagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Aslida, tadqiqotchilar fikricha, jamiyatda har bir o'zgarish, avvalo, til sathlarida o'z aksini topadi.

Turkiy tillarning fonetik tizimi hozirgi kunga qadar qanday o'zgarishlarga uchraganligi to'g'risida tadqiqotchilar o'sha davrda yaratilgan yozma yodgorliklarni o'rganish, ularni qiyoslash asosida tegishli ilmiy-nazariy xulosalarga kelishgan. Shuningdek, adabiyotlarda til sathlaridagi o'zgarishlarga ma'lum siyosiy tuzum manfaatlari sabab bo'lganligi ham keltiriladi va bunday sabab ma'lum bir millat til taraqqiyoti yuksalishining sustlashishiga hamda jahon tillari orasida o'z mavqeyini yetarlicha egallashiga to'siq bo'ladi

Jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan allomalarning til sathlari va ulardagi o'zgarishlarga ijtimoiy voqelikning ta'siri haqidagi qarashlari bugungi davr tilshunosligi tadqiqi yo'nalishini to'g'ri belgilash uchun asos bo'ladi.

Asosiy qism. O'zbek tili tarixiga doir adabiyotlarda turkiy tillar tovush tizimining boshqa tillardan, xususan, arab tilidan farq qilishi Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy ilmiy merosida isbotlanganligi aytilgan. Arab va fors tillarini mukammal egallagan bu allomalar turk (o'zbek) tili fonetik tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan. Alisher Navoiy tovushlarning artikulation-funksional tomoniga e'tibor qaratib, fonema va harf munosabatini izohladi. Alloma nafaqat turkiy tilda takrorlanmas badiiy ijod namunalari yaratuvchisi, balki bu tilning fonetik tizimini tadqiq etgan dastlabki tilshunoslardan biridir. Alisher Navoiyning XV asrdayoq harf bilan tovush boshqa-boshqa hodisalar ekanligini, tovushlarning so'zlarni moddiy jihatdan shakllantirish va farqlash vazifalari borligini g'arb tilshunoslaridan ancha oldin farqlaganligidan dalolatdir.

Lingvistik tadqiqotlarda tilshunoslikning alohida bo'limi sifatidagi fonetikaning shakllanishi XX asr boshlariga to'g'ri keladi, deb ko'rsatiladi. Ilmiy adabiyotlarda biror tilning fonetikasini o'rganish tilshunoslikning boshqa tarmoqlariga nisbatan ertaroq boshlanganligi keltiriladi. Demak, fonetika tilshunoslik bo'limlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular tadqiqi uchun asos bo'ladi.

Tilshunoslik tadqiqotlariga oid ishlarda o'zbek tili fonologiyasining shakllanishida Alisher Navoiyning roli beqiyosligi e'tirof etilsa-da, tilshunoslikka fonema atamasini va fonema nazariyasi Boduen de Kurtene tomonidan olib kiritilgan va uning shogirdlari tomonidan rivojlantirilgan deb qaraladi. Shu bois Yevropa olimlari tomonidan tilshunoslikka olib kiritilgan fonema nazariyasi asosida o'zbek tili fonologiyasi shakllandi, rivojlandi va yangi bosqichga ko'tarildi, deb uqdiriladi.

Zahiriddin Bobur tilning tovush materiyasi va strukturasi bilan bog'liq bo'lgan fonema, oppozitsiya va pozitsiya hodisalarini o'z vaqtida payqagan, ularni izohlashga, tushuntirishga harakat qilgan.

Demak, tilshunoslikki oid tadqiqotlarda ko'rsatilganidek, nutq tovushlarining sifat va miqdor belgilari, tovush va harfning farqli jihatlari XIX asrga kelib emas, o'zbek tilshunosligida ancha oldin aniqlangan. Fonema atamasi ishlatilmagan bo'lsa-da, tovushlarning ma'no farqlash xususiyati mavjud ekanligiga ishora qilingan.

XX asr boshlarida O'zbekistonda adabiy til, alifbo, imlo va istiloh (termin) masalalariga e'tibor ancha kuchayadi. Shu masalalar doirasida o'zbek adabiy tili tovushlari tizimini belgilashga ham jiddiy kirishiladi. 1919-yilda A.Fitrat boshchiligida til-imlo va adabiyot masalalari bilan shug'ullanuvchi to'garak-seminar «Chig'atoy gurungi» jamiyati tashkil topadi va bu jamiyat faoliyatida alifbo va imlo masalalari alohida o'rin tutadi. Jamiyat a'zolari fonema nazariyasi asosida o'zbek tili unililar miqdorini 9 yoki 10 ta emas, 6 yoki 5 ta deb hisoblashgan.

1921-yildagi alifbo masalalariga bag'ishlangan qurultoyda Fitrat undoshlar uchun 23 harf qabul qilishni taklif etadi va bu taklif ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. 1923-yilda Buxoroda O'rta Osiyo o'zbeklarining alifbo va imlo masalalariga bag'ishlangan birinchi konferensiyasida o'zbek alifbosiga sirg'aluvchi "j" undoshi uchun "j" harfi kiritiladi, shu tariqa, o'zbek tili undoshlari miqdori 24 taga yetkaziladi.

Qayum Ramazonning "O'zbek tilining birlashgan imlo qoidalari" risolasidan 30-yillarning o'rtalariga kelib, o'zbek tilshunosligida unilarning fonologik tavsifiga nazariy asosda yondashish holatlari ham paydo bo'lganligini anglash mumkin. Risolada unilarning tor va kenglik xususiyatlari so'z ma'nosiga ta'sir etishiga misollar keltirib, "fonema" terminini qo'llaydi.

Ma'lumki, o'zbek yozuvi tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Adabiyotlarda keltirilishicha, XX asrda o'zbek yozuvining bir necha shakllari iste'molda bo'ldi: arab grafikasi asosidagi, lotin grafikasi asosidagi, rus grafikasi asosidagi, ikkiyozuvlilik (rus-o'zbek va lotin-o'zbek alifbosiga) asoslangan yozuv. Alifboning bunday tez o'zgartirilishi turli sabablar bilan izohlandi. Alifboning har safar yangilani-

shida foydalanishda bo'lgan shaklining davr talabiga mos kelmasligi, yangi qabul qilinayotgan alifboning afzalligi, imlo va savod chiqarishda qulayliklari turli tomondan ta'riflanadi.

O'zbek yozuvini lotin grafikasidan rus grafikasi asosidagi yangi alifboga ko'chirish barcha xalqlarning rus tili va rus alifbosiga juda qiziqib qarayotganligi, rus tilining dunyodagi eng katta davlatlar tomonidan rasmiy til sifatida tan olinganligi va o'sha davlatlarda o'qitilayotganligi, rus tili orqali o'zlashgan va o'zlashtirilayotgan xalqaro so'zlarning talaffuz xususiyatlarini o'zbek yozuvida to'g'ri ifodalash imkoniga ega bo'lishi bilan izohlandi.

M.Mirtojiyev, N.Mahmudov tomonidan e'lon qilingan "Til va madaniyat" monografiyasida yozilishicha, o'zbek tilining mavqeyi 1917-yildan keyin ma'lum shart-sharoitlar ta'sirida, o'zbek xalqining qarama-qarshiliklarga boy ijtimoiy hayoti zahirida nihoyatda ayanchli bir holga kelib qoldi.¹

O'zbek xalqi rus grafikasi (kirillitsa)ni qabul qilgunga qadar, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar o'zbek tili qurilishiga moslanib o'zlashtirilgan. Rus alifbosiga o'tilgach, rus tili va bu til orqali o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar o'sha tilda qanday yozilsa, shundayligicha o'zlashtirish qonunlashtirildi. Bu esa bir tilda ikki imloli yozuv paydo bo'lishiga olib keldi. Natijada savod chiqarish yanada murakkablashdi.

Avval, o'zbek tiliga fors, arab tillaridan so'z o'zlashib, talaffuz va imlodagi qiyinchiliklar keltirib chiqargan bo'lsa, keyinroq bu holat rus tili va rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda yuzaga keldi.

Professor B.Mengliyevning yozishicha, ma'lum siyosiy maqsad asosida amalga oshirilgan bunday o'zgarish milliy tilshunosligimiz yo'nalishini ham o'zgartirgan. Natijada istilochilarning mahalliy xalqlar tili, urf-odati, madaniyatini o'rganish asosida o'zlarining madaniyatini mahalliy xalq hayotiga singdirish maqsadi amalga oshdi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun turli qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, lug'atlar tuzildi. "Bu davr tilshunosligi, deb yozadi olim, g'ayriilmiy maqsadlar ro'yobiga xizmat qiladigan "buyurtma"ni ado etishga xizmat qildi".²

Jamiyat taraqqiyoti til sathlarida ham o'zgarishlarga olib keladi. O'zbek tili fonetik tizimi va tahlili tarixiy taraqqiyot o'zgarishlari bilan uyg'unlikda o'zgarib borgan. Turkiy tillar fonetik-fonologik sathida qadimgi turkiy tillar davridan hozirgi kunga qadar yuz bergan o'zgarishlarga, birinchidan, o'zga tillarning ta'siri, ikkinchidan, alifboning muntazam o'zgarib turishi sabab bo'lgan.

O'zbek tilshunosligini ilmiy asosda ishlab chiqish, uni zamonaviy fan sifatida shakllantirishda A.N.Kononov, Y.D.Polivanov, K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetovlarning, o'zbek olimlaridan G'ozim Olim Yunusov, A.G'ulomov, U.Tursunov kabi olimlarning alohida xizmatlari bor.³

O'zbek tili fonetikasining nazariy masalalari, dastlab, V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonov hamkorligida yaratilgan darslikda, so'ngra A.N.Kononovning hozirgi o'zbek adabiy tiliga bag'ishlagan ishida berilgan. O'zbek tili fonetikasini yaratgan mazkur tilshunoslar, asosan, ruslar bo'lganligi orqasida rus tilidagi ayrim fonetik qonuniyatlarni o'zbek tiliga ham tatbiq etib yuborganlar. Bu, ayniqsa, so'z urg'usini dinamik, deb qayd etilishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Vaholanki, o'zbek tilidagi so'z urg'usi kvantitativdir. Oliy o'quv yurtlari uchun chiqarilgan o'zbek tili darsliklarida berilgan tavsif yuqoridagilardan farq qilmaydi.⁴

Sharq va Ovroqpa tilshunoslari ilmiy yutuqlarini puxta o'rgangan A.Fitrat o'zbek tili fonemalarini akustik-artikulatsion xususiyatiga ko'ra, ikki guruhiga bo'lib, unliga qarama-qarshi qo'yilgan sinfni unisizlar deb atagan. Bu o'zaro zidlangan atamalar fonemalarning akustik belgisiga ko'ra tasniflanishini juda to'g'ri aks ettiradi.

Professor A.Nurmonovning yozishicha, o'zbek tilshunosligiga rus tilshunosligining ta'siri natijasida rus tilshunosligidagi "согласные" atamasi aynan tarjima qilinib, undoshlar atamasi bilan yuritila boshlagan. Bu atama un belgisiga ko'ra, undan iborat bo'lgan unilarga qutbiy zidlanuvchi uni bo'lmagan tovushlar guruhiga emas, balki ikki qutb o'rtasida turuvchi jaranglilar mohiyatiga to'g'ri keladi.⁵

2013-yilda professor M.Mirtojiyev tomonidan nashr etilgan "O'zbek tili fonetikasi" kitobida o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari tahlil qilinib, hozirgi kunga qadar o'zbek tilshunosligida yaratilgan nazariy tadqiqotlarga nisbatan olim o'z fikrlarini bildirib, xulosalarini bayon qilgan: "O'zbek tilidagi so'z urg'usini o'zbek yoki turkiy tillar tilshunoslari o'rganar ekan, rus tilidagi bor qarashlarini unga tatbiq etib yuboraverishgan. Rus tilidagi so'z urg'usi bo'g'indagi unlining akustik intensivligiga bog'li ekanligi

¹ Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. Toshkent, 1992.

² Mengliyev B. Tilshunoslikning amaliy masalalari. Toshkent, 2020.

³ Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. Toshkent, "Fan", 2013.

⁴ Shu manba.

⁵ Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent, "O'zbekiston", 2002.

uchun, u dinamik urg‘u deb qaralgan. O‘zbek tili fonetikasi bilan, dastlab, ruslar shug‘ullanishgan. Shuning uchun ular shunga qiyosan o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usini ham dinamik urg‘u deb yuborgan”. Undan keyin so‘z urg‘usi haqida fikr yuritgan o‘zbek tilshunoslari ham ularga ergashishgan. Masalan, A.G. G‘ulomovning urg‘uga bag‘ishlangan asarida ham, V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonovlarning “Fonetika”sida ham, hatto A.Mahmudovning nomzodlik dissertatsiyasida ham o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usi dinamik urg‘u deb ko‘rsatilgan. Faqat Kissen o‘zbek tilidagi so‘z urg‘usi dinamik ekanligi qat‘iy emasligini, hatto rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar urg‘usi ham ruslardagi darajasida talaffuz etilmasligini ko‘rsatadi. Buni u o‘zbek tilida so‘z urg‘usi shakllanib yetilmaganligiga yo‘yadi”.¹

Shuningdek, olim o‘zbek tilida so‘z urg‘usiga oid yana bir masalaga oydinlik kiritadi. Shu vaqtgacha o‘zbek tilining xususiyatlaridan biri leksik urg‘uning so‘z oxiridagi bo‘g‘iniga tushishi deb hisoblab kelinar edi. Tajribalardan kelib chiqib, olim o‘zbek so‘zlaridagi cho‘ziqlik aksiriyat hollarda birinchi bo‘g‘inga xosligini aniqladi. Demak, amalda qo‘llanilayotgan mavjud qoidaga ham o‘zbek tilining ichki xususiyatidan kelib chiqib, tuzatish kiritish lozim bo‘ladi.

Xulosa. Demak, o‘zbek tili uzoq yillar davomida boshqa tillar, asosan, Yevropa tillari qonuniyatlarini asosida o‘rganib kelindi. O‘zbek tili fonetik tizimi tadqiqotlarda yevropa tilshunosligi yutug‘i asosida talqin etildi. Yevropa olimlari tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan fonema nazariyasi asosida o‘zbek tili fonologiyasi shakllandi. O‘zbek tilining ichki o‘ziga xos jihatlariga yetarlicha e‘tibor qaratilmadi. Natijada o‘zbek tilining o‘ziga xos tabiatidan kelib chiqib, yaxlit milliy til sifatida tadqiq etish zarurati yuzaga keldi. Shuningdek, ma‘lum davrda o‘zga millat mafkurasini barcha millatlar uchun yagona mafkuraga aylantirish g‘oyasini amalga oshirish uchun olib borilgan harakatlar o‘zbek tili taraqqiyoti va tadqiqiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Shuning uchun o‘zbek tili fonetik tizimi uchun muhim bo‘lgan ayrim masalalar o‘zbek tilshunosligida hozirgacha munozarali bo‘lib kelmoqda.

**Rasulov Normurod Atakulovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti
mustaqil izlanuvchisi, katta o‘qituvchi; e-mail: normurod5930@gmail.com)**

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA REALISNING GRAMMATIK KO‘RSATKICHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola realis/irrealis lingvistik hodisasining umumiy tavsifi asosida amalga oshirilgan bo‘lib, ta‘kidlangan hodisalarning leksik, grammatik ko‘rsatkichlari ingliz va o‘zbek tillarida qiyosiy amalga oshirilgan.*

Аннотация. *В основе данной статьи лежит общее описание языкового феномена realis/irrealis, сравниваются лексико-грамматические особенности упомянутых событий в английском и узбекском языках.*

Annotation. *This article is based on a general description of the linguistic phenomenon realis / irrealis, in which the lexical and grammatical features of the highlighted events are compared in English and Uzbek.*

Kalit so‘zlar: *modallik tipologiyasi, zamon, aspekt, aniq yoki noaniq hodisalar, leksik, grammatik ko‘rsatkichlar, obyektiv voqelik, grammatik ko‘rsatkich, grammatik kategoriya.*

Ключевые слова: *типология модальности, время, вид, определенное или неопределенное явление, лексические, грамматические показатели, объективная реальность, грамматический показатель, грамматическая категория.*

Key words: *modality typology, tense, aspect, definite or indefinite phenomena, lexical, grammatical indicators, objective reality, grammatical index, grammatical category.*

Realis – irrealis tushunchasi asosan, modallik tipologiyasi tadqiqotlari mahsuli bo‘lib, ko‘plab mualliflar tomonidan modal munosabatlar bilan bog‘lanadi. Bundan tashqari, an‘anaviy ravishda modallik bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa sohalarni, jumladan, zamon, aspekt, aniq yoki noaniq hodisalarga urg‘u beradigan ma‘lum lisoniy birliklar (kirish so‘zlar, ravishlar)ni qamrab olishi borasidagi qarashlar mavjud.² Shuning uchun realis – irrealis hodisasi talqini borasida turli xil takliflarni ko‘rib chiqish, ma‘lum tillardagi ushbu hodisani anglatuvchi leksik, grammatik ko‘rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish orqaligina

¹Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Ravsulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1980.

²Шлуинский А.В. Вне реалиса и ирреалиса: “семантические немаркированные” глагольные формы. Исследования по теории грамматике. Вып.3. Ирреалис и ирреальность. Гнозис. М., 2004, с. 188 – 211.

ushbu hodisaga aniq baho berish mumkin bo'ladi. Jumladan, U.Cheyning fikricha, realis obyektiv voqe-lik aloqador hodisa sanalsa,¹ Baybi, Perkins va Pagulikalarning ta'kidlashicha, so'zlovchining ma'lumotiga nisbatan tasdig'i muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.² Ularning fikriga ko'ra, ushbu munozaraga tegishli asosiy pozitsiyalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Irrealis – bu bir qator modal bo'linmalarni o'z ichiga olgan o'ziga xos “megamodallik”.

2. Realis va irrealis – bu modallik bilan bir xil hodisa.

3. Realis va irrealis alohida modal kategoriyalardir.

4. Realis va irrealis – modalikka bog'liq bo'lmagan, undan mustaqil hisoblangan “reallik holati” kategoriyasining qiymati.

Ushbu ko'rsatkichlar maxsus konstruksiyalar, leksik-grammatik vositalarning o'ziga xos sxematik ko'rinishida mavjud bo'ladi, kontekst doirasida voqelanadi.

R.Langaker grammatik sxema taqdimoti maxsus konstruksiyalarning ma'lum va aniq kontekstda ishlatilishi bilan bog'liq deb ta'kidlaydi.³ Bunda sxemalar xususiy xarakterga ega sanaladi. Grammatik sxemalar mavhum va umumiy sxemalardan tashkil qilinishi ham mumkin. Biroq, mavhumlikning yuqori darajalarida umumlashtiruvchi dalil topish yanada qiyin bo'ladi. Mavhumlik tildan foydalanuvchilar uchun grammatiklashgan birliklarni turli vaziyatlarda shakllantiradimi yoki maxsus konstruksiyalarni aniqroq ma'no va foydalanish holatlari bilan manipulatsiya qiladimi, bilmaymiz. Ko'pgina tadqiqotlar natijalaridan ko'rinib turibdiki, modallikning juda murakkab sohalari uchun dalillar ikkinchi xulosani tasdiqlaydi.⁴

Irrealis va modallik tushunchalarining ko'p qirraliligi, lisoniy ifodasining o'ziga xosligi va funksional xususiyatlarining turli tumanligi bois mazkur kategoriya borasida aniq va to'liq ta'rifni uchratish qiyin. Tadqiqotchilarning ba'zilar irrealis va modallik kategoriyasini alohida kategoriya degan g'oyani ilgari surishadi.⁵ Ular real yoki real bo'lmagan (irreal) voqea-hodisalarni anglatuvchi har qanday grammatik ko'rsatkichga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblashadi. Mazkur qarashga qarama-qarshi o'laroq, realis yoki irrealis aniq grammatik kategoriyaga ega bo'lmaganligi bois, uni leksik-semantik kategoriyaga qo'shishadi.⁶ Buning sababi oddiy, ma'lum tillarda voqea-hodisalarning ifodalanishida real yoki irreal belgi muhim ahamiyat kasb etadi hamda real voqelik yoki noreal hodisani ko'rsatuvchi maxsus grammatik vositalarning mavjudligi bilan bog'liq. Ammo, barcha tillarda real (aniq) voqea-hodisalarni, irreal (aniq bo'lmagan) voqeliklarni ifodalaydigan lisoniy vositalar, ifoda usullari mavjud. Shuning uchun ham realis/irrealis har bir tilga xos universal hodisa sanaladi. Biroq, har bir til ifodalanish xususiyatlariga ko'ra, realis/irrealis ko'rsatkichlari farqlanishi mumkin. Shuningdek, har qanday tilda irrealis semantikasini anglatuvchi qator lisoniy birliklar (leksik, grammatik va h.k.) mavjud. Ushbu lisoniy birliklar turli morfologik ko'rsatkichlarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, o'zbek tilida irreal ma'noga ega bo'lgan qator fe'l va fe'l birikmalarini keltirish mumkin, masalan, nazarda tutmoq, niyat qilmoq, istamoq, xohlamoq, orzu qilmoq va boshqalar; ingliz tilidagi: *suppose, wish, want, should, would* kabi fe'l va modal vositalar ushbu turkumga kiritiladi.

Ko'plab tillarda irrealis kategoriyasi vaziyatlarning umumiy semantik komponentlarini, turli darajadagi lingvistik birliklarning turli sathdagi konstruktiv birikishini nazarda tutadi. Aksariyat hollarda, irrealisning ma'nosi real voqelikga tegishli bo'lmagan turli darajadagi voqea-hodisalarni ifodalovchi til birliklariga nisbatan ham qo'llaniladi. Shuningdek, irrealis ma'nosini ifodalovchi lingvistik birliklarning turli-tumanligi ularga nisbatan turli xil atamalarning qo'llanishi ham mazkur hodisalarning maqomini belgilash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Ingliz tilida *would, should* va *will* fe'llari faqat modal ma'noga ega fe'llar hisoblanib, so'zlovchining turli xil ma'no bo'yoqlarini ifodalash bilan birga, ba'zi hollarda, noreal voqelik ma'nosini ham anglatadi. Ingliz tilidagi *believe, be sure* kabi fe'llar realis voqelikni anglatish uchun xizmat qiladi. Aksincha, *to seem, to think, to consider* kabi fe'llar esa irrealis voqelikni anglatishi mumkin. Masalan, *Hathall be-*

¹ Chafe W. 1995. The realis-irrealis distinction in Caddo, the Northern Iroquoian languages, and English. J.Bybee, S.Fleischman (eds.). *Modality in Grammar and Discourse*. Amsterdam, Benjamins, p. 364.

² Bybee J. Irrealis as grammatical category. *Anthropological Linguistics*. 40 (2), 1998, p. 257 – 271.

³ Langacker R. *Foundations of Cognitive Grammar. Theoretical Prerequisites*. Stanford. Stanford University Press, 1987, p. 47.

⁴ Shu manba. 137 – 141-betlar.

⁵ Плу́нган В.А. Оронтрафактических употреблений плюсквамперфекта. Исследования по теории грамматики. Вып.3. Ирреалис и ирреальность. Гнозис. М., 2004, с. 278.

⁶ Palmer F. *Mood and Modality*. Cambridge University Press. Cambridge. 2001, p. 294.

lieved he had already left the house; But I think that's what they are doing. O'zbek tilida ekvivalent bo'lishi mumkin bo'lgan qator til birliklari mavjud bo'lsa-da, ushbu birliklar funksional nuqtayi nazardan har doim ham ekvivalent bo'lavermaydi. Ammo, o'zbek tilida irrealis ma'nosi biror leksik birlikka xos bo'lmasdan, ma'lum morfologik qo'shimchalar, kontekst va diskursda namoyon bo'ladi. Masalan, *sababli, tufayli, mumkin, shart* kabi ko'makchi va ravishlar ingliz tilidagi modal birliklar hamda *because, due to, probably, completely* ravishlari ma'no jihatidan mustaqil ma'noga ega bo'lgan fe'llar bilan kelib, harakatni amalga oshirish imkoniyati, zaruriyati, ehtimolligi, qobiliyati, ehtiyoji kabilarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, *She was totally and completely lost and the grayness in the sky was not wholly due to the appalling conditions.*¹

O'zbek tilining istak va shartli munosabatdagi ko'makchi fe'l yordamida yasaluvchi birikmalar hamda taxmin, guvohlik, aniqlikni ko'rsatuvchi ravishlar yordamida yasaluvchi tuzilmalar grammatik shakl jihatdan bir-biriga to'liq mos kelmasligi mumkin. Ammo, ular ishtirok etadigan kontekst realis yoki irrealis hodisalari mavjudligi ko'rsatkich vazifasini bajaradi. Masalan, *Bunaqa ruhi pok odamlar kam bo'ladi, bolam, men bilaman-ku. Ehtimol, shundaydir. Balki, odamlarning dardiga sherik bo'laverib ko'nib ketgandir.*

Zamonaviy o'zbek tilida harakatning norealini ifoda etuvchi morfologik vositalarni maxsus tizimga ajratish masalasi hali ko'tarilmagan. Shunga qaramay, "irreallik" tushunchasi, noreal hisoblangan shart ergash gapli qo'shma gap turlarini tahlil qilish bilan bog'lab ishlatiladi. Bunday murakkab ergash gap ko'rsatkichlari alohida grammatik mayl kategoriyasi sifatida o'rganilib kelgan. Realis/irrealis ushbu kategoriyadan farqli o'laroq, ifodalanadigan voqea-hodisalarni real/irreal lisoniy ko'rsatkichlarini aniqlaydi. Realis/irrealisni tipologik tadqiqotlariga shubha bilan qaraydigan tilshunoslar ham uchraydi. Jumladan, De Xaan realis va irrealisni butun gap tarkibida o'rganishni taklif etadi. Uning ta'kidlashicha, irrealis darak gaplarda kamdan kam uchrashini, bo'lishsiz gaplar esa har doim irrealisga xos hodisa sanaladi.² Ushbu manbalardan ko'rinib turibdiki, shakl jihatdan hamda sanab o'tilgan lingvistik vositalar bilan ifodalanuvchi ma'no orqali irreallik ma'nosini aniqlash barcha tillarda osonroq kechadi. Masalan, *Bilmadim, ehtimol, o'sha oq, oydin kechalarda onam ilk bor qo'linga qalam tutqizgandir. Ehtimol, onalarning so'ngan yulduzlari birlashib, quyoshga aylangandir.* Keltirilgan misollardan dalolatki, o'zbek tilidagi irrealisning ifodalanishi *ehtimol* ravishi bilan – *dir* morfologik qo'shimchasining uyg'unlashuvi mahsuli sanaladi. O'zbek tili narrativ tuzilmalardagi uchinchi shaxsga yo'naltirilgan hikoyaviy matnlar alohida grammatik shakllarga ega bo'lib, shakl anglatadigan realis/irrealis ifodasi aynan o'sha qo'shimchalarga bog'liq. Masalan, *U yurtning lashkari bu yurtnikiga ot suribdi. Bu yurtning lashkari u yurtnikiga bostirib boribdi. Shundoq qilib, desangiz, qirg'inbarot boshlanibdi.* Ushbu narrativ tuzilmada keng qo'llanilgan – *ibdi* qo'shimchasi uchinchi shaxs tomonidan real hodisa sifatida bayon etilgan.

Ko'rinadiki, o'zbek tilidagi ba'zi morfologik qo'shimchalar real voqelik va irreal hodisalarni farqlovchi ko'rsatkichlar tarzida baholash mumkin. Ingliz tilida realis/irrealis hodisalarini grammatik ko'rsatkichlarini aniqlashda zamon va aspekt shakllariga ko'p bor murojaat etilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Xususan, hozirgi zamon davom fe'li bilan ifodalanadigan voqelik realis hodisasiga xos deb baholanadi. Masalan, *How can I help? I, uh, I am just looking round.* Ushbu misolda adresant o'zi bajaryotgan ishni voqelik borasida yetkazayotgan ma'lumot real voqelik hisoblanadi.

Aniqlashadiki, o'zbek va ingliz tillarida reallikni ifoda etish usullari sifatida ma'lum qo'shimchalardan tashqari, hozirgi zamon, fe'l mayllari, real modallik, shartli gaplarning turlari va boshqalarni kiritish mumkin.

Ernazarova Sapura (Ajiniyoz nomidagi NDPi)
BERDAQNING MA'NAVIY MEROSIDA INSON MASALASI

Annotatsiya. Maqolada Berdaqning ma'naviy merosida inson masalasiga e'tibor qaratilishi alohida ta'kidlangan. Unda shoirning insonning yaralishi haqidagi qarashlari, odam va inson kategoriyalarining qiyosiy tahlili, insonning burchi, jamiyatdagi uning vazifasi, insonning eng asosiy majburiyatlari atroflicha izohlangan.

¹ Mithun M. On the Relativity of Irreality. Modality in Grammar and Discourse. Benjamins. Philadelphia. 1995, p. 371.

² De Haan F. On representing semantic maps. University of Arizona, 2004, p. 58.

Аннотация. В статье подчеркивается, что в духовном наследии Бердаха особое внимание уделяется вопросу о человеке. В ней подробно разъясняются взгляды поэта на сотворение человека, сравнительный анализ человека и человеческих категорий, долг человека, его задачи в обществе, самые основные обязанности человека.

Annotation. The article emphasizes Berdak's attention to the human question in his spiritual heritage. It explains in detail the poet's views on the creation of person, a comparative analysis of human and human categories, the duty of person, his role in society, the most basic duties of person.

Kalit so'zlar: Berdaq, olam, odam, inson, aql, qalb, e'tiqod, sabrlilik, nafs, mehnatsevarlik.

Ключевые слова: Бердах, Вселенная, человек, разум, сердце, убеждение, терпение, вождество, трудолюбие.

Key words: Berdak, Universe, person, mind, heart, faith, patience, lust, diligence.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ilmiy, ma'naviy, madaniy sohalardagi islohotlar natijasida jahonga mashhur allomalarimiz, mutafakkirlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. «Buyuk adib va mutafakkirlarimizning nodir merosi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarur».¹ Bu vazifalarni bajarishda qoraqalpoq xalqining mumtoz shoiri Berdaqning antropologik, gnoseologik, aksiologik qarashlaridagi komil insonni tarbiyalashda pozitiv ta'sir ko'rsatuvchi falsafiy g'oyalarni yoshlar ongiga singirish muhim ilmiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Berdaq ma'naviy merosida inson masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Berdaqning olam va odam, olamning yaratilishi, olamda insonning o'rni haqidagi qarashlarida Platon va Aristotel kabi buyuk faylasufning muayyan ta'sirini sezishimiz mumkin. Tabiatning to'rtta unsuri – quyosh, yer, suv va havo inson hayotining davomiyligini ta'minlagan. Berdaq olamning cheksizligi to'g'risida mulohaza yuritir ekan, undagi hamma narsalar, shu jumladan, inson ham to'rt unsurdan tashkil topganligini qayd qiladi:

*To'rt narsa – dunyo manbayi,
Avval, haq, inson, bil buni.*²

Bu haqida Berdaq shoirning falsafiy dunyoqarashini tadqiq qilgan U.Qudaybergenova: Berdaq merosi faqat adabiy qiymatga ega emas, u hayotning eng asosiy masalalarini ko'taradi va falsafiy nuqtayi nazardan tushuntiradi. «To'rt narsa – hayotning ma'nosi. Eng dastlab, odil odam, shuni bil!», deb yozadi Berdaq. Hayotning ma'nosi – tuproq, suv, havo, olov. Ulardan odam paydo bo'ladi», deb ta'kidlaydi u.

Aristotel odamning inson darajasiga ko'tarilishida jamiyat hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd etadi. Odamlar faqat jamiyatda inson bo'lib shakllanadilar, axloqiy mavjudot bo'lib tarkib topadilar. Lekin bunday tarbiya faqat adolatli davlat sharoitida amalga oshishi mumkin. Haqiqiy adolat prinsiplarining normalari asosida yaratilgan qonunlar ustuvorligiga erishish, ularga amal qilinishini ta'minlash, fuqarolarda chinakam insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi.³

Berdaq asarida «odam» va «inson» kategoriyalarining qiyosiy tahlili, bu ikki tushunchaning o'zaro aloqadorligi va o'ziga xosligi aks ettirilgan.

Shoiring qarashlarida insonning o'zligin bilishi barcha masalalardan ustun turadi. Buning sababini Berdaq inson o'zini bilsa, Haqni biladi, xudodan qo'rqadi, insofga keladi, degan g'oya bilan tushuntiradi. Shoir «Ba'rsheni yaratqan qa'dir qudayim, bersen' bul bendege, haqliq jolin ber» (Barchani yaratgan qo'dir xudoyim, bersang bu bandaga, haqlik yo'lini ber), deb ko'rsatadi. Har bir odam johillikdan qochishi, qutulishi lozim, mol-dunyo tashvishi bilan yashamasdan, haq va haqiqatni anglab olishga harakat qilishi kerak, degan qarashda turgan.⁴

Berdaqning adolat va tenglik to'g'risidagi g'oyalari e'tiborga molikdir. Ma'lumki, adolatning axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ilohiy jihatlar mavjud. Berdaq o'zining asarlarida, asosan, adolatning siyosiy jihatini talqin qiladi. Ya'ni, allomani davlat boshlig'ining odil bo'lishi, uning fuqarolarga teng mu-

¹ Мирзиёев Ш.М. «Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида»ги қарор. “Халқ сўзи”, 2018 йил 15 май.

² Бердақ. Таъламули шайғармалари. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1987, 117-бет.

³ Аристотель. Сочинения. В четырех томах. Том 4, М., 1983, 462-бет.

⁴ Ернарзорова С. Қарақалпақ әдебиятында инсан философиясы. Т., «Тафаккур авлоди». 2020, 76-бет.

nosabatda bo'lishi, hammaga birdek ko'z bilan qarashi, birini ikkinchisidan yo'qori qo'yimasligi, jamiyatda adolat o'rnatishi bilan bog'liq masalalar qiziqtiradi.

Berdaq xalq g'amini o'ylaydigan, xalqning farovonligini, erkinligini ta'minlaydigan, adolatli, ma'rifatli podsho, insofli amaldorlar kerak ekanligini, hukmdorlarga zarur bo'lgan fazilatlar to'g'risida so'z qilib:

*«Xalqqa nazar solmasa,
Bo'stonlik joylik qilmasa,
Odillik bilan turmasa,
Uni boshchi deb kim aytar»*, – deydi.¹

Adolat, mutafakkirlar talqinida, hokimi mutlaq bo'lsa, insonning boshqa fazilatlari adolatning xizmatkorlaridir. Borliq to'g'risidagi haqiqat bilib borilgani sari adolat ham kamolga yetib boradi. Uning talqinida adolat kishilararo munosabatni aks ettirib, qotib qolgan mavhum tushuncha emas, balki odamlarning ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Buyuk siymolar, yuqoridagilardan tashqari, adolatni donolik, ilm-fan, bilim bilan bog'liq holda tahlil qiladilar. Ilm-ma'rifatning ishtirokisiz jamiyatda adolat o'rnatib bo'lmaydi. Ayniqsa, davlat ahamiyatiga molik masalalarni hal qilishda, mamlakatni boshqarishda adolat bilan ilm-fan va ma'rifat hamkorlik qilishi zarur.

Berdaq shoir ham har bir odam bolasi ilm egallashi zarurligini va buning insoniyat uchun foydasi ko'p ekanligini ta'kidlaydi. Buni shoirning «Men mag'rifat izler edim» (Men ma'rifat izlar edim) yoki «Men alimlik izler edim» (Men olimlik izlar edim) degan satrlarida ko'ramiz. Atrofidagi narsalarni tanib-bilishga faqatgina inson zoti qodir ekanligini tushuntirgan holda, u «ilm har qanday vaziyatda ham odamga zarur, johillik esa baxtsizlik» degan g'oyani ilgari surib, «Jog'imnan tappadi derek, sa'rdarimni izler edim» (Yo'g'imdan topmadi darak, sardorimni izlar edim) deb keltiradi.

Berdaqda biz dunyo obyektlari va hodisalarning shakllanishi, ularning o'zgarishi va rivojlanishi, odamning bilish imkoniyatlari haqidagi ishonchlarni ko'ramiz.

